O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Xolnazarova Matluba Xolbutayevna

# RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA

O'quv qo'llanma

5110900 - Pedagogika va psixologiya

Guliston - 2020

**Xolnazarova Matluba Xolbutayevna. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya.**

Ushbu qo’llanma uch moduldan iborat bo`lib, birinchi modulda rivojlanish psixologiyasining asosiy muammolari, vazifa va metodlari, yosh davrlarining xususiyatlari yoritilgan.

Qo`llanmaning ikkinchi modulida rivojlanish psixologiyasining yosh bosqichlari muammolari, chaqaloqlik, go`daklik, ilk bolalik, kichik maktab yoshi, o`smirlik, o`spirinlik, yoshlik, yetuklik, keksayish, keksalik va uzoq umr ko`rishning xususiyat va qonuniyatlari ifodalangan.

Qo`llanmaning uchinchi modulida pedagogik psixologiyaning dolzarb muammolari, vazifa va maqsadlari, tarbiya-ta’lim psixologik asoslari, o`qituvchi psixologiyasi bo`yicha nazariy va amaliy bilimlar boy tajriba materiallari asosida yaratilgan.

Qo`llanma universitet va pedagogika institutlarining talabalariga mo`ljallangan.

Ushbu o`quv qo’llanma 5110900-Pedagogika va psixologiya ta’lim yo’nalishlari talabalari uchun tavsiya etiladi.

Taqrizchilar: Psixologiya fanlari doktori, professor B.M.Umarov
Pedagogika fanlari nomzodi dotsent H.Abdukarimov

# KIRISH

Bugun yurtimizda mustaqil huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyat qurish yo'lidagi ulkan ishlar o'zlikni anglash imqoniyatlarini ro'yobga chiqarishga va ma'naviy intelektual aqliy amaliy rivojlanish uchun yangi shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Bu esa o'z navbatida insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklarga insonning o'ziga yangicha munosabat va yondoshuvni talab qiladi. Yangicha yondoshuvlar Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining ob'yekti va predmeti ko'lamini kengayishiga olib keladi. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlari faqat rivojlanish davrlar klasifikatsiyasi, rivojlanish davrlarni psixik rivojlanish taraqqiyotini o'rganib ilmiy-nazariy, uslubiy –amaliy ta'minlovchi fan emas balki komil inson shakllanishini rivojlanishini taminlovchi keng sohalarni o'z ichiga oladi.

“Biz, faqat o'zimiz uchungina yashay olmaymiz- deb yozadi, mashhur ro'mannavis yozuvchi German Melvill,- bizning hayotimiz boshqalarning hayoti bilan bir-biriga minglab rishtalar bilan chambarchas bog'langandir”.

Rivojlanish va pedagigik psixologiya aynan inson psixik rivojlanishdagi omillar, ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi o'qituvchi psixologiyasini o'rganish bilan shug'ullanivchi fan hisoblanib, nima uchun jamiyatda kishilar bir birlariga ta'sir o'tkazishlari, bir- birlari o'ylashlariga oid, tarbiyalanganlik, tarbiya mezonlari o'qituvchi psixologiyasiga oid ma'lumotlarning ilmiy asoslarini o'rganadi.

Ushbu  qo`llanma zamonaviy psixologiyada hozirgi kun uchun dolzarb bo`lgan mavzular imkon doirasida qamrab olingan. Bu mavzularni yoritishda xorij hamda rus psixologiyasi namoyandalarining o`tkazgan tadqiqotlaridan va qarashlaridan foydalandik.

# I-MODUL: RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASINING ASOSIY MUAMMOLARI

## 1-Mavzu: Rivojlanish psixologiyasiga kirish

Mashg`ulot shakli: Obzorli-maruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma’lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma’ruza mashg`uloti rejasi:**

1. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya faniga kirish.
2. Rivojlanish psixologiyasining asosiy vazifasi.
3. Rivojlanish psixologiyasining boshqa fanlar bilan bog’liqligi.
4. Rivojlanish psixologiyasining metodlari.

**Tayanch so`z va iboralar;**

Rivojlanish psixologiyasi fanining predmeti, vazifalari, bulimlari. Rivojlanish psixologiyasi faning metodlari. Boshqa fanlar bilan aloqasi. Uning bo’lajak o’qituvchilar tayyorlashdagi axamiyati, prinsip, logityud, ontogenez.

**O’quv mashg’ulotining maqsadi:**

O’quv kursi bo’yicha umumiy tushuncha berish. Talabalarning rivojlanish psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari, fanlar tizimidagi o’rni haqidagi bilimlarini kengaytirish va mustahkamlash. Rivojlanish psixologiyaning fan sifatida vujudga kelishi, rivojlanishi, uning metodlari, ontogenezda har bir rivojlanish davrning xususiyatlari, qonuniyatlari, psixik taraqqiyot mexanizmlari haqida ma’lumot berish.

Rivojlanish psixologiyasi fanining mavzu baxsi turli yoshdagi odamlarning (bolalar, o`quvchilar, kattalar, erkaklar, ayollarning (ontogenezda) tug`ilgandan umrining oxirigacha) psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi xamda o`zaro munosabati qonuniyatlarini o’rganishdan iboratdir. Rivojlanish psixologiyasi insonda turli psixik jarayonlar rivojlanishining o`ziga xos

xususiyatlarini, uning xar xil faoliyatini er va ayolning jinsiy tafovutlarini, shuningdek inson shaxsining tarkib topishini ilmiy jixatdan tadqiq qiladi.

Inson ruxiyatining rivojlanish davrlarini aniqlash uchun, shu soxadagi ma'lumotlarni to'plash xam mazkur psixologiyaning mavzu baxsiga kiradi. Bolaning tug`ilishidan voyaga yetgunicha xar tomonlama rivojlanishi, jamiyatning teng xuquqli a'zosi bo'lgunicha ulg'ayishi va shaxsning tarkib topishi muammolarini bularning psixologik mexanizmlarini aniqlash va sharxlash rivojlanish psixologiyasi soxasining muxim jixatidir. Rivojlanish psixologiyasi sohasi inson psixikasi faqat miqdor jixatidan emas, balki sifat jixatdan xam rivojlanishi, takomillashib borishi va o`zgarishi xaqidagi metodologik qoidaga amal qiladi.

Rivojlanish psixologiyasi turli yoshdagi insonlarning psixik rivojlanishi, psixik xususiyatlari va ularning o`ziga xos omillari me'zonlari xamda mexanizmlari xaqidagi fandir. Shuningdek u muayyan yoshdagi insonlarning o`ziga xos xususiyatlarini xam o'rganadi. Shuning uchun ijtimoiy xayotda ta'lim-tarbiyada, guruhlar xamda jamoalarda, ishlab chiqarish va oilaviy munosabatlarda rivojlanish psixologiyasi aloxida o'rin tutadi. Inson shaxsining tarkib topishi va bilish jarayonlarining rivojlanish muammosini inson psixikasining rivojlanishi qonunlarini xisobga olmay oqilona xal qilib bo'lmaydi. Shuning uchun xozir «inson omili» masalasi dolzarb mavzuga aylandi. Rivojlanish psixologiyasi, inson psixikasining rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlari xamda shu rivojlanishning bosqichlari to`g`risidagi fandir.

Rivojlanish psixologiyasining asosiy vazifasi shaxsning kamol topishi qonuniyatlari va turli yosh davridagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, xolat va shart sharoitlarning o`zaro ta'siri xususiyatlarini aniqlashdan iboratdir.

Rivojlanish psixologiyasi ana shu vazifalarni xal qilish bilan amaliy maqsadlarni ro'yobga chiqaradi. Ta'lim tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, millatlararo munosabatlarni yaxshilashga, shaxslararo muloqotni

to`g`ri yo`naltirishga, jamoada ijobiy psixologik iqlim yaratishga, uzoq umr qurish sirlarini ochishga, oilaviy munosabatlarni mustaxkamlashga ajralishlarning oldini olishga xizmat qiladi. Mazkur psixologiya fanining soxasi 19-asrning boshlarida vujudga kelgan lekin dastlabki ildizi qadimgi Yunon madaniyatiga borib taqaladi. Uning predmeti va qonuniyatlari to`g`risida jaxon psixologiyasi olamida turli qarashlar va nazariyalar mavjud. Ularning juda keng tarqalganlari biogenetik (V.Shtern), sotsiogenetik (K.Levin) bixevoritsik (E.Torndayk) psixoanalitik (Z.Freyd) nazariyalaridir. Shuningdek metodlarga asoslanib tadqiqotlar olib borgan olimlar xam juda ko'p. Ilmiy psixologik adabiyotlar emperik ma'lumotlar rivojlanish davri psixologiyasining mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga qator omillar va xolatlar sabab bo`lgan degan xulosaga keldik. Quyida ana shularni bayon qilamiz:

1.Barcha fanlar negiziga kirib borgan evolyutsiya g'oyasining (Ch.Darvin) inson psixikasining rivojlanish jarayonida o'rganish zarurligi.

2.Umuminsoniy, umumpsixik qonuniyatlar turli yoshdagi odamlar xatti xarakatini psixik xususiyatlarini va bolalarning o`sishiga biror bir faoliyatning ta'sirini aniqlash uchun yetarli emasligini e'tirof etish.

3.Rivojlanish psixologiyasi insonning (tug`ilganidan umrining oxirigacha) kamoloti uchun metodologik va nazariy axamiyatga ega ekanligi tan olingani.

4.Turli yoshdagi odamlar (maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab o`quvchilari, o'rta va oliy o'quv yurtlarining talabalari, ishchilar, xodimlar qariyalar xar xil psixologik xususiyatlarga ega ekanligi sababli tarbiya, ishlab chiqarish, ijtimoiy ta'minot muassasalari, yetimxonalar, bolalar uyi, kaloniyalar maxsus maktablar, internatlar, psixonevrologik dispanserlar, qariyalar uylari, shifoxonalar va boshqalar) ning xodimlarida ehtiyojlar ortib borayotgani .

5.Tibbiyot fani va uning tarmoqlari rivojlanishi psixiatriya, psixo-nevralogiya, psixogigiyena, neyroxirurgiya, sangigiyena bolalar va kattalar patalogiyasi, genetika, oliy nerv faoliyati va xakazolar bo'yicha komleks tadqiqotlarning vujudga kelishi, psixologiya biologiya, meditsina, sotsiologiya fanlarining xamkorligida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi.

6.Yuridik psixologiya va uning soxalari ijtimoiy xayotimizda sezilarli o'rin egallayotgani xamda yoshlar o'rtasida qonunbuzarlikning ortib borayotgani (sud ishi psixologiyasi, kriminal psixologiya, penitentsiar yoki axloq tuzatish mexnati psixologiyasi, voyaga yetmagan qonunbuzarlar muammosi va jinoyatning oldini olish masalasi).

7.Amaliy psixologiyaning ijtimoiy siyosiy tus olayotgani va turmushning xar bir jabxasiga kirib borishi, shuningdek o'z o'rnini topayotgani (psixologik konsultatsiyalar maslaxatlar auto va sotsial treninglar, ishbilarmonlik o'yinlari profesiogramma psixodiagnotsika va xakazolarga ta'lab ortishi).

8. Psixologiya fani soxalarining inson ontogenezidagi o'zgarishlariga doir, bilimlarga extiyoji va talabi ortayotgani (xarbiy, sport, savdo, mexnat, kosmik, injenerlik, ijod, aviatsiya psixologiyasiga aniq materiallar zarurligi.

9. Ekologiya muammolari, zoopsixologiya va etalogiya vazifalari, millatlararo munosabatlarini barqarorlashtirish, insonparvarlik goyalarini turmush tarziga olib kirish masalalarining dolzarbligi (ekologiya va inson, qiyosiy psixologiya, shaxs psixologiyasi etnik psixologiya va hakazo).

10.Moddiy ishlab chiqarishni ko'paytirish, sanoatda va qishloq xo'jaligida kishilarning xaqiqiy xo'jayinlik tuyg'usini uygotish, aqliy va jismoniy imkoniyatlarni qidirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, inson-texnika, er-inson, inson-iqlim, munosabatlarini izchil o'rganish zarurligi.

11. Oilaviy munosabatlarni yaxshilash, ajralishlarning oldini olish

Inoq oila yaratish yoshlarni turmushga tayyorlash, o'z xoliga qasd qilish xollarini bartaraf etish, oilada teng xuquqlilikni qaror toptirish va bolalar tarbiyasini yaxshilish vazifalari.

12.Inson uzoq umr ko'rishning sirlarini – gerontopsixologik qonuniyatlarni o'zi va targ'ib qilish davlat muassasalarida psixologik bilimlarlardan o'z o'rnida foydalanish, uzoq umr ko'rishga zamin tayyorlash, qariyalar pansionatlarida ularning ruxiyatiga mos munosabatda odilona muloqatda bo'lish kerakligi yosh davri psixologiyasi rivojlantirishni taqoza etmoqda.

Turli yosh xar xil jinsdagi insonlar psixikasining rivojlanishi, o'zgarishi, vatanimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning axloqiy va jismoniy kamol topishiga ijobiy ta'sir qiladigan omillar xamda shart-sharoitlarni bilish va ulardan unumli foydalanish xozir nixoyatda zarur bo`lib qoldi.

Rivojlanish psixologiyasi fanini o'rganish xam nazariy, xam amaliy axamiyatga ega.

U xam bashqa fanlar qatorida rivojlandi, bunda eksperimental biologiya va genetika, meditsina sotsiologiya kabi fanlarning xizmati katta bo'ldi. Rivojlanish davri va diferinsial psixologiya fani dialektikani prinsiplariga, oliy nerv faoliyati qonunlariga diferinsial psixofiziologiya qonuniyatlariga, psixologlar to'plangan materiallarga tayanib, inson psixikasining kechishi, rivojlanishi, o'zgarishi yuzasidan baxs yuritadi, ijtimoiy turmushning barcha jabxalaridagi amaliy masalalarni xal qilishda faol ishtirok etadi.

Mazkur fan soxasi o`zining predmeti xamda vazifasini umumiy psixologiyaning asosiy prinsiplari va qoidalariga tayangan xolda belgilaydi. Rivojlanish psixologiyasi quyidagi prinsiplarga rioya qiladi.

1. Dealektik materializm ta'limotiga binoan psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati yoki miyaning maxsulidir. Odatda psixika tashqi dunyoning sezgi organlari orqali insonning miyasiga bevosita ta'sir etishi asosida vujudga kelib, sezgi, idrok, tassavur, xotira tafakkur, nutq xayol kabi bilish jarayonlarida, shuningdek shaxsning xususiyatlari va xolatlarida diqqati xis-tuygusi va xarakter xislatlarida, qiziqishi va extiyojlarida o'z ifodasini topadi.

2. Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashqi dunyodan kirib keladigan qo'zgatuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog'lanishlarida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog'lanishlari psixik xodisalarning fiziologik asoslari xisoblanadi va ular tashqi ta'sirning natijasida xosil bo`ladi. Bosh miya po'stlog'ida vujudga keladigan muvaqqat nerv bog'lanishlari I.P.Pavlovning nerv jarayonlarining irradiatsiyasi, kontsentratsiyasi xamda o`zaro induktsiyasi qonunlari zamirida ro'y beradi. Bu

qonunlar turli yo'sinda muvaqqat bog'lanishlar, assotsiasiyalar qanday yuz berayotganini, qanday shart sharoitda tormozlanishini (qo'zgalishni), muvaqqat bog'lanishlarning yo'l olayotgani yoki paydo bo'layotganini tushuntirish imkonini beradi.

Psixofiziologik qonuniyatlarga binoan miyaning funksiyasi muvaqqat nerv bog'lanishlarining birlanish mexanizmi xamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta'sirida xosil bo`ladi. Yuqoridagi ta'limotga ko'ra xar ikkala mexanizm xayvonlarning tashqi olamga munosabatini aks ettiradi. Shuning uchun psixik faoliyat voqelikni aks ettirishdan, oliy nerv faoliyatining tashqi olamini timsollar sifatida ifodalanishdan iboratdir.

3.Psixikani tadqiq etish insonning butun ongi faoliyatini - uning xam nazariy xam amaliy xayot faoliyatini o'rganishdir. Odam zotining ongliligi uning turli tuman faoliyatida xatti-xarakatlarida namoyon bo`ladi. Inson shaxsi xar xil shakl va mazmunga ega bo`lgan nazariy xamda amaliy faoliyatlarda tarkib topa boradi. Bunda muxit, irsiy belgilar, tarbiya asosiy omillar xisoblanadi.

Inson o`zi yashab turgan davrni, moddiy turmushni aks ettiradi, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'siri ostida bilimlarini o'zlashtirib boradi, ijtimoiylashadi, tarixan o'zgaradi. Ontogenezda uning xis tuygulari, xarakteri, qobiliyati, iqtidori, tafakkuri, extiyojlari, e'tiqodlari, uni faollikka da'vat qiluvchi xarakat motivlari, istaklari tilaklari, xoxishlari, pozitsiyasi xam asta-sekin o'zgarib boradi.

4.Insoning bilish faoliyati rivojlanishi unga o`zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq, to`g`riroq, to`laroq va aniqrok aks ettirish imkoniyatini yaratadi va u borliqning asl moxiyatini, turli yo'sindagi o`zaro bog'lanishlari, murakkab munosabatlar va aloqalarni tabora aniqroq yoritadi. Shu bilan birga mazkur jarayonlarda shakllanib kelayotgan insonning borliqqa, voqelikka, jismlarga, kishilarga va o`ziga munosabati vujudga keladi.

5. Inson ongining rivojlanishi uning tashqi olamni faol aks ettirishda namoyon bo`ladi. Tarixiy materializm ta'limoticha, insoning moddiy turmushi, u xayot kechirayotgan tuzumning moddiy asosigina emas, balki uni qurshab olgan odamlarning turmush tarzlari, umuminsoniy qiyofalari, e'tiqodlari,

dunyoqarashlari, ijtimoiy voqelikga munosabatlari, intilishlari, faoliyatlari, ijod maxsullari va xatti-xarakatlarining majmuasidir.

6. Insoninng borliqni aks ettirishi faol jarayondir. Ma'lumki, inson zotining rivojlanishi ob'yektiv borliqqa va o`ziga faol ta'sir ko'rsatishida sodir bo`ladi. Bolaning katta yoshdagi kishilar tashkil qiladigan amaliy faoliyati, masalan uyini kuzatishi, mexnati, o'qishi, adabiy asarni mutolaa qilishi xamda qiziqishining barqarorlashuvi, iqtidorning takomillashishi va boshqalar uning psixik rivojlanishini ifodalaydi.

Kuzatish metodi. Rivojlanish psixologiyasida bu metodning ob'yektiv (tashqi) va sub'yektiv (o`zini-o`zi) kuzatish turlari bor. Inson psixikasida o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi: 1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi; 2) kuzatiladigan ob'yekt tanlanadi; 3) sinaluvchining yoshi jinsi aniqlanadi; 4) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi; 5) kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi; 6) kuzatish insoning qaysi faoliyatida amalga oshirilishi tavsiya qilinadi; 7) kuzatishning shakli (yakka guruh, jamoa bilan o'tkazilishi) ta'yinlanadi; 8) kuzatilganlarni qayd qilib borish vositalari (kundalik, suxbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon, videomagnitafon va boshqalar) taxt qilinadi.

Kuzatish orqali turli yoshdagi odamlarning diqqati, xis-tuygulari, nerv sistemasining tashqi ifodalari, temperament xususiyatlari, imo-ishoralari, sezgirligi, xulq-atvori, nutq faoliyati va xakazolari o'rganiladi.

Suhbat metodi. Bu metod bilan inson psixikasini o'rganishda suhbatning maqsadi va vazifasi belgilanadi, uning ob'yekti va sub'yekti tanlanadi, mavzusi o'tkaziladigan vaqti aniqlanadi, yakka shaxslar, guruh va jamoa bilan o'tkazish rejalashtiriladi, o'rganilayotgan narsa bilan uzviy bog'lik savol-javob tartibi tayyorlanadi. Suxbatning bosh maqsadi muayyan bir vaziyat yoki muammoni xal qilish jarayonida inson psixikasidagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Suxbat orqali turli yoshdagi odamlarning tafakkuri, aql-zakovati, xulk-atvori, qiziqishi, ziyrakligi, bilim saviyasi, e'tiqodi, dunyoqarashi, irodasi to`g`risida ma'lumotlar olinadi.

Faoliyat maxsulini taxlil qilish metodi. Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolning xususiyatlarini aniqlash maqsadida metod rivojlanish psixologiyasida keng qo`llanadi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarni taxlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli **yuzasidan** materiallar to'plash mumkin. Mazkur metoddan foydalanishda maxsulotni yaratgan shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Ob'yekt bilan sub'yekt o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to`g`risida sirtdan muayyan xukm xulosa chiqariladi.

Test metodi. Test- inglizcha so`z bo`lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o`sishini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo`llaniladigan qisqa standart masala, topshiriq, misol jumboqlar test deb ataladi: test ayniqsa odamning qanday kasbni egallash mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligini, iste'dodlilar va aqli zaiflarni aniqlashda, kishilarni saralashda keng qo`llaniladi. Test metodining qimmati tajribaning ilmiylik darajasiga, yig'ilgan psixologik ma'lumotlarning ob'yektivligi va ularni ilmiy taxlil qila bilishga bog'likdir.

1905 yildan, ya'ni fransuz psixologi A.Bine va uning shogirdi A.Simon insoning aqliy o`sish va is'tedod darajalarini o'lchash imkoniyatini borligini g'oyasini olg'a surganidan keyin psixologiyada metodi qo`llana boshlandi.

Xozirgi davrda nodir testlar qatoriga psixologlardan Rorshax, Rozentsveyg, Kettil, Varetgg, Veksler, Meyli, Ayze, Anatsazi, Raven va boshqalar ijodining namunalarini kiritish mumkin.

Tajriba metodi. Bu metod turli yoshdagi odamlarning psixikasini chuqurroq, aniqroq tadqiq qilish metodalari ichida eng muhimi xisoblanadi. Ekspremen t metodi yordamida sun'iy tushunchalarning shakllanishi, nutqning o`sishi, favqulotda xolatlardan chiqish, muammoli vaziyatni xal qilish jarayonlari, shaxsning xis-tuygulari, xarakteri va tipologik xususiyatlari o'rganiladi.

Tajriba metodi o'z navbatida tabiiy va labaratoriya metodlariga ajaratiladi. Tabiiy metod psixologik-pedagogik masalalarni xal qilishda qo`llaniladi. Bu metodning ilmiy asoslarini 1910 yilda. A.F.Lazurskiy ta'riflagan. Tabiiy

metoddan foydalanishda ishlab chiqarish jamoalari a’zolarining, ilmiy muassalar xodimlarining, o’qituvchilar, keksaygan kishilarning psixologik o’zgarishlari, o`zaro munosabatlari, ish qobiliyatlari, mutaxasislikka yaroqliligi muammolarini xal qilish nazarda tutiladi.

Laboratoriya metodi ko’pincha individual shaklida sinaluvchilardan yashirmay, maxsus psixologik asboblar, yo’l-yo’riqlar, tavsiyalar, ko’rsatma va ilovalardan foydalanib olib boriladi. Xozir inson psixikasidagi o’zgarishlarni aniqlaydigan asboblar, murakkab elektron xisoblash mashinalari, qurilmalar, moslama va jixozlar mavjud. Ular odamdagi psixologik jarayonlar, xolatlar, funksiyalar, vujudga kelayotgan yangi sifatlarni qayd qilish va o’lchashda qo`llaniladi.

Biografiya metodi. Inson psixikasini tadqiq qilish uchun uning xayoti, faoliyati, ijodiyoti to`g`risidagi og’zaki va yozma ma’lumotlar muhim ahamiyatga ega. Bu borada kishilarning tarjimai xoli, kundaligi, xatlari, esdaliklari, o’zgalar ijodiga bergan baxolari, tanbexlari, taqrizlari aloxida o’rin egallaydi. Shu bilan birga o’zgalar tamonidan to’plangan tarjiami xol xaqidagi materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, baxolar, magnitafon ovozlari, fotolavhalar, xujjatli filmlar, taqrizlar o’rganilayotgan shaxsni to`laroq tasavvur etishga xizmat qiladi.

Anketa metodi. Rivojlanish psixologiyasida keng qo`llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va xodisalarga munosabatlari o’rganiladi.

Anketa odatda uch xil yoziladi. Ularning birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo’ljallangan savollardan tuziladi. Ikkkinchi xilida xar bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi xil anketada sinaluvchiga yozilgan to`g`ri javoblarni ballar bilan baxolash tavsiya etiladi, anketadan turli yoshdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o`ziga, tengdoshlariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi.

Sotsiometrik metod. Bu metod kichik guruh a’zolari o’rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o’rganish va ularning darajasini o’lchashda

qo`llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Morenko asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi xar bir a’zoning o`zaro munosabatini aniqlash uchun uning qaysi faoliyatida kim bilan birga qatnashishi so’raladi. Olingan ma’lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi.

Rivojlanish psixologiyasi fani ham psixologiya ilmining boshqa sohalari singari o’zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Psixologik qonuniyatlarni muayyan reja asosida olib boriladigan tekshirishlar tufayligina xolisona aniqlik kiritish mumkin. Psixologik tadqiqotlar jarayonini quyidagi asosiy bosqichlarga bo’lish maqsadga muvofiqdir:

1. Muammoning qo’yilishi. Har qanday ilmiy-tekshirish ishlari kabi, psixologiyada olib boriladigan ilmiy tekshirish ishlari ham nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo’lgan muammoni aniqlashdan, shuningdek bu muammo fanda qanchalik yoritilganligini aniqlash maqsadida mazkur mavzuga oid ilmiy va maxsus adabiyotlarni taxlil qilishdan boshlanadi.

2. Tadqiqot metodikasini tanlash. Psixologik tadqiqotlar turli metodlar (bu metodlar haqida quyida batafsil fikr yuritiladi) bilan olib boriladi. Tekshirishlarning muvaffaqiyatli chiqishi ko’p jihatdan metodni to’g`ri tanlashga bog`liq bo’ladi.

3. Ma’lumotlarni to’plash. To’plangan ma’lumotlar o’rganilayotgan muammoga mos bo’lishi yoki ularni to’plash maqsadga muvofiq ravishda olib borilishi zarur. Ilmiy ma’lumotlarga bo’lgan asosiy talablar - bu ularning xolisona, to’la va izchil bo’lishidir. To’plangan ma’lumotlar o’rganilayotgan muammoni har jihatdan tavsiflab berishi kerak.

4. Ma’lumotlarni qayta ishlash. To’plangan ma’lumotlarni matematik va mantiqiy jihatdan ishlab chiqish umumiylikni, xususiylikni topish va ularni tasodifiy ma’lumotlardan ajratish imkonini beradi. Bunda to’plangan ma’lumotlarning o’rtacha miqdori (arifmetik, kvadrat va hokazo), prosentlari aniqlanadi, sonlarga oid ma’lumotlar jadvallarga joylashtiriladi, grafik, diagramma va chizmalarda o’z aksini topadi. Murakkab mutanosiblikdagi ma’lumotlarni topishda esa variatsion statistika metodlari qo’llaniladi.

5. Qonuniyatlarning ifodallanishi. Bu tadqiqotning birmuncha murakkab va mas’uliyatli bosqichi hisobanadi, chunki, bu bosqichda ma’lumotlarning mohiyatiga qanchalik chuqur tushunilganligi, ularning o’zaro bog`liqligini hisobga olib, bosqich ma’lumotidan har turli xulosa chiqarish mumkin. Ko’pincha chiqarilgan xulosalar taxminiy xarakterga ega bo’lib, keyingi tekshirishlar, aniqlashlar uchun asos bo’ladi.

6.Qonuniyati amalda qo’llash. Aniqlangan qonuniyatlar ma’lum bir amaliyot sohasida qo’llaniladi. Amalda qo’llash aniqlangan qonuniyatning to’g`riligiga batamom ishonch hosil qilish imkonini beradi. Ko’pincha o’qituvchilar o’z amaliy faoliyatlarida shaxsiy kuzatishlari va boshqalarning tajribalarini umumiylashtiradilar. Biroq, bunday umumlashtirishlar ilmiy jihatdan yetarli asoslangan bo’lmaydi, ya’ni, muhim aniqligi va teranligi bilan ajralib turmaydi.

**Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.**

1. Abu Nasr Forobiyning Baxt-saodatga erishuv asarini mutolaa qiling va allomaning quyidagi qarashlarini yozma bayon eting:

a. insoniy kamolotga erishuvda aqliy bilishning ahamiyati.

b. irodaviy fazilatlarni shakllantirish va odatga aylantirishda inson qudrati, ta’lim va tarbiyaning kuchi haqida.

2. yoshlarning kasb-hunar va ish-tajribani egallashi to’g`risida.

3. Rivojlanish psixologiyasi fanining vujudga kelish sabablarini ko’rsating.

4. Turli davrlarda psixik rivojlanish haqidagi talqinlarning mohiyatini yoritib bering.

5. Fanning predmeti, nazariy va amaliy vazifalari nimalardan iborat? Uning istiqboli haqida nima deya olasiz?

6. Rivojlanish psixologiyasi tadqiqotlarni tashkil etish va ilmiy metodlari haqida ma’lumot bering.

## 2-mavzu: RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASINI SHAKLLANISHI

Mashg`ulot shakli: Klaster tehnologiyasi asosida ishlashga mo'ljallangan ma'ruza mashg'uloti.

**Ma'ruza mashg`uloti rejasi**:

1. Rivojlanish psixologiyasini shakllanishining tavsifiy bosqichi.
2. Rivojlanish g'oyasini yuzaga kelishi.
3. Ta'lim amaliyoti bilan bog'liq yosh davrlarini differensiyasi.
4. Ekspremental amaliyot va fan sifatida rivojlanish psixologiyasini shakllanishi.

**Tayanch so`z va iboralar;**

Bolalar psixik taraqqiyoti. Faoliyat psixik rivojlanishning sharti ekanligi. Bola psixik taraqqiyotini xarakatga keltiruvchi kuchlar. Psixik taraqqiyotning shart-sharoitlari. Ta'lim va psixik taraqqiyotning o'zaro bogliqligi. Psixik taraqqiyot jarayonida tashqini ichkiga aylanishi. Yosh taraqqiyotining davrlarga bo'linishi.

**Darsning maqsadi:**

Jahon psixologiyasi asarlarida rivojlanish muammosi, sharq mamlakatlarida rivojlanish borasidagi fikrlar, rivojlanish davrlarini tabaqalanish nazariyalari, L.S.Vigotskiyning tarixiy-madaniy konsepsiyasi, A.N.Leontevning faoliyat nazariyasi, V.N. Myasishchevning munosabatlar psixologiyasida rivojlanish muammosi haqida ma'lumot berish.

Psixik rivojlanish va bu o'zgarishlarga sabab bo'ladigan kuchlar o'rtasidagi munosabat qonunlarini o'rganish rivojlanish psixologiyasi fanining muhim va dolzarb muammolaridan biridir.

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir.

Inson - biosotsial mavjudotdir. Uning birligi, bir tomondan, kishining psixik, tug'ma ravishda tashkil topgan xususiyatlari (masalan, ko'rish yoki eshitish

sezgilarining, shuningdek, oliy nerv tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari), ikkinchi tomondan esa faoliyatinig ongli sub'yekti va ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchisi sifatida uning xulq-atvor (masalan, axloqiy odatlar) xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Odam psixikasi va xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan bu xususiyatlarni nimalar sirasiga kiritish mumkin? Inson psixikasining tabiati biologik yoki inqilobiy xarakterga egami?

Inson shaxsinig tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan g`oyaviy xarakterga ega, Shu bois, bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli oqimlar, yo'nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim biogenetik kontsepsiya, nazariya bo'lsa, ikkinchi oqim sotsiogenetik konsepsiyadir.

Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishga intiluvchi biogenetik oqim XIX asrning ikinchi yarmida maydonga kelgan.

Bola psixik xususiyatlarining tug'ma tabiati haqidagi ma'lumot shu vaqtga qadar aksariyat psixologiya maktablarining asosini tashkil etib kelmoqda. Mazkur ta'limot inson psixikasining barcha umumiy va individual xususiyatlari tabiat tomonidan belgilangan, uning biologik tuzilishiga tenglashtirilgandir, psixik rivojlanish esa, irsiy yo'l bilan azaldan belgilanib, inson organizmiga joylashtirilgan shu xususiyatlarning maromiga yetilish jarayonidan iborat deb ta'kidlaydi. Ma'lumki, nasliy xususiyatlar tug`ma yo'l bilan nasldan naslga tayyor holda beriladi, biroq shunday bo'lishiga qaramay, bu oqim namoyandalari inson shaxsi va uning barcha xususiyatlari "ichki qonunlar" asosida, yani nasliy xususiyatlar negizida maydonga keladigan narsa, biologik omillarga bog`liqdir, deb ta'kidlaydilar.

Biogenetik ta'limot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarning chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilanib qo'yilganligini, o'quvchi imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan

taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy iste'dod darajalariga qarab turli mavqedagi maktablarda tahsil olishga zarur deb ta'kidlashadi.

Chunonchi, bu yo'nalish tarafdorlaridan, amerikalik psixolog E.Torndayk o'quvchilarning "tarbiyaviy kuchlari" va "tug'ma mayllar"i psixik rivojlanishning yetakchi omili qilib ko'rsatib, muhitning, ta'lim-tarbiyaning ta'siri - ikkinchi darajalidir deb aytadi.

Avstraliyalik psixolog K.Byo'ler bolalarning faqat aqliy taraqqiyotini emas, balki axloqiy rivojlanishi ham nasliy tomondan belgilangandir, deb ta'kidlaydi.

Amerikalik pedagog va psixolog Dj.Dyui-inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilgan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug`iladi. Bu ehtiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo'lib, bazida o'zgarishi, tarbiyaning esa miqdorini belgilab beruvchi mezondir, deb hisoblaydi.

Bunday ta'limotlardan, xususan din homiylari keng foydalanib, insonning taqdiri ana shu ilmlar bilan chambarchas bog`liqdir, deb ta'kidlashadi.

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan yana bir ta'limot- sotsiogenetik kontsepsiya qobiliyatlarning taraqqiyotini, faqat, tevarak-atrofdagi muhitning ta'siri bilan tushuntiradi. Bu yo'nalish o'z zamonasi uchun ilg`or hisoblangan XVIII asr franso'z olimi K.Gelvetsiy ta'limotidan boshlangan. K.Gelvetsiyning ta'limotiga ko'ra, barcha odamlar aqliy va axloqiy rivojlanishi uchun tutilishdanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar, shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlaridagi farq, faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu nazariya odamlarning psixik, ruhiy, oqibatda ijtimoiy tengsizligi ularning to'la xususiyatlari degan taglimotga qarshi qaratilgan edi. Bu nazariyaning xorijiy mamlakatlardagi hozirgi turli namoyandalari psixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g`oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar.

Inson shaxsining tarkib topishini o'rganish davomida yo'zaga kelgan sotsiogenetik qontseptsiya fanda eksperimentlarning rivojlanishi bilan bog`liqdir. Ma'lumki, XVII asrning ohiri va XUSH asrning boshlarida tabiiy fanlar jadal

sur’atlar bilan rivojlana boshladi, o’sha paytda hammaning diqqat e’tibori mo’jizakor tajribaga qaratilgan edi. Bu xodisa inson shaxsining tarkib topishi masalasiga ham ta’sir kilmay qolmadi.

Sotsiogenetik kontsepsiya namoyandalari insonning butun taraqqiyoti, shu jumladan, shaxsiy xususiyatlarning tarkib topishi, asosan, tajribaga bog`liqdir. Bu nazariyada shaxsda ro’y beradigan o’zgarishlarni jamiyatning tuzilishi; ijtimoiylashish usullari, atrofidagi odamlar bilan o’zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Bu ta’limotta ko’ra inson biologik tur sifatida tug`ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta’siri ostida shaxsga aylanadi.

Chunonchi, angaliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini top-toza paxtaga uxshatadi. Uning fikricha, bolaning “top-toza paxta” tarzidagi ruhiga nimalarni yozish mutlaqo katta odamlar ixtiyorlaridadir. Shuning uchun bolaning qanday odam bo’lib etishishi, ya’ni unda qanday shaxsiy fazilatlarning tarkib topishi bola hayotdan oladigan tajribaga, o’zgalar bilan muloqot jarayonida oladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlariga bog`liqdir, deb ta’kidlaydi.

Har ikkala yo’nalishning namoyondalari, o’z manfaatlarining tashqi jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo’lishiga qaramay, insonning psixik xususiyatlarini nasliy, biologik omillar ta’siri ostida, yoki o’zgarmas muhit ta’sirida avvaldan belgilangan va o’zgarmas narsa, deb e’tirof etadilar.

Ma’lumki, odam shaxs sifatida muntazam, qandaydir faoliyatda tarkib topib boradi, rivojlanadi, uning faolligi namoyon bo’ladi. Agarda hayvonlar tevarak-atrofdagi tashqi muhitga passiv moslashib, hayot faoliyatlarida tabiatdagi, ya’ni tashqi muhitdagi tayyor narsalardan foydalansalar, odam esa tevarak-atrofidagi tashqi muhitga faol ta’sir ko’rsatib, uni o’z irodasiga bo’ysundiradi hamda o’zgartirib, o’z ehtiyojlarini qondirishga xizmat qildiradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ham rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanining muhim muammolariga doir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar psixolog olimlar tomonidan olib borilmoqda.

Respublikamizdagi yetakchi oliygohlarning kafedra va labaratoriyalarida rivojlanish psixologiyasi va ta’lim-tarbiyaning psixologik xususiyatlari bilan bog’liq jarayonlarni tadqiq etish yuqori malakali mutaxassislar tomonidan maxsus texnikalar bilan jihozlangan sharoitlarda ilmiy tadqiqot ishlari samarali yo’lga qo’yilgan.

Mazkur muammolarning yechimi hozirgi zamon fanining metodologik tamoyillari asosida, yaqib va uzoq xorijiy mamlakatlarda bu borada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning yutuqlari va g’oyalari haqidagi ma’lumotlarga ega bo’lgan holda o’zining munosib o’rnini egallab bormoqda. Bu borada P.Ivanov, M.Vohidov, M.Davletshin, E.G’oziyev, R.Gaynutdinov, B.Qodirov, R.Sunnatova, A.Jabborov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e’tirof etish mumkin. Jumladan, o’quvchilarning texnik qobiliyatlari, o’quv motivlari, zamonaviy maktab o’quvchisining psixologik qiyofasi M.G.Davletshin va uning izdoshlari A.Jabborov, F.I.Haydarov, M.M.Mavlonovlar tomonidan, tafakkur va ta’limni boshqarish muammosi E.G.G’oziyevning tashabbusida, iste’dodli o’quvchilar va kasb tanlash muammosi B.R.Qodirov rahbarligida, bolalarning aqliy faoliyat muammosi R.I.Sunnatovalar tomonidan samarali olib borilgan.

Shu tariqa rivojlanish psixologiyasi fani qator rivojlanish bosqichlaridan o’tib, bugungi darajasiga erishdi. Uning rivojlanishiga O’rta Osiyo allomalari, rus va chet el psixologlari munosib hissalarini qo;shdilar. Yuqorida aytilgan nazariyalar, amaliy va ilmiy ma’lumotlar, tadqiqotchilar yaratgan metodikalar o’z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Kuzatishlar jarayonida shu narsa ma’lum bo’ldiki, odamdagi tug’ma, irsiy mexanizmlari uning psixik rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadi-yu, biroq uning mazmunini ham, shaxsiy fazilatlarini ham belgilab bera olmaydi, Ta’kidlash zarurki, muhit ham bola psixikasivi rivojlantirishda muayyan rol o’ynaydi. Faqat, buning uchun bolani o’qitayotgan kishilarning ta’siri natijasida bola ana shu muhitni faol ravishda o’rganib olishi, tabiiydir.

Psixologiya fani zamonaviy ta’limotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta’siriga bog`liqlini dalillar asosida izoxlab beradi. Ulardan;

- birinchisi - inson tug`ilib voyaga etadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta’siri;
- ikkinchisi - odamga o’zoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta’lim tarbiyaning ta’siri;
- uchinchisi - odamga tug`ma ravishda, tayyor holda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta’siridir.

Ma’lumki, har bir odam o’ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muxitda, aniq ijtimoiy munosabatlarda, ya’ni oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab ulg`ayadi, shakllanadi.

Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a’zosi sifatida, ma’lum sinfning, u yoki bu ijtimoiy guruhning namoyandasi sifatida va nihoyat, tashqil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo’lgan muayyan jamoalarning faol a’zosi sifatida qatnashadi.

Shaxsning mohiyati o’z tabiati jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlari, ijodiy faolligining rivojlaiish manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog`liqlikda bo’lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma’noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yo’zaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, xarakteri, irodaviy sifatlari, qiziqishlari, e’tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi.

Muhit, ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim va tarbiya, azaldan berilgan, genotik jihatdan qatiy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo’lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi.

Bu borada, birinchidan, odam muhit ta’siri ostidagi passiv ob’ekt bo’lmay, balki faol mavjudotdir, Shu bois hayot sharoiti, tashqi ta’sir inson psixikasini belgilamaydi, balki odamning muhit bilan bo’lgan o’zaro ta’siri orqali, uning

muhitdagi faoliyati orqali belgilanadi. Shu sababli muhitning ta’siri haqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muhit bilan faol o’zaro ta’siri haqida gapirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, psixikaning rivojlanishi pirovard natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta’sirotlarga bog`liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo’lmaydi. Bu sharoitlar hamda vaziyatlar hamisha odamning hayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qnyofasi orqali ta’sir qiladi.

Uchinchidan, odam faol mavjudot sifatida o’zi ham ongli ravishda o’z shaxsini o’zgartirishi, ya’ni o’zi-o’zini tarbiyalash bilan shug`ullanishi mumkin, lekin, bu jarayon atrof-muhitdan ajralgan holda emas, balki muhit bilan moslashgan holda va muhit bilan o’zaro munosabatda sodir bo’ladi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, odamning (bolaning, o’quvchining) ijtimoiy tashqil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi hamda shartidir.

O’z-o’zidan ma’lumki, odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imqoniyatlar nihoyatda zarurdir. Inson psixik xususiyatlari me’yorida tarkib topishi o’chun muayyan darajadagi biologik to’zilish, inson miyasi va nerv sistemasi bo’lishi shart. Bu tabiiy xususiyatlar psixik rivojlanigani harakatta keltiruvchi kuchlar, omillar emas, balki faqat dastlabki sharoitlardir, xolos.

Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotni harakatta keltiruvchi kuch emasligiga qaramay, insoniyat psixik taraqqiyotiga ta’sir ko’rsatadi.

Birinchidan, tabiiy xususiyatlar psixik xususiyatlar taraqqiyotining turli yo’llarini va usullarini belgilab beradi. Inson nerv sistemasining xususiyatlari o’z-o’ziga shaxsning hech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi, Hech bir me’yordagi bola dadil yoki qurqoq, irodali yoki irodasiz, mehnatsevar yoki yalqov, intizomli yoki intizomsiz bo’lib tug`ilmaydi, Agarda tarbiya to’g`ri tashqil qilinsa, nerv sistemasining istalgan tidi asosida xarakterning barcha ijtimoiy qimmatli xislatlarini shakllantirish mumkin. Masalan, sabot-matonat va o’z-o’zini to’ta bilish xislatini nerv sistemasining tipi shiddatli bo’lgan bolalarda ham, yoki nerv

sistemasining tipi vazmin bo’lgan bolalarda ham tarbiyalash mumkin va tarbiyala bo’ladi. Biroq birinchi hol bolalarni tarbiyalash ikkinchi holdagilarni tarbiyalashga qaraganda qiyinroq bo’ladi. Har ikkala holda kerakli sifatlarni tarbiyalash yo’llari va usullari ham churlicha bo’ladi.

Ikkinchidan, tabiiy xususiyatlar odamning biror sohada erishgan yutuqlari darajasiga ham ta’sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat ko’qishklarida tug’ma individual farqlar mavjud. Shu sababli ba’zi odamlar boshqa odamlardan ma’lum bir faoliyatni egallash imqoniyati jihatidan ustun turishadi. Bazida esa aksincha, biror-bir faoliyat turini egallash imqoniyati jihatidan esa ulardan ortda qolinglari mumkin. Mana shu ma’noda olganda odamlar o’z qobiliyatlarini baravar rivojlantirish imqoniyatiga ega emaslar. Garchi tabiiy ko’qishklar o’quvchilarning psixik rivojlanishi uchun ma’lum ahamiyatga ega bo’lsa ham (shu sababli, masalan, ta’lim jarayonida ayrim o’quvchilardan boshqa o’quvchilarga nisbatan ko’proq- zo’r berish talab qilinadi, ayrim o’quvchiga o’qituvchi ko’proq kuch sarflaydi, e’tibor beradi va ko’proq vaqt ajratadi), bu ko’qishklarning o’zi psixik taraqqiyotda hal qiluvchi rol o’ynamaydi.

Turli yo’nalishga ega bo’lgan psixologlar, bir tomondan ta’lim va tarbiya, ikkinchi tomondan esa rivojlanish o’rtasidagi o’zaro munosabati muammosini keng doirada muhokama qilmoqdalar.

Rivojlanish deganda, odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog`liqdir: 1) miyaning biologik, organiketilishi, uning anatomik-fiziologik tuzilishi jihatidan etilishi; 2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma’lum o’sish darajalari sifatadagi, o’ziga xos aqliy etilish sifatidagi psixik rivojlaiishi, o’z-o’zidan malumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik echilishi bilan bog`liqdir va bu xususiyat ta’lim-tarbiya ishlarida, albatta, hisobga olinishi lozim, chunki ta’lim miyaning organikjihatdan etilishini inkor eta olmaydi. Biroq miya bo’zilishining organikjihatdan etilishini muhitga, ta’lim-tarbiyaga mutlaqo bog`lanmagan holda o’zining qatiy biologik qonunlari asosida sodir bo’ladi, deb bo’lmaydi. Muhit, ta’lim-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organikjihatdan etilishiga yordam beradi.

Bu jarayonda ta’lim qanday mavqega ega? Ta’lim rivojlanishga nisbatan etakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning hal qilinishi ta’lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o’quv dasturlari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi.

Bu borada nemis psixologi V.Shtern: ta’lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi, degan fikrni olg`a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi rus psixolog L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta’lim va tarbiyaning etakchilik roli bor, degan qoidani birinchi bo’lib ilgari surdi va uni: ta’lim rivojlanishdan oldinda boradi va uni o’z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab beradi. Yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta’lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi Shuning uchun aqliy jihatdan etilish jarayoniga aralashmaslik, unga xalaqit bermaslik, balki ta’lim uchun imqoniyat etilguncha chidam bilan passiv kutib turish kerak.

Shveytsariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi ham ayni shu g`oyalar bilan yo’g`rilgandir.

J.Piajening fikricha, bolaning aqliy o’sishi o’zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jihatdan o’ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o’tadi. Ta’lim - bu aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qodirdir, lekin u aqliy jihatdan etilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta’sir ko’rsata olmaydi. Demak, ta’lim rivojlanish qonunlariga buysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur etilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o’rgatish foydasizdir. Ta’limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imqoniyatlari pishib etiladigan muayyan yoshidan qat’iy nazar bog`liqligi ana shundan kelib chiqadi.

Ta’kidlash joizki, ta’lim etakchi rolni bajaradi, ta’lim va rivojlanish esa o’zaro bir-biriga bog`liqdir; ular alohida sodir bo’ladigan ikki jarayon bo’lmay, balki bir butun jarayondir Ta’limsiz to’la aqliy rivojlanish bo’lishi mumkin emas. Ta’lim rivojlanishga turtki bo’ladi, rivojlanishni o’z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug`ilganda ta’lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo’ladi, lekin, ta’lim rivojlanishga turtki

bo'lish bilan bir vaqtda o'zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini albatta, inobatga oladi. Ta'limining imqoniyatlari juda keng bo'lsa-da, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy talim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o'zlashtirish insoniyatning tarixi taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta'kidlaydi. U olga surgan psixik funktsiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, psixik faoliyat taraqqiyot uning "tabiiy" shaklini bevosita qayta qurgan holda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so'ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, madaniy shaklini egallash tushuniladi,

Shu munosabat bilan L.S.Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan "psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi" tushunchasi muxim ahamiyat kasb etadi. Buning asl mohiyati, bolaning mustaqil faoliyat kattalar bilan hamkorlikda, uning rahbarligida amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan "psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi" tushunchasi "ta'lim taraqqiyotdan oldinda boradi" degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunish uchun imqoniyat yaratadi,

E.Torndayk va J.Piajening ta'lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: ".Bola taraqqiyotinn hech mahal maktab ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas", - deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ta'lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo'lmagan jarayonlardir, degan yunalishdagi psixologlarni ham u qattiq tanqid qiladi. P.P.Blonskiy ta'limning bola taraqqiyotidagi o'rniga alohida ahamiyat beradi, shuning uchun o'quvchilarning aqliy rivojlanishi tug`ridan-to'g`ri maktab dasturi mazmuniga bog`liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha-ta'lim jarayonida bolalar ma'lum qoida asosida faoliyat qilishga odatlanadilar. Ta'lim ta'siri natijasida o'quvchilarda o'z-o'zini va o'zining aqliy faoliyatini nazorat qilish yo'zaga keladi. Psixolog-olimlardan V.V.Davidov, P.Ya.Galperin, D.B.Elkonin, N.AMenchinskaya, A.A.Lyublinskaya, E.G.Gozievlar o'z tadqiqotlarida ta'limning taraqqiyotdagi etakchi rolini ta'kidlashadi.

Psixik taraqqiyotning omillari va sharoitlari aniqlab olingan taqdirda ham, psixikada yo'zaga keladigan o'zgarishlarning manbalari, psixik rivojlanishni harakatta keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat, degan savolning tug`ilishi, tabiiydir.

Bolaning psixik rivojlanishini harakatlar keltiruvchi kuchlar murakkab va turli-tumandir. Rivojlanishning mohiyatini qarama-qarshiliklar ko'rashidan, ichki ziddiyatlar bolaning, psixik rivojlanishini bevosita harakatta keltiruvchi kuchlar, ta'lim va tarbiya jarayonida yo'zaga keladigan hamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga, masalan, faoliyat tomonidan yo'zaga keladigan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imqoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o'sib borayotgan jismoniy va ruhni imqoniyatlari bilan esa, tarkib topgan o'zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o'rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundan-kunga ortib borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o'rtasidagi ziddiyatlar qiradi.

Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo'lgan tayyorlik bilan xatti-harakatlarning mavjud vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog`liqligi o'rtasida ziddiyat mavjuddir o'smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomondan, uning o'ziga, o'zi baho berishi va o'z talablari darajasi va ikkinchi tomondan, atrofdagilarning unga nisbatan bo'lgan munosabatlari haqidagi ichki kechinmasi o'rtasida. Shuningdek, o'zining jamoadagi real mavqei to'g`risidagi ichki kechinmasi o'qishiga; katta odamlar hayotida to'la huquqli a'zo sifatida qatnashishi ehtiyoji bilan bunga o'z imkoniyatlarining mos kelmasligi o'rtasida paydo bo'ladi.

Ko'rsatilgan barcha ziddiyatlar birmuncha yuqori darajadagi psixik faoliyatlarni tarkib topishi orqali bartaraf qilinadi. Natijada bola psixik rivojlanishning yanada yuksakroq bosqichiga ko'tariladi. Ehtiyoj qondiriladi - ziddiyat yo'qoladi. Biroq qondirilgan ehtiyoj, yangi ehtiyojni tug`diradi. Bu ziddiyat boshqa bir ziddiyat bilan almashinadi, taraqqiyot davom etadi.

Rivojlanish faqat sof miqdor o'zgarishlari jarayonidan, ya'ni qandaydir psixik hodisalarning, xususiyat va sifatlarning kupayishi yoki kamayishidan iborat bo'lib qolmay, balki sifat jihatdan yangi xususiyatlarning, ya'ni yangidan hosil qilingan sifatlarning paydo bo'lishi bilan bog`likdir.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari borligini qayd etib korsatmoqdalar. Biroq muhit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikqilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatta va tarbiyaga bog`liqdir. Mana shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatda psixik rivojlanishning notyokisligi qiradi. Buning mohiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta'lim va tarbiyaning eng qo'lay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funktsiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to'xtab turmaydi. Bolaning ayrim yosh davrlarida psixikaning u yoki bu yo'nalishlarida rivojlanish uchun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo'ladi va bu sharoitlarning ba'zilari vaqtinchalik, o'tkinchi xarakterda bo'ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo'lgan ana shunday yosh davrlari senzitiv davrlar deb ataladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev). Bunday senzitivaik davrining mavjudligiga miyaning organikjihatdan etilgan qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlar ham, hayotiy tajriba ham sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishi - murakkab taraqqiyot jarayonidir.

Psixologiya fanida yosh davrlarini tabaqalash bo'yicha turlicha usullar mavjuddir. Bu inson shaxsini tadqiq qilishga turli nuqtai-nazardan yondashuvi va mazkur muammoning mohiyatini turlicha eritadi.

Ma'lumki, har bir davr o'zining muhym hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterligi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanishi va o'z navbatida, o'zidan keyingi davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat

qiladi. Shu urinda psixologiyada mavjud yosh davrlarini tabaqalash nazariyalariga urgu berib o’tish maqsadga muvofiqdir.

Shveytsariyalik psixolog J.Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funktsiyalari hamda uning davrlari haqidagi ta’limotni o’z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy vazifalari, moslashish va ko’nikishdan iborat bo’lib, bu uning doimiy vazifalar turkumini tashqil etadi.

Muallif, bola aql-idrokini quyidagi psixik rivojlanish davrlariga tasniflaydi:

1.sensomotor intellekti-tug`ilgandan 2 yoshgacha;

2.operatsiyagacha tafakkur-davri - 2 yoshdan 7 yoshgacha;

3.aniq operatsiyalar davri-7,8 yoshdan 11, 12 yoshgacha;

4.rasmiy operatsiyalar davri.

Fransuz psixologi A.Vallon esa yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga. ajratadi:

1) homilaning ona qornidagi davri;

2) impulsiv harakat davri - tug`ilgandan 6 oylikkacha;

3) his-tuyg`u davri (emotsional) - b oylikdan 1 yoshgacha;

4) sensomogor (idrok bilan harakatning uyg`unlashuvi) davri 1 yoshdan 3 yoshgacha;

5) personologizm (shaxsga aylanish) davri - 3 yoshdan - 5 yoshgacha;

6) farqlash davri - 6 yoshdan - 11 yoshgacha;

7) jinsiy etilish va o’spirinlik davri - 12 yoshdan -18 yoshgacha.

Rus psixologiyasidagi yosh davrlarini tabaqalash muammosi dastlab L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, B.G.Ananev singari yirik psixologlarning asarlarida o’z aksini topa boshlagan. Keyinchalik bu muammo bilan shug`ullanuvchilar safi ortib bordi, shu bois yosh davrlarini tasniflash muammosi o’zining kelib chiqishi, ilmiy manbai, rivojlanish jarayonlariga yondashilishi nuqtai nazaridan bir-biridan keskin farq qiladi, hozirgi vaqtda rivojlanish davrlarini tabaqalash yuzasidan mulohaza yuritishda olimlarning ilmiy qarashlarini muayyan guruhlarga ajratish va ularning mohiyatini ochish maqsadga muvofiqdir.

L-S.Vigotskiy psixologlarning rivojlanish psixologiyasi tabaqalash nazariyalarini tanqidiy tahlil qilib, muayyan rivojlanishni vujudga keltiruvchi ruhiy yangilanishlarga tayanib, yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi;

1. Chaqaloqlik davri inqirozm.

2. Go'daklik davri - 2 oylikdan 1 yoshgacha, bir yoshdagi inqiroz.

3. Ilx bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - 3 yoshdagi inqiroz.

4. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - 7 yoshdagi inqiroz.

5. Maktab yoshi davri - 8 yoshdan 12 yoshgacha - 13 yoshdagi inqiroz.

6. Puberdat (jinsiy etilish) davri - 14 yoshdan 18 yoshgacha, yoshdagi inqiroz.

L.S.Vigotskiy o'zining yosh davrlarini tabaqalash nazariyasini ilmiy asoslab, ta'riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida Ilmiy va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Biroq, bu mulohazalarda ancha munozarali, bahodi o'rinlar ham mavjud. Umuman L.S.Vigotskiyning yosh davrlarini tabaqalash nazariyasi Ilmiy garixiy ahamiya-1ta ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to'g`risidagi mulohazali va olga surgan g`oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

D.B.Elkoninning tasnifi etakchi faoliyat (A.N.Leontev) nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida biror faoliyatning ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi, etakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli, nazariyaning asosiy mohiyatini tashqil qiladi.

D.B.Elkonin rivojlanish davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratgan:

1. Go'daklik davri - tug`ilgandan 1 yoshgacha - etakchi faoliyat -bevosita emotsional muloqot;

2. Ilk bolalik davri - 1 yoshdan 3 yoshgacha - etakchi faoliyat -predmetlar bilan nozik harakatlar qilish;

3. Maktabgacha davr - 3 yoshdan 7 yoshgacha - rolli o'yinlar;

4. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 10 yoshgacha - o'qish;

5. Kichik o'smirlik davri - 10 yoshdan 15 yoshgacha - shaxsning intim (dilkash, samimiy) muloqot;

6. Katta usmirlik yoki ilk uspirimli davri - 16 yoshdan 17 yoshgacha; - etakchi faoliyat - o'qish, kasb tanlash davri.

D.B.Elkonin tasnifini ko'pchilik psixologlar tomonidan e'tirof etilsa-da, biroq uning birmuncha munozarali tomonlari mavjud. Umuman D.B.Elqoninning mazkur nazariyasi psixologiya fanida, ayniqsa yosh davrlari psixologiyasida muhim urin to'tadi.

Bolalar psixologiyasi fanining yirik namoyondasi A.ALyublinskaya inson kamolotini yosh davrlarga ajratishda faoliyat nuqtai nazaridan yondashib, quyidagi davrlarni atroflicha ifodalaydi;

1. Chaqaloqlik davri - tug`ilgandan bir oylikkacha;
2. Kichik maktabgacha davr - 1 oylikdan 1 yoshgacha;
3. Maktabgacha tarbiyadan avvalgi davr -1 yoshdan 3 yoshgacha;
4. Maktabgacha tarbiya davri - 3 yoshdan 5 yoshgacha;
5. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11, 12 yoshgacha;
6. O'rta maktab yoshi davri (uspirin) - 13 yoshdan 15 yoshgacha:
7. Katta maktab yoshi davri-15 yoshdan 18 yoshgacha.

Pedagogik psixologiyaning taliqli namoyondasi B,A.Krutestkiy insoning ontogenetik kamolotini quyidagi bosqichlardan iboratligini ta'kidlaydi:

1. Chaqaloklik (tug`ilgandan 10 kunlikkacha);
2. Go'daklik (10 kunlikdan 1 yoshgacha);
3. Ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
4. Bog`chagacha davr (3 yoshdan 5 yoshgacha};
5. Bog`cha yoshi (5 yoshdan 7 yoshgacha);
6. Kichik maktab yoshi (7 yoshdan 11 yoshgacha);
7. O'smirlik (11 yoshdan 15 yoshgacha);
8. Ilk o'spirinlik yoki katta maktab yoshi (15 yoshdan 18 yoshgacha). Yuqoridagi har ikkala tasnif puxtaligidan, ularga qanday nuqtai nazardan yondashilganligidan qatiy nazar inson kamolotini tula ifodalab berishga ojizlik qiladi.

Mazkur nazariyalar insonning shaxs sifatida shakllanishi bosqichlari haqida ko'proq ma'lumot beradi, xolos. Ularda yoshlik, etuklik qarilik davrlarining xususiyatlari, qonuniyatlari to'g`risida nazariy va amaliy ma'lumotlar etishmaydi. Shunga qaramay ular o'qish maktab pedagogik psixologiya fani uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi zamon psixologiyasining yirik vakili AV.Petrovskiy inson kamolotiga, shaxsning tarkib topishiga ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan yondashib, shaxsning shakllanishini quyidagi bosqichlarda amalga oshishini ta'kidlaydi:

1, Ilk bolalik (maktabgacha tarbiya yoshidan oyadingi davr) - tug`ilganidan 3 yoshgacha.

2. Bolalik davri - 3 yoshdan 7 yoshgacha.

3. Kichik maktab yoshi davri - 7 yoshdan 11 yoshgacha,

4. O'rta maktab yoshi (usmirlik) davri - 11 yoshdan 15 yoshgacha-

5. Yuqori sinf o'quvchisi (ilk o'spirinlik) davri - 15 yoshdan 17 yoshgacha.

AV.Petrovskiyning tasnifi mukammal bo'lsa-da, kamolotning oraliq bosqichlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalamaydi. Baholanki, o'sish ijtimoiy qoidalarga muvofiqmi yoki aksincha, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, har ikkala yo'nalishning ham oraliq jabhalari bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Ma'lumki, har bir yosh davr, o'ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi, bularga: oilada va maktabda bola holatining o'zgarishi, ta'lim va tarbiya shakllarining o'zgarishi hamda bolaning yangi faoliyat turlari, organizmdagi ayrim xususiyatlarning etilishi singari jarayonlarni kiritish mumkin.

Hozirgi zamon psixologiyasida yosh davrlarini shu nuqtai nazardan tabaqalash maqsadga muvofiqdir:

1. Ilk bolalik davri -tug`ilgandan 3 yoshgacha;
2. Bog`cha davri - 3 yoshdan 6, 7 yoshgacha;
3. Kichik maktab yoshi davri - 6, 7 yoshdan 10, 11 yoshgacha;
4. O'rta maktab yoshi (usmirlik davri) - 10, 11 yoshdan 14, 15 yoshgacha;

5. Ilk o'spirinlik (kollej va litsey o'quvchilari) 14, 15 yoshdan 17, 18 yoshgacha.

Umuman, psixologlar tomonidan yosh davrlarini

tabaqalashtirishning puxta, ilmiy-metodologik negizga ega bo'lgan qator nazariyallari ishlab chiqilgan. Hozirgi kunda ular ontogenetik qonuniyatlarni yoritishga katta hissa qo'shib, uning nazariy va amaliy muammolarini hal qilishda muhim o'rin egallab kelmoqda. Biroq, shunday bo'lsada, hozir ontogenezni to'la yoritishga xizmat qila oladigan nazariyasini yaratish zaruriyati mavjuddir.

## RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASINI SHAKLLANISHI MAVZUSIDA O'TKAZILADIGAN AMALIY TOPSHIRIQ

KLASTER TEXNOLOGIYASI

- Klaster-fikrlashning to'g'ri chiziqli bo'lmagan shakli.
- Yozishni yaxshi ko'rmagan o'quvchilarga yaxshi vosita.
- Tasavvurlarga, anglanmagan bolim va bog'lanishlarga yo'l ochib beradi.

**KO'RSATMA**

1. Oq varaqqa (yoki doskaga) so'z(lar) ni yozing.
2. Quyidagi so'zga tegishli bo'lgan xayolingizga kelgan so'zlarni yoki gaplarni yozing.
3. Fikrlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganing
4. Siz barcha fikrlaringiz tugaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha yozing.
5. Xayolingizga kelganini qoldirmasdan yozing. Sifatini o'ylamang.
6. Imloviy va yozuvni sekinlatadigan xatolarga e'tibor bermang.
7. Agar hayolingizga hech narsa kelmasa rasm chizib boshlang balki shunda yangi fikrlar paydo bo'lar.

## RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI SO’ZIGA KLASTER TUZING




**Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.**

1. Psixik taraqqiyotning omillari, shartlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida ma’lumot bering?
2. Psixik taraqqiyot va ta’limning o’zaro munosabati deyilganda nimani tushunasiz?
3. Psixik taraqqiyotning qonuniyatlari nimalardan iborat?
4. Etakchi faoliyat deyilganda nimani tushunasiz?
5. Yosh davrlarini tasniflab bering?

**6.** Yosh davrlarini tabaqalash haqidagi turli nazariyalar haqida ma'lumot bering?

## 3-mavzu:Endogen va ekzogen yo'nalishlarda rivojlanish nazariyasi

Mashg`ulot shakli:Obzorli-ma'ruza tushunib olish, esda qolishi kerek bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma'ruza mashg`uloti rejasi:**

1. K.Byuler bo'yicha rivojlanishning uch bosqichli nazariyasi.
2. X.Vernerning ortogenetik konsepsiyasi.
3. Rivojlanishni tushuntirishning biogenetik yo'nalishi.
4. V.Shternning rivojlanishni ikki omilli konvergensiya nazariyasi.
5. Dastlabki bixeviorizm nazariyasining sharhi.

Ko'zga ko'ringan avstriyalik psixolog K.Byuler bir muddat Vyursburg maktabi doirasida ishlagan bo'lib, o'zining bolani psixik rivojlanish konsepsiyasini tuzdi. U rivojlanishning butun yo'lini maymundan to kata yoshli madaniyatli odamgacha ko'rsatishga harakat qilgan. Byuler bo'yicha tadqiqot vazifasi rivojlanishda doimiy asosiy tashqi ta'sirlarga bog'liq bo'lmagan qonuniyatlarni sof holda topish edi. Byulerning fikricha, bolalik rivojlanishining birinchi yillarini o'rganish uchun eksperimentning mos shakli zoopsixologiya sohasidan olinishi mumkin. K.Byuler bola rivojlanishidagi uch bosqich nazariyasi muallifi sifatida mashhur. Har bir bola o'z rivojlanishida hayvonlar harakatlari shakli evolutsiyasi bosqichlariga mos bosqichlarni bosib o'tadi, instinkt, o'rgatish, intellekt. U biologic omillarni asosiy debko'rsatib o'tadi. Byuler bolalikdagi rivojlanishni biologic jihatdan asoslanganligini qobiliyatlarni nasliyligini ta'kidlagan, lekin mashqlarsiz tabiiy qobiliyatlar to'liq ochilmaganligini aytib o'tgan.

Instinkt rivojlnishning quyi darajasi xulq usullarini nasliy fondi qo'llanilishga tayyor bo'lgan va faqatgina ma'lum stimullarga muhtoj bo'lgan. Odamda

instinktlar noaniq-sust kata individual farqlarga ega bo’lgan. Bolada tayyor instinktlar to’plami baqirish, so’rish, yutish, himoya refleksi kabilar mavjud bo’ladi.

O’rgatish turli hayotiy vaziyalarga moslashish imkonini beradi, maqtov va jazolashlarga yoki omad va omadsizliklarga tayanadi. Byuler bo’yicha bolalar o’yini hayvonlardagi o’yinning tabiiy davomi shu bosqichda yuzaga keladi.

Rivojlanishning bir bosqichidan boshqasiga o’tishda emotsiyalar ham rivojlanadi. Shunga ko’ra, faoliyatning yakunidan boshigacha rohatlanishning almashinishi sodir bo’ladi. Harakat va emotsiyani evolutsion erta taqqoslanishi quyidagicha avval harakat, so’ng uning natijasida rohatlanish. So’ngra harakatdan funksional qoniqish bilan kechadi, ya’ni jarayonni o’zidan qoniqish va nihoyat qoniqish tasavvuri harakatning o’ziga o’tadi. Byuler uchun asosiysi tafakkurning psixik rivojlanishda ijodkorlik rolini o’rganish edi. Shunday qilib, u bolada nutqni uni yaratish kattalar bilan muloqot jarayonida bola tomonidan o’ylab topishi sifatida rivojlanish nazariyasini taklif qildi.

**K.Byulerning 3 bosqichli nazariyasi**

| | |
|---|---|
| Tadqiqotning asosiy predmeti | Psixik rivojlanish qonuniyatlari, bola psixikasining rivojlanish bosqichlarini ajratish (instinkt, o’rgatish, intellekt) |
| Tadqiqot metodlari | Zoopsixologik eksperiment |
| Asosiy tushunchalar | Instinkt, o’rgatilgan bilish, intellekt, funksional qoniqish, rohatlantiruvchi qoniqish |
| Asosiy g’oyalar | Hayvonlar psixikasi evolutsiyasining qonuniyatlarini bola psixik rivojlanishga o’tkazish, bola psixikasini hayvonlar psixikasi va kata yoshli madaniyatli odam psixikasi o’rtasidagi bog’lovchi evolutsion jarayon sifatida ko’rish rivojlanishda emotsiyaning roli |
| Rivojlanish omillari | Preformizm, nasliy |

| | |
|---|---|
| Qiymati | Eksperimentni bola rivojlanishini o'rganishda qo'llash, rivojlanish g'oyasi |
| Tadqiqotning yo'nalganligi | biologik yondashuv odam rivojlanishining o'ziga xosligini rad etish ko'rmaslik, bola imkoniyatlarini pasaytirish |

L.S.Vigotskiyning takidlashicha, Byulerning nazariy tuzilmalarida qadrli biologik rivojlanishni umumiy sohasida psixik rivojlanishni rivojlanish va tendensiyalarini barcha g'oyalarini ko'rib chiqasi. Biroq ma'naviy hayotni butun to'liqligini biologik ildizlaridan psixik funksiya va shakllarini yuzaga chiqarish kata miya o'zagi tuzilishi rivojlanishida normal bolaning muvaffaqiyatlari sabablarini toppish. Byuler pozitsiyasini prinsipial chegaralaydi, antidialektikka aylantiradi. Psixikani filogenez va ontogenezi biologik evolutsiya qonunlariga bir xil darajada bo'ysunadilar.

Konvergensiya nazariyasi, yoki uni yana ikki omil nazariyasi deb nomlaydilar, biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro munosabatini ko'rib chiquvchi differensial psixologik sohasi mutaxassisi, nemis psixologi V.Shtern (1975-1938) tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaning mohiyati shundan iboratki, bolaning psixik rivojlanishi nasl va muhit ta'siri ostida shakllanadigan jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. Konvergensiya nazariyasining asosiy masalasi axloqning egallangan shakllari qanday yuzaga keladi va ularga nasliylik hamda atrof-muhitning qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishdan iborat.

Psixologiyada shu vaqtda ikkita nazariy konsepsiya mavjud bo'lgan: empirizm («inson» - toza doska») va nativism (tug'ma g'oyalar mavjud). Shtern agar bu ikki qarama-qarshi nuqtayi nazarning mavjud bo'lishi uchun asos bor bo'lsa, unda haqiqat ularning birlashuvidan iboratligini taxmin qildi. U psizik rivojlanish tashqi sharoitlar bilan ichki ma'lumotlarning birlashuvidir, biroq yetakchi ahamiyat baribir tug'ma omil ortida qoladi, deb hisoblaydi. Bunga misol sifatida quyidagi fakt xizmat qilishi mumkin: atrof olam bolaga o'yin uchun

material yetkazib beradi, uning qanday va qayerda o'ynashi esa o'yin instinktining tug'ma komponentlariga bog'liq bo'ladi.

V.Shtern rekapitulyatsiya konsepsiyasi tarafdori bo'lgan va bola go'daklikning birinchi oylarida sut emizuvchilar bosqichida bo'linishi: bu reflektorli va impulsive axloq bilan tasdiqlanishi; hayotining ikkinchi yarim yilligida u predmetlarni tutib olish va taqlid sharofati bilan oliy sut emizuvchi (maymun)lar bosqichiga erishishi; kelgusida to'g'ri yurish va nutqni egallagach, insoniy holatning dastlabki pog'onasiga chiqishi; o'yin va ertaklarning birinchi besh yilida u ibtidoiy aholi pog'onasida turishi; yangi bosqich-maktabga boorish – hiyla yuqori darajadagi ijtimoiy majburiyatlarni egallashi bilan bog'liq ekanini aytadi. Dastlabki maktab yillari antic va qadimgi dunyoning eng oddiy mazmuni bilan, o'rta sinflar-xristian madaniyati, yetuklik yillari esa-yangi vaqt madaniyati bilan bog'liq.

Psixologiya fanida ontogenezni davrlarga tabaqalash bo'yicha qator mustaqil nazariyalar mavjud, ular inson shaxsini tadqiq qilishga har xil nuqtai nazardan yondashadi va muammoning mohiyatini turlicha yoritadi. Ularga biogenetic, sosiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik nazariyalarni kiritish mumkin.

Quyida mazkur nazariyalar va ularning ayrim namoyondalari ifodalangan yosh davrlarini tabaqalash prinsiplarini ko'rib chiqamiz.

Biogenetik nazariyada insonning biologic yetilishi bosh omil sifatida qabul qilingan, qolgan jarayonlarning rivojlanishi ixtiyoriy bo'lib, ana shu omil bilan o'zaro bog'liqdir. Mazkur nazariyaga binoan, rivojlantirishning bosh maqsadi biologik determinantlarga (aniqlovchilarga) qaratiladi va ulardan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar kelib chiqadi.

Rivojlanish jarayonining o'zi, dastavval biologic yetilishning universal bosqichi sifatida talqin qilinadi.

Biogenetik qonunni F.myuller va E.Gekkel kashf qilgan. Biogenetic qonun tana a'zolarining rivojlanishi nazariyasini tashviq qilishda hamda antidarvinchilarga qarshi kurashda muayyan darajada tarixiy rol o'ynagan. Biroq

unda tana a’zolarining individual va tarixiy rivojlanishi muniosabatlarini tushuntirishda qo’pol xatolarga yo’l qo’yilgan. Jumladan, biogenetic qonunga ko’ra, shaxs psixologiyasining individual rivojlanishi (ontogenez) butun insoniyatning tarixiy rivojining (filogenez) asosiy bosqichlarini qisqacha takrorlaydi.

Nemis psixologi V.Shterenning fikricha, chqaloq (yangi tug’ilgan bola) hali odam hisoblanmaydi, balki faqat sut emizuvchi hayvondir; olti oylikdan oshgach, u psixik rivoji jihatidan faqat maymunlar darajasiga tenglashadi, ikki yoshida oddiy odam holiga keladi, besh yoshlarida ibtidoiy gala holidagi odamlar darajasiga yetadi, maktabga kirganidan boshlab ibtidoiy davrni boshidan kechiradi, kichik maktab yoshida uning ongi o’rta asr kishilari darajasiga, nihoyat, yetuklik davri (16-18 yoshlari) dagina hozirgi zamon kishilarining madaniy darajasiga erishadi.

S.Xoll “rekapitulyasiya qonuni” ni (filogenezni qisqacha takrorlashni) psixologik o’sishning bosh qonuni deb hisoblaydi. Uning fikricha, ontogenez filogenezning muhim bosqichlarini takrorlaydi. Olimning talqinicha, go’daklik hayvonlarga xos rivojlanish pallasidan boshqa narsa emas. Bolalik esa asosiy mashg’uloti ovchilik va baliqchilik bo’lgan qadimgi kishilarning davriga aynan mos keladi. 8-12 yoshlardagi o’sish davri yovvoyilikning oxiri va sivilizasiyaning boshlanishidagi kamolotga tengdir. O’spirinlik esa jinsiy yetilishdan (12-13 yoshdan) boshalnib yetuklik davrigacha (22-25 yoshgacha) davom etib, romantizmga barobardir. S.Xollning talqinicha, bu davrlar “bo’ron va tazyiqlar”, ichki va tashqi nizolar (ziddiyatlar)dan iborat bo’lib, odamda “individual tuyg’usi” vujudga keladi. Yosh davrlarini tabaqalashning bu turi o’z navbatida tanqidiy mulohazalar manbai vazifasini o’taydi, chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi va takrorlashi ham mumkin emas.

Biogenetik konsepsiyasining boshqa bir turi nemis “konstitusion psixologiyasi” (insonning tana tuzilishiga asoslangan nazariya) namoyondalari tomonidan ishlab chiqilgan. E.Krechmer shaxs (psixologiyasi) tipologiyasining negiziga bir qancha biologik omillarni (masalan, tana tuzilishining tipi va

boshqalarni) kiritib, insonning jismoniy tipi bilan o'sishining xususiyati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, deb taxmin qiladi. E.Krechmer odamlarni ikkita katta toifaga: sikloid (tez qo'zg'aluvchi, his-tuyg'usi o'ta beqaror) va shizoid (odamovi, munosabatga qiyin kirishuvchi, his-tuyg'usi cheklangan)larga ajratadi. Bu taxminini yosh davrlari xususiyatlariga ham tatbiq etib, o'smirlar sikloid xususiyatli, o'spirinlar esa schizoid xususiyatliligini ta'kidlaydi. Lekin insonning kamol topishida biologic shartlangan sifatlar hamisha yetakchi va hal qiluvchi rol o'ynay olmaydi, chunki shaxsning individual-tipologik xususiyatlari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Biogenetic nazariyaning namoyondalari amerikalik psixologlar F

A.Gezell va S.Xoll rivojlanishining biologic modeliga tayanib ish ko'radilar, bu jarayonda muvozanat, integrasiya va yangilanish siklllari o'zaro almashinib turadi, degan xulosaga keladilar.

## 4-mavzu:Psixologik maktablarda rivojlanish nazariyalari

Mashg`ulot shakli:Obzorli-ma'ruza tushunib olish, esda qolishi kerek bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma'ruza mashg`uloti rejasi:**

1. Z. Freydning klassik psixoanalizi.
2. Bolalik psixoanalizini shakllanishi.
3. Kognitiv yo'nalishda rivojlanish psixologiyasi.
4. Tarixiy-madaniy yo'nalishda rivojlanish psixologiyasi.

Venalik vrach-psixolog 3.Freyd mazkur oqim namoyandasi sifatada shaxsning faolligani, uni harakatta keltiruvchi kuchlarni quyidagi tarzda tushuntirishga intiladi. Odam o'zining qadimiy hayvon tariqasidagi avaod-ajdodlaridan nasliy yo'l bilan utgan instinktiv mayllarning namoyon bo'layotgani tufayli faoldi. Z.Freydning fikriga ko'ra, instinktiv mayllar asosan jinsiy instinktlar shaklida namoyon bo'ladi. Z.Freyd, shaxsning faolligini dastavval jinsiy mayllar

bilan boglaydi. Biroq instanktiv mayllar jamiyatda xuddi xayvonot olamidagidek erkin namoyon bo'lavermaydi. Jamiyatdagi jamoa hayoti odamni, undagi mavjud instinktiv mayllarni ('ni, jinsiy mayllarni) juda ko'p jihatdan cheklab qo'yadi. Oqibatda odam o'zining ko'p instinktlari va mayllarini bosishga, tormozlashga majbur bo'ladi. Uning ta'limotiga ko'ra, tormozlangan instinkt va mayllar yo'kolib ketmaydi, balki bizga noma'lum bo'lgan ongsizlik darajasiga o'tkazilib yuboriladi. Ongsizlik darajasidagi bunday instinktlar va mayllar har turli "komplekstiv birlashadilar, go'yo inson shaxsi faolligining haqiqiy sababi ayni shu "Komplekslar"ni namoyon bo'lishidir. Z.Freydning ta'limotidan uning ochiqdan-ochiq biologizatorlik targ`ibotchisi ekanligini, inson shaxsining faolligini jinsiy mayllardan iborat ekanligi haqidagi nazariyasi Ilmiy asosga ega emasligini e'tirof etish mumkin.

Amerikalik psixolog (ingliz psixologi) Erik Xomburger Erikson (1902-1994) ego-psixologiya yo'nalishi vakili sifatida mashhur. E.Erikson individda "Men" obrazini rivojlantirishga alohida e'tibor, ayrim muhim psixoanalitik holatlari qaytadan ko'rib chiqqan. E.Erikson bir tomondan insonning ijtimoiy muhitga moslashuvini ahamiyati haqidagi (tasavvur) talqin tarafdori bo'lgan, shaxs xususiyatlari va motivatsion tizimlarini yuzaga keltirishining biologik va jinsiy asoslarini tan olgan. Z.Freyd kabi Erikson ham shaxs rivojlanishining bosqichlari oldindan irsiy belgilangan ekanligini, ularning aytishlariga ko'ra, rivojlantirish tartibi o'zgarmasligini e'tirof etgan. Turli madaniyatlarda rivojlanishning ijtimoiy-psixologik vazifasi, o'xshash xarakterga ega, ular butun insoniyat uchun universal ya'ni har maqsadga yaraydigandir (masalan mexnatsevarlikni tarbiyalash), faqat ularni hal etish usullari ma'lum bir darajada farqlanishi mumkin.

Biroq, Freyd yondashuvidan farqli ravishda, ego-psixologiyada asosiy diqqat hayotiy muammolarni anglagan hamda hal etish bilan bog'liq bo'lgan, sog'lom shaxs taraqqiyotiga qaratiladi. E.Eriksonning shaxs rivojlanish nazariyasi ijtimoiy-psixologik hisoblanadi, chunki uning markazida-ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirda inson omilkorligini o'sishi turadi. Yangi talqin bo'yicha, madaniyat bilan uning qadriyatlar tizimi va belgilangan me'yorlar ta'siri ko'rib chiqilgan.

E.Erikson shaxs rivojlanishining tarixiy va madaniy butunligini ahamiyati uni ilk yoshda ota-ona bilan individual o’zaro aloqaga muvofiq kelmasligini ta’kidlaydi. Bunday xulosa chiqarishga tadqiqotning tanlanma metodlari yordam bergan.

Yetakchi nazariyachilardan bo’lgan Erikson o’z ayoli Joan Erikson bilan hamkorlikda ishlagan. Nizodan tashqari ishonch va ishonchsizlik holatini ta’riflab, kichik bolalardagi biror narsaga umidning paydo bo’lishi, natijada keyinchalik undagi biror narsaga ishonishga olib kelishning ilk ko’rinishi deb hisoblagan. (1983) shuningdek, uning fikriga ko’ra hayotga e’tiqod bilan bog’langan bolalar o’zini ishonchli va hotirjam his qiladi va dunyoni o’zi kutgandek deb biladi. U ishonchning tub mohiyatini ijtimoiy yoki tug’ma sabablarga bog’lamaydi, uning negizini g’amxo’rlik tashkil qiladi deb o’ylaydi. Uning nazariyasini asosini hayotdan qo’rqadiganlardan ko’ra, ta’sirchan, g’amxo’rlikni sezuvchi va turli pozitsiyadagi hayotga ishonuvchilar tashkil qiladi.

E.Erikson klinik amaliyotdagi psixoanalitiklar uchun (an’anaviy bo’lgan) odatiy bo’lgan muammoli va aniq vaziyatlarning sermazmun tahlildan tashqari sog’lom bolalarda longyutd tadqiqot o’tkazgan. Shuningdek, u etnografik (krossmadaniy) metodni ham qo’llagan: zamonaviy, texnika taraqqiy etgan amerika jamiyati sharoitidagi va amerikalik hindular qabilalaridagi bolalar tarbiyasining o’ziga xosligini o’rgangan. Bu unga turli madaniyatlarni shaxs shakllanishiga ta’sirini batafsil tahlil qilish imkoniyatini berdi. Ijtimoiy rollar qattiq qonun-qoidalarga bo’ysundirilgan jamiyatda va juda keng doirada yuzaga chiqishga tayyor turgan imkoniyatlar kuzatilayorgan demokratik jamiyatda (kasbiy, siyosiy va idealogik va boshqalar) individ tomonidan identiklikka muvofiqlikka erishishdagi tafovutlar xususidagi masala qo’yilgan edi. E.Erikson bu vaziyatda, insonning asosiy hayot mavzulari bilan tarixiy hodisalar va sharoitlarni taqqoslashga harakat qilgan ya’ni psixo-tarixiy metodni qo’llagan. E.Erikson insoniyat hayotining yaxlit jarayonini ko’rsatib unda uchta muhim aspektlar (somatik, shaxsiy va ijtimoiy) o’zaro bog’langanligini va faqatgina tahlil va o’rganishga qulaylik yaratish mumkinligini ta’kidlagan. Insonda har doim organizm, jamiyat a’zosi va ego (men,shaxs) bo’lgan.

Erikson bolalik davriga katta ahamiyat qaratib aynan, insonga uzoq bolalik xoslogini ta'kidlagan: ”Bolalikni davom etish texnik va intellektual ma'nolarda insonni mohir, omilkorlik qiladi, lekin, shuningdek, u insonda bir umrga emotsional etilmaganlik izini... bolalik davridan sodir bo'ladigan aqlga sig'maydigan qo'rquvni qoldiradi”. Biroq Erikson insonning qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyati va shaxs rivojlanishiga nisbatan bir muncha optimistroq. E.Erikson inson yangi darajada noadekvat hal etilgan nizoni bartaraf qilish uchun o'z o'zini rivojlantirishga qodir deb hisoblanadi. E.Erikson tomonidan yaratilgan ”Ego” rivojlanish nazariyasi, individning butun hayot davrlarini (go'daklikdan to yetuklik va qarilikkacha) qamrab oladi uni ba'zan shaxs hayot yo'lining kontseptsiyasi deb atashlari bejizga emas.

E.Eriksonning ”Ego” rivojlanish haqidagi fikr-mulohazalari asosan quyidagi kitoblarida bayon etilgan: ”Bolalik va jamiyat” (1950) ”Tenglik o'spirinlik inqirozi” (1968) ”Tenglik va umr davrlari” (1979) ”Yetuklik” (1979) ”Keksalikdagi hayotiy qiziqishlar” (1986) va boshqalar. Sanab o'tilgan kitoblardan ko'rinib turibdiki, Erikson uchun asosiy tushuncha-identiklik (muvofiqlik) tushunchasidir. Shaxs identikligi (muvofiqligi)-xususiyatlar to'plashi yoki individual tavsiflar bo'lib (vaqt va makon bo'ylab doimiy yoki izchil) o'z-o'ziga o'xshashiga yordam beradi, bu shaxsning ”eng o'zagi yadrosi” hisoblanadi. Ego identiklik (muvofiqlik) bu o'z shaxsini bir butunligini sub'yektiv hissi o'z ”Men” ining uzluksizligi va barqarorligidir. Guruhiy identiklik-ushbu ijtimoiy guruhga tegishlilik hissi ego identiklik (muvofiqlik) hayot davomida va kelishilgan tarzda shakllantiriladi. Bugungi kunda ego-identiklik (muvofiqlik) ega bo'lish, Men kontseptsiyasi, ”Men” obrazini shakllantirish Z.Freyd talqinidagi jinsiy muammolarga qaraganda yoshlar uchun juda muhim.

E.Erikson identiklikni (muvofiqlikni) shakllantirishning muhim mexanizmlaridan biri-ritualizatsiya ya'ni odat tusiga kirib qolgan tartib, qoidalar deb hisoblaydi, u xulq-atvor shakllarini takrorlaydi, odamlar o'rtasidagi o'zaro aloqa, xabarlar almashinuvini ta'minlaydi. Ritualizatsiya-tug'ma asosga ega bo'lib, hayot davomida asta-sekin murakkablashadi va boyib boradi. E/Erikson

nazariyasining markazida har bir inson hayoti davomida 8 bosqichni bosib o'tishi, ularni har birida unga nisbatan ijtimoiy talablar qo'yilishi turadi. Individ oldida turgan muammolar uning ijtimoiy rivojlanishida inqiroz holatini yuzaga keltiradi. Inqiroz bu-rivojlanishning burilish holatidir bundan inson yo kuchli moslashgan bo'lib, yo ojiz nizoni hal etolmay chiqishi mumkin. Inqirozni muvaffaqiyatli bartaraf etish og'ir vaziyatlar o'rtasida ma'lum bir murosani, ongning qarama-qarshi holatlarini, ijobiy komponent hisobiga muvozanatni o'rnatish bilan bog'liq. Ma'qbul natija "Ego"ga yangi ijobiy xususiyatni (tashabbuskorlik yoki mehnatsevarlik) qo'shiladi. Hal etilmagan vazifa omadsiz bo'lishi mumkin va bunda " Ego " tuzilishiga negativ (salbiy) tarkibiy qismi (ishonchsizlik va aybdorlik) qo'shiladi. Hal etilmagan vazifa keyingi bosqichga o'tkaziladi, bunga uni udallash mumkin, lekin bu judaxam qiyin va katta kuch sarflashini talab qiladi bunday tarzda odamlar qarama-qarshi xarakterdagi bosqichlar turli muvaffaqiyat har xil tezlik bilan yengip o'tadila-**Erikson kontseptsiyasing epegenetik tamoili** shundan iboratdir.

Jamiyat inson imkoniyatlarini kengaytirishni ma'qulaydi, uni bu rivojlanish taraqiyotida qo'llab-quvvtlashga harakat qiladi. E.Erikson har bir madaniyatda individ rivojlanishi va uning ijtimoiy muhiti o'rtasida "Hal etuvchi muvofiqlash", "Hayot davrlarining tinim g'ildiragi" mavjudligini e'tirof etgan. Kelishilgan rivojlanish qonuniga muvofiq jamiyat rivojlanayotgan shaxsga yordam beradi va uni ayniqsa, yordamga muhtoj bo'lgan damlarda qo'llab-quvvatlaydi (bola g'amxo'erlikka muhtoj bo'lganida ota-ona qayg'urib, g'amxo'rlik ko'rsatishga harakat qiladilar). Shunday qilib, Erikson nuqtai-nazariga ko'ra, avlodlarning ehtiyoj va imkoniyatlari bir xil, bu uning o'zaro bog'liqlik kontsepsiyasida aks ettirilgan. E.Erikson bo'yicha  har bir inqirozni muvaffaqiyatli hal etish shartlarini o'rganish zarur, chunki faqat bir butunlikka erishish natijasida sog'lomlashgan shaxs shakllanadi. "Psixologik muvofiqlik (identiklik) barcha muvofiqliklarni asta-sekin birlashtirishdan rivojlanadi". Individning biologik ehtiyojlari va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir rivojlanish mazmuni va yo'nalishini belgilaydi.

Psixologiya tarixida biologizmning eng yaqqol ko'rinishi Zigmund Freydning shaxs talqinida o'z ifodasini topgan. Uning ta'limotiga binoan shaxsning barcha xatti-xarakatlari (xulqi) ongsiz biologik mayllar yoki instinktlardan kelib chiqadi, birinchi navbatda, jinsiy (seksual) maylga bog'liqdir. Bunday biologizatorlik omillari inson xulqini belgilovchi birdan-bir mezon yoki betakror turtki rolini bajara olmaydi.

Biogenetik nazariyaning qarama-qarshi ko'rinishi sosiogenetik nazariyadir. Bu nazariyada shaxsda ro'y beradigan o'zgarishlarni jamiyatning tuzilishi, ijtimoiylashish (sosializasiya) usullari, atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabat vositalari asosida tushuntiriladi. Ijtimoiylashish nazariyasiga ko'ra, inson biologik tur sifatida tug'ilib, hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlarning bevosita ta'siri ostida shaxsga aylanadi.

G'arbning eng muhim nazariyalaridan biri-rollar nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra, jamiyat o'zining har bir a'zosiga status (haq-huquq) deb nomlangan xatti-haakatning barqaror usullari majmuasini yaratadi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo'lgan maxsus rollar uning xulq-atvorida, boshqalar bilan munosabatida sezilarli iz qoldiradi.

AQSHda individual tajriba va bilimlarni o'zlashtirish (ko'nikish)nazariyasi keng tarqalgan. Mazkur nazariyaga binoan, shaxsning hayoti va voqelikka munosabati, ko'nikmalarni egallashi va bilimlarni o'zlashtirishi qo'zg'atuvchining barqarorligiga bog'liqdir.

K.Levin tavsiya qilgan "fazoviy zarurat maydoni" nazariyasi o'z davrida muhim ahamiyat kasb eygan. K.Levin nazariyasiga ko'ra, shaxsning xulqi (xatti-harakati) psixologik kuch vazifasini o'tovchi ishtiyoq (intilish),maqsad (niyat) bilan boshqarilib turadi, bu kuchlar fazoviy zarurat maydonining ko'lamida tayanch nuqtasiga yo'nalgan bo'ladi.

Yuqorida ifodalangan har vir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqini o'zgalar uchun yopiq yoki maxfiy muhitning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushuntiradi, bunda u odam xohishi yoki xohlamasligidan qat'i nazar, mazkur sharoitga moslashmog'i (ko'nikmog'i) zarur, degan qoidaga amal qiladi.

Bizningcha, barcha nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tarixiy, ob'yektiv shart sharoitlari mutlaqo e'tiborga olinmagan.

Psixologiyada psixogenetik yondashish ham mavjud bo'lib, u biogenetik va sosiogenetik omillarning qiymatini kamsitmaydi, balki psixik jarayonlarning rivojlanishini birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Mazkur yondashishni uchta mustaqil yo'nalishga ajratib tahlil qilish mumkin va bu yo'nalishlar o'z mohiyati, kechishi va mahsuli jihatidan keskin farqlanadi.

## II-MODUL. RIVOJLANISHNING YOSH BOSQICHLARINI PSIXOLOGIK TAHLILI.

### 5- mavzu: GO'DAKLIK DAVRI

Mashg`ulot shakli:Obzorli-ma'ruza tushunib olish, esda qolishi kerek bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma'ruza mashg`uloti rejasi:**

1. Chaqaloqlik davrida jismoniy rivojlanish.
2. Chaqaloqlik davrida psixik rivojlanish.
3. Go'daklik davrida nutiqning rivojlanishi.

**Tayanch so'z va iboralar:**

Chaqaloqlik davrida psixik rivojlanish, sensor va perseptiv hamda kognitiv rivojlanish, his-tuyg'uning o'sishi, jonlanishi, kompleks, go'dak va muloqot, perseptiv rivojlanish.

**Darsning maqsadi:**

Chaqaloqlik davrida jismoniy rivojlanish. Chaqaloqlik davrida psixik rivojlanish hamda kognitiv rivojlanish, predmetlar bilan o'ynash, his-tuyg'uning o'sishi, go'daklik davrida nutqning rivojlanish shart-sharoitlari o'rgatiladi.

Bolaning ona qornidagi o'sish davri onaning organizmiga o'zviy bog'lik bo'ladi. Chaqaloqning barcha xayotiy funktsiyalari –ovqatlanish, nafas olish, nafas chiqarish, xavo xaroratining o'zgarishiga va atmosferadagi moddalar almashinuviga moslashish va xakazolar onaning organizmi orqali amalga oshadi.

Bola bir yoshgacha bo’lgan davrda jismoniy va psixik jixatdan tez o’sadi. Yangi tug’ilgan bolaning jismoniy qiyofasi o’ziga xos bo’lib, kattalarning jismoniy qiyofasidan ancha farq qiladi. Yangi tug’ilgan bola gavdasining sondan bo’yingacha bo’lgan qismi juda o’zun, oyoqlari kalta, boshi nisbatan katta, bo’yni qiska bo’ladi. Yangi tug’ilgan bolaning bo’yi o’rta xisobda 48-52 santimetr bo’ladi.

Go`dak bir minutda 50-60 marta nafas olib, nafas chikaradi, ammo katta yoshdagi kishi esa, xuddi shu vaqt ichida, 14-16 marta nafas oladi.Yangi tug’ilgan bolaning nafas olish yo’li xali tor bo’ladi.

Normal tug’ilgan bolaning o’rtacha vazni 2800-3500g bo’ladi.Yangi tug’ilgan bolaning organizmida suv ko’p mikdorda bo’ladi.Yangi tug’ilgan bola umumiy vaznining 75% suvdan va 25% qattik moddalardan iborat bo’ladi.

Yangi tug’ilgan bola kalla suyagi xali qotmagan bo’lib, uning oldingi qismida peshona liqqildog’i va orqa qismida ensa liqildogi bo’ladi. Bola bir yoshga to’lguncha uning kalla suyagi bo’lib,bu bo’shliqlar tutushib ketadi.Liqildoqlarning biri 2-3 oy ichida tutashib bitib ketadi, ikkinchisi bola 12-13 oligida tutashib qotadi. Chaqaloq xayvonlarning bolalariga nisbatan ximoyaga muxtoj, nochorroq bo’ladi. Chaqaloq tug’ilganda uning ovqatlanishreflekslari ma’lum darajada shakllangan: asosan, surish emish, reflekslari o’z vazifasini bajarishga tayyor bo’ladi. Chaqaloqning labiga va tilining shilimshiq pardasiga biror ko’zgatuvchi tegishi bilan unda ixtiyorsiz ravishda so’lak ajrala boshlaydi. Ona ko’kragini emishda uning xar qanday xarakatlari sekinlashadi yoki mutloqo to’xtaydi.

Chaqaloqning yangi sharoitda yashashini ta’minlovchi asosiy omil tug’ilishda unda vujudga kelgan tabiiy mexanizmlardir.U tashqi sharoit va muxitga moslashish imqonini beradigan, nisbatan etilgan nerv sistemasi bilan tug’iladi. Tug’ilganidan boshlab mazkur reflekslar organizmda qon aylanishi, nafas olishi, xamda nafas chiqarishni ta’minlaydi.

Birinchi kundanoq kuchli ko'zg'atuvchilarga nisbatan ko'zni kisish, pirpiratish, uning qorachig'ini kengaytirish yoki toraytirish mexanizmlari ishlay boshlaydi. Bu reflekslarni ximoya reflekslari deyiladi.

Psixolog V.S.Muxinaning fikricha, chaqaloqda tug'ilishiga qadar xam shartsiz reflekslar bo'lishi, unga xomilalik paytidayoq o'z qo'lini so'rish imkonini yaratadi.

Chaqaloqning anotomik-fiziologik tuzilishini taxlil qilsak, uning suyak sistemasida oxak moddasi va turli xil to'zlar etishmasligining guvoxi bo'lamiz.Shu sababli suyak funktsiyasini ko'proq tog'ay to'kimalari bajaradi. Odatda chaqaloqning nerv faoliyati shartsiz va shartli reflekslar ta'sirida vujudga keladi. Chaqaloqning asosiy xususiyatlaridan biri uning inson zotiga xos barcha xulk atvor shakllarini va avlodlarning tajribalarni o'zgartirish imqoniyatlariga egadir.

Chaqaloqning sezgi organlari uning xarakatiga qaraganda durusroq rivojlangan bo'ladi. Masalan, chaqaloq achchiqni shirindan, issikni sovuqdan, xo'lni quruqdan farqlay oladi.

Chaqaloqda jismlarni, odamlarni, atrof muxitni kattalar kabi yaxlit va aniq idrok qilish imkoniyati bo'lmaydi. Chunki idrok qilish boshqa psixik jarayonlari(xotira,tassavur,tafakkur), ruxiy xolatlari (xis- tuygu ,ungaysizlanish)va o'ziga xos tipologik xususiyatlari bilan o'zviy bog'liklikda amalga oshadi. Shuning uchun chaqaloqga mazkur imkoniyat o'ta cheklangan bo'lib, sezgi organlari oddiy aks ettirish imkoniyatiga ega .

Yangi tug'ilgan bolada kuchli yorug'likni aks ettirish imkoni bo'ladi va u yorug'likdan turli darajada va shaklda ta'sirlanadi, xatto ko'zlarni yumib oladi.

Chaqaloqdagi muxim xususiyatlardan yana biri ko'rish va eshitish tananing xarakatlanishidan ildamrok rivojlanishdir. Chaqaloqda ko'rish va eshitish aparatlari faoliyatining o'sishi tashqi ko'zg'atuvchilardan ta'sirlanishning takkomillashuvida va bosh miyaning rivojlanishida namoyon bo'ladi. Chaqaloq miyasining og'irligi kattalar miyasining chorak qismiga tengdir. Chaqaloqning nerv xujayralari kattalardagi nerv xujayralarga o'xshasa xam, zaifligi bilan ulardan farqlanadi. Chaqaloq tashqi olam bilan aloqada bo'lishining markazi rolini bosh

miya katta yarim sharlarining yuksak darajada rivojlangan kismlari bajaradi.Bola ob'ektni ko'rish va tovushni eshitishuchun dikkatni tuplaydigan bulgach xarakatning faollashuvida ancha o'zgarishlar ro'y beradi.

Jonlanish' bolaning kattalar bilan o'ziga xos ravishda munosabatga kirishining yangi shakli sifatida vujudga keladi.Lekin tashqi ko'zg'atuvchining kitiklashiga javob tarikasida namoyon bo'ladigan 'jonlanish' ning tabiati xali ochilgani yuk.Extimol bu xolat bolaning kattalar bilan mulokotining maxsus kurinishi va ovkatlanish refleksining mustaxkamlanishi bilan boglikdir,u balki ijobiy xis-tuygularini ko'zgotish omilidir.Ba'zan bolada o'zini parvarish kiluvchi shaxsning muomalasi tufayli emotsional xarakatlar vujudga keladi,natijada uning kul va oyoklari xarakati ildam va tez amalga oshadi.Bu jarayon intilish ,iltijo,talpinish kabi tashqi ifodaga ega bo'lgan ichki psixik kechinmalarda o'z aksini topadi.

Katta yoshdagi odamlarning Chaqaloq bilan mulokotda bo'lishi unga uyinchok kursatishi,termulishi, erkalashi unda tashqi ta'sirga javob reflekslarini faollashtiradi.

2.Go`dakning xayotiy faoliyati va takdiri uni kurshagan, parvarishlaydigan katta yoshdagilarga bevosita boglik bo'lib,uning barcha extiyoj va talablari fakat shular tomonidan qondiriladi.Kattalar go`dak uchun yaratgan ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharitlar uning o'sishini belgilovchi muxim turtki vazifasini utaydi.Atrof muxitning xususiyat va xossalarini kattalar go`dakning psixik dunyosiga singdirilgan.

Ta'sir utkazishning keyingi murakkabrok boskichida bola kattalar yordami bilan utirish, urnida dumalash tik turish ovkatlanish kurollaridan tugri foydalanishni ,o'zluksiz va mazmunli xarakatlarni amalga oshirishni o'rganadi.



***Go'daklik***: ichki ishonch ichki ishonchsizlik. Birinchi ijtimoiy psixologik bosqich tug'ilgandan bir yosh oxirgacha Z.Freyd bo'yicha oral bosqichga muvofiq. Bu davrda umumiy ishonch hissi "ishonch", ichki qat'iyatlilik ko'rinishidagi sog'lom shaxsga asos solinadi. E.Erikson odamlarga nisbatan ishonch hissini shakllantirishning asosoiy sharti sifatida onalik mehri g'amxo'rlikni e'tirof etgan. Ona o'z farzandining hayotini shunday tashkillashtirishi kerakki, unda izchillik vorislik kechinmalarini sezish hissi yuzaga kelishi kerak. Shakllangan ichki ishonch hissi bilan go'dak o'zining atrofdagilarini aniq va ishonchli qabul qiladi. Bola yonida onasi yo'qligini undan "ajralganligini" haddan ortiq azob uqubatsiz boshdan kechiradi. Agar ona bolani rad qilsa, ishonchsiz qoniqarsiz bo'lsa, shubhalanish, qo'rquv ishonchsizlik hissi yuzaga keladi. Bu holat ona uchun bola uni hayotini muhim ob'yekti bo'lishdan to'xtagan dam ya'ni ona vaqtincha tashlab qo'ygan mashg'ulotlariga qaytganda ("Aytaylik, uzilgan kar'erani", ("mansab pog'onalarini") tiklash yoki keyingi bolani tug'ish kuchayishi mumkin. Turli madaniyatlarda ishonch yoki shubhalanishga o'rganish usullari bir-biriga mos kel,aydi, lekin inson onasiga nisbatan bo'lgan ishonch darajasidan kelib chiqib, ijtimoiy olamga ishonadi degan tamoyil universaldir. E.Erikson go'daklik davridagi ritualizatsiya (odat-tusiga kirib qolgan tartib-

qoidalar) mexanizimining juda katta ahamiyatini ko’rsatgan. Odat tusiga kirib qolgan tartiblardan asosiysi-o’zaro sezish, tanish, bu butun hayot davomida saqlanib qoladi va boshqa odamlar bilan bo’lgan barcha munosabatlarga singadi. Umid-(o’zining madaniy olamiga nisbatan optimizm)- bu ”ishonch va ishonchsizlik” o’rtasidagi nizoni muvaffaqiyatli hal etish natijasida hosil bo’ladigan egoning birinchi xususiyatidir.

Fransuz psixologi Anri Vallon go`dakda ijtimoiy ta’sirlanish ortib borishini atroflicha tadkik kilgan olimdir.Uning ta’kidlashicha , yarim yoshli bolada boshqa odamlardan farkli ravishda javob reaktsiyasi (ta’siri) o’zining yukori boskichiga kutariladi.Bola 6 oyligida boshqa kishilarning imo-ishorasiz ta’siriga javob berishi (ta’sirlanishi)50% tashqil qiladi, etti oyligida esa aynan shu reaktsiya 20% ga kamayadi,ammo imo –ishora orkali mulokot 41%ga ortadi; etti sakkiz oylikda boshqa kishilarga talpinish, tabassum qilish birinchi yarim yillikdagidan 4marta kupdir.

O’yin faoliyatidagi tabassum jonlanish , shodlik tuygulari avval fakat kattalar ishtirokida namoyon bo’ladi.vakt utishi bilan uyinnnig o’zi bolaga kuvonch bagishlaydi.

Bolada kurkuv xissi kishilarni tanish va notanishga karindosh va begonaga ajratish, nikobni farklash jarayonida vujudga keladi.Shuning uchun ijtimoiy tajriba va kunikmalarni o’zlashtirishda, biror xolatni yakkol aks ettirishda go`dak kattalarga taklid qiladi.Taklidchanlik bolaning ijtimoiylashuviga keng imqoniyatlar yaratadi va faoliyatining yanada takkomillashuviga turtki bo’ladi.

Go`dak xayotining dastlabki oylaridan boshlabok , uyin faoliyati uning xayotida muxim urin egallaydi va go`dakda kurib va eshitib idrok qilish ukuvini ustiradi,jismlarning rangi ,shakli,katta-kichikligini ajrata olish kobiliyatini rivojlantiradi.Uyin faoliyati go`dakning borlikni bilishda va uni aks ettirishda muxim rol’ uynaydi.

Go`dakning kattalar bilan o’zviy bog’liqligi majburiy mulokotga kirishishni taqqazo qiladi.Shaxslararo aloka o’rnatish zarurati bolada noverbal, nutqsiz mulokotning maxsus shakli paydo bo’lishiga olib keladi.

Go`dakda o'zgalar nutqini idrok qilish va unga javob berishga intilish, xususan ko'zg'atuvchiga javoban u yoki bu xarakatni amalga oshirish murakkablashib boraveradi.



Demak uch oylik go`dak gapirayotgan odamni o'z ko'zlari bilan topish imqoniyatiga ega bo'ladi, chunki unda shu paytgacha tovush manbaini izlash ukuvi shakklanadi.Shunga kura bola tovush kelgan tomonga karab,so'zlovchiga munosabatini xis-tuyguga urab ifodalay oladi.

Go`dak xayotining birinchi yarim yilida turli xususiyatlarga ega analizatorlar rivojlanib orientirlash reaktsiyasi anikrok ifodalana boshlaydi.Shartli reflekslar kulami tobora kengayishi natijasida vokeylikka xissiy munosabat takkomillashadi. Go`dak xayotining ikkinchi yarim yilligida esa u kattalarning imo- ishoralarini tushunib idrok qila boshlaydi.Faol nutq alomatlarining vujudga kelishi bilan go`daklik davri tugaydi va ilk bolalik yosh davri boshlanadi

## GO'DAKLIK DAVRI MAVZUSIDA O'TKAZILADIGAN AMALIY TOPSHIRIQ

KLASTER TEXNOLOGIYASI

- Klaster-fikrlashning to'g'ri chiziqli bo'lmagan shakli.
- Yozishni yaxshi ko'rmagan o'quvchilarga yaxshi vosita.
- Tasavvurlarga, anglanmagan bolim va bog'lanishlarga yo'l ochib beradi.

**KO'RSATMA**

8. Oq varaqqa (yoki doskaga) so'z(lar) ni yozing.
9. Quyidagi so'zga tegishli bo'lgan xayolingizga kelgan so'zlarni yoki gaplarni yozing.
10. Fikrlar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganing
11. Siz barcha fikrlaringiz tugaguncha yoki vaqt tamom bo'lguncha yozing.
12. Xayolingizga kelganini qoldirmasdan yozing. Sifatini o'ylamang.
13. Imloviy va yozuvni sekinlatadigan xatolarga e'tibor bermang.
14. Agar hayolingizga hech narsa kelmasa rasm chizib boshlang balki shunda yangi fikrlar paydo bo'lar.

## GO'GAKLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARIGA KLASTER TUZING



**Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.**

7. Psixik taraqqiyotning omillari, shartlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqida ma’lumot bering?
8. Psixik taraqqiyot va ta’limning o’zaro munosabati deyilganda nimani tushunasiz?
9. Psixik taraqqiyotning qonuniyatlari nimalardan iborat?
10. Etakchi faoliyat deyilganda nimani tushunasiz?
11. Yosh davrlarini tasniflab bering?
12. Yosh davrlarini tabaqalash haqidagi turli nazariyalar haqida ma’lumot bering?

## 6-mavzu: ILK BOLALIK DAVRI

Mashg`ulot shakli Obzorli-ma’ruza tushunib olish, esda qolishi kerak bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma’lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma’ruza mashg`uloti rejasi:**

1. Ilk bolalik bolalik davrida asosiy yangiligi va rivojlanishining ijtimoiy vaziyati.
2. Ilk bolalik davrida bilish jarayonlarini rivojlanishi.
3. Bolani kattalar bilan muloqotini rivojlanishi.
4. O’zini o’zi anglash elementlarini shakllanishi.
5. Bolaning emotsional sohasi.

**Tayanch so`z va iboralar;**

Go’daklik yoshidagi jismoniy taraqqiyotning xususiyatlari. Ilk yoshdagi extiyojlarning shakllanishi. Bog`gha yoshidagi bolaning jismoniy taraqqiyoti. Bog`gha yoshidagi bolaning psixik taraqqiyoti. Bolaning psixik taraqqiyotida uyinning roli. Mexnat va ukish elementlari . Bolalarda kunikma va malaka , odatlarning tarkib topishi. Bog`gha yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlashning psixologik masalalari

**Darsning maqsadi:**

Ilk bolalik davrida fiziologik va jismoniy rivojlanish, harakat va malakalari, kognitiv va nutqning rivojlanishi. Ilk bolalik davrida nutqning o'sishi, ilk bolalik davrida o'zini anglash haqida ma'lumot beriladi.

Bola bir yoshgacha bo`lgan davrda jismoniy va psixik jixatdan tez o'sadi. Bu davrda bola kup jixatdan ojiz bo`lib, kattalarning doimiy va to`g`ri parvarish qilishiga muxtojdir. Bolaning to`g`ri kelgusida soglom bo'lishi va psixik jixatdan normal o`sishi uning bir yoshgacha bo`lgan davrda to`g`ri parvarish kilinishiga bolik bo`ladi. Yangi tug`ilgan bolaning jismoniy qiyofasi o`ziga xos bo`lib, kattalarning jismoniy qiyofasidan ancha fark qiladi. Yangi tug`ilgan bola gavdasining sondan buyingacha bo`lgan qismi juda o'zun, oyoqlari kalta, boshi nisbatan katta, buyni kiska bo`ladi.

Katta yoshdagi kishining boshi gavdasining sakkizdan bir qismini, yangi tug`ilgan bolaning boshi esa gavdasining turtdan bir qismini tashqil etadi. Yangi tug`ilgan bolaning gavdasi yuqori qismi patski qismiga karaganda ancha o'zun bo`ladi. Yangi tug`ilgan bolaning buyi urta xisobda 48-52 sm bo`ladi. Uning yo'z juda kichkina bo`ladi.

Go`dak bir minutda 50-60 marta nafas olib, nafas chiqaradi. Ammo katta yoshdagi kishi esa bir minutda 16-14 marta nafas oladi.Yangi tug`ilgan bolaning nafas olish yo'li xali juda tor bo`ladi. Bundan go`dakning dastlabki kunlarda toza va sof xavoga ayniqsa muxtoj ekanligi ravshan kurinib turadi. Bola urniga ungay xolatda yotkazilmasa kisib yurgaklansa uning nafas olishi uchun kushimcha kiyinchilik yo'zaga keladi. Agar bola go`daklik davrida noto`g`ri parvarish kilinsa, uning skeletidagi turli qismlar turlicha, ba'zan bolaning biror eri kiyshik bo`lib o`sishi mumkin. Kupincha bunday kiyshik o`sish umurtkasida sodir bo`ladi,chunki umurtkasi suyagi juda elatsik va yumshok bo`ladi.

Bir yoshgacha bo`lgan davrda bolaning jismoniy qiyofasida katta o'zgarishlar ro'y beradi. Uning vazni va buyi sezilarli o'zgaradi.

Keyinrok borib, vaznining ortishi bir muncha sekinlashadi.va yoshi qanchalik ulgaysa , vaznining ortishi shuncha sekinlashadi. Bola bir yoshgacha

uning vazni taxminan 6 kg ga ortsa ( bir yoshli bolada vazn taxminan 9 kg bo`ladi.) , keyingi 2 y davomida ya'ni bir yoshdan uch yoshgacha uning vazni 5 kg ga ortadi.( 3 yoshli bolaning vazni taxminan 14 kg bo`ladi.)

Bola bir yoshga tulguncha uning gavda qismlarining nisbatida xam katta o'zgarishlar ro'y beradi. Uning qo`l-oyoqlari , ayniqsa oyogi tez o'sadi. Kukrak kafasi o'zayadi, kukrak kafasining xajmi kengayadi,buyni o'zayadi, boshi gavdasiga nisbatan kichikrok bo`lib qoladi.

Bola bir yoshga to'lish oldidan uning jismoniy o`sishi atrof-tevarakdagi sharoitga ancha moslashib qoladi va tashqi muxitning noqo`lay ta'siriga kamroq beriladigan bo`ladi.

Ma'lumki, bolaning psixikasi, xulk-atvori katta yoshdagi kishining psixikasidan ancha fark qiladi. Uning sababi shuki, bola psixikasining moddiy negizi bo`lgan nerv sistemasi o`ziga xos xususiyatga egadir.

Bolaning ayniqsa tug`ilganiga bir necha oygina bo`lgan bola nerv sistemasining quyi bo`limlari katta yoshdagi kishilar nerv sistemasining quyi bo`limlariga karaganda bekiyos katta rol uynaydi. Nerv sistemasining quyi bo`limlari ancha ilgari paydo bo`ladi va tezroq etiladi. Shartsiz reflekslar nerv sistemasining mana shu qismlari orqali vujudga keladi. Shu tufayli chakalokning dastlabki tamshanish, yutish, so'lak chiqarish va shu kabi reflekslar qondiriladi.

Bola tug`ilganidanoq unda bir kator analizatorlar normal yaxshilab turadi. Badan analizatori ana shular jumlasidandir. Yangi tug`ilgan bola badanining sezgirligi katta yoshdagi kishi badanining sezgirligidan kuchliroq bo`ladi. Shu sababli yangi tug`ilgan bolaga badaniga kattik botmaydigan kiyimlar kiydirish kerak. Tanasiga tegilsa bola turli xarakatlar bilan javob beradi. To`g`ri bu xarakatlarning kupchiligi tartibsiz tarzda, lekin juda muayyan shartsiz reflektor reaktsiyalar xam bo`ladiki, bunday reaktsiyalar fakat yangi tug`ilgan bolalrgina xos xarakterli reaktsiyalardir. Chakalokning labiga tegishingiz bilan unda darxol emish xarakatlari sodir bo`ladi.Kaftiga  qo`lingizni tegizsangiz u barmoklarini yumib oladi. Chakalokni ko`tarsangiz xam u qo`liga ushlab olgan barmoklaringizni quyib  yubormaydi.

Robinzon refleksi deb ataluvchi bunday refleks bola bir necha xaftalik bo`lganida paydo bo`ladi va u ikki oyga to`lganidan keyin esa yuk bo`lib ketadi.

Bola tug`ilgan kundan boshlab , tam bilish analizatori ishlay boshlaydi. Yangi tug`ilgan bola shirinlikni , achchiqni, nordonni, shurni sezadi. Chakalokka biror narsaning mazasi yokmasa aftini bujmaytiradi. Bola ta’mi yokmagan narsadan totinmaslikka xarakat qiladi, ya’ni yo’zini ugiradi.

Bola tug`ilgandan boshlab , uning xid bilish analizatori normal ishlay boshlaydi va shu tufayli xidni fark qila boshlaydi. Sassik , qo`lansa, badbuy narsalarga nisbatan bolada salbiy reaktsiya paydo bo`ladi.Ta’m bilish va xid bilish analizatorlarining faoliyati bolaning ovkatga bo`lgan muxim extiyojni qondirish bilan chambarchas boglangan.

Bola tug`ilganidan keyin uning qulog`iga azon aytish kerak, shundan keyin u yaxshi eshitadigan bo`ladi, degan xurofotning bizda paydo bo’lishiga sabab xam shu, xaqiqatdan esa chaqaloq tug`ilgan paytda qulog`ining eshitmay qolishiga sabab shuki, qo`lokning ichi ona qornida suyuqlikka tulib qoladi. Bir oz vaktdan keyin bu suyuqlik yo`qolib, ochiladi.

Ko’rish analizatorining takomillashmaganligishu narsada xam namoyon bo`ladiki, bola tug`ilganidan keyin dastlabkivaktda uning ko’z tur pardasidagi markaziy qismlargina sezish kobiliyatiga ega bo`ladi.Ko’z pardasida esa rangni ajratish apparati bor.

6 oylik bo`lganida bola asosiy ranglarni va eng oddiy shakldagi narsalarni farklay boshlaydi. Eshitish va ko’rish analizatorlarining faoliyati mukammal emasligining sababi shundaki, bola tug`ilgan paytida uning bosh miya po`sti xali etarli ravishda rivojlanmagan bo`ladi, analizatorlarning markaziy qismlari esa bosh miya po`stida joylashgan.

Bola o’sa borgan sari unda juda kup yangi shartli reflekslar paydo bo`ladi. Bu shartli reflekslar tobora murakkablashib, bola psixikasining o`sishida fiziologik negiz bo`lib qoladi.

Bolaning bir yoshlik davri uning psixikasining tez sur’atlar bilan o`sishi davridir.

Bola tug`ilgan kunlarda uning faoliyati fakat eng zarur extiyojlarni qondirish bilan cheklanadi. Yangi tug`ilgan bola sutkasiga 20 soatga yaqin uxlaydi. Fakat qorni ochkaganida, chankaganida, sovukni sezganida uygonadi. Extiyoji qondirilginidan keyin yana uyquga ketadi. Bu davrda uxlashni bolaning normal xolati deyish mumkin.

O'zoq ( uxlashdan keyin ) tufayli bola energiyasining asosiy qismi uning tez o`sishiga va jismoniy jixatdan chinikishiga sarf bo`ladi, chunki yuqorida aytib utilganidek, bola tug`ilganidan keyingi dastlabki vaktlarda jismoniy jixatdan ayniqsa tez o'sadi.

Bola sekin kamroq uxlaydigan bo`ladi va atrofdagi narsalarning ta'siriga ko`proq qiziqadigan bo`ladi. Bir oylik bola narsalarning xarakatiga karab, boshini burishi mumkin, ikkinchi oyga utganda u tovush kelgan tomonga karab boshini buradi, keyinrok esa ovozni eshitib, gapirgan kishini ko`zi bilan qidira boshlaydi.

Bolaning miyasi tobora ko`proq taassurot oladigan bo`lib qoladi, bu esa yanada rivojlanishga yordam beradi.

Bu vaktlarda kelib bolada xamma analizatorlarning shartli reflekslari mutsaxkamlanadi. Ayrim bir butun qilib boglaydigan shartli reflekslar vujudga kelishi natijasida bola narsani yaxlit xolida idrok qiladigan bo`lib qoladi. U tevarak- atrofdagi narsalarni idrok qila boshlaydi. Chunonchi , bola tug`ilgandan boshlab, onasining ovozini eshitadi. Badaniga onasining qo`li tekkanini sezadi, onasining aftini ko`radi.

Bolaning idroki bilan xarakatlari urtasidagi boglanish tobora mutsaxkamroq bula boradi. Bola aktiv xarakat qilish bilan o`zining juda xilma-xil xarakatlari bilan tevarak- atrofidagi narsalarni bilib oladi.

Bolada ixtiyorsiz diqqat xam o'sadi. Bola tug`ilgan paytlarda uning e'tiborini asosan o`zining organikextiyojlarini qondiradigan narsalar jalb qilar edi. Endi bolaning diqqatini ung yaqinrok bo`lgan xilma-xil narsalar jalb qiladi. Xarakatda bo`lgan yaqinroq tovush chiqaradigan narsalar  bolaning diqqatini ko`proq jalb qiladi.

Bu yangi xarakatlarning paydo bo’lishi bolaning tevarak-atrofdagi narsalarni bilishini yanada aktivlashtiradi. Bola o`zining qo`llarini, boshini timiskalab, ushlab ko`radi. Oyogini qo`li bilan ushlab, ogziga tortadi. O`ziga yaqin turgan narsaga qiziqib qaraydi, qo`l uzatib, uni ushlab oladi.

Bunday xarakatlarni qila olish bolani quvontiradi, u oyoqlarini pitirlatadi, quladi, guv-guvlaydi. Ushlab olgan narsasini silkitib ko`radi, so’ngra uni og`ziga solmoqchi bo`ladi.

Bola uch-turt xaftalik bo`lganidayok, unda xarakat xotirasining dastlabki ko’rinishlari paydo bo`ladi. Birinchi shartli refleksning vujudga kelishi ana shunday dalolat beradi. Agar bolani emizgan vaktidagidek qo`liga olinsa, u tamshanib, emishiga xarakat qiladi. Bola xarakatining o’sa borishi bilan uning xarakat xotirasi xam o’sadi. Uch-to’rt oylik bolada yaqqol obrazli xotira paydo bo`lganligini kuramiz.

Kattalarning aytgan so`zlarini tushunish bolada xotiraning o`sib borayotganligini ko’rsatadi. Olti-etti oylik bola oti aytilgan narsani biladi va uni ko’rsatib beradi.

Go`dak xarakatlarining takomillasha borishi uning psixikasining yanada ko`proq eplashtiradigan bo`lib qoladi. Besh oylik bola yonboshlab agdarilishi, sungra esa qornini erga berib yota olishi mumkin. 7-8 oylik bola odatda karovotni yoki boshqa bir narsani ushlab tik tura oladi. Endi murakkabrok xarakatlar qila boshlaydi. Karovotning setkasini ushlaydi, sungra unga osilib chukkalab turadi. Oldingi bir oyogini quyib oladi va nixoyat, urnidan turadi.

Jismoniy jixatdan yaxshi usgan bola 9-10 oylik bo`lganidan yura boshlaydi. Datslab bola biror narsani ushlamay, o`zi mutsakil ravishda tik turadi, kiyinchilik bilan bo’lsa xam o’z muvozanatini saklaydi. Sungra kurka-pisa birinchi kadamlarini quyib alpinib-tolpinib yura boshlaydi.

Bola 6 oyga to`lganidan keyin xali gapirmasa xam, lekin unda nutqsiz tafakkur elementlari paydo bo`ladi. Aslini olganda, bola biror narsani yoki kimsani tanishni urgangan vaktdan boshlab unda tafakkur elementlari bo`ladi. Xar-bir narsani tanib olish utgan tajriba asosida shu narsani fikrlashni takoza qiladi.

Bola biror yangi narsani bilishi bilan uni ilgari kurgan narsalari bilan takkoslaydi, ularning bir-biriga uxlashligini  yoki bir-biridan farkini belgilab oladi. Nutq paydo bo’lishi va o`sishi bilan bolaning tafakkuri yanada o’sadi.

Bola nutqning o`sishi uchun kerakli asos, uning go`daklik davrida vujudga keladi. Chinakam nutq go`dakning davridan utgandan keyin shakllanadi, lekin shunga karamay, go`dak bolada nutqning dastlabki belgilari uning psixikasini utsirishda juda katta rol uynaydi.

Bola 8 oylik bo`lganida kattalarning gapini tushuna boshlaydi. Datslab u intonatsiyaga va mimikaga ko`proq e’tibor beradi. Intonatsiyani , ya’ni ovoz oxangini o’zgartirish bilanok , bola kattalarning  gapini tushunmay qoladi.

To`g`ri, bir yoshga tulguncha bolaning so`zlari o`ziga xos bo`ladi, asosan taklid tarikasidagi va tovushga taklid  qilib  aytilgan so`zlar  bo`ladi.

Bola nutqining bunda keyingi o`sishi kup jixatdan kattalarning gapiga taklid qilish yo’li bilan boradi. Bola kattalarning so`ziga taklid, yangi so`zlarini urganib oladi, shu so`zlarni  jumla tarikasida boglab ifodalashni o’rganadi. U kattalar bilan gaplashish va muomala qilish yo’li bilan yangi-yangi so`zlarni o’rgana boradi.

Bola bir yoshga tulguncha nutq va tafakkurni egallashga birinchi kadamlarnigina kuyadi. Bola bog`gha yoshiga etguncha uning tafakkuri va nutqi yanada usa boshlaydi.

Organizmning xayoti va taraqqiyoti uchun mutlaqo zarur bo`lgan tabiiy extiyojlar tufayli bolada dastlabki xsilar paydo bo`ladi va dastlabki paytlarda uning xislari shu tabiiy extiyojlar doirasi bilan cheklanadi.

Tuyish yoki ochlik, issiklik yoki sovuk kotish, kanoatlanish , roxatlanish yoki norozilik tugdiradi.

Bular bolaning tug’ma xislari bo`lib, bu xislarning fiziologik asosi tabiiy o’z-o`zidan saklash shartsiz reflekslari kurinishlarning xissiy formasidir.

Tug`ilgandan keyin dastlabki oylarda bolada chuchish xissi xam paydo bo`ladi. Bola gavdasining xolati tusatdan o’zgartirilsa, tusatdan birov bakirib yuborsa yoki biror narsa takillab ketsa, bola bigillab yiglay boshlaydi. Nafasi kisilib qoladi. Mimika xarakterli tusga kiradi.  Fiziologik jixatdan karaganda

bolaning bu xolatini shu bilan izoxlash mumkinki, bu xolat bosh miya po`stida tormozlanish prottssessining keng yoyilganligini ifodalaydi, buning natijasida bosh miya po`stining tartibiga soluvchi faoliyat tuxtab qoladi va endi bolaning xarakatini nerv sistemasining quyi bo`limlari boshqaradi.

Bolaning xarakatini sikibquyish unda norozilik va xatto gazab xissini tugdiradi. Aksincha bolaning aktiv faoliyatida bo’lishi uchun imqoniyat beradigan xarakat erkinligi , unga xo’zur baxsh etadi, uni kuvontiradi. Bola yangi narsaga kizikib karaydi, sungra uni qo`li bilan ushlab kurmokchi bo`ladi, uyinchoklarni uynaydi, uyinchoklarni tashlab yuborib va ularning takillab tushgan tovushini eshitib xo’zur qiladi.

Go`dak davrida bolada kelajak iroda protsesslarining boshlangich elementlari paydo bo`ladi. Biz bu erda to`la ma’nodagi iroda protsesslari to`g`risida xali gapira olmaymiz. Bular iroda protsesslarining fakat ayrim elementlari bo’lsa xam, lekin bola irodasining o`sishi katta axamiyatga ega.

Bola 6 oyga to`lganidan keyin uning xarakatlarida kattalarning xarakatlariga taklid qilish katta rol uynaydigan bo`lib qoladi. Bu vaktda bola o’z xarakatlarning maksadini unchalik anglamaydi. Oldingi anglab, sungra xarakat kilmaydi, balki xarakat bilan maksad ayni vaktda paydo bo`ladi.

Bir yoshga t o’lish oldidan bolaning nutqi usa borgan sari akli xam tez orta boradi. Natijada irodaviy protsesslarning yanada tarakkiy etishiga yo’l ochiladi. Endi u o’z xarakatlarining maksadini yaxshiroq anglaydigan bo`lib qoladi, kattalarning aytganini qiladi, unchalik murakkab bulmagan iltimoslarini bajaradi. Mana shularning xammasi irodaning o`sishiga yordam beradi.

Bola bir yoshga etguncha unda dastlabki xam ijobiy, xam salbiy odatlar paydo bo`ladi. Muayyan vaqtda emishga odatlanish juda erta paydo bo`ladi. Bola 6 oyga to`lganidan boshlab, yuvinishga odatlanadi. Shu bilan bir katorda bolada salbiy odatlar xam «qo`lga o’rganish» fakat tebratgandagina uxlash, barmogini ogziga solib surish kabi salbiy odatlar xam juda erta paydo bo`ladi. Shartli reflekslar odatlanishning fiziologik asosidir.

Bolada yoshlik chogidan boshlabok o`ziga xos xususyatlari borligini kuramiz. Bu xususiyatlar temperament bilan boglik bo`ladi. Bolaning umuman xarakatchanligi, ta’sirlarga tez berilishi, yangi xarakatlarni tez urganib olishi, bolaning kayfiyati mana shularning xammasida bola temperamentining xususiyatlari sezilib turadi.

Ma’lumki, temperament bilan boglik bo`lgan individual xususiyatlarga tarbiyaviy ta’sir utkazish juda kiyin bo`ladi. Birok bolaning yoshligidan boshlab bu ish to`g`ri yo’lga quyilsa , xar kanday temperamentli bola xarakterida ijobiy sifatlarni tarbiyalash mumkin.

Birinchi davr- yangi tug`ilgan chakalok ( taxminan 2 oygacha bo`lgan) davrdir. Bu davrda bola jismoniy jixatdan xali juda zaif bo`ladi, shu bilan birga, u jismoniy jixatdan nixoyat darajada tez o’sadi va rivojlanadi. Bu davrda eng asosiy vazifa , bolani parvarish qilish, uning jismoniy jixatdan normal o`sishini va rivojlanishini ta’minlash, uyqu , ovkatlantirish va shu kabilar soxada rejimga rioya qilishdan iborat.

Ikkinchi davr – go`daklik ( taxminan ikki oylikdan to yura boshlagunga bo`lgan) davrdir. Bu davrda bolaning psixikasi nixoyat darajada tez o’sadi. Kattalarning bu davrda bolaning psixikasini utsirishga muttasil xarakat qilishi kerak.

Mana shu ikki davrning o`ziga xos xususiyatlarini xisobga olib,bolaning o`sishida biz yuqorida aytib utgan juda katta muvaffakiyatlarga erishmok uchun butun shart-sharoitni yaratib bera olamiz.

Shuni alohida ko’rsatish joizki, 1,3.6 yoshlar nutqning rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bu davr aqliy rivojlanishning asosini, idrok va tafakkur harakatlarining yangi ko’rinishlarini tashqil etadi. 1 yoshli bola predmetlarni izchil, sistemali ravishda ko’rib chiqa olmaydi. U asosan predmetning qandaydir bir ko’zga tashlanib to’radigan belgisiga o’z e’tiborini qaratadi va predmetlarni shu belgilariga ko’ra taniydi. Keyinchalik yangi idrok harakatlarining egallanishi bolaning predmetli harakatlarini bajarishdan ko’z bilan chamalab, harakat qilishiga o’tishda namoyon bo’ladi, endi u predmetning bo’laklarini ushlab ko’rmasdan,

balki chamalab idrok eta oladi. 2,5-3 yoshli bola kattalarning ko'rsatgan namunasi, rangi shakli va kattaligiga ko'ra, aynan shunday predmetlarni chamalab, idrok etgan xolda tug`ri topa oladi. Bolalar avval shakliga, so'ngra kattaligiga va undan keyingina rangiga qarab ajrata oladilar. Bu jarayonda bola bir xil xususiyatga ega bo'lgan juda kup predmetlar mavjudligini tushuna boshlaydi. Lekin, bola rasm chizishni boshlagani davrida predmetlarning rangini e'tiborga olmaydi va o'ziga yoqadigan ranglardan foydalanadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha 2,5-3 yoshli bola 5-6 ta shaklni (doira, kvadrat, uchburchak, to'g`riburchak, ko'pburchak) va 8 xil rangni (kizil, qovoq sariq, sariq, yashil, ko'k, siyohrang, oq, qora) idrok etishi mumkin. Rang va shakllarning maqsadga muvofiq ishlatilishi jihatidan turli xil narsalarda turlicha namoyon bo'lishi sababli, bu yoshdagi bolalar ularni idrok etganlari bilan ularning nomlarini aniq bulishlari va o'z nutqlarida ishlata olishlari birmuncha qiyinroq. Kattalarning bu yoshdagi bolalardan ana shu rang va shakllarni eslab qolishini talab etishlari birmuncha noto'g`ridir, buning uchun mos davr 4-5 yoshlar hisoblanadi.

Ilk bolalik davrining boshlariga kelib, bolada birinchi tafakkur operatsiyalari yo'zaga keladi. Buni bola biror predmetni olishta Harakat qila olganidan so'ng, uni sinchiklab o'rganishida ko'rishimiz mumkin. Ularning tafakkurlari, asosan, ko'rgazmali-Harakatli bo'lib, u atrof olamdagi turli bog`liqliklarni o'rganishga xizmat qiladi. o'zidan o'zoqroq turgan koptokni biron-bir o'zunroq narsa bilan itarib yuborish mumkinligini ko'rgan bola, endi mustaqil ravishda divan tagiga kirib ketgan koptokni tayoqcha yordamida olish mumkinligini tafakkur eta oladi, Bu davrdagi bolalar tafakkurida umumlashtirish katta o'rin-to'tadi. Umumlashtirishda nutq muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, soat deyilishi bilan bola qo'l soatini yoki devordagi osma soatni Ham tushunishi mumkin, Lekin, ular turlicha bo'lganligi bois, ularda umumiylikni topish bola uchun birmuncha qiyinroq Hisoblanib, bu borada fikrlash yordamga keladi va umumlashtirishni tashqil etadi.

2-3 yoshli bolalar ma'lum bir predmetlarning o'rniga ularning o'rnini bosishi mumkin deb Hisoblagan boshqa narsalardan Ham foydalanadilar. Masalan, o'yin jarayonida bola qoshiq yoki termometr o'rnida, yogochdan yasalgan krovat yoki mashina o'rnida foydalanishi mumqin. Bir predmetni boshqasi o'rnida qo'llaniladi.

Xorij psixologi G.Graig bu yoshdagi bolalar tafakkur jarayonlarining 5ta xususivatini ta kidlab k o'rsatgan[1].

Birinchidan, bu yoshdagi bolalarning tafakkuri konkrent. Operatsiyalargacha intellektda boalalr mavhum fikrlay olmaydilar. Ularning aqli "shu yerda va hozir" ro'y berayotgan jismoniy ob'yektlar bilan band bo'lib, ularni oson tasavvur qilishi mumkin.

Ikkinchidan, kichkina bolaning tafakkuri bir yoqlama, ya'ni hodisalarning rivojlanishi va bog'lanishlarning hosil bo'lishi bir yoqlama ro'y beradi. Bolalar qandaydir ob'yektning dastlabki holiga qaytishi mumkinligi yoki ob'yektlar orasidagi bog'lanishlar ikki tomonlama bo'lishi mumkinligini tasavvur qila olmaydilar.

Uchinchidan, bolaning operatsiyalargacha bo'lgan tafakkuri egotsentirik, bolaning istiqbol ramkalari bilan chegaralangan, shuning uchun ham boshqa insonning fikrini qabul qila olmaydi. Bolalar o'zlari idrok qilayotgan obrazlariga diqqatini qaratganlari uchun, hamma odamlar dunyoni uningdek ko'radi, deb o'ylaydilar.

To'rtinchidan, bu davrda bola tafakkuri ob'yekt yoki vaziyatni o'lchash yoki qandaydir jismoniy xususiyatida markazlashish tendensiyasiga ega. Markazlashish bu ob'yekt yoki vaziyatning qandaydir xarakteristikasiga diqqatning to'planishi bo'lib, operatsiyalargacha bo'lgan tafakkurning asosiy belgisidir.

Beshinchidan, operatsiyalargacha bo'lgan davrda bolalar o'zgarish jarayonlariga emas, balki ob'yektlarning hozirgi holatiga diqqatlarini qaratadi.

Tafakkurning o'sishida yana bir muhim bosqich shundan iboratki, ilk bolalik

---

[1]G.Graig. Human development. Prentice Hall. 1996. P. 367

yoshining oxiriga kelib bola ayrim tushunchalarni bilib olishga va bu tushunchalarning eng muhim belgilarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladi. Uch yoshga to'lay deb qolgan bola, katta yoshdagi hamma odamlarning ishga barvaqt ketishlarini juda yaxshi biladi. Agar bu yoshdagi bolaga "adang endi barvaqt ishga ketmaydi" deyilsa, u hayron bo'lib, qoladi. Chunki katta odam bo'lgan adasining ishga bormasligi, uning tushunchasiga to'g'ri kelmaydi. Uning tushunchasida hamma katta odamlar barvaqt ishga ketishi kerak. Shuning uchun hech bir o'ylab o'tirmay, "adam kattalar-ku?" deb javob beradi. Bolalar tushunchalardan foydalanib, sodda xulosalar chiqarishga o'rgana boshlardilar. Ular bir necha hukmlardan foydalanib, katta, kichik, baland, past, ko'p, oz kabi sodda xulosalar chiqara oladilar, bu esa tafakkurning yanada rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

**Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar.**

1. Bog`cha yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari.
2. Bog`cha davrida bola shaxsishntg rivojlanishi shart-sharoitlari.
3. Bog`cha yoshidagi bola faoliyatining psixologik xususiyatlari.
4. Bog`cha yoshdagi bolada xulq motivlarining rivojlanishi va o'ziga baho berishi shakllanishi.
5. Bog`cha yoshdagi bolada bilish jarayonining rivojlanishi.
6. Bog`cha yoshdagi bolaning maktabdagi ta'limga psixologik tayyorgaligi.

**Mustaqil bajarish uchun vazifa**

1. 2-3 yoshli bolalr guruhida geometrik jismlar yordamida o'tkaziladigan mashg'ulotlarni kuzatib, guruh tarbiyachisining:
   a) Bolalarga kub va sharni quticha teshigiga tushirish;
   b) G'ishtcha va uch qirrali prizma "tom"ni quticha teshikchalariga tushirish;

c) Yassi jismlarni teshikchalarga tushirishni o'rgatish tajribalarini yoritib, o'z xulosalaringizni yozib bering.

2. Quyidagi savollarga javob topib, mavzu bo'yicha munozaraga tayyorlaning:
   1) Ilk yoshdagi bolalar sensor tarbiyasining zarurligi;
   2) Sensor tarbiyaning vazifalari;
   3) Sensor tarbiyaning metodlari;

## 7-mavzu: MAKTABGACHA YOSH DAVRI

Mashg`ulot shakli  Obzorli-ma'ruza tushunib olish, esda qolishi kerek bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma'ruza mashg`uloti rejasi**

1. Maktabgacha bolalik davomida rivojlanishni ijtimoiy vaziyatini o'zgarishi.
2. O'yin va faoliyatning boshqa turlari.
3. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot.
4. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bilish jarayonlarini rivojlanishi.
5. Maktabgacha tarbiya yoshida shaxsini rivojlanishi.

**Darsning maqsadi:**

Bog'cha yoshida mehnat faoliyatining xususiyatlari, o'quv faoliti, bog'cha yoshida rivojlanish, bilish jarayonlari taraqqiyoti, nutqining kommunikativ vosita sifatidagi rivojlanishi, maktabga psixologik tayyorgarlik haqida ma'lumotlar beriladi.

Bola bog'cha yoshiga etgach,uning psixik taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yo'zaga keladi.Chunki xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi.Bog`gha yoshidagi bolaning baorcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib uning tashqi muxit bilan munosabatlarida anchagina o'zgarishlarni yo'zaga keltiradi.Bog`gha yoshidagi davrda ayrim psixik jarayonlarning

rivojlanishi bilan birga ularning shaxsi va shaxsiy xislatlari xam tarkib topa boshlaydi.

Bog`gha yoshidagi bolalar uchun mavxum nazariy faoliyatning,ya'ni neazariy yo'l bilan bilish faoliyatining bo'lishi mumkin emas.Bu yoshdagi bolalarning atrofdagi narsalarni bilish faoliyatlari fakat bevosita xarakat shaklida bo'ladi.Bolalar atroflaridagi kattalar uchungina mansub bo'lgan,xali o'zlarining kuchlari xam,akllari xam etmaydigan juda kup narsalarni fakat uyin faoliyati orkali o'zlashtiradilar.Uyin orkali vokeylikdagi narsa va xodisalarni biladilar.Uyin tevarak atrofdagi narsalarni bilish vositasi emas balki kudratli tarbiya vositasixamdir.Bolani o'yin orqali ijtimoiy foydali ,ya'ni yuksak insoniy xislatlarni xam tarbiyalash lozim.

Professor E.A.Arkin bog`gha yoshidagi bolalar o'yinining quyidagi taxminiy klasifikatsiyasini beradi.

1.Bolalarning ma'lum psixik jarayonlarni takkomillashtirishga karatilgan uyinlar:

A)xissiy sezgi organlarini takkomillashtiruvchi o'yinlar;

B)xarakatli(sport o'yinlar);

V)estetik o'yinlar;

2.Texnikaviy o'yinlar;

A)industrial o'yinlar;

B)qishlok xujaligi o'yinlari;

V)kasb bilan boglik o'yinlar;

G)kurilish o'yinlari;

3.Xayotiy va ijtimoiy-siyosiy o'yinlar;

A)oila xayotiga doir uyinlar

B)bog`gha maktab o'yinlari;

V)ijtimoiy xayot bilan boglik o'yinlar;

G)ijtimoiy siyosiy o'yinlar;

4. Xarbiy o'yinlar.

A) kizil askar o'yini ;

B) matros o’yini;

V)urush o’yini;

5.Dramatik o’yinlar

A)teatr o’yini;

B)kino o’yini;

V)sirk o’yini.

Ma’lumki didaktik uyinlar(loto rasmli kubiklardan xar turli kurinishlar chikara olish ,son sanok ,mozaika, shashka, topishmoklar kabi) bog`ghada maxsus programma bilan olib boradigan mashgulotlarni muvafokiyatli utkazishga kup jixatdan yordam beradi.

Bolalar bog`ghada asosan syujetli va rollarga bulinib uynaladigan uyinlarni uynaydilar.Rollarga bo’lib uynaladigan uyinlarda bolalar tevarak –atrofdagi muxitdagi narsalarni aks ettiradilar.

Shunday kilib turli yoshdagi bog`gha bolalarining uyin faoliyatlari ularning barcha aks ettirish,ya’ni psixik jarayonlari ni,akliy imqoniyatlarini ,shaxsiy psixologik sifatlarini ,xarakter xislatlarini tarkib toptirib,rivojlantiradi.

2. Bog`gha yoshidagi bolalarni akliy ,axlokiy va xususan ,estetik jixatdan tarbiyalashdatasvirlash faoliyati juda katta yordam beradi.Shuning uchun xam bog`gha yoshidagi bolalarning tasvirlash faoliyatlarini xar doim maksadga muvofik ravishda pedagogik jixatdan tugri va kizikarli tashqil qilishga e’tibor bilan karash zarur.Bog`gha yoshidagi bolalarning psixik jixatdan rivojlanishlarida tasvirlash faoliyatlarining roli kattadir.Bog`gha yoshidagi bolalar o’zlarining tasvirlash faoliyatlarida xam kandaydir gayri tabiiy,xayoliy narsalarni emas balki tashqi muxitni ,undagi narsalarni ,jonivorlarni aks ettirishga intiladilar.

Bog`gha yoshidagi bolalar rangli kalamlar,rangli buyoklar bilan rasm chimzish va rangli kogozlardan turli aplikatsiyalar tayyorlash bilan o’zok muddat davomida shugullanishni yoktiradilar.Bolalarning tasvirlash faoliyati xayol va xissiyo jarayonlariga jiddiy ta’sir qiladi.Tasvirlash faoliyati orkali kilingan ishlarini chizgan rasmlarini ko’zga kurinadigan joyga namoish kilib kuyadilar.

Bolalarning tasvirlash faoliyatlari asosan o’rta va katta gruppadan boshlanadi

Shuni ta'kidlab o'tish joizki.bog'cha yoshidagi bolalarning ko'rib yasash o'yinlari ularning ko'zatuvchanligi va tafakkurning rivojlanishida aloxida axamiyatga egadir.Xar xolda ko'rib yasash faoliyati bolalarning idroki,diqqati, ko'zatuvchanligi , xotirasini xamda tafakkur qilish jarayonlarini rivojlantirishga yordam beradi.

3. Bolalarning mexnat mashgulotlari asosan bog`gha yoshidagi davrdan boshlanadi.Bolalarning mexnatlari sodda va elementar bo'lsa xam ularning psixik taraqqiyotlarida juda katta axamiyat kasb etadi.

Bog`gha yoshidagi bolalarning mexnatlariga baxo berish ularda mexnatga nisbatan nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda katta rol' uynaydi.Bog`gha yoshi bolalarda xali mexnat malakalari yuk,kul muskullari yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Ana shuning uchun bolalar atayin yoki ankovlikdan emas ,balki eplay olmasliklaridan biror narsani tushirib sindirib kuyadilarAna shundayxollarda bolalarni urushmay mexnatni kanday bajarish kerakligini urgatish lozim.

Bog`ghada bolalar jalb kilinadigan mexnat faoliyatining turi juda xilma xildir.Masalan,tabiat burchagidagi jonivor va usimliklarni parvarish qilish .bog`gha uchustkasida ishlash, oshxonada va gruppada navbatchilik qilish,kichkintoylarni kiyinishlariga yordam berish.

Bog`gha bolalari biron uyin,ta'lim yoki mexnat faoliyatlari bilan mashgul bular ekanlar, ular xarkatlarining asosida ma'lum motivlar,ya'ni ularni xarakatga soluvchi motivlar yotadi.Bu davrda bolalarning xatti-xarakatlari va xulk atvorlarining motivlari xam o'zgarib rivojlanib boradi.

Bog`gha yoshidagi bolalarda ana shunday motivlar bilan birga o'z-o'zini anglash,o'zining xatti-xarakatlariga baxo berish xam tarkib topa boshlaydi.

4. Bolalarga ta'lim berish bog`gha yoshidan oldingi davrdan boshlanadi.Chunki odam kelajakda ijtimoiy foydali mexnatga tayyor bo'lishi uchun juda kup bilimlarga ega bo'lishi kerak .Bundan tashkari ta'lim bolalarni xar tomonlama rivojlantirishning eng zaruriy shartlaridandir.Bolalar uta kizikuvchan va xissiyotli bo'ladilar.Ularning ana shu kizikish va xislaridan ta'lim jarayonida keng foydalanish mumkin.

Bog`gha yoshidagi bolalarga ta’lim berish xarakteri esa tubdan o’zgarib ketdi.Bog`gha ta’limi maxsus programma asosida olib boriladi.Bog`gha yoshidagi bolalarning bilimi yasli yoshidagi bolalarning bilimga nisbatan keng bo’ladi.

Ta’lim berish jarayoni mashgulotlarda uyin tarzida utkaziladi.

Bolalarni sistemali ta’lim va ishlab chiqarish mexnatiga asosan didaktik uyinlar xamda ijodiy tasvirlash faoliyatlari orkali tayyorlanadiBog`ghada utkaziladigan ta’limiy mashgulotlarning asosiy maksadi bolalarga turli soxalarga doir yangi bilimlar,malakalar va ukuvlar berishdaniboratdir.Bolalar biron bir faoliyat bilan shugullanayotganlarida bajarayotgan ishlarini kechadigan yaxshirok bajarishga intilsalar ,bu ish ta’limiy xarakterga ega bo’ladilar.

Bog`gha yoshida bolaning barcha sezgi organlari to’zilish jixatidan tula rivojlangan bo’ladi. Lekin bundan bolaning sezgi organlari keyingi davrlarda ortik rivojlanmaydi degan xulosa kelib chikmaydi, albatta. Bog`gha yoshidagi bolalarning sezgi organlari (analizatorlari) narsalarning turli-tuman xususiyatlarini aks ettira olsalar xam, xali kup jixatdan kattalar sezgi organlarining yuksak takomili darajasida emas. U xali ritvojlanishda davom etadi.

Bolalar narsalarning farkini tez ajrata olmasliklari tufayli ularning xar bir narsani bevosita ushlab, timirsqilab ko’rishga bo’lgan intilishi bog`gha yoshdagi davrda xam saklanib koladi. Keyinchalik turmush tajribasining ortishi bilan kuri sh va eshitish sezgilari teri, mukul va xarakat sezgilaridan (ya’ni narsalarni bevosita timirsqilab ko’rishdan) ustunlik darajasiga kutariladi. Natijada bolalar narsalarni ushlamasalar xam, ko’rish va eshitish bilan kanoatlanadigan bo’ladi. Bolalarning akliy o’sishida ko’rish sezgisining roli goyat kattadir. Bolaning ko’zi bog`gha yoshigacha bo’lgan davrda juda tez ta’kominllashadi. Bog`gha bolalari ranglarning farkini yaxshi ajrata olsalar xam, ba’zi murakkab ranglarning nomini bilmaydilar.

Shuni ta’kidlab utish kerakki, bog`gha yoshidagi bolalarning ko’zlari utkirligi jixatidan kattalarning ko’zlaridan kolishmasa xam, lekin tez tolikadigan bo’ladi. Shuning uchun bog`gha bolalarining ko’zlari tolikishdan saklash choralarinita’minlash kerak. Bolaning psixik jixatdan o’sishida eshitish organining (kulokning) xam roli juda katta. Bolalarning eshitish sezgirligini yoshlikdan

boshlab oshirish ularning akliy o'sishiga yordam berishi bilan birga ularda estetik tuygu tarbiyalashda xam katta axamiyatga ega. Tam bilish va xid bilish organlari xam bolalarda yoshlikdan boshlab yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bog`gha yoshidagi bolaumuman tamni emas, balki tamning barcha turlarini ajrata oladi. Teri sezgirligini turli mashgulotlar va mashklar orkali yuksak taraqqiyot darajasiga kutarish mumkin. Normal sharaoitda tarbiyalanayotgan soglom bola yaxshi takomillashgan ko'rish, eshitish, xid bilish, tam va teri sezgilariga egadir.

Bog`gha bolalarining barcha sezgi organlarini yuksak darajada rivojlantirish uchun juda kulay joydir, chunki bog`ghada buning uchun barcha sharoit mavjud. Shuningdek, bolalar sezgi organlarining sezgirlik darajasi bog`ghada utkazilayotgan ta'lim-tarbiya metodlariga xamda vositalariga bevosita boglikdir. Shuning uchun xar bir tarbiyachi o'z zimmasidagi bu muxim vazivani xech vakt unutmasligi lozim.

2. Tashqi muxitdagi narsa va xodisalarni biz fakat sezish orkali emas, balki idrok ilish orkali chukurrok va tularok aks ettiramiz. Bolalar ma'lum bir narsani idrok qilishdan shu narsaning yolgiz bir belgisiga emas balki, bir kancha belgilariga asoslanadilar. Keyinchalik ikkinchi marta shu narsa bilan duch kelganlarida o'zlari ilgari bilib olgan belgilariga tayanib, uni boshqa uxshash narsalardan farklaydilar. Bolalar atrofdagi turli narsa larni idrok etishda bu narsalarni kezga tashlanadigan belgilariga asoslanadilar. Birok turmush tajribalari oz bo'lgani tufayli bolalar narsalarning moxiyati bilan boglik bo'lgan eng muxim va umumiy belgilarini xali aks ettirolmaydilar.

Bog`gha yoshidagi bolalar uxshash narsalarning shaklini bumalol bir-biridan ajarata oladilar. Birok kichik yoshdagi bog`gha bolalariga abstrakt geometrik shakllarini yoki ularning rasmini kursatsak, ular bu shakllarni o'zlariga ma'lum bo'lgan qonkret narsalar bilan boglab (ya'ni predmetlashtirib) idrok qilishga intiladilar. Masalan, ular aylanani 'gildirak', turtburchakni 'deraza' deb ataydilar, uchburchakni xam biror qonkret predmetga uxshatadilar.

Bolalar idrokidagi bu yetishmovchilik ularning turli suratlarini idrok intilishlarida yaqqol ko'rinadi. Umuman bog`cha yoshidagi bolalar turli suratlarni

ko'rishga juda kizikadilar. Lekin ular rasmda tasvirlangan narsalarni xolatiga va fazoviy munosabatlariga tamomila befark bo'ladilar. Shuning uchun xam kupincha kichk gruppa bolalari turli suratlarni teskari ushlab, zavk bilan kuraveradilar.

Bog`gha yoshidagi volalar vunday murakkav narsalarni katta odamlardek mufassal,yani atroflicha idrok qila olmaydilar.Bolalarda manni idrok qilish uchun lozim bo'lgan so'zgi organlari (ko'z,kulok, teri va xarakat sezgilari) yaxshi tarakiy etgan.Lekin shunga karamay,bokcha yoshidagi bolalar narsalar urtasidagi maqon munosabatlarini va maqon ulchovlarini tugri idrok eta olmaydilar.

Maqon munosabatlarini tugri idrok qilishda bolalarning atrofdagi turli-tuman narsalar bilan bevosita munosabatda bulishlari katta rol uynasa, zamonni tugri idrok qilishda vakt ulchovlarini (tushunchalarini) ifodalovchi so'zlarning ko'proq ishlatilish katta rol uynaydi.

Shunday kilib, zamon tushunchalarini tugri idrok qila bilish kobiliyati xam xuddi maqonni tugri idrok ila bilish kabi asta-sekinlik bilan, ya'ni bolalarni turmush tajribalari orta borishi davomida usib boradi.

Boshqa yoshdagi bolalar idrokning normal o'sishi kup jixatdan tarbiyani va ota-onalarga boglik, chunki bolalar ayrim xollarda mustaqil idrok eta olmaydilar.

3.Boshqa ishdagi bolalar dikkatining eng ko'zga tashlanadigan tomoni ularda asosan ixtiyorsiz dikkatning kupirok ishga solishidir.

Boshqa yoshdagi bolalarda dikkatning ixtiyoriy turi rivojlana boshlandi.

Ixtiyoriy dikkat irodaviy jarayonlari bilan boglik bo'lgani tufayli kupincha boshqa ishdagi bolalar dikkatning bu turini o'zlari mustaqil ravishda tashqil eta olmaydilar. Shuning uchun dastlabki paydlarda dikkatning ixtiyoriy turini xar xil savollar va topshiriklar bilan katta odamlar (tarbiyachi ota-onalar) tashqil etadilar.

Bog`gha yoshidagi bolalarda dikkatning ayrim xususiyatlari xam ancha rivojlana boshlandi. Dastavval dikkatning barkarorligi yuksala boshlandi. Buni biz bog`gha yoshidagi bolalarning bir ish ustida o'zok utira olishlaridan, b'zi uyinlarni soatlab zerikmay uynay olishlaridan, ta'limiy mashgulotlarda chidam bilan utirishlaridan ko'rishimiz mumkin. Bog`gha yoshidagi bolalar dikkatning kuchi ular tabiyatidagi, ya'ni fel-atvoridagi zur xissiyotchanlik bilan kup jixatdan

moglikdir. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarning dikkatlari garcha kiska vakt davom etsa xam, kuchli bo'ladi. Albatta, bog`gha yoshidagi bolalar dikkatning kuchliligini katta odamlarniki bilan takkoslab bo'lmaydi, chunki katta odamlar dikkatning kuliligi asosan ularning o'z oldiga kuygan ongli maksadlari bilan boglikdir.

Umuman, bolalarning bog`gha yoshidagi davrida asosan ixtiyorsiz dikkat xukmron bo'lib, ixtiyoriy dikkat endigina yo'zaga kela boshlaydi. Ixtiyoriy dikatning bundan keyingi taraqqiyoti bolaning maktab yoshidagi davrida ukish jarayonida tez yuksala boradi.

4. Bog`gha yoshidagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning oldiga kuyilgan yangi talablar asosida takominlasha boradi. Birok shu narsa xarakterlik, bolaning bog`gha yoshidagi davrida xam asosan xotirani turi kurinadi. Turmush tajribalari va so'z boyliklari etarli bulmaganligi tufayli, bog`gha yoshidagi bolalar juda kup so'zlarni tushuna olmaydilar.

Kichik bog`gha yoshidagi bolalarda kupirok obrazli xotira usgan bo'ladi. Shuning uchun ular eshitgan narsalariga nisbatan bevosita kurgan narsalarini yaxshi esda olib koladilar.

Bog`gha yoshidagi davrda bolalarda xotiraning xamma tiplari usa boshlaydi. Birok, shu narsa xarakterlik, xotiraning asosiy turlari asosida (obrazli, mexanik, mantikiy kabi) xarakter xotirasi kuchlirok usgan bo'ladi. Shuning uchun xam ular turli xarakatlarini va mo'zikaga karab uynashni engillik bilan o'zlashtiradi. Mexanik o'zlashtiriladigan nutq materiallari xam kisman xarakat xotirasiga kuradi.

Bolalar xotirasini ustirishda tarbiyachilar va ota-onalarni nutqi xam katta rol uynaydi. Bola bilan gaplashganda nutq tushunarli, talafo'z anik va tushunarli bo'lishi kerak. Bolalar xotirasining bundan keyin o'sishi asosan maktabda ukish, bilim ortirish jarayonida amlga oshiriladi.

5. Tafakkur bolaning bog`gha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog`gha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan kupayishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi usgan bo'lishi,

uchinchidan esa, bog`gha yoshidagi bolalarning juda kup erkin mustaqil xarakatlar qilish imqoniyatiga ega bulishlaridir.

Bolalarning tafakkuri o’z-o’zicha emas, balki dastavval kattalarning bevosita raxbarligi ostida ustiriladi. Bolaning bog`gha yoshidagi davrida uning erkin xarakat qilishi maydoni yasla yoshidagi davriga nisbatan juda kengayadi.

Turmush tajribalari juda oz bo’lgani tufayli bog`gha yoshidagi bolalarning tafakkurlari xam ma’lum darajada cheklangan bo’ladi. Ular asosan o’z turmush tajribalari doirasidagi narsa va xodisalar xakidagina fikr yuritadilar. Shuning uchun ularning beradigan savollari xam juda kiska bo’ladi.

Bog`gha yoshidagi bolalar o’zlariga ma’lum xodisalar urtasidagi o’zaro bogliklik va ayrim tabiiy sabablarni tushuna oladigan bo’ladilar. Masalan, katta gruppa bolalarining gaplariga dikkat qilsak, ular shunday xodisalar xakidla muloxaza yuirtadilar: ‘temir ogir narsa bo’lgani uchun suvda chukadi; yogoch engil, shuning uchun u okadi’. ‘ichi bush banka engil, shuning uchun u chukmaydi’. ‘urugni erga ekse, kukarib chikadi’. Bog`gha yoshidagi katta bolalarda umumlashtirish kobiliyati ba umumiy tushunchalarning shakllanishi, tafakkurning kuyingi o’sishi uchun juda katta axamiyatga egadir. Shunday kilib, bog`gha yoshdagi davrda bolalarning tafakkurlari juda jadal suratda o’sadi. Tafakkurningn bundan keyingi o’sishi maktab yoshidagi davrda, ukish jarayonida amalga oshiriladi.

6.Boshqa yoshdagi bolalar nutqining o’sishining xarakteri tomonlaridan biri shuki, bu yoshdagi bolalar situativ nutqdan, ya’ni ayni shu chogdagi xarakatlarga karatilgan, birok bir-biri bilan boglik bulmagan nutqdan ma’zmunan boglangan mantikiy nutqka uta boshlaydilar. Kichik yoshdagi bolalarning situativ nutqini shu nutq sodir bulayotgan qonkert sharoit (situatsiya) bilan tanish bo’lgan odamgina tushuna oladi.

Bog`gha yoshgidagi davrda bolalar nutqni goyat tez anglaydi, lekin Fakat ogzaki nutqni egallash bilan cheklanadilar. Tekshirishlarning kursatishicha, bolalarga ayrim so’z turkumlari, boglovchilar va elementlar gramatik koidalar amaliy mashklar orkali biroz o’zlashtirilganda so’z bolalarining jumla

to'zilishlarida va fikr yurgizishlarida sezilarli o'zgarish yo'zaga keladi. Tarpbiya bolalar nutqining ustirish bilan shugullanar ekan, bog`gha yoshidagi bolalar xam ba'zi xollarda o'z nutq apparatlarini tula idroa eta olmasliklarini unutmasligi kerak. Bundan tashkari, bolalardan murakkab nutq tovushlarini bir-biridan fark qilish kobiliyati xam tula takomillashgan bo'ladi. Shuning uchun bog`gha yoshidagi ayrim bolalar ba'zi tovushlarni bo'zib talafo'z etadilar. Odatda, bunday bolalarni tili chuchuk bolalar deb yuritiladi. Tili chuchuklik nukson emas. Buni asta sekin to'zatish mumkin. Tili chuchuklikni to'zatishni eng birinchi shartlaridan biri bola bilan tula va tugri talafo'z etib,ravon til bilan gaplashishdir. Bog`gha yoshidagi bolalarda yozma nutq bo'lmaydi. Ularda ichki va ogzaki nutq rivojlanadi. Birok bog`gha yoshidagi bolalar o'z ona tillarining garamatik tuzilishi xali tula o'zlashtira olamaganlari tufayli ularning ogzaki nutqlari o'ziga xos kurinishga ega bo'ladi.

Bog`gha yoshidagi bolalar aktiv ravishda nutqni o'zlashtirar ekanlar, ular xar bir orttirgan yangi so'zlarining mazmunini xam anglab borishlari kerak. Xar bir so'zning mazmuni bir-biriga uxshash narsalarning yoki xodisalarning umumlashtirishdan iborat bo'ladi.

Bog`ghada va oilada tugri yo'lga kuyilgan ta'lim-tarbiya va xususan bog`ghada ona tilidan utkaziladigan maxsus mashxulotlar tufayli bola nutqini normal ustirish mumkin. Bola nutqining bundan keyinga utishi maktabda ukish jarayonida amalga oshiriladi.

7. Bog`gha yoshidagi bolalarning kanchalik bilsh faoliyatlarida xayolning roli juda kattadir. Bog`gha yoshidagi bolalarning xayollari turli mashgulotlarda o'sadi. Masalan, bog`gha yoshidlagi bolalar loy uynashni, ya'ni loydan turli narsalar yasashni, kumdan turli narsalar kurib yoynashni va rasm solishni yaxshi karadilar.

Urta va xususan katta yoshdagi bog`gha bolalarining rasm solishlarida ijodiy xayolning yo'zaga kle boshlaganida anik kurinadi. Bog`gha yoshidagi bolalar xayolining o'sishiga aktiv ta'sir kiluvchi omillardan yana biri ertaklardir. Bolalar bunday ertaklarni juda yoktiradi va xar doim marok bilan tinglaydilar. Bolalar

xayvonlar xakidagi turli ertaklarni eshitganlarida shu ertaklardagi obrazlarga nisbatan ma’lum munosabat yo’zaga keladi.

Bolalar uchun chikarilgan turli ertaklarning tarbiyaviy axamiyatini nazarda tutib, pedagoglar bolalarga ertak aytib berish va ukib berishga zur e’tibor bilan karashlari lozim.

Shunday kilib, xayol bog`gha yoshidagi bolalarning kamol topishida katta urin egallaydi. Bolaning bog`gha yoshidagi davrida xayol etarli usgan bo’lishi kerak, chunki maktabdagi ukish birinchi kundan boshlab bolalardan xayol qilish kobiliyatining, xususan, tiklovchi xayolining yaxshi usgan bo’lishini talab qiladi.

## 8-mavzu: KICHIK MAKTAB YOSH DAVRI

Mashg`ulot shakli Obzorli-ma’ruza tushunib olish, esda qolishi kerek bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma’lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma’ruza mashg`uloti rejasi**

1. Kichik maktab yoshida rivojlanishning umumiy shart-haroitlari.
2. Yetakchi faoliyat sifatida o’quv faoliyatini shakllanishi va ta’lim motivatsiyasini shakllanishi.
3. Kichik maktab yoshida bilish jarayonlarini taraqqiyoti.
4. Kichik maktab yoshi shaxsini rivojlanishi.
5. Emotsional-irodaviy sohasini rivojlanish xususiyatlari.

**Darsning maqsadi:**

Kichik maktab yoshining psixologik xususiyatlari, jismoniy va fiziologik rivojlanishi. Bolani maktab ta’limiga tayyorgarligi borasidagi psixologik nazariyalar kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning o’quv faoliyati xususiyatlari. Kichik maktab yoshida muloqot masalasi va o’zlashtirmaslik sabablari haqida ma’lumotlar beriladi.

Kichik yoshdagi o`quvchilarning 7-8 yoshdan 10-11 yoshgacha bo`lgan bolalar bo`lib,ular boshlang`ich sinf o`quvchilari hisoblanadi.Bu yillarda bolaning hayoti va faoliyatida muhim o`zgarishlar yo’z beradi.Binobarin,ularning psixikasida ham sezilarli darajada o`zgarishlar bo`ladi.Bolaning maktabga kirishi uning hayotida burilish chog`idir.Bola maktabga kirib o`qiy boshlashi bilanoq.uning hayotida asosisy faoliyat o`qish bo`lib qoladi.O`qish o`quvchining vazifasi,ijtimoiy burchidir.O`qituvchi bilan birinchi uchrashuvdayoqbolalar ko`p narsalarni eshitadi va maktabdagi o`qish haqida ko`p narsalarni bilib oladi va o`qishning nimaligini anglay boshlaydi.Maktabda bola sistemali ravishda yangiliklar oladi.Bu o`quvchining kundan-kunga orttirib borayotgan,xilma-xil mazmundagi bilimlarning manbaidir.Bolaning bilimlarni sistemali ravishda o`zlashtirib borishi natijasida undagi bilimning doirasi ham kengayib boradi,aqliy jarayonlar rivojlanadi,shu bilan bir qatorda,bolaning emotsional va irodaviy xususiyatlari qayta tarkib topib,rivojlana boshlaydi, Maktabdagi talim jarayonining o`zi bolaninig sezgi, idrok, tafakkur, nutq va diqqatlariga yangi talablar qo`yadi. Maktabdagi o`qish, tashqiliy muayyan maqsadga qaratilgan ancha ixtiyoriy protsesslar talab qiladi.Ko`rish sezgisi bilan idrok maktab ta’limida katta o`rin egallaydi.Gap shundaki, odam tashqi dunyodan keladigan axborotning asrsiy qismini ko`rish retseptori faoliyati orqali oladi. Ya’ni ko`rish retseptori orqali olinadigan axborot hamisha boshqa retsnptorlardan keladigan axborotning 8O % ga to`g`ri keladi. O`quvchilarga dars paytida o`z diqqat e’tiborini o’zoqdagi predmetlarga doimiy ravishda ko`chirib turishga to`g`ri keladi.

Masalan:o`quvchi diqqatini doskadan o`qituvchining oldidagi solga,so`ngra o`zi oldidagi daftarga ko`chiradi.Bu jaorayon aksincha ham bo`lishi mumkin.Bu faoliyatda har ikkala ko`zni to`xtovsiz ravishda moslashtirish zararuriyati tug`iladi.Bola ko`zini akkomadatsiya qobiliyati o`sa boradi.Akkomadatsiyaning eng yuqori diopozoni 10 yoshli sh bolalardagina ko’zatiladi.

Mashg`ulot jarayonida bolada gox o’zoqqa,gox yaqinga qarashga extiyoj bo`ladi.Har ikkala ko`zning simmetrik xolati ham sezilarli darajada boshlang`ich

ta'limida takomillashadi.O`qish faoliyatining boshlarida o`quvchilarning toliqishlari yuqorida ko`zsatilgan ko`rish sezgi jarayonida akkomadatsiya va qonvergentsiya aloqasi to`la garmoniyaga ega bo`lgan xolda takomillashadi,toliqish zaiflashadi.Kichik maktab o`quvchilari ranglarni va rang tuslarni seza boshlaydilar.E.I.Ignatevning tekshirishlari shuni ko`rsatadiki,asosiy rang tomonlarining tusini ajratish murakkab ishdir.Shuning uchun bolalarni bunga o`rgatish kerak.1-sinf o`quvchilari qizil rangning o`rta hisobda 3 ta tusini,sariq rangning 2ta tusini ajrata oladi.Yashil va ko`k ranglarni butunlay ajrata olmaydilar.1-inf o`quvchilari,ayniqsa qizlar asosa eng ko`p uchraydigan qizil,sariq, yashil va ko`k ranglardan iborat 4 ta rangni yaxshi ajratadilar.

Agar bolalar rangning tuslarini ajratishga maxsus o`rgatilsa,ularda ranglarni farqlay olish xususiyati ancha o`sib boradi.

Masalan bu sohada 20 ta eksperimental mashg`ulot o`tkazilganda, bolalar eng och ranggacha bo`lgan ip kalavasini ajratganlar.Ana shundan keyin ular o`rta hisob bilan 12 ta qizil, 10 ta sariq,6 ta yashil,4 ta ko`k ranglarni bir-biridan farq qila olganlar.Kichik maktab yoshi fonematik eshitish,ya'ni nuttsqning,eshitishning rivojlapnishi va takomillashuvi davridir.O`qish mashg`ulotlari va yozma mashqlar o`quvchilarda fonematik eshitishning ancha nozik xususiyatining paydo bo`lishiga yordam beradi.

Diqqat o`qish jarayonining zarur sharti bo`lib hisoblanadi.Idrokning to`laligi,to`g`riligi,tezligi,esda qoldirishning tez va aniqligining diqqatiga bog`liqdir.Fikrlash jarayonlari diqqat tufayli aniq,mantiqli, mazmunli bo`ladi.Chunki,o`quvchilarning mutstsaqil ravishda masala echishlari va masala tushunishdan oldin ular diqqatning kuchi va barqarorligini ta'minlaydi.O`quvchilarning aqliy faoliyatining zarur shartlarini ta'minlash uchun o`qituvchi kichik yoshdagi o`quvchilar diqqatining xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Diqqat asosiy nerv jarayonlari bo`lgan qo`zg`alish va tormozlanishning yoki xususiyatlari to`laligicha namoyon bo`ladigan psixik aktivligining muhim tomonidir. Qo`zg`alish va tormozlanish jarayonlari kitchik yoshdagi o`quvchilarining bosh miya yarim sharlari po`tsida juda tez paydo bo`ladi.Shu

sababli agar bir qo`zg`aluvchi bolaning miya qobig`ida qo`zg`alishni vujudga keltirsa,2 qo`zg`ovchi bosh miyada juda tezlik bilan yangi qo`zg`alish o`chog`ini tormozlab qo`yishi mumkin.Bu kichik yoshdagi bolaning diqqatini jud atez va oson chalg`itish mumkinligini ko`rsatadi. O`quvchilar diqqatining bu xususiyatining ularning o`qish materiallarini o`zlashtirishlariga xalaqit beradi.Shu sababli o`qituvchi bola diqqatini bunday xususiyatlarini doimo esda tutgan xolda,darsning uning bir momenti bilan ikkinchisin bog`lab,utsalik bilan o`tkazishi va bu momentlarning bir-birini tormozlab qo`ymasligi uchun darsning har bir bosqichini yaxshilab o`ylab ko`rishi kerak.O`qish faoliyati tomonidan qo`yilgan jiddiy talablarning bir qismi tabiiy o`quvchilarning diqqatini ishga soladi.O`qish jarayonining ta'siri otsida kichik yoshdagi o`quvchilar diqqatining barcha xususiyati va sinflari intensiv ravishda o`sib boradi va bu bilan ixtiyorsiz diqqatidan ixtiyoriy diqqatga ko`chsh osonlashadi.

Kichik yoshdagi bolalarda emotsiyalik kuchli bo`lib, diqqatga ham o`z ta'sirini o`tkazadi. Agar o`qish materiali o`zining yorqinligi,obrazliligi va jonliligi bilan ajralib tursa,diqqat bilan ancha kuchli namoyon bo`ladi.Bu yoshdagi o`quvchildar diqqatning darsga jalb qilishning eng muhim sharti o`qitishni ko`rgazmali qilish,illyutsratsiyalardan foydalanish hamda o`qituvchi nutqinig yorqin, obrazli bo`lishidir. Emotsionallik bir tomondan bola tafakkurining ham tanqidiy xarakteriga ega emasligi bo`lsa,ikkinchi tomondan tafakkur taraqqiyotining xali uncha yuqori darajada emasligidir.Bularning hammasi kichik yoshdagi o`quvchilarda tashqi diqqatning namoyon bo`lishiga sabab bo`ladi.Shuning uchun o`qish materialini idrok etishda diqqatning o`zlashtirilishi lozim bo`lgan materialining muhim tomonlariga emas,ikkinchi darajali tomonlariga qaratiladi.

O'zbek psixologi N.N.Ne'matov 1 va 2-sinf o'quvchilarida umumlashtirish faoliyatini rivojlantirish maqsadida ilmiy tadqiqot ishini olib brogan. Muallif ta'lim jarayonini maxsus faollashtiruvchi usullarni qo'llaydi. Tadqiqotchi o'z kuzatishlarida o'quvchilarga savollar berib, kitob o'qitish paytida, suhbat mahalida sur'atlarni idrok qilishga, tevarak-atrofdagi vaziyatni kuzatish davomida

uchraydigan narsalarni umumlashtirishga yordam beradigan maxsus usullarni tatbiq etadi. O'tkazilgan tajribalarga asoslanib, o'quv yilining oxiriga borib, eksperiment sinfi o'quvchilarining umumlashtirish faoliyati darajasi nazorat sinflaridagi o'quvchilarning umumlashtirish faoliyati bilan taqqoslanilsa, eksperiment sinfi o'quvchilarining umumlashtirish faoliyati ancha yuqori ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Uslubiy usullar eksperiment sinfi o'quvchilarining ona tilidan ulgurish darajasini oshirishga olib kelgan. 2-sinf o'quvchilari bilan mana shu yo'sinda olib borilgan tajribalar o'xshash natijalarni bergan. O'quvchilarda mahalliy tushunchalar, atamalar miqdori keskin kamayganligi tajriba natijasida aniqlangan.

Biz olib borgan ishlarning yakuniga ko'ra, ta'lim jarayonida umumlashtirish usullarining boshqa turlari ham qo'llanildi. Jumladan, fikrning umumiydan yakkaga, xususiydan umumiyga, umumiydan xususiyga yo'nalgan usullari mavjud. Bizning tekshirishlarimizga ko'ra maktab o'qituvchilari o'quvchilarga yangi bilim berayotganlarida ko'pincha umumlashtirishning birgina usulidan unumli foydalangan holda faoliyat ko'rsatadilar. Lekin hech vaqt ular buning umumlashtirish usuli ekanligini mutlaqo xayoliga keltirmaydilar. Ayniqsa, o'qituvchilar bilan qilingan suhbat paytida dars deduktiv (yoki induktiv) metod yordamida olib borildi, degan mulohazalarni eshitish mumkin. Ammo ular yuqorida qayd qilib o'tilgan ikkita metod xulosa chiqarishning ikki yo'li ekanligini, ya'ni tafakkur shakli ekanligini psixologik nuqtai nazardan anglab yetmaydilar. Shuning uchun biz ularga umumlashtirish jarayoni tafakkur shakli emas, balki uning operasiyasi bo'lishini aytib o'tishni lozim topib, bunday chalkashlikka barham berishga intildik.

Kichik yoshdagi o`quvchilarda ixtiyorsiz diqqat yuqori turadi. Lekin, maktabda o`qish birinchi yiliyoq o`quvchilarda ixtiyoriy diqqatning vujudga kela boshlashiga kuchli ta'sir ko`rsatadi. Diqqatning bu turi B.T.Annoevning yozishicha,»… katta odamlar bilan bolalarning birgalika faoliyati va tarbiyaning maxsuli bo`lib hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqatning yanada yaxshiroq o`sishi maktab yoshidagi bolalarda idrok va tafakkurning tarbiyalanishga bog`liqdir». Kichik

yoshdagi o`quvchilarning ihtiyoriy diqqati to`g`risidagi masala bilin K.D.Ushenskiy ko`p shuqullangan. U ba'zi pedagoglarning, kichik yoshdagi o`quvchilarda ihtiyorsiz diqqatning afzalligiga tayangan holda maktabdagi barcha o`qish jarayonining faqat qiziqarli va maroqli qilib tashqil etish kerak degan fikrlarga qo`shilmagan.

O`qish faoliyatining birinchi davrlarida o`quvchilarning ixtiyoriy diqqatibutunlay o`qituvchining hukumronligida bo`ladi. O`quvchilarning darsdagi diqqatini 1-sinf o`quvchilarining o`zlari emas, balki o`qituvchining o`zi tashqil qiladi va yo`lga soladi. Masalan, darsda kichik yoshdagi o`quvchi o`z diqqatini tarqoqligini enganligini uchun emas, balki o`zi itoat etishga majbur bo`lgan, o`qituvchining ta'siri otsida quloqsolib o`tiradi. Muayyan maqsadga qaratilgan barqaror diqqat bolalarda ham uncha rivojlanmagan tarmoqlanish jarayoni bilin bag`langandir.

Ma'lumki, idrok ham bilim manbaidir. Idrok murakkab aqliy jarayondir. Idrokda retseptiv, pertseptiv va appertseptiv tamonlarni ajratish mumkin. Kichik yoshdagi o`quvchilarda idrakning o`sishi yuqorida ko`rsatilgan retseptiv, pertseptiv va appertseptivdan iborat barcha tamonlarini qayta to`zilishi va o`sishi demakdir.

O`quvchilar predmetlarni, ularning tasvirini va nutqini idrok qiladilar. Bolalar predmetlarni idrok qilishi hususiyati ularni batafsil aniq aks ettirishlari bilin harakterlanadi. Bular diqqatning hususiyati bilan tushuntiriladi. O`quvchilar diqqati asosan tashqi diqqat harakterida bo`lib, ichki diqqat ularda hali taraqqiy etmagandir. Shuning uchun yaxshi tanlangan ko`rgazmali qurol kichik yoshdagi o`quvchilarni o`qitishda foydalidir. Kichik maktab o`quvchilariga ta'lim berishda biror ko`rinishni, biror predmetni aks ettiruvchi rasmlar va boshqa ko`rgazmali qurollar katta ahamiyatga egadir.

quyi sinf o`quvchilarning ukish protsessida materialni so`zma-so`z esga tusharishlari xam katta urin egallaydi. Bunday esga tushirish yangi programma asosida qayta kurilgan yangi maktab xayotida xam zarur urin olmokda.

O`quvchilarga yangidan-yangi bilimlarini berilishi ular nutqining lugat jixatdan tobora o`sib borishni takoza qilayotganidan dalolot beradi. Kichik yoshdagi o`quvchilar xotirasining o`sishida ikkta asosiy xarakterli momentlar borligini aytib utish zarur. O`quvchilar kupincha ukuv materialini zarur narsa tarikasida esda koldirishga va esga tushurishga xarakat qiladilar. Ular bilim olishning zaruriyatini tushunadilar, darsga tayyorlanadilar, bir-biriga savol beradilar. O’zlarining dasrdagi javoblarining sifatiga e’tibor beradilar. Javoblariga beriladigan baxolarga diqqat bilan qo`lok soladilar.

Kichik yoshdagi o`quvchilar xotirasining o`sishida ikkinchi xususiyat o`quvchilarda abtsrak tafakkurning o`sishi munosabati bilan boglik bo`lgan katta o’zgarishlardan iborat.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o’qishi ko’p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog`liq. Bola avvalo maktabga jismoniy jihatdan tayyor bo’lishi kerak. 6 yoshli bolalarning anatomik-fiziologik rivojlanishi o’ziga xos tarzda kechadi. Bu yoshda bola organizmi jadal rivojlanadi. Uning og`irligi oyiga 150 dan 200 gacha, bo’yi esa 0,5 sm gacha ko’payadi. 6 yoshli bolalar turli tezliklarda, tez va engil yugura oladilar. Ular sakrash, qonkida yugurish, changida uchish, so’zish singari harakatlarni ham bemalol bajara oladilar. Musiqa bo’yicha mashg`ulotlarda bu yoshdagi bolalar xilma-xil ritmik va plastik harakatlarni bajaradilar, turli mashqlarni aniq, tez, engil va chaqqon bajara oladilar. Shuningdek, 6-7 yoshli bolalar nerv sistemasini mustahkamlash, ularni surunkali kasalliklardan xalos etish, ko’rish va eshitish qobiliyatiga alohida e’tibor berish, shuningdek, umurtqa pogonasining to’g`ri rivojlanishiga ahamiyat berish, nihoyatda muhim. Kattalar shu yoshdagi bolalar bilan ish olib borar ekanlar, bu yoshdagi bolalar organizmi hali o’sishi davom etayotganligini doimo hisobga olishlari lozim. Masalan, bolani majburan yozishga o’rgatish hali barmoq muskullari to’lik, rivojlanmaganlik sababli ularga ma’lum darajada zarar keltyarishi yoki uni chiroyli yoza olmasligi, o’z-o’zidan bolani o’ziga nisbatan ishonchini yoki o’qishga nisbatan qiziqishini kamayishiga olib kelishi mumkin. Keyingisi bolaning aqliy tayyorgarligidnr. Ko’pincha aqliy tayyorgarlik

deyilganda bolaning ma'lum bir dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktabda beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, Lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Maktab dasturi bolalardan taqqoslay olish, taxlil ega olish, umumlashgira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek etarli darajada rivojlangan bilish jarayonlarini talab etadi. Masalan, 6-7 yoshli bola tabiat haqida ayrim hodisalaryaigina emas, balki organizmning tabiat bilan bog`liqligini va o'zaro ta'sirini ham tushunishi va o'zlashtirishi mumkin. 6-7 yoshli bolalar aqliy rivojlanishning natijasi bo'lib, yuqori darajada rivojlangan ko'rgazmali obrazli tafakkur bilan bola atrof olamdagi predmetlarning asosiy xususiyatlarini va predmetlar orasidagi bog`liqlikni ajrata olishidir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ko'rgazmali-harakatli va ko'rgazmali-obrazli tafakkur nafaqat 6-7 yoshli bolalar, balki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aqliy rivojlanishida ham asosiy funktsiyani bajaradi, Bu borada bolada ma'lum bir ko'nikmalarning tarkib topganligi ham nihoyatda muhimdir.

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyogarligiga ham bog`liq. Maktabga o'kish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini - turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turli talablar quyiladigan - o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lmog`i lozim. Katta bog`cha yoshdagi bolalar asosan, maktabda o'qish uchun ehtiyoj syozadilar, Lekin bu xohish va extiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. "Menga chiroyli forma, daftar, qalam va ruchkalar sotib olib berishadi. "Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va men ular bilan mazza qilib uynayman?', "Maktabda uxlatishmaydi" "Maktabning tashqi ramzlari, shubhasiz maktabdagi bolalarni juda qiziktiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchum asosiy sabab bo'la olmaydi", "Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak", "Yozishni juda yaxshi ko'raman", "O'qishni o'rganama" "Maktabda qiyin misollarni echishni o'rganaman". Ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda

asos bo’la oladi. Bolaning endi o’zini katta bo’lganini, bog`cha bolasi emas, balki ma’lum bir majburiyatlari bor o’quvchi bulishnni anglashi, jiddiy faoliyat bilan shugullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabda shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o’qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o’z ichiga oladi, Har bir bola bolalar jamoasiga qo’shila olishi. ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba’zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka erjsha olishi zarur. Ushbu xususiyatlar bolaning maktabdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olishini ta’minlab beradi. 6-7 yoshli bolalar o’qishdagi asosiy qiyinchalik, ko’pincha bu yoshdagi bolalar o’qituvchini o’zoq vaqt davomida tinglab olmaydilar. O’quv harakatlariga o’zoq vaqt o’z diqqatlarini tuplab olmaydilar. Bunga sabab, faqat, shu yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning rivojlanmaganligida emas, balki bolaning kattalar bilan muloqotga kirisha olishi xususiyatiga ham bog`liq. Chunki, shu xususiyati rivojlangan bolalar erkin muloqotga kirisha oladilar, qiziqtirgan narsalar haqida suray oladilar. Natijada ularning o’qishga bo’lgan qiziqishlari ortadi va o’qituvchi gapirayotgan narsalarni diqqat bilan o’zoq vaqt eshita oladilar. Demak, bolaning maktabga tez moslashishi va muvaffaqiyatli o’qishida shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligining ham ahamiyati juda katta.

Bu davrda bolalarda avvalo bilish sohalari, so’ngra esa emotsional motivatsion yo’nalish bo’yicha yangi shaxsiy hayot boshlanadi. U yoki bu yo’nalishdagi rivojlanish obrazlilikdan ramzlikkacha bo’lgan bosqichlarni o’taydi. Obrazlilik deyilganda bolalarning turli obrazlarni yaratishi, ularni o’zgartirish va erkin harakatta keltirishi, ramzlilik deyilganda esa belgilar tizimi (matematik, lingvistik, mantikiy va boshqalar) bilan ishlash malakasi tushuniladi. Maktabgacha yosh davrda ijodkorlik jarayoni boshlanadi. Ijodkorlik layoqati, asosan, bolalarning qonstruktorlik o’yinlarida, texnik va badiiy ijodlarida namoyon bo’ladi. Bu davrda maxsus laeqatlar ko’qishklarining birlamchi rivojlanishi ko’zga tashlana boshlaydi. Bilish jarayonlarida- ichki va tashqi harakatlarning sintezi yo’zaga keladi. Biron bir narsani idrok qilish jarayonida bu sintez pertseptiv

harakatlarda, diqqatda ichki va tashqi harakatlar va holatlar rejasini boshqarish va nazorat etishda, xotirada esa materialni esda saqlab qolish va esga tushirishning ichki va tashqi to’zilmasini bog`lay olishda ko’rinadi. Tafakkurda esa amaliy masalalar ishining usullarini bitta umumiy jarayoniga birlashtirish sifatida yaqqol namoyon bo’ladi. Shuning asosida nnsoniy intellekt shakllanadi va rivojlanadi. Maktabgacha davrda tasavvur, tafakkur va nutq umumlashadi. Bu esa bu yoshdagi bolalarda tafakkur qilish omili sifatida ichki nutq yo’zaga kelayogganligidan dalolat beradi. Bilish jarayonlarining sintezn bolaning o’z oia tiliii go’liq egallashi asosida yotadi. Bu davrda nutqning shakllanish jarayoni yakunida boshlaydi. Nutq asosidagi tarbiya jarayonida bolada sodda axloq me’yorlari va qoidalar egaldaniladi. Bu me’yor va qoidalar bola axloqim boshqaradi.

Bolaning uning atrofidagi kishilar bilan xilma-xil munosabatlari yo’zaga kelib, bu munosabatlar asosida turli xil motivlar yotadi. Bularning hammasi bolaning individualligini tashqil etib, uning boshqa bolalardan nafaqat intellekti, balki axloqiy motivatsion jihatdan farqlanadigan shaxsga aylantiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o’zgarishlari, ularning o’z shaxsiy sifatlari, layohatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o’zini-o’zi anglashi kabi xislarning yo’zaga kelishi hisoblanadi.

**Takrorlash va muhokama qilish uchun savollar:**

1.Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning o’ziga xos psixologik xususiyatlari.
2. Maktabga ijtimoiy-psixologik moslashuv yo’llari
3. Bolalar intelektual rivojlanishda kichik maktab ahamiyati.
4. O’quv jarayoni davomida youzaga keladigan muammolar;
5. Kichik maktab davridagi bolalar shaxsi rivojida youzaga keladigan yangilanishlar.

# 9-mavzu: O`SMIRLIK DAVRI

Mashg`ulot shakli  Obzorli-ma’ruza tushunib olish, esda qolishi kerek bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma’lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma’ruza mashg`uloti rejasi**

1. O’smirlik davrida umumpsixologik tavsifnoma.
2. Psixologiyada o’smirlik tadqiqotlari.
3. O’smirlikda ”kattalik” va ”bolalik” dialektikasi.
4. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqot.
5. Intelektual qiziqishlar va nazariy tafakkur elementlarini shakllanishi.

**Darsning maqsadi:**

O`smirlik davri haqida tushuncha, o’smirlarning anatomik fiziologik xususiyatlari o’smirlarning bilish jarayonlarining xususiyatlari, o’smirlik davrining psixologik xususiyatlari. O’smirlik davrida o’quv faoliyati xususiyatlari. Tarbiyasi o’g’ir o’smirlar haqida ma’lumot beriladi.

O`qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o`smirlik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir. Bu davrni biz yana o`tish davri ham deb ataymiz. O`smirlik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o`z ichiga qamrab oladi, ya’ni 5-8 sinf o`quvchilarini.

O`smir o`quvchilarni ta’lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba’zan etarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi.

Kichik va katta yoshdagi maktab o`quvchilariga qaraganda o`smirlik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko`p qiyinchiliklar bo`ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda kiyin kechadi. Bu jarayon o`smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo`lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o`zgarishi, hamda hayot sharoitining o`zgarishi bilan bog`liqdir.

Bu davrda o`smirlarning o`z shaxsiy fikrlari paydo bo`ladi. Ularda o`z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologiyaning aniqlashi

bo`yicha o`smirlarningpsixik taraqqiyotini xarakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlari bilan tug`iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imqoniyatlari o`rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yo'zaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdar.Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o`tiladi.sana shu nuqtai nazardan o`smirlik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang`ich sinfni tugatadi. Bolaning o`rta maktabda o`qishga o`tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi.O`smirlarning yangi ijtimoiy jixatdan tashqil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi.

Shunday qilib, o`smirlarga ta'lim-tarbiya berishning yangi to`g`ri usullari hamda vositalarni topishi uchun o`smirlik yoshining o`ziga xos hususiyatlarini jismoniy va psixologik taraqqiyotini yaxshi bilishimiz kerak. O`smirlik yoshining mazmuniy xarakteritsikasi vaqt o`tishi bilan o`zgarib boradi, chunki inson xayotining xususan ijtimoiy sharoitlari o`zgaradi.

Psixologiya taraqqiyotining biologik omillariga o`smirlar ongiga og`ir, ba'zan kuchi etmaydigan bo`lib tushadigan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayajonga soladigan, masalan: o`smirlar uchun xarakterli bo`lgan norozilik, qo`pollik, qaysarlik, o`z-o`zini analiz qilishga moyillik sub'ektiv olamga va shunga o`xshash hislatlarni keltiradigan jinsiy etilishga nixoyatda katta axamiyat beradilar.

Jinsiy etilish munosabati bilan paydo bo`ladigan yangi sezgilar fikrlar,maylliklar,kechinmalar guyo usmirlar ongida xukmron bo`ladi.Ularning xulki atvorini belgilaydi.Mana shu tarika oqibat natijada o`smirlarning psixologik qiyofalari asosan yolg`iz sof biologik omil deb qaraladi.

Psixologlarning fikricha yosh psixologik xususiyatlari faqatgina yolg`iz biologik jihatidan etilishi va taraqqiyot etilishining natijasi bo`lmay balki bolaning

ijtimoiy hayot sharoitlari va faoliyatlarining o`zgarishi hamda bu jihatdan yangi ijtimoiy omillarning paydo bo`lishi natijasida o`smirning taraqqiyotiga va unga beriladigan maktabdagi ta'lim va tarbiya berishni aniq tashqil qilish o`smirlarning qonkret hayot sharoitlari va faoliyatning mahsuli deb qarab bo`lmaydi.

Boshqacha qilib aytganda ijtimoiy sharoitlar rolini qonkret hayot sharoitlari va faoliyatlarining roliga almashtirib bo`lmaydi.Mana shu yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki,o`smirning yoshi va uning hususiyatlari absolyut ahamiyatli kasb etmaydi shu munosabat bilan o`smirlik yoshi mutloqo aniq ma'lum va absolyut chegara hamda xarakteritsikaga ega emas bu erda ancha muhim bo`lgan ma'lum fikrlar bor.

Bu farqlarni qonkret ijtimoiy omillarning ta'siri bilan va o`smirlarga beriladigan turli ta'lim va tarbiya sharoitlarining ta'siri bilan tushuntirish mumkin.Taraqqiyotning asosiy yo`nalishi bolaning o`smirlik davridagi taraqqiyotining asosiy xarakteritsikasini ajratish mumkin.O`smirlik davri organizmning jo`shqin o`sish davridir. Bu davrda tananing intensiv ravishda rivojlanishi yo'zaga keladi,Musqo`l apparatlari mutsahkamlanadi va skeletning suyaklanish jarayoni davom etadi.

Bu davrda yurak qon tomirlari sitsemasining taraqqiyotida mos kelmaslik hodisasi kuchlaniladi.Bu paytda yurak xajmi jihatidan ancha kattalashadi,ancha kuchli ishlay boshlaydi.Ko`pincha qon aylanishining vaqtincha bo`zilishida qok bosimining yoshga bog`liq xolda ko`tarilishiga,yurak faoliyatining zo`r berilishiga olib keladi.Natijada o`smirlarda uchraydigan bosh aylanishi,yurak urishi,bosh og`rig`i paydo bo`ladi.

O`smirlarning yoshi ham jismoniy psixik hususiyatga egadir,organizm Pavlov ta'limotiga ko`ra,bir butun sitsemadan iborat bo`lib,bunda barcha to`qimalar va organlar fiziologik jarayonlar o'zviy ravishda bir-biri bilan bog`langan bo`ladi.

Lekin bir butunlikda nerv sitemasi va uning bilan bog`langan yuqori qismi I.P.Pavlov so`zi bilan aytganda organizmda sodir bo`ladigan barcha hodisalarni

boshqarib turuvchi bosh miya po`tsi asosiy etakchi rolni o`ynaydi.O`smirlik yoshida nerv sitsemasining yuqori qismi sifat jihatidan o`sa boshlaydi va miya ichki to`zilishining murakkablashishga o`tadi.

Katta yarim sharda nerv xujayralarning etishi tugallanadi.O`smir organizmining jismoniy taraqqiyoti uning organlari va to`qimalarining rivojlanishi bosh miya po`tsining boshqaruvchanlik roli otsida amalga oshadi,ammo o`sib borayotgan to`qimalar va organlar o`z navbatida nerv sitsmasining o`sishiga ta’sir ko`rsatadi.O`smirlik yoshida o`pkaning xajmi kattalashadi nafas olish ancha miqdorda tezlashgan va sayoz bladi.O`smirlik yoshida bola qancha toza havoda yursa shuncha foydalidir.

Bu davrda ichki sekretsiya bezlarining qayta qurishiga bog`liq bo`lgan jinsiy etilish davridir.Bu bezlarning etilishi kishi organizm faoliyatida xizmati juda kattadir.O`smirlik yoshining xarakterli xususiyatlaridan biri jinsiy etilish jarayonidir.

Jinsiy etilishning boshlanishi ko`p jihatdan iqlimga va milliy epiografik omillarga va shuning bilan birga individual xususiyatlarga bog`liqdir.

Kuzatishlar shuni ko`rsatadiki jinsiy etilishning boshlanish davri o`g`il bolalarda 12-13 yoshda,qiz bolalarda 11-12 yoshda boshlanadi.Ko`pchilik o`g`il bolalar hozirgi vaqtda jinsiy etilish 15-16 yoshda,qiz bolalarda 13-14 yoshlarda ko’zatiladi.

O`qituvchilar sinf rahbarlari datsavval shkni chuqur anglashlari lozimki,jinsiy etilish organizmning jismoniy taraqqiyotiga ta’sir qilishdan ularning psixik rivojlanishiga ham katta ta’sir kursatadi.O`smirlarda jinsiy etilish bilan birga shu paytgacha ularga noma’lum bo`lgan qandaydir xislar,kechinmalar qarama-qarshi jinsga spetsifik qiziqish noma’lum mazmundagi kitoblarga qiziqishlarning paydo bo’lishi tabiiydir.

O’smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so’z boyligini oshishi hisobiga bo’lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa voqea va hodisalarning mazmun mohiyatini anglashlari hisobiga bo’ladi. Bu dovrda o’smir til yordamida atrof-borliqni aks zttirilishi bilan bir qatorda nnson dunyoqarashini

ham belgilab  berish mumkinligini his qila boshlandi Aynan usmirlik davridan boshlab, iison aynan nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi o'smirni ko'pincha muomalada so'zlarni ishlatish qoidllari - "qanday  qilib to'g`ri yozish kerak?", "qanday  qilib yaxshiroq aytish mumkni?" kabi savollar juda qiziqtiradi. o'smirlar maktabdaga o'qituvchilar. kattalar sta-onalar nutqidagi kamchiliklarga kitob, gazeta radio va telividenie diktorlari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat qilish  urgatsa, ikkinchi tomondai kattalar ham nutq, qoidalari bo'zilishi mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib ksladi.

O'smir so'zlarning kelib chiqish tarixga, ularniig aniq mazmuni va mohiyatiga juda qieiqadi. U endi o'z mutqida yosh bola singari emas, bolki katta oddmlardan so'zlarni tanlashga harakat qiladi. Nutq madaniyatnii egallash borasida o'smir uchui o'qituvchi, albatta, namuna bo'lishi shartdir. Aynon maktvb talimi o'smir bilshi jarayonlarini rivojlanish yo'nalishinn sifat jihatidan o'zgarishdi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq ham oshadi, ham yozma mavjud bo'lishi bilan ham kuchli vosita xisoblamadi. Maktabdagi O'quv Jarayonlarining to'g`ri tashqil etiliishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g`ri rivjlanishiga sharoit yaratiladi Nutqni o'zlashtirishga harakat bu  o'smirniig muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirilishi ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O'smirlik davrida o'qish va yozma monologik nutq jadal rivojlanadi. 5 sinfdan boshlab to 9-sinfgacha o'kish to'g`ri, tez va ifodali bo'lish darajasidan, yoddan ifodoli, ta'sirli aytib bera olish darajasigacha ko'tariladn. Monilogik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so'zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, ogzaki mulohaza yuritish, fikr bildirish va ularii asoslab berishgacha o'zgaradi. Yozma nutq ham yaxishlangan holda o'smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo'yicha mustaqil holda insho yoza oladilar, O'smirlarning nutqi tula tafakkur bilan bog`liq holatida amalga oishriladi. 5-6 sinflardagi o'quvchilar ogzaxi va yoama matn uchun reja to'zib, unga omal qila oladalar.

O’smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo’la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o’quvchilar atrof-olamdagi boglanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat qiladilar. Bu davrda o’smirning bilishga bo’lgan qiziqishida progress sodir bo’ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta’sirida isbot, dalilar bilan fikrlash qobilyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo’ladi.

Maktabda o’kitiladigan fanlar usmir uchun o’z taxminlarini yo’zaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo’lib xizmat qiladi J.Piajening ta’kidlashicha, “Ijtimoiy xayot uch narsaning ta’siri - til, mazmun, koidalar asosida shakllantiriladi”. Bu borada o’zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o’z-o’zidan tafakkurini yangi imqoniyatlarini yaratadi.

11-12 yoshdan boshlab o’smir endi mantikiy fikrlab xarakat qila boshlaydi O’smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli taxlil etishni o’rgana boshlaydi. O’smir tafakkurning nazariy darajaga kanchalik tez ko’tarila olishi, o’quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini xam rivojlanishini belgilab beradi. O’smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farklanadi. Bu faollik o’ta kizikuvchanlik xamda atrofdagilarga o’z layokatlarini namoyish etish, shuningdek, ulardli yuqori baxo olish extiejining mavjudligi bilan belgilanadi usmirning kattalarga beradigan savolllri mazmunli, muloxazali va aynan o’sha masala doirasida bo’ladi. Bu yoshdagi bolalar turli-farazlarni keltira oladilar taxminiy fikr yuritib, tadkikot utkaza oladilar xamda matlum bir masala buyicha mukobil variantlarni takkoslay oladilar. O’smir tafakkur ko’pincha umumlashtirishga moyil bo’ladi. Respublikamizning bozor iktisodi sharoitida utishda kishilardagi amaliy tafakkurning axamiyati oshmokda. Amaliy tafakkur tizimiga kuyidagi akliy sifatlar qiradi:

- tadbirkorlik. tejamkorlik, xisob-kitoblik, yo’zaga kelgan muammolarni tez echa olishlik va boshqalar.

Ko’rsatilgan barcha sifatlar mavjud bo’lgan takdirdagina amaliy tafakkurini rivojlangan deb xisoblash mumkin. Bu sifatlarni 1 sinfdanok rivojlantira borish

nixoyatda muxim usmirlik davrida ishbilarmonlik sifatini o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarishni yo'lga kuyishi umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok etishi arqali rivojlantirish mumkin. Bu borada ukuvchi ijrochi rolida emas balki boshqaruvchi, mustaqil yo'l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlarida o'zi ishtirokchi bo'lgan takdirdagi rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu yoshda tadbirkorlikni rivolantirishda ko'proq mustaqillikning berilishi o'smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirish aqlning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko'proq ularning qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda xisob-kitob qilib borishga qo'llash orqali amalga oshirish mumkin o'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ xolda yechish malakasini shakllatirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta, bu bolaning temperamentiga xam bogliq. Barcha o'smirlarni xam tez yo'llab, tez xarakat qilishga o'rgatish mushkul, Lyokin ularni biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan yechishning umumiy qoidalariga o'rgatib borish mumkin. O'smirlik davrida intelektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li xisoblanadi O'smir shaxsida va uning bilishga qizikishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkuriy rivojlanishi bilan belgalanadi.

O'smirlik davrida diqqat, xotira, tasavvur to'la mustaqillik kasb etib, endi ularni o'z ifodasiga ko'ra boshqara oladigan bo'ladi. Bu davrda kaysi etakchi funktsiya (dikkvti, xotirami yoki t'savvur ustunlik qilayotgani yakkol namoyon bo'lib, Xar bir o'smir o'zi uchun axamiyatlirok bo'lgan funktsiyani e'tiborga olish imqoniyatiga ega bo'ladi, Ushbu funksiyalarning rivojlanish xususiyatlarini kurib chikamiz.

Diqqat:Agar kichik maktab davrida ixtiyorsiz diqqat ustunlik kilsa, o'smirlik davrida bola o'z diqqatini o'zi boshqara oladi. Dars davamida intizomning bo'zilishi aksariyat xollarda ukuvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy

sabablar bilan belgilanadi. O’smir o’z diqqatini to’la ravishda o’zi uchun axamiyatli bo’lgan va yuqori natajalarga erishishi mumkin bo’lgan faoliyatlarga karata oladi. Usmirni diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo’lishi mumkin. Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o’kituvchi tomonidan doimo ko’llab-kuvvatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtayoriy diqqat darajasiga ko’tgarish uchun bir kancha uslublar ishlab chikilgan, shuningdek, o’smirning dars jarayonida o’z tengdoshlari orasida o’zini ko’rsatashi uchun sharoitni yaratilishi xam usmirdagi diqqatni ixtiyorsizlak ixtayoriga aylanishida zamin bo’lib xizmat qilishi mumkin. Lekin, o’smirlik davrida juda kattik charchash xolatlari xam bo’ladi, Aynan 13-14 xamda 16 yoshlarda charchash chiziga keskin ko’tariladi. Bunday xolatlarda o’smir atrofdagi narsa va vokealarga to’lik diqqatini karata olmaydi, diqqatini ko’rnishlariga usmirlik erishish va yo’kotish bo’yicha tula karama-karshi bo’lgan davr xisoblanadi.

Taraqqiyotning bu tiklangan tipi o`smirni yangi yosh bosqichi katta maktab yoshiga o`tishga tayyorlaydi.O`smirlik yoshi kishi shaxsining tarkib topish jarayonida alohida o`rin to`tadi.Bu davr asosiy davr hisoblanadi.Chunki bu yoshda g`oyat muhim psixologik o`zgarishlar paydo bo`ladi.Har xil psixologiya o`zgarishlar va shaxsning taraqqiyoti,eng avvalo, mana shu shaxsning faoliyat xarakteriga bog`liqdir.O`smirning faoliyati o`qish mehnat va o`yin jarayonlarini o`z ichiga oladi.Mana shu jarayonga to`xtalib o`tamiz.

1.O`smir kichik maktab o`quvchilaridan farq qilgan xolda birinchi bo`lib ilmiy bilishda ishtirok etadi.Uning oldida birinchi faqat ayrim narsa va hodisani emas, barcha narsa va hodisalar uchun umumiy bo`lgan qonuniyatlarni tushunish bo`lib olish uchun ishlatiladi.Agar kimki maktab yoshi asosan narsalar,tabiat va jamiyathodisalari to`g`risida gasvirlar to`plash yoshdan iborat bo`lsa,o`smirlik yoshida ana shu tabiat va jamiyat hodisalar to`g`risida sitsematik gushunchalar paydo bo`ladi.

Beshinchi sinfdayoq ayniqsa oltinchi sinfga kelib fizika,algebra,geometriya,tarix fanlari o`tila boshlanadi.Abtsrakt tafakkur tez o`sa

boshlaydi.O`quvchilar hodisalarning sabablarini tushunishga hodisalarni ma’lum qonuniyatlar doirasida ifodalashga bu qonuniyatlarda foydalanishga intiladilar.

2.O`smirlik yoshining rivojlanishiga ko`proq mehnat faoliyati ta’sir ko`rsatadi.O`smirlik yoshida mehnat ancha uyushqoqlik xarakterida bo`ladi.

3.O`smirlik shaxsning tarkib etishida o`yin ahamiyatini yo`qotmaydi.O`yin o`smirlik yoshida yuksak ahloqiy tuyog`ularning irodaviy xarakter xislatlarning o`sishiga yordam beradi.O`yin o`smirni intizomli bo`lishga o`rgatadi,o`yin o`ylashga,fahimlashga eslab qolishga biror narsani qilishdan oldin planlashtirishga va diqqatli bo`lishga da’vat etadi.

O`smirlik kollektivi boshlang`ich sinf o`quvchilari kollektiviga qaraganda maktabda ham uyda ham, butunlay boshqa o`rin to`tadi.Boshlang`ich sinflarda o`quvchilarning qiziqishi va faoliyatlari asosan sinf ishlari bilan cheklangan bo`ladi.

O`smirlik yoshida va o`quvchilar pioner drujinasining barcha ishlarida esa ishtirok bo`ladilar.Bularning hammasi o`quvchilarni aloqasini tobora murakkablashtirib boradi.Bu erda eng asosiy narsa shundaki,bu narsalar o`quvchilar kollektivining ko`p qirrali ijtimoiy hayoti bilan yashay boshlaydilar va bu hayotdan o`z o`rinlarini topishga harakat qiladilar.

O`smir shu yoshning datslabki davrlarida oldin o`zlashtirib bilimlari asosida yangi bilim ola boshlaydi.Bu bilim boshlang`ich maktabda ham o`qituvchi ham tarbiyachi bo`lgan o`qituvchi emas.U endi bir qator o`qituvchiga ko`nikish har biriga o`ziga yarasha muomala qilishi ularning talablariga ko`nikishi va shunga qarab o`zini tutish kerak.Shu sababli o`quvchi o`smirlar bir xil to`la sezmaydilar ular kattalarning shaxsiy xulqlari faoliyatlari va munosabatlarini quradilar.Ularning kattalar tomonidan o`zlariga shaxslarga berilgan har xil baholarni eshita boshlaydilar.

O`smirlik yoshiga etganlda bolalarda burch va javobgarlik tuyg`ulari etarli darajada o`sgan bo`ladi.Bolalar o`zlari ongli ravishda tanlagan qobil bo`lib qoladi.Mana shu davrda kattalar bolalarga «bemalol ish topshirishni ishonadilar»o`smirlarni oilada «kichkina»deb hisoblamay ulardan ho`jalik

ishlariga yordam berish topshirilgan ishga javob berishni talab qiladilar.Ular bilan maslahatlashadilar ba’zi o`smilar ayniqsa ular o`rta maktab yoshmning oxiriga borganda hatto o`ziga yaqinlarini qo`llovchi va tayanchi bo`lib qoladilar.

O`smirda bosh miya po`tsining po`tsi otsida qismlari utsidan qontrolligi ortib boradi po`ts va po`ts otsida qismlari doimiy ravishda birga harakat qiladi.Ayrim xollarda po`tsloq otsi qismining faoliyatini qontrol qilmay qoladi.Bu o`smirning betayinligi,jizzakiligi va emotsional xislariga berilganligidan dalolat beradi.Tormozlash reaktsiyasini paydo qilish xarakteri turg`un bo`lmay qoladi. Qo`zg`alish jarayonlari ba’zan shu qadar kuchli bo`ladiki, o`smir yoqimsiz harakterlarini tormozlay olmay o`zini to`ta olmay qoladi.

Qo`zg`alish jarayonlari jo`shqin, lekin tez o`sadi. Ikkinchi tamondan o`smir kuchli hayajonlanish paytida ayniqsa tegishli ijtimoiy sabablari asosida hayajonlanganda o`z hatti-harakatlarini idora etaolmaydi. O`smirlik yoshida ikkinchi signal sitsemasining roli kuchaya boradi. Qo`zg`ovchi vazifasini bajaruvchi so`z bilish jarayonida bashqa kishilar bilin munosabatda bo`lishda va o`z hatti- harakatlariga baho berishda ko`proq rol o`ynay bashlaydi.

Shu bilan bir qatorda o`smirning nerv sitsemasining o`sishi hali tug`ilmagan bo`lib, tarkib topish bosqichida bo`ladi. U o’zoq vaqt davom etadigan kuchli qo`zg`aluvchiga bardosh bera olmaydi. Ba’zan shu sababli ancha tez qo`zg`alish holatiga o`tib ketadi. Bu esa o`smir nerv sitsemasining ma’lum darajada bo`shligidan dalolat beradi.

O`smirning nerv sitsemasining tarkib topayotgan munosabatlari tarkibiy natijasida kuchayadi va mutsahkamlanadi.

O`smirni ish o`qish hamda sport mashg`ulotlari paytida to`g`ri va chuqur nafas olishga o`rgatish zarurdir.Bu narsa shuning uchun ham muhimdirki,bo`yning tez o`sishi organizmda modda almashishining jadallashishi bilan o`smir ko`p miqdorda kislorodga muhtoj bo`ladi.Bu yoshda o`smirning toza havoda bo`lishi ayniqsa muhimdir.O`smirlimk yoshida yurak ikki baravardan ko`proq o`sadi,gavda esabir yarim barobar o`sadi.Arteriyalari diametrining o`sishi yurakning o`sishidan orqada qoladi.Qon tomirining yo`li yurak hajmiga nisbatan

kamayadi va bu nerv qalqonsimon bezlari faoliyatining kuchli darajada tezlashuvi bilan birgalikda qon bosimining ortishiga va yurak faoliyatining kuchayishiga olib keladi.

Qon tomirlarining sitemasidagi o`zgarishlari natijasidagi ba'zan bosh miyaga boradigavn qon etarli bo`lmay qolishi mumkin bu esa bosh miya ish qobiliyatining susayiga tez toliqishiga va bosh aylanishiga olib keladi.Ba'zan o`smir tashqi ko`rinishining o`zgarib turishini kuzatish mumkin.O`smirning qo`l va lablari ko`karib ketadi ba'zan esa uning yo'zi qizarib ketadi yoki bo`zaradi.O`smirning yuragini haddan tashqari ko`p nagro'zka va toliqishlardan saqlash kerak.

Bu davr yangi bosqichga ya'ni o`spirinlikka tayyorgarlikdir.

**Takrorlash va muxokama qilish uchun savolar**

1. Usmirlik davrining asosiy psixik xususiyatlari.
2. Usmirlik davrida etakchi faoliyat turi.
3. Ukuv faoliyatining qayta tuzilishi xamda usmirlagi bilish jarayonlarining qayta tuzilishi xamda usmirdagi bilish jarayonlarning rivojlanishi.
4. Usmirlik dari krizisi, sabablari va namoyon bo'lishi.
5. Tarbiyasi qiyin usmir xulk-atvoridagi salbiy xususiyatlar va ularga psixologik yondoshuv;
6. Usmirlik yoshida individual yondoshuvning psixologik jixatlari.

## 10-mavzu: O`SPIRINLIK DAVRI

Mashg`ulot shakli Obzorli-ma'ruza tushunib olish, esda qolishi kerek bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma'ruza mashg`uloti rejasi**

1. O'spirinlik inson hayot yo'li tizimidagi o'rni.
2. O'spirinlik davrini psixologik nazariyalari.
3. Emotsional rivojlanish.

4. O’spirinlik davrida shaxsni rivojlanish xususiyatlari.
5. “Men-siymosi” na barqaror o’zini o’zi anglashni shakllanishi.

**Darsning maqsadi:**

O’spirinlik davrining psixologik xususiyatlari. O’spirinning psixik o’sishini xarakatga keltiruvchi kuchlar va shaxsning kamol topishi. O’spirinlik davrida qobiliyatlarni rivojlanishi va kasb tanlash muammosi haqida ma’lumot beriladi.

**Tayanch so`z va iboralar:**

Uspirinlik. Kasb tanlash. Kasbga yo’llash. Urtoklik. Do`stlik. Oila xakida kayg`urish. Jamiyatga foyda keltirish orzusi.

Usmirlikdan keyingi navbatdagi boskichni uspirinlik davri deb bir boskich xisoblashimiz xam mumkin, lekin xozirgi kupchilik psixologlar klassifikatsiyasi buyicha ikki boskichga ajratishimiz xam mumkin. Avval usmirlikdan keyingi boskichni usmirlik, keyingisi ilk uspirinlik yoki yigitlik davri deb aytilardi–da 14 yoshdan 21 yoshgacha bo`lgan davrlarni qamrab olar edi. Xozir kupchilik psixologlar 15–18 yoshni qamrab oladigan davrni ilk uspirinlik deb atashni ma’qo`l kurmokdalar, bu umumta’lim maktabining 8–9 sinfi-dan boshlab, kasb–xunar kolleji va litseylarining 1–2–sinflariga, ya’ni 8–10 sinf yoshiga to`g`ri keladi. Bu davrda o`quvchi jismonan bakuvvat, ukishni tugatgach mutsakil mexnat qila oladigan, oliy maktabda o`zini sinab ko`radigan imqoniyatga ega bo`ladi.

Mazkur davrning yana bir xususiyati – mexnat bilan ta’lim faoliyatining bir xil axamiyat kasb etishidan iborat. Ijtimoiy xayotda faol katnashish, ta’lim xarakterining o’zgarishi, yigit va kizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e’tikodning shakllanishiga, yuksak insoniy xis–tuyguning vujudga kelishiga, bilimni o’zlashtirishga ijodiy yondoshuv kuchayishiga olib keladi.

Xayotda o’z urnini topishga intilish kasb – xunar o’rganish, ixtisoslikni tanlash, itsikbol rejasini to`zish, kelajakka jiddiy munosabatda bulishni keltirib chikaradi. Birok bu davr kuch-gayrat, shijoat, kaxramonlik kursatishga urinish, jamoat, jamiyat va tabiat xodisalariga romantik munosabatda bulish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farklanadi.

Ilk uspirinning psixik rivojlanishini xarakatga keltiruvchi kuch jamoat tashqilotlari, maktab jamoasi, ta’lim jarayoni kuyadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot urtasidagi ziddiyatlardir.Turli karama–karshiliklar, ziddiyatlar uspirinning axlokiy, akliy, etsetik jixatdan tez o`sishi orqali bartaraf kilinadi.

Ilk uspirinlik yoshidagi etakchi omil yuqori sinf o`quvchisi faoliyatining xususiyati, moxiyati va mazmunidagi tub burilishdir.

O’spirinlarda avvalo o`zini anglashdagi siljish yaqqol ko’zga tashlanadi. Bu xol shunchaki o`sishni bildirmaydi. Uspirinda o`zi-ning ruxiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, kobiliyati xamda imqoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. Bu yosh-dagi o`quvchilarning o`zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular avval, o’zlarining kuchli va zaif jixatlarini, yutuk va kamchi-liklarini, munosib va nomunosib kiliklarini aniqrok baxolash imqoniyatiga ega bo`ladilar. O’spirin usmirga karaganda o’z ma’na-viyati va ruxiyatining xususiyatlarini to`larok tasavvur eta olsa xam, ularni okilona baxolashda kamchiliklarga yo’l kuyadi. Natijada u o’z xususiyatlariga ortikcha baxo berib, manmanlik, takabburlik, kibr-lanish illatiga duchor bo`ladi, sinf va pedagoglar jamoalarining a’zolariga gayritabiiy munosabatda bula boshlaydi. Shuningdek, ayrim uspirinlar o’z xatti–xarakatlari, akliy imqoniyatlari va kizikishlariga pats baxo beradilar va o’zlarini kamtarona tutishga intiladilar. Usmirlik yoshidagi boladan yana bir xususiyat–murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon xissi, o’z kadr-kimmatini e’zozlash, sezish va faxmlashga moyillikdir. Masalan, uspirin yigit va kiz sezgirlik deganda nozik, nafis xolatlarning farkiga borish, zaruratni anglash, xolisona yordam uyushtirishni, shaxsning nafsoniyatiga tegmasdan amalga oshirishni tushunadi. Uspirin o`zining ezgu niyatini baxolashda jamoada o’z urnini belgilash nuktai – nazaridan yondoshadi, chunonchi, «o`zim tan-lagan mo`taxassislikka yaroklimanmi?», «Jonajon Respublikamga, ota-onamga munosib farzand bula olamanmi?», «Jamiyatning taraqqiyotiga o’z ulushimni kusha olamanmi?» degan savollarga javob kidiradi. O`quvchida o`zining fazilati to`g`risida yaqqol tasavvur xosil qilish

uchun ukituvchi unga juda utsalik, ziyraklik bilan yordam berishi lozim. Shundagina jamoada utsozga, dutslariga chukur xurmat, minnatdorchilik tuygulari uygonadi.

O’spirin o`quvchida o`zini anglash zamirida o’z–o`zini tarbiyalash itsagi tug`iladi va bu ishning yo’llarini topish, ularni kundalik turmushga tadbik qilish extiyoji vujudga keladi. O’zlariga ma’qo`l ma’naviy – psixologik qiyofaga ega bulish uchun okilona ulcham, mezon, vazifalarni bajaruvchi barkamol, mukammal timsol, namuna, yuksak orzu tasvirini kidiradilar.

O’spirinda ideallar bir necha kurinishda namoyon bo’lishi va aks etishi mumkin. Masalan, ular taniqli kishilarning qiyofalari, badiiy asar kaxramonlari timsolida o’zlarida yuksak fazilatlarni gavdalantirishni orzu qiladilar. Bu orzular mazmun jixatidan uspirin yigitlar va kizlarda fark qilishi mumkin. Masalan, kizlar kupincha mexnatkash ayolning, jozibali, nazokatli, iboli, iffatli jamoat arbobining, badiiy asar kaxramonining xususiyatlari mujassamlashgan qiyofalarini ideal darajaga ko`taradilar. Ammo ayrim o`quvchilar tarixiy shaxslarning, masalan, bakuvvat yo’ltusar, xiylagar kuv josus va boshqalarning salbiy sifatlariga taklid qilishga xam moyil bo`ladilar.

Kuzatishlar va xayot tajribalarining kursatishicha, ba’zi xollarda ilk uspirinlar o’zlarini kurkmas, jasur qilib kursatishga, nourin xarakatlarga moyil bo`ladilar.

Ilk uspirinlar ma’naviy xislatlarga, axlokiy mezonlar moxiyatiga jiddiy munosabatda bo`ladilar. Masalan, burch, vijdon, gurur, kadr–kimmat, faxrlanish, ma’suliyat, or–nomus kabi tushuncha-larni chukur taxlil qila oladilar. Lekin xammalari emas. Axlokiy ma’naviy karashlar, tasavvurlar shakllanishi uchun pedagoglar soglom muxit yaratish, barqaror shaxsni tarkib toptirish uchun doimo izlanishlari zarur. Ayrim munozarali tadbirlar puxta uylab tashqil kilinishi, ayrim chet el filmlari muxokamasi shular jumlasiga kiradi. Ijtimoiy xayotda uchraydigan yaramas yurish – turishlarga, il-latlarga zarba berish pedagoglar jamoasining muxim vazifasi xisoblanadi. Uspirinlarda balogatga etish tuygusi takomillashib borib o`zining urnini belgilash va ma’naviy dunyosini ifodalash tuygusiga

aylanadi. Bu xol uning o`zini aloxida shaxs ekanligi, o`ziga xos xislatini tan olinishini itsashida aks etadi.

Bu yoshda shaxs sifatlari shakllanishida maktab muxiti, ayniqsa sinf jamoasi, rasmiy va norasmiy tengkurlar kuchli ta'sir etadi. Maktab va sinf jamoalari ta'sirida matonatlilik, jasurlik, sabr-tokatlilik, kamtarlik, intizomlilik, xalollik, xamdardlik kabi fazilatlar takomillashadi va xudbinlik, lokaydlik, munofiklik, laganbardorlik, dangasalik, gayirlik singari illatlarning barxam topishi tezlashadi.

Uspirin xar bir ishda etakchi, birinchi bulish itsagi bilan yashaydi. Lekin xar doim xam uddasidan chika olmaydi. L.A.Umanskiy fikricha buning uchun uspirin quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak.

a) axlokiy xislatlar – jamoatchilik, samimiylik, tashabbus-korlik, faollik, mexnatsevarlik;

b) irodaviy xislatlar – matonat, kat'iyat, mutsakillik, tashab-buskorlik, batartiblik, intizomlilik;

v) emotsional xislatlar – xushchakchaklik, tetiklik, xazilkashlik va yangilikni xis etish, o'z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar.

O'spirinlarda mavjud bo`lgan yana bir muxim xislat ularda yuksak darajadagi dutslik, urtoklik, ulfatchilik, muxabbatning vujudga kelishidir. Shu sifatlarning kay darajada shakllanganligi tarbiya-viy ta'sir utkazish mezoni xisoblanadi.

O'spirin o`quvchilarda tabiat, san'at, adabiyot, madaniyat, ijti-moiy xayot go'zalliklarini paykash, idrok qilish, sevish, ulardan ta'sirlanish, ma'naviy ozuka olish xislatlari paydo bo`ladi. Ular-ning psixologiyasida mayin sado, yokimli nido, kalbni tulkin-lantiradigan musika, nozik xis–tuygu, ezgulik xislari, mayllari kuchayadi. Ayniqsa, etsetik xislar ularning ma'naviyatidagi kupol, noxush, xunuk va yokimsiz kiliklarning yukolishiga yordam beradi. Shunga karamay uspirin yigit va kizlar orasida etsetik tuygusi to`la shakllanmagan, noto`g`ri tasavvurga ega bo`lgan shaxslar xam uchraydi.

O'spirin o`quvchilarning fanlarga munosabatlari asosan xar kaysi fanning inson dunyoqarashidagi roliga, bilish faoliyatidagi va ijtimoiy axamiyatiga, amaliy

xususiyatiga, o’zlashtirish imqoniyatiga va uni ukitish metodikasiga boglik bo`ladi.

O’spirinlarda sezgirlik, ko’zatuvchanlik takomillashib boradi, mantikiy xotira, eslab kolishning yo’l va vositalari ta’lim jarayonida etakchi rol uynay boshlaydi. Uspirinlar topshiriklarni bajarishda, ularning ma’nosi xamda moxiyatini to`la anglab ish to`tadilar, eslab kolish, saklash, esga tushirish jarayonlarining samarali usullaridan unumli foydalanadilar.

O’spirin barcha faoliyat boskichida mutsakil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilikdir. Bu kamchilikni bartaraf qilishda dars jarayoni katta imqoniyatlarga ega. Darsda ukuv materialini bayon qilishda mazmuni ixcham, mantikiy boglangan bo’lishini ta’minlash, o`quvchining javobi albatta kitobdagiday, yodlab olingan koidalardan iborat bo`lib kolmay, uning «o’z so`zi bilan» izoxlanishini talab kilinishi kerak. Tinglangan yoki ukilgan materialda mutsakil xulosa chiqarishni talab qiladigan xolatlar bo’lishiga aloxida e’tibor berilishi kerak.

Ilk uspirinlik yoshidagi o`quvchilarda nazariy tafakkurni shakllantirishda tugarak va faqo`ltativ mashgulotlar muxim axamiyatga ega. Uspirin o`quvchining mutsakil fikrlashini rivojlantirish uchun ukituvchilar, sinf raxbarlarining siymolari muxim rol uynaydi. Buning uchun birinchidan, ukituvchilar uspirinlarda urganilayotgan narsa va xodisalarning ob’ektivligi, xakqoniyligi, to`g`riligiga ishonch xosil qilishlari, ulardan kanoatlanishlari va ularni isbotlashga urgatib borishlari zarur. Ikkinchidan, fan ukituvchilari ularni narsa xodisalar to`g`risida original fikr yuritishga yo’llashlari kerak. Uchinchidan, o`quvchilarning mashgulotlarda qo`llanaverib ma’naviy eskirgan bir kolipdagi so`zlardan, iboralardan foydalanishlariga yo’l kuymas-liklari kerak. Turtinchidan, fan ukituvchilari uspirin yigit va kizlarga bilimlarini amaliyotga tadbik qilishlari shart, buning uchun ularda amaliy malakalarni shakllantirishga xarakat qilishlari lozim.

Tafakkur rivojlanishi bilan birga o`quvchining nutq faoliyati xam o’sadi. Bu esa o`quvchida o’z fikrini to`g`ri, aniq ifodalash malakasini tarkib toptiradi. Nutqining to`zilishini takomillash-tiradi va lugat boyligini yanada oshiradi.

O’spirin adabiy asarlarni ukish va tushunish orqali mutsakil fikrlashga, muloxaza yuritish va munozaraga urganib boradi.

Kizikishlar bilishning doimiy ko’zgatuvchi mexanizmi sifatida nomoyon bo’ladi. Kizikishlar mazmuniga, maksadiga, mikyosi va barkarorligiga karab belgilanadi (ijobiy va salbiy bo’lganda xam). Kizikishlar shaxs–faoliyatini asoslashning birdan–bir emas, lekin muxim shartidir. Xulk–avtorining muxim motivlaridan biri e’tikoddir. E’tikod – shaxsni o’z karashlariga, pritsiplariga, dunyokarashiga muofik tarzda ish ko’rishga da’vat etadigan motivlar tizimidir. Bu bilimlar, nuktai nazarlarning tartibga solingan va ichki uyushgan tizimini (falsafiy, estetik, axlokiy, tabiiy–ilmiy) tashqil etgan takdirda kishining dunyokarashi sifatida talkin kilinishi mumkin. Dunyokarash ijtimoiy–siyosiy to’zimga karab o’zgarishi mumkin.

Psixologiyada shaxsning yo’l–yuriklari uning u yoki bu extiyoji qondirilishiga yordam berishi mumkin bo’lgan faoliyatga tayyorligining, moyilligining o’zi tomonidan anglanilmaydigan xolatini belgilaydi. Buni gro’zin psixologi N.D. O’znadze ustanovka deb atagan.

Psixologik tadkikodlar yo’l–yurikning tuzilishi uchta tarkibiy kismdan iboratligini kursatadi. Bular: kishining bilib olishga va idrok etishga tayyorligidan iborat bo’lgan kognitiv (lot codnitio bilsh) kichik tuzilishi, yo’l–yurik, ob’ektiga nisbatan xayrixoxlik yoki xush kurmaslik xolatlari kompleksidan iborat xissiy baxolash kichik tuxilishi, yo’l–yurik ob’ektiga nisbatan irodaviy kuch–gayratni safarbar etishga shay turishdan iborat bo’lgan xulk- avtor kichik tuzilishidir.

Kishi o’z moxiyatiga kura ijtimoiy xisoblangan munosabatlar tizimiga kirgan, odamlar bilan o’zaro birgalikda xarakat kilgan va munosabatda bo’lgan xolda o’zini atrof muxitdan aloxida ajratib kursatadi, o’zining jismoniy va psixik xolati, xarakatlari va jarayonlarining sub’ekti sifatida eks etadi, o’zi uchun (boshqalarga)

karshi turgan va ayni chogda ular bilan boglik bo'lgan «Men» sifatida nomoyon bo'ladi. Bolalarda «Men» siymosi juda erta tarkib topa boshlaydi. 2–3 yoshli bolalardayok «Men» siymosi yakkol kurinadi – «Seniki emas–meniki», «Men o'zim kelaman», «Menga besh» va x. (I. S. Qon)

Nixoyat, uspirinlik va yoshlik davrida ijtimoiy xayotga va mexnat faoliyatiga faol kushilib keti natijasida o'ziga ijtimoiy–axlokiy jixatdan baxo berishning kengaytirilgan tizimi shaqllana boshlaydi, o'zini anglab etishi tugallanadi va «Men» ning siymosi asosan tarkib topadi.

Uspirinlik va yoshlik yillarida o'zini tarbiyalashga, o'zining xayotidagi urnini va tevarak–atrofidagilar bilan munosabatlar sub'ekti sifatida o'zini anglab etishga intilish kuchayadi. O'zining anglashning yo'zaga chika boshlashi ana shu bilan boglikdir. Katta yoshdagi ukuvchilarda–talabalarda o'z xususiy «Men» siymosi kat'iy shaqllanadi. «Men» siymosi–individning o'zi xakidagi nisbatan barkaror, ozmi–kupmi darajada anglanilmagan, betakror deb xis kilinadigan tasavvurlar tizimidirki, individ boshqalar bilan o'zaro birgalikda xarakat qilishda ana shunga asoslanadi.

Xar kanday yo'l–yurik kabi «Men» siymosi xam uchta komponentni o'z ichiga oladi: Birinchisi–kognitiv tarkibiy kism: ikkinchisi xissiy–baxolash tarkidi kism, uchinchisi–xulk–avtor- irodaviy tarkibiy kism. Seni tushinishlari uchun intilish, urtoklarining va ukituvchilarning xayrixoxligini, xurmatini kozonish, o'z mavkeingni kuchaytirish yoki sezilmasdan kolish istagi, baxo berish va tankid qilishdan tiyilish, o'zining kamchiliklarini berkitish va x.

«Men» ning siymosi–ijtimoiy munosabatlarning xam sharti–sharoiti va xam okibatidir. Psixologlar kishida amalda dirgina «men» siymosini emas, balki navbatma–navbat gox o'zini anglashni, gox muayyan vaziyatda o'zining axamiyatini yukotadigan o'zaro birgalikdagi xarakatni kuyadigan va bir–birining urnini egallabturadigan kuplab «men siymolari» bulishni kayd etishadi. «Men» siymosi xosilbo'lishining yana bir kurinishi «xayoliy» «men» dan iboratdir. Agar iloji bo'lsa orzu kilingan darajaga etish, umuman o'zining tasavvur kilganidek

bo’lib kolish istagida ekanligini aytib kuyish kerak. «Men » ning bu xildagi siymosi ayniksa uspirinlik davrida katta axamiyatga ega.

O’ziga-o’zi baxo berish – shaxsnin o’zi tomonidan o’ziga, o’z imqoniyatlariga, boshqa odamlar orasida fazilatlariga va o’z urniga baxo berilishidir. Bu shaxsning o’zini anglab etishining psixologiyada ancha muxim va eng kup urganilgan jixati xisoblanadi. O’ziga o’zi baxo berish orkali shaxsning xulk-atvori tugrilanib, tartibga solib turiladi.

| MS: SHaxs o’ziga o’zi baxo berishni kay tarzda amalga oshiradi? |
|---|

Kishi o’zi xakida ba’zi narsalarni allakachon bilgani xolda boshqa kishiga razm solib boradi, o’zini u bilan solishtirib kuradi, u xam uning shaxsiy fazilatlariga, xatti–xarakatlariga, faolligiga nisbatan befark kola olmaydi, ana shularning xammasi shaxning o’ziga o’zi baxo berishiga kiradi va uning psixologik xolatini belgilaydi. Boshqacha aytganda, shaxsda xamisha referent gurux (real yoki xayoliy) bo’lib, u bilan xisoblashgan xolda ish kuradi, undan o’ziga kadriyatli muljallar oladi.

Agar shaxs o’z xatti–xarakatlarini referent guruxning nuktai-nazari va kadriyatli uljallari bilan doimo takkoslab borishi shu qadar anik ravshan bo’lsa, u xolda kishi o’zida bor bo’lgan fazilatlarni, uning uchun biror bir kiymatga va axamiyatga ega bo’lgan narsalar bilan takkoslab ko’rish muximdir.

Psixologiyada kishining o’ziga o’zi beradiga baxoni, uning mikdoriy va sifat ta’rifini aniklashning bir kator eksperimental metodari mavjud. (O’z-o’zini tekshirish testlari, o’z-o’zini kuzatish, kundalik yuritish va xokazo).

O’ziga o’zi tomonidan bexad yukori va bexad past baxo berilishi mumkin. Xar ikki xolda xam kishining jamoadagi urniga u yoki bu darajada ta’sir etishi mumkin. O’ziga o’zi tomonidan yuksak baxo berilishi kishini xech kanday asos bulmaganda xam o’zining baxosini oshirib yuboradigan, kibr-xavo kilib kuyadi, natijada tevarak-atrofidagilar tomonidan uning davolari rad etilib, karshilik kursatilishiga duch keladi, jaxli chikadi, xadiksiraydigan, xar narsadan gumonsiraydigan, yoxud ataylab takabburlik qiladigan, tajovo’zkor bo’lib koladi va okibat natijada tegishli darajadagi shaxslararo alokalarni yukotib, o’zi bilan o’zi

ovora bo’lib kolishi mumkin. O’ziga xaddan ziyod past baxo berish norasolik deb atalmish xislatlar kompleksining, o’ziga kat’iyan ishonchsizlikning, o’zini o’zi koyishning va kurkuvning kuchayishidan darak berishi mumkin.

Gurux va jamoalarda odamlarning bir-birlariga ta’siri turli vositalarda amalga oshiriladi. Eng muximi – mulokotdir. Nutq va imo-ishora orkali bir-birlarini ma’kullashlari yoki karshilik kursatishlari, kuchlarni birlashtirish yoki e’tiroz bildirish mumkin.

SHaxsning ilk bor kuyilgan baxoga kaytish faktini aniklash bilan biz shaxsning yangi guruxga kirish darajasini, shu bilan birga uning guruxdagi kayfiyati, xususiyatini xam aniklay olamiz. Masalan, shaxsning o’ziga-o’zi beradigan baxoning bir muncha oshirilib yuborilishi kutilgan baxo kursatkichlarining kamayishi bilan boglangan bo’ladi. O’ziga o’zi bergan baxoning va tevarak-atrofdagilarning unga nisbatan amalda mavjud munosabatlarining bir-biriga mos kelmasligiga ishonch xosil kilgan individ ularning baxolari yuksak bo’lishiga ortik umid kilmaydi. Bundan tashkari, shaxs tevarak-atrofdagilarga beradigan baxoning oshirib yuborilishi boshqalar tomonidan berladigan real baxoning, ya’ni shaxsga gurux tomonidan beriladigan baxoning oshib ketishiga olib borishi aniklanadi. SHaxs tomonidan guruxga beriladigan baxoning yukori bo’lishi individning xakikatdan xam tez kovushib keta olishiga, guruxning tashvishlari bilan yashashiga, uning kadriyatlarini asray olishiga asos bo’ladi. O’z navbatida jamoa xam buni shaxsga nisbatan ortigi bilan yuksak baxo tarzida kaytaradi.

Uchta kursatkich – o’ziga o’zi baxo berish, kutilgan baxo, guruxning shaxs tomonidan baxolanishi – shaxsning tuzilishiga kiradi va kishi buni xoxlaydimi-yukmi, bundan kat’iy–nazar, u o’zining guruxdagi kayfiyatini, o’zi erishgan natijalarning muvaffakiyatli yoki muvaffakiyatsiz ekanligini. O’ziga va tevarak-atrofdagilarga nisbatan nuktai–nazarlarini belgilaydigan sub’ek-tiv vositalarni xisobga olishga ob’ektiv ravishda majburdir.

O’ziga–o’zi baxo berish shaxsning shaxsning intilishlari darajasi bilan chambarchas boglikdir. Intilishlarning darajasi shaxs o’ziga o’zi beradigan

beradigan baxoning individ o'z oldiga kuyadigan maksadlarning kiyinchiliklari darajasida namoyon bo'ladigan kutilgan darajasi kiyinchiliklari darajasi («Men» siymolarining darajasi)dir.

| MV: «General bo'lishni orzu qilmagan soldat-soldat emas!» iborasini sharxlang. |
|---|

Kishi navbatdagi xarakatning kiyinchilik darajasini bemalol tanlash imqonyatiga ega bo'lgan paytda o'ziga o'zi beradigan baxoni oshirib yuborishga intilish ikkita tendensiya urtasida mojaro kelib chikishiga sabab bo'ladi: bir tomondan eng kup nutqka erishish uchun intilishni kuchaytirib yuborishga xarakat kilinsa, ikkinchidan muvaffakiyatsizlikka uchramaslik uchun intilishlarni kamaytirishga xarakat kilinadi.

Intilishlar darajasining shaqllanishi fakat nutqka erishilishi yoki muvaffakiyatsizlikka uchrash muiknligini oldindan sezish bilan emas, eng avvalo aql-idrok bilan, ba'zan esa utmishdagi yutuklar va muvaffakiyatsizliklarni oz bo'lsa-da anglanilgan tarzda xisobga olish va baxolash bilan belgilanadi.

CHet ellarda utkazilgan tajribalardan biri sinaluvchilar orasida xavf–xatar bo'lgan takdirda muvaffakiyat kozonish emas, balki muvaffakiyatsizlikka uchramaslik uchun ko'proq intiladigan shaxslarning borligini kursatdi. Agar ularga keyinchalik darajasi xar xil bo'lgan vazifalardan birini tanlash suralsa, ular yo eng engil vazifani yoki eng kiyin vazifani tanlaydilar.

SHaxsning intilishlari darajasini fakat ularning ta'sirchanligi jixatidan emas, balki ularning mazmuni **yuzasidan**, jamoaning maksadlari va vazifalari bilan alokadorligi **yuzasidan** olib borilgan tadkikotlar kishi xulk–atvori motivlarini yaxshirok anglab etish va shaxsda eng yaxshi fazilatlarni shaqllantirishga karatilgan ta'sir utkazish imqoniyatini beradi. Bir xil xollarda pedagog uchun shaxsning intilishlari darajasini oshirish vazifasi juda muxim bo'lib chikadi; agar ukuvchi o'ziga va o'z imqoniyatlariga unchalik yukori baxo bermaydigan bo'lsa, bu muayyan darajada ziyon kurilishiga, muvaffakiyatga erishishga ishonchning tamomila yukolishiga olib boradi. Ketma-ket muaffakiyatsizliklar xafsalasi pir bo'lishiga xam olib kelishi mumkin.

Intilish darajasini oshirish yo’llari turlicha bo’lib, ukuvchining individualligiga, frustratsiya xususiyatiga, pedagogning real imqoniyatlariga va xokazolarga boglikdir. Bu urinda ukituvchi va sinf jamoasi tomonidan kursatiladigan bevosita yordam xam, shaxs istikbolini yaratishning turli xil usullari xam ish beradi.

SHaxsning o’zini anglashi, o’ziga o’zi baxo berish mexanizmini kullagan xolda xususiy intilishlari va real yutuklari urtasidagi o’zaro nisbatlarni anik kayd etadi. Amerikalik psixolog U. Djems o’zining psixologik nazariyasida insonga nisbatan amerikacha utilitar munosabatga (utilitar-manfaatparastlik, xar bir narsadan foyda olishga intilish) xos pragmatik karashlarga xos, XX asr boshlaridayok shaxs va uning «Men» siymosining eng muxim tarkibiy qismi o’zini xurmat qilishi xakikatdan xam erishgan yutuklarining kishi da’vogarlik kilgan, muljallangan narsalarga muonsabati bilan belgilanishi xakida umuman tugri fikr bildirgan edi. U shaxsning «Men» siymosini ifodalaydigan formula yaratdi: formuladagi kasr surati individning real muvaffakiyatlarini, maxraji esa uning intilishlarini ifoda etadi:

$$\text{o'zini xurmat qilishi} = \frac{\text{muvaffakiyati}}{\text{intilishlari}}$$

Ma’lumki, surati oshib, maxraji kamayganda kasr kattalashadi. SHu sababli kishi o’zini xurmat qilishini saqlab kolishi uchun bir xil xollarda eng kup kuch va gayrat sarflashi va o’zini xurmat qilishni saqlab kolishi shart bo’lib, bu kupincha murakkab vazifa xisoblansa, boshqa bir yo’li intilishlarning darajasini pasaytirishdan iboratki, bunda xatto juda xam kamtarona muvaffakiyatlarga erishganda xam o’zi xurmat qilish xissi yukolmaydi. Kishi o’z faoliyatida kiyinchiliklar

## O’z–o’zini tekshirish uchun savollar.

**Talaba–yoshlar psixologik xususiyatlari deganda ko’proq kaysi xususiyatlarga o’z dikkatingizni karatasiz?**

Talaba ukuv faoliyati umumta'lim maktabi, kasb-xunar kolleji ukuvchisi ukuv faoliyati bilan kay jixatdan uxshaydi va fark qiladi?
Talabaning muvaffakiyatli ukishi uchun kaysi kiyinchiliklarni bartaraf qilish kerak?
Ma'ruza tinglashda, seminar mashgulotiga tayyorlanish va katnashishda nimalarga e'tibor berish kerak?
O'z-o'zingizni tekshirib kuring va natijalarini yozma bayon kiling.
SHaxs faolligi va yunalganligi deganda kaysi sifatlarni tushunasiz?
SHaxs yunalganligining asosiy sifatlarini sanang.
SHaxsning o'z-o'zini anglashi va uning turlari.
O'z-o'ziga baxo berish, o'zligini anglash urtasidagi bogliklik.
«Men» siymosi va uning shaqllanishi.

## 12-mavzu: YETUKLIK DAVRI

**Mashg`ulot shakli** Obzorli-ma'ruza tushunib olish, esda qolishi kerek bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma'ruza mashg`uloti rejasi**

1. Yetuklikning umumpsixologik tavsifnomasi.
2. Yetuklik davridagi inqiroz.
3. Yetuklik davrida mas'uliyat va ijtimoiy faollik sohasini kengayishi.

**Darsning maqsadi:**

Yetuklik davrining psixologik *xususiyatlarni* talabalar ongiga etkazish, etuklik davri bosqichlarini ahamiyatini uqtirish, yetuklik davri inson hayotining asosiy qismi ekanligini tushuntirish.

Yetuklik davrining birinchi bosqichiga 28-35 yoshlardagi erkak va ayyollar kiradilar.Yetuklik davrida odam o'zining barcha kuch-quvvati, qobiliyati, aql-zakovati, ichki imkoniyatlarini o'z kasbiga, ijtimoiy faoliyatiga, jamoat ishlariga

to'la safarbar qila oladi. Erkak va ayollarning bu davrda mehnat va ijtimoiy faoliyatda muayyan tajribaga egaligi ularni istiqbol sari yetaklaydi. Yetuk shaxsning boshqalarga munosabati, ularni baholash, dinamik stereotipida sezilarli o'zgarishlar bo'ladi. U endi faqat o'zining xatti-xarakati uchun emas, balki boshqa odamlarning qilmishlari uchun ham javobgarligini anglay boshlaydi, ayniqsa, hayot tajribasiga ega bo'lmagan yoshlarning o'z farzandlarining xulq-atvori, yurish-turishi uchun ham kuyadi, ularga imkoniyat boricha yordam berishga intiladi.

Yetuklik kattalik, donishmandlik, rahnamolik, g'amxo'rlik, homiylik davridir. Boshqa yosh davrlaridagi kabi mazkur davrda ham muayyan darajada inqiroz bo'ladi. Bu davrda inson qanday ishlarni amalga oshirishga, qaysi imkoniyatlardan foydalanmagani, ayrim xatolar, tushunmovchiliklar sababli ko'ngilsizliklar vujudga kelganligini anglay boshlaydi. O'ziga o'zi hisob berish shu davrning muhim psixologik xususiyatlaridan biridir. Organizmdagi ayrim o'zgarishlar, umrning tez o'tishi kishini qattiq tashvishga va iztirobga soladi. U bundan keying hayotning har bir daqiqasidan unumli foydalanishga qaror qiladi. Ayrim orzu-istaklarini amalga oshirish uchun jismoniy va ruhiy imkoniyatlari yetishmasligini anglash uning psixikasida "turg'unlik" tuyg'usini vujudga keltiradi. Buning asosiy sababi 33-35 yoshlarda mnemologik-attension majmua tubdan qayta qurilishidir. Yaxlit mnemologik markazning mnemik (xotira) va mantiqiy (tafakkur) qismlarga ajralishi ro'y beradi. Attensional holatning omillari saqlanib qoladi, lekin kata yoshdagi inson intellekti tarkibida xotira va tafakkur muhim o'rin tutadi. Biroq o'zgarishlar uning ruhiy dunyosida, kechinmalarida, his-tuyg'ularida chuqur iz qoldirmaydi, yetuk shaxs xotirasida illyuzion xususiyatga ega bo'lgan tasavvur obrazlari (yoshlik tuyg'usi, kayfiyati, orzusi, xom hayoli) saqlanib qolaveradi.

Yetuklik bosqichida jismoniy va aqliy imkoniyatlardan to'laroq foydalanish ko'nikmasi paydo bo'ladi. Bu hol butun kuch-quvvat, aqliy zo'riqish, iroda kuchi, asab taranglashuvi hisobiga emas, balki muayyan ko'nikma, malaka va mahorat asosida ro'y beradi.

Yetuklikning turli davrlarida kamol topish jabhalarining o’zaro munosabatini tadqiq qilgan B.G.Anan’yev labaratoriyasi xodimlari 29-32 yoshlarda funksional darajaning oshishi 46,2, barqarorlashuvi 15,8, funksional darajaning pasayishi 38,0, 33-35 yoshlarda mos ravishda 11,2; 33,3 va 55,5 % ni tashkil qilishini aniqlashgan.

Yetuklik bosqichida jismoniy va aqliy imqoniyatlardan to’laroq foydalanish ko’nikmasi paydo bo’ladi.Y.Kulytkin tadqiqotining natijasiga qaraganda , 30-35 yoshlarda diqqat 102,8 xotira 99,5 tafakkur 102,3 birlikda baravardir. Yetuklik davri faoliyatining maxsuldorligini o’rgangan G.Leman uning cho’qqisi kimyogarlarda 30 yosh, matematiklarda 30-34, geologlarda va astronomlarda 30-35 yosh ekanligini va o’rtacha maxsuldorlik cho’qqisi 37 yoshda bo’lishini qayd qilgan.

Psixofiziolog S.V.Kravkov ko’zning farqlash sezgirligi yoshga qarab o’zgarishini 4 yoshdan 80 yoshgacha bo’lgan odamlarda tekshirib, sezgirlikning ortishi 25 yoshgacha, sezgirlikning barqarorlashuvi 25-50 yoshgacha davom etishi mumkinligini aniqlagan.

Z.F.Yesareva oliy maktab o’qituvchilari aqliy faoliyatining maxsuldorligi muammosini taqdid qilib, nomzodlik dissertasiyasini yoqlashni matematiklar-26, psixologlar-32, filologlar-34, tarizchilar-31, fiziklar-30, biologlar 32 yoshda amalga oshirishi mumkinligini aniqlagan. Kamolotning birinchi bosqichidagi yetuk kishilarda ijtimoiy faoliyatda qatnashish istagi 30 yoshda 18,3 %, 35 yoshda 6,2 % ni tashkil wtadi. Demak, ijtimoiy tashkilotlar faoliyatida qatnashish ko’lami torayib boradi.

Bu davrda erkak va ayollarning tafovutlari namoyon bo’ladi: jismoniy, jinsiy, ruhiy, kamolotda ayollar ilgarilab kelgan bo’lsalar, endi erkaklar oldinga o’tib oladilar va bu hol inson umrining oxirigacha saqlanib qoladi.

Yetuklik davrida ijodiy faoliyatning maxsuldorligini Z.F.Yesareva quyidagi mezonlar bilan o’lchashni lozim topadi: 1)e’lon qilingan ilmiy ishlarning miqdori; 2)chop qilingan asarlar ichida o’quv qo’llanma, darslik va monografiyalarning mavjudligi; 3)ilmiy tadqiqotda yangi yo’nalishning ochilishi; 4)ilmiy muammoni

hal qilishda yangi usulning kashf etilishi; 5) ilmiy maktabning tashkil qilinishi; 6)boshqa mualliflarning ishlariga murojaat qilish va ilova berish miqdori; 7)o'qituvchining ilmiy ma'lumotlaridan talabaning mustaqil ishlarida foydalanish ko'lami; 8)o'qituvchi rahbarligidagi diplom va dissertasiya ishlarining miqdori va sifati; 9)o'qituvchining ilmiy faoliyatdagi muvaffaqiyati mukofot bilan taqdirlanishi; 10)dosent va professor degan ilmiy pedagogik unvonlarga sazovor bo'lish kabilar.

Maskur yoshda shaxsiy hayotdagi yutuqlar, g'alabalar yoki muvaffaqiyatsizliklar kishining ruhiy dunyosiga qattiq ta'sir etadi. Natijada unda takabburlik, mag'rurlik hislari paydo bo'ladi, o'zini boshqalardan ustun qo'ya boshlaydi yoki, aksincha, hayot zahmatlari uning pessimist, narsa va hodisalarga nisbatdan loqaydlik tuyg'usini vujudga keltiradi. Lekin har ikkala ko'rinishga ega bo'lgan ruhiy holat ham oila azolari, tenqurlari, mehnat jamoasi azolarining ta'siri orqali asta-sekin myayyan yo'nalishga tushib qoladi.

Umuman, kamolot bosqichidagi odamlar istiqbol rejasi bilan yashashga harakat qiladilar, voqelikka, turmush ikir-chikirlariga, tabiat, jamiayt, koinot hodisalariga befarq qaramaydilar, imkoni boricha xotirjamlik, totuvlik, tinchlik, do'stlik, dunyo lazzatlaridan oqilona foydalanish tuyg'usi bilan yashaydilar.

Yetuklik davrning ikkinchi bosqichiga 36-55 (60) yoshlardagi erkak v aayollarni o'z ichiga oladi. Mazkur davrda ijodiy faoliyatni qaytadan baholashda o'z ifodasini topuvchi yangi hislat namoyon bo'ladi. Ular shu kungacha mehnat faoliyatida miqdor ketidan quvib yurgan bo'lsalar, endi mehnat mahsulining sifati ustida bosh qotira boshlaydilar. Oilaviy turmushga, ijtimoiy hayotga, yashashning maqsadiga, inson qadr-qimmatiga, tevarak-atrofga, o'zlariga va boshqa odamlarga yangi mezon bilan qaray boshlaydilar. Turmushning ikir-chikirlari, ijtimoiy hodisalarga vazmin, sabr-toqat bilan hayot tajribasiga suyangan holda munosabatda bo'ladilar, har bir narsaning nozik tomoni yoki yomon oqibati haqida o'z fikrlarini bildiradilar. Hayotda qo'ldan boy bergan imkoniyatlari, xato va kamchiliklari ularda yetti o'lchab, bir kes qabilida ish tutish tuyg'usini vujudga keltiradi. Shuning uchun ular umrning biror daqiqasi behuda o'tishiga achinadilar,

yoshlik yillarida yo'qotganlarini aql-zakovat, donishmandlik bilan to'ldirishga intiladilar.

Yetuklik davrining ikkinchi bosqichida qarilik alomatlari ko'proq o'rin egallay boradi, uning boshlanish nuqtasi 45-50 yoshlardir, lekin odamlarning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, bu chegara turlicha, masalan, bu bir kishida 60 yoshda, boshqa birida esa 70 yoshda bo'lishi mumkin. Shu sababli yosh davrining chegaralari faqat shartli belgilanadi. Bu omil odamlar yashayotgan oila muhitiga, tarixiy-ijtimoiy shart-sharoitga jug'rofiy iqlim va hokazolarga ham bog'liqdir. Mazkur yosh davrining o'zgaruvchanligini insonning biologik, ijtimoiy va tarbiyaviy omillari (irsiy alomat, ijtimoiy muhit, uzluksiz ta'sir) belgilaydi.

Yu.N.Kulyutkin bir xil yosh davridagi odamlarda har xil jarayonlar, holatlar, xossalar, xususiyatlarning o'sishi, o'zgarishi baravar emas, balki ularning birovda oldin xotira, keyin tafakkur, boshqa birovda, aksincha, rivojlanishini, bir psixik jarayonning zaiflashuvi, ikkinchisining jadal sur'at bilano'stirishini uqtiradi.

Shaxsning o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga intilishi faoliyatning barcha turlarida na'naviy va ruhiy jihatdan o'zini anglashini yanada takomillashtiradi. Yetuklik davridagi erkak va ayollarning o'zligini anglashdagi "Men" uch xil ko'rinishda ifodalanadi. "Men" ko'pincha "Men-obraz" shaklida o'zi tomonidan talqin qilinadi. Shaxsning "Men-obraz": 1)retrospektiv "Men" dan iborat bo'lib, o'tmishdagi o'zligini aks ettiradi; 2) aktual "Men" sifatida tasavvur etilib, o'zining hozirgi davrini ifodalaydi; 3) ideal "Men" obrazi esa yaqin kelajakda o'zining qanday tasavvur qilish tuyg'usi bilan bog'liq holda yaratiladi. Shuning uchun o'z imkoniyatlarini hayotda to'la safarbar qilish istagi ijtimoiy turmushning barcha jabhalarida o'zining o'tmish obrazini hozirgisi bilan solishtirib, shaxsiy ideal modelini vujudga keltiradi, shaxs mazkur modelga asoslanib, turmush rejalarini, xatti-xarakat maqsadini, usul va vositalarini tanlay boshlaydi. Insonning o'tmishidan hozirgi kunga, hozirgi kundan kelajakka intilishi o'zini anglashning osh mezoni hisoblanadi. O'zligini anglashning boshqa mezonlari ham mavjud bo'lib, ular o'zini o'zi baholash, nazorat qilish, tekshirish, qo'lga olish, o'ziga buyruq berish kabilarda aks etadi. O'zini anglash ko'pincha,

o'ziga boshqa kishilar: a)Yoshi ulug' odamlar; b)tengdoshlari; v)o'zidan kichik odamlar nuqtai nazaridan qarashda ko'rinadi.

Umuman, yetuklik davrining ikkinchi bosqichiga mansub kishilar bir tomondan, butun imkoniyatini mehnat va ijtimoiy faoliyatlarga bag'ishlagani bilan, ikkinchi tomondan, ijtimoiy faolloklari susayib borishi bilan farqlanadi. Chunki insonning keksayishi ham quvonchli, ham o'kinchli damlarga, kechinmalarga, his-tuyg'ularga serobligi bilan boshqa yosh davridagi odamlardan ajralib turadi. Xotirjam dam olish istagi bilan boshqa yosh davrdagi odamlardan ajralib turadi. Xotirjam dam olish istagi bilan ijtimoiy faoliyatdan uzoqlashish tuyg'usi o'rtasida inqiroz vujudga keladi. Qanday qarorga kelish, ya'ni mehnat jamoasi bilan aloqani uzmaslik yoki mutlaqo ijtimoiy faoliyatdan chetlanish muayyan holatlardagi motivlar kurashiga bog'liqdir.

Hozirgi zamon kishilarining o'rtacha umr ko'rishi XX asr boshlaridagiga nisbatan qariyb bir yarim-ikki marta uzayganligi, yetuklik davridagi erkak va ayollarning jismoniy baquvvatligi, ma'naviyati va ruhiyati tetikligi ijtimoiy faollikni susaytirish haqida so'z bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatmoqda. Demak, ularning ishchanligi, aqliy qobiliyati, kasbiy mahorati, turmsh tajribasi, ongining yuksakligi, ma'naviyatning boyligi, ruhiyatining sofligi yangi zafar, mehnat quvonchlari sari dadil qadam tashlashga to'la kafolat beradi.

## 13-mavzu: Keksayish va keksalik

Mashg`ulot shakli Obzorli-ma'ruza tushunib olish, esda qolishi kerek bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma'lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma'ruza mashg`uloti rejasi**

1. Keksayish va keksalik davriga umumpsixologik tavsifnoma.
2. Keksayish va keksalikda psixologik xavotirlik.
3. Keksalik davrida ijtimoiy faollik tizimini o'zgarishi.

4. Keksalik davrida emotsional sohaning xususiyati.

**Darsning maqsadi:**

Keksayish davri shaxs xususiyatlari, keksalik davrida biologik qarish va uzoq umr ko'ruvchilarning psixologik xususiyatlari ochib beriladi.

Psixogerontologiya psixologiya faning tarkibiy qism ekaniniilmiy jihatdan S.Xoll asoslagan bo'lsa-da lekin bu yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida Mark Tulliy tsitseron ("Katta Katon yoki keksayish haqida "asarida), I.I Mechnikov ("Optimizm etyutlari" kitobda),O'rta Osiyo allomalari, donolik,donishmandlik xaqidagi durdonalarida falsafiy fikr mulohazalarida bildiradilar.

Amerikalik psixolog S.Xoll (1846-1924)" Keksaish" monografiyasida amaliy va metodologik ahamyadiga molik qator g'oyalarni ilgari surgan.

XX- asirning 30-yillaridan boshlab keksalik davriga oid tibbiy- biologik tatqiqotlar ko'paydi, inson kamolotiga shaxs sifatida yodashishning paydo bolishi psixogerontologiyaning rivojlanishiga birmuncha hissa qo'shdi.

Gerontologiya- grekcha so'z bo'lib keksaishning, keksalikning kelib chiqishi demakdir. .Bromley insonni qarishi sikli uchta bosqichdan iborat bo'lishini takitlaydi

1)"ishdan, hizmatdan o'zoqlashish" (iste'fo) 66-70 yosh;

2) keksalik 70 va undan katta yosh;

3) mulkullagan keksalik;110 yosh va undan yuqori.

Shu bilan birga (keksayishning qonuniyatlari ham kashf qilingan, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

1. Geteroxronlik (har xil vaqtlilik) qonuni;

2. O'ziga xoslik qonuni; xilma-xillik qonuni;

I.V.Davidovskiy "Keksayish nima?" nomli asarida ta'kidlaganidek, inson 50-60 yoshga to'lganda yoki undan oshgan chog'ida yetuklikning kechikkan davriga kirib keladi. Shu yoshdagi odamlarning o'limini XVIII asrdagi tengdoshlari bilan taqqoslansa, ularning yashash va mehnat qilish imkoniyati 75 yoshgacha uzayishi mumkin. Chunki hozirgi kunda nafaqani belgilash haqiqiy biologik qarish

yoshidan 15-20 yil ilgarilab ketgan. Bu hol aqliy mehnat bilan shug'ullangan ziyoli odamlarda yaqqol tashlanadi. I.V.Davidovskiyning fikricha, uzoq umr ko'ruvchilar asosan ozg'in, faol, harakatchan odamlar bo'lib,havodan erkin nafas olishni juda yoqtiradilar, organism faoliyatiga daxldor tinka quritar kasalliklardan holi bo'ladilar.

Tadqiqotchi P.P. Lazerev 1928 yilda umr o'tishi bilan ko'ruv apparati markaziy entologiyasining xiralashuvidan aytgan edi. Keyinchalik, 1967 yilda amerikalik psixolog Gregori bu fikrni tajribadan o'tkazdi va inson keksayishi bilan reseptor apparatining optic funksiyasi zaiflashdi, ko'ruv sezgisi va idrokini xiralashtiradi, dedi. Ko'zning rangi sezishi Yoshi ulg'ayishi bilan o'zgarib boradi, hatto, rangni ajratish qobiliyati sezilarli darajada pasayadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, rang ajratish, spektr nurlarining Ibn Sino tomonidan tushuntirib berilgan, fan olamida esa bu kashfiyot Gel'mgol'sga qiyos beriladi. Ko'rishning pasayishi geteroxron xususiyat kasb etib, cpektrning qisqa va to'kis qismida (ko'k va qizil rangda) aniqroq aks etadi.

Psixogerontologik nuqtai nazardan sezish vaqtini tadqiq qilgan E.N. Sokolov, E.I.Boyko, A.R.Luriya sezish vaqti yosh davrining informasion stimul funksuyasidan boshqa narsa emas, deya xulosa chiqaradilar. Ular sezish vaqtining egri chiziqli ko'rsatkichlarini sxema tarzida ihlab chiqib, keksalik davriga xos ikkita xususiyati chuqur tahlil qildilar. Xuddi shunga o'xshash ma'lumotlar D.Birron, D. Botvinnik tajribalarida ham olingan.

Keksayish davrida odamlar psixologiyasini o'rganish testlar yordamida amalga oshirilishi sinaluvchilarda irodaviy kuch-quvvat sarflash, aqliy zo'riqish, asabiy tanglik holatlarini kamaytirish uchun xizmat qiladi, tajribada vaqtdan tejamli foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Nafaqa yoshiga to'lgan kishilarning ishni davom ettirish istagi va ulardan foydalanish ehtiyoji tibbiyot va ruhiyat ilmi oldiga bir qancha talablar qo'yadi. Bu talablar V.D.Aleksandrova va uning shogirtlari ta'kidlaganidek, 60 yoshdan oshgan odamlarning somatic sihatlilgi ularning ishlab chiqarishda qatnashishiga qanchalik imkon berishini, insonning ruhiy salomatligi ishlashda qay darajada

yordamlashishini, sog'lom keksa odamning psixo-fiziologik funksiyalari, psixik jarayonlari, shaxsiy xususiyatlari va kasb-korlik uchun zarur talablarga mos kelish-kelmasligini aniqlashdan iboratdir. Shularning so'ngi qismini tadqiq qilish bevosita psixologlarning zimmasida bo'lib, yosh ulg'ayib borishiga qarab fiziologik funksiyalarning o'zgarishi psixometriya ma'lumotlariga tayanib muayyan usulda o'rganilishi lozim. Bu usulda bir qancha elat, jamoa hududning xuddi shu yoshdagi aholisi bilan solishtiriladi. Tadqiqotning bu usuli ayrim ruhiy jarayonlarning yosh dinamikasini aniqlashga xizmat qiladi.

Asab sistemasining qarishi V.D.Mixaylovva-Lukasheva, M.M.Aleksandrovskaya kabi olimlarning fiziologik va gistologik tadqiqotlarida keksalarning asab sistemasi, bosh miya tuzilishi o'zgarishi o'rganilgan bo'lib, bu hol makroskopiya va mikroskopiya ma'lumotlari asosida ifodalangan.

Makroskopiya ma'lumotlariga ko'ra: a)keksalik davrida miyaning og'irligi 20-30 % yengillashadi: b)bir davrning o'zida miya bilan kalla suyagining hajmi o'rtasida disproporsiya kuchayadi; v)keksayish davrida miya burmalari kamayadi va ariqchalari kengayishi kuzatiladi, bular miya qobig'ining peshona qismida yaqqol ko'rinadi va yetuk yoshdagi odamlarga qaraganda 3-4 ta yo'l qisqaradi; g)miyaning zichligi ortadi.

Mikroskopiya natijalariga bonoan: 1)nerv hujayralarining umumiy miqdori kamayadi, bu o'zgarish qobog'ining III-V zonalarida aniq bilinadi; 2)Purkin'e hujayralarining miqdori keskin kamayadi, hujayralarning yo'qolishi yetuk kishilarga nisbatan 25 % ko'p bo'ladi; 3)nerv hujayralari ajinlashadi:yadro esa noto'g'ri ko'rinishga ega bo'la boshlaydi; 4)nerv tolalari yo'g'onlashadi; 5)xabar olib boruvchi yo'lda myelin tolalarining miqdori ozayadi.

Bir guruh psixologlarning uqdirishicha, idrok funksiyasidagi yosh davriga bog'liq pasayishning asosiy sabablaridan biri miya po'stining gnostik zonasidagi neyronlar miqdorining kamayishidir. U.Mayls va A.Uelford uning pasayishini aytganlar.

***Eshitish.***Eshitish qobiliyatining eng yuqori darajasi 14-15 yoshlarga to'gri keladi,undan keyingi kamolot davrlarida biroz pasayish yuz beradi. Ko'pgina

olimlarning fikricha,inson yoshining ulg'ayishi bilan eshitishning zaiflashuvi mo'tadil xolat xisoblanib, organizimning biologik kirishi bilan uzviy bog'liq ravishda kechadi. Ishlab chiqarishdagi kuchli shovqin odamning eshitish qobilyatini yomonlashtiradi.Eshitish o'quvini yo'qotish erkaklarda ayollarga qaraganda ko'p uchraydi.

Tam bilish sezgisida xam yosh ulg'ayishi va keksalik tufayli ayrim o'zgarishlar vujidga keladi. Masalan, nordon, shirin va achchiqni sezish 50 yoshgacha keskin o'zgarmasada, lekin undan keyingi o'sish davrida maza surg'ichlari miqdorining kamayishi eveziga sezgi chegaralarining kengayishi sodir bo'ladi.

Xid sezgilarining o'zgarishiga asosiy sabab nerv uchlari va tolalarida karaxlikning boshlanishidir. Bundan tashqari, xid bilish sezgirligi kamayishining sabablari xavoning ifloslanishi, zaharli va qo'lansa hidli moddalar bilan nafas olish, chekish, oziq-ovqatda A vitamini yetishmasligidir.

Keksayganda og'riq teri-tuyish sezgilari ham pasayadi. Tebranish sezgirligi ham yosh o'tgan sari yomonlashadi, orqa miyaning orqa qismlaridagi deganativ o'zgarish anashu holatni keltirib chiqaradi.

Keksayish davriga 61 (56)-74 yoshli erkak va ayollar kiradilar. Bu davrdagi kishilar xilma-xil xususiyatlari, shaxslararo munosabatlari bilan boshqa yosh avrlardagidan ajralib turadi. Mazkur yoshdagilarni shartli ravishda ikkita katta guruhga ajratish mumkin: a)mutlaqo iste'foga chiqqan, ijtimoiy faol bo'lmagan erkak va ayollar; b) nafaqaxo'r erkak va ayollar, lekin ijtimoiy hayotning u yoki bu jabhalarida faoliyat ko'rsatayotgan keksalik alomatlari bosayotgan odamlar. Ularning his-tuyg'ulari yashahs muvofiq nomoyon bo'ladi. Ularning his-tuyg'ulari vujudga kelishi jihatidan ikki xildir: 1) barqaror kayfiyat, xotirjamlik tuyg'usiga ega bo'lgan o'z qadr-qimmatini saqlayotgan, nufuz talab erkak va ayollar; b) kayfiyati barqaror, osoyishta xulq-atvorli oila muhitining sardoriga aylangan. Tabiat va jamiyat go'zalliklaridan barhamand bo'layotgan, ijtimoiy faoliyatdan qariyb uzoqlashgan, qarilik gashtini surayotgan kishilar. Ularning bir guruhi moddiy boylikni ma'naviyat bilanqo'shib olib borishga intilsalar, boshqalari

to'plangan moddiy boylik bilan qanoat hosil qiluvchilar, qolgan umrining xotirjam, zaxmat chekmay o'tkazishga axtu-paymon qilgan erkak va ayollardan iboratdir. Mazkur yoshda yuzaga keladigan inqiroz ham mana shu ikkala omillarning mahsuli hisoblanadi.

Keksayish davrida biologik organning zaiflashuvi psixik jarayonlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Ruhiy keksayish alomatlari ayollarda ertaroq paydo bo'ladi. Erkak va ayollar o'rtasidagi farqlar borgan sari yaqqol ko'zga tashlana boshlaydi. Bu farqlar bilish jarayonlari 9sezgi, idrok, xotira, tafakkur), axloqqacha (farosatlilik, xushyorlik, xozirjavoblik, topqirlik) va aql-zakovat (aql, bilim, ijtimoiy tajriba, mahorat, ijodiy faoliyat, barqaror, malaka) kabi ruhiy holatlarda o'z aksini topadi. Ayollarning zaifa deb nomlanishi  ham bejiz emas, chunki jismoniy zaiflikdan tashqari boshqa ruhiy kechinmalarda ham beqarorlik sezilib turadi (ko'z yoshi quvonchdan bo'lsa-irodaning zaifligini ko'rsatadi, g'am-g'ussa, o'kunish, tug'yon sababli bo'lsa his-tuyg'uni boshqarish imkoniyati yo'qligini ko'rsatadi). Ayollarning tabiiy azobdan (tug'ish, bola tarbiyasi) tashqari xizmat, oila tashvishi, yumushi, mehr-muhabbatga otashligi, nozik qalbi tashqi qo'zg'atuvchilarga tez javob beruvchanligi jihatdan ertaroq qarishga olib keladi (asab siztemasining buzilishi, irodaviy zo'riqish, aqliy tanglik holatlari).

Psixologlar keksayish davridagi erkak va ayolarning ruhiy dunyosini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari olib borganlar. Amerikalik V.Shevruk mazkur yoshdagi odamlarning ijtimoiy faoliyatida qatnashishi xususiyatini tekshirib, 65 yoshlilarning 24,1 foizi, 70 yoshlilarning 17,4 foizi, 75 yoshlilarning 7,7 foizi ijtimoiy faoliyatdan voz kechganligini aniqlagan. Oliy maktab muallimlarining ilmiy maxsuldorligi dinamikasini tadqiq qilgan M.D.Aleksandrova matematika, fizika, biologiya, psixologiya va boshqa sohalarning vakillari o'rtasida keksayishning birinchi bosqichida (61-66 yoshlarda) bir oz farq mavjud bo'lsada, unung ikkinchim bosqichida (67-72 yoshlarda) o'sha tafovut ham yo'qolib borishini ta'kidlaydi. L.I.Zaxarova esa keksayish davridagi erkak va ayollarning oliy nerv faoliyatini tekshirib, ularda ranglarni ko'rish maydoninig chegarasi uchun quyidagilar muhim rol o'ynashini uqtiradi: 1)ko'rish yo'llari analizatori

chekka qismnlarining holati; 2)markaziy nerv sistemasining umumiy faolligi; 3)insonning yoshi; 4)ko'rish analizatorining faoliyat ko'rsatish sharoiti; 5)insonning jinsi.

Amerikalik psixolog D.Veksler keksayishda aqlni o'lchash uchun 1939 yilda maxsus test ishlab chiqqan va "Katta kishilar aqlini o'lchash va baholash" nomli kitobida test o'tkazish usuliyatini batafsil bayon qilgan.

Keksalik ijtimoiy muammo sifatida. Ijtimoiy nazariyalarga "erkinlik" hamda "o'yindan chiqish" nazariyalari misol bo'la oladi. Jamiyatdan uzoqlashuv, motivatsiyaning o'zgarishi, kommunikativlikning pasayishi, o'z ichki dunyosiga o'ralshib qolish kabilarda kuzatiladi. Jamiyatdan uzoqlashish ilgarigi ijtimoiy rollarning yo'qotilishi, sog'liqning yomonlashuvi, topish-tutishning kamayishi, yaqin kishilarning yo'qotilishi yoki uzoqlashishida namoyon bo'ladi. Sub'yektiv ravishda bu kerak emaslik tuyg'usi, qiziqishlar doirasining pasayishi, uning o'ziga qaratilishida namoyon bo'ladi. Bu jarayon insonning nafaqaga chiqishi bilan boshlanadi, lekin qari inson ishxonada nimalar bo'layotgani bilan qiziqib turadi, lekin bu sekin-asta sun'iy xarakterga ega bo'la boradi, sekinlik bilan bu ham to'xtaydi. Insonga keladigan ma'lumotlar kamayib boradi, qiziqishlar doirasi torayadi, faolligi pasayadi, qarish jarayoni tezlashadi[2].

Keksayishning kompleks nazariyalari. Kompleks nazariyalar keksayishning biron jihatiga urg'u beradigan nazariyalarga qarshi chiqadi. Keksayish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u o'zaro biologik, ijtimoiy va psixologik jarayonlar bilan bog'liqdir. Har bir insonga o'ziga xos keksayish yo'li xos. Dj.Terner, D.Xelms uch o'zaro bog'liq jarayonni ajratib ko'rsatadilar:

Psixologik keksayish-individ o'zi keksayish jarayonini qanday tasavvur qiladi va his qiladi, boshqalarning keksayishi bilan o'zini taqqoslab keksayish jarayoniga qanday munosabatda bo'ladi.

---

[2]Краснова О.В. Социальная психология старения как основная составлуающая социальной геронтологии.// Мир психологии. 1999. №2. С.96-106

Biologik keksayish-yosh o’tishi bilan organizmda o’zgarishlarning sodir bo’lishi;

Ijtimoiy keksayish-individ keksayishni jamiyat bilan, ijtimoiy rollarni bajarish bilan qanday bog’laydi.

Qarilikning yosh chegaralarini turli olimlar turlicha tavsiflashadi, lekin ko’pchilik 60-65 yoshni qarilikning boshlanishi sifatida e’tirof etishadi. Misol sifatida bir necha olimlarning qarishlarini keltiramiz:

Chexiyalik professor B.Prijigoda: 60-75-qarilik, 75-100 yosh keksalik.

Dj.Birren: 50-75 yosh so’ngi yetuklik, 75-yoshdan keyin qarilik.

D.B. Bromley qarilikning 3 bosqichini ko’rsatib o’tadi: 65-70-yosh sevimli ishdan uzoqlashish; 70 yoshdan keyin keksalik; 110 yoshgacha-munkilaganlik, qarib kasalga chalinish va o’lim.

Rossiya gerontologiyasi asoschilaridan biri I.V.Davidovskiy keksalik boshlanishining aniq sanasi mavjud emas, degan fikrni bildirgan. Boshqa mashhur gerontolog N.F.Shaxmatovaning ta’kidlashicha, keksayish muammolariga biologik nuqtai nazardan yondashib, psixik keksayishni markaziy nerv sistemasining oliy bo’limlarida yoshga iod destruktiv o’zgarishlar natijasi sifatida qaraydi. Keksayish yoshga oid muqarar jarayon bo’lishiga qarab har kimda har xil individual kechadi.

## III-MODUL.PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI

## 14-mavzu: Pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Ma’ruza mashg`uloti rejasi

1. Pedagogik psixologiyaning predmeti, vazifasi va tuzilishi.
2. Pedagogik psixologiyaning tamoyil va metodlari.

3. Pedagogik psixologiyani rivojlanishini tarixiy jihatlari.

**Darsning maqsadi:**

Pedagogik psixologiyaning predmeti, pedagogik psixologiyaning vazifalari, pedagogik psixologiya fanining rivojlanish tarixi, pedagogik psixologiya fanining tadqiqot metodlarini dalillab beradi.

***Pedagogik psixologiya*** -psixologiya fanining tarmog`i sifatida ta'lim va tarbiyaning shaxsga samarali ta'sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o`rganuvchi fandir. Pedagogik psixologiyaning predmeti o`quvchilarni maktabda bilim, ko`nikma va malakalarni egallash qonuniyatlarini, bu jarayonlarda sodir bo`ladigan individual tafovutlarni, ularda mustaqil va ijodiy tafakkurni tarkib toptirish qonuniyatlarini tadqiq etishdir. Pedagogik psixologiyaning muhim vazifalaridan biri -maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo`lib, bu hol yangi ta'lim dasturiga o`tish bilan bog`liqdir. Pedagogik psixologiya uch bo`limdan iborat: ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi va o`qituvchi psixologiyasi.

**Pedagogik psixologiyaning vazifalari:**

1) ta'lim jarayonlarini boshqarishning psixologik masalalarini o`rganish;
2) bilish jarayonlarining shakllanishini tadqiq qilish;
3) aqliy taraqqiyotning ishonchli ko`rsatkichlarini aniqlash;
4) ta'lim jarayonida aqliy taraqqiyotning samarali bo`lish sharoitlarini o`rganish;
5) pedagog va o`quvchilar o`rtasidagi, o`quvchilar va o`quvchilar o`rtasidagi o`zaro munosabat xususiyatlarini o`rganish;
6) o`quvchilarga individual yondoshish bilan bog`liq bo`lgan masalalarni o`rganish.
7) pedagogik faoliyatni amalga oshirishning psixologik qonuniyatlarini o`rganish.

**Pedagogik psixologiyaning muammolari quyidagilar:**

1. Bolaning rivojlanishida uning haotidagi har bir senzitiv davrni aniqlash va undan iloji boricha ko`proq foydalanish muammosi. Bu masalaning muammoliligi shundaki, birinchidan, bola shaxsi va intellekti rivojlanishining barcha senzitiv davrlari ma'lum emas, uning qachon boshlanishi, qancha davom etishi va qachon tugashi noma'lum. Ikkinchidan, har bir bolaning hayoti o`ziga xos individual bo`lib, turli davrda har xil kechadi.

2. Bolaga ongli tashqil etilgan pedagogik ta'sir va uning psixologik taraqqiyoti orasidagi bog`lanish muammosi. Ta'lim va tarbiya bolaning rivojlanishiga ta'sir etadimi, yoki u ta'lim va tarbiya natijasida faqat bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`lib, uning intellektual va ahloqiy rivojlanishga ta'sir qilmaydimi? Har qanday ta'lim bolaning rivojlanishiga ta'sir qiladimi yoki faqat muammoli va rivojlantiruvchi ta'lim-mi?

3. Ta'lim va tarbiyaning umumiy va yosh muammolari. Bola hayotining har bir aniq davrida ta'limga yoki tarbiyaga urg`u berish kerakmi?- bola hayotining ayni davrida nimaga ko`proq ehtiyoj sezadi: kognitiv -intellektual yoki shaxs sifatida rivojlanishgami?

4. Pedagogik ta'sirlarning kompleksligi va bola taraqqiyotining sistemaliligi xarakteri muammosi. Bola taraqqiyotini kognitiv va shaxsiy hislatlarning o`zgarishi sifatida tasavvur qilsak, ularning har biri alohida rivojlanishi mumkin, har birining rivojlanishi boshqa xususiyatlarga bog`liq.

5. Bola xulq-atvori va psixologik xarakteristikalarining rivojlanishi ta'lim va yetilishga, layoqat va qobiliyatlar, genotip va muhitga bog`liqligi muammosi.Ta'limni bola organizmida ma'lum neyrofiziologik to'zilmalar yetilmasdan boshlash mumkin-mi?Ta'lim bolaning organik rivojlanishiga ta'sir qiladimi? Agar ta'sir qilsa, qanday darajagacha ta'sir qiladi?

Genotip hamda muhit bolaning psixologik va xulq-atvori rivojlanishiga alohida birgalikda qanday ta'sir qiladi?

6. Bolaning ongli ta'lnm na tarbiyaga psixologik tayyorligi muammosi. Bu muammoni hal qilnshda ta'lim va tarbiyaga psixologik tayyorlik deganda nima nazarda tutilishi: bolada

layoqatlarning mavjudligi ma’nosidami yoki ta’lim va tarbiyaga qobiliyatning rivojlanganligi ma’nosidami, bolada yaqin taraqqiyot zonasi va rivojlanish darajasi mavjudligi ma’nosidami, intellektual va shaxsiy yetuklikning ma’lum darajasiga erishilganligi ma’nosidami?

7. Bolaning pedagogik qarovsizligi muammosi. Bolaning pedagogik ta’sirlarni o`zlashtira olmasligi unga bolaligida yomon ta’lim va tarbiya berilganligi.

8. Ta’limni indiniduallashtirishni ta’minlash muammosi. Bolalarning layoqat va qobiliyatlari asosida guruhlarga bo`lib o`qitish, har bir bolaning individual xususiyatlarga mos ta’lim va tarbiya metodlarini tanlash tushuniladi.

Yuqorida keltirilgan psixologik-pedaagogik muammolarni hal qilish o`qituvchilardan yuqori kasbiy mahoratni, psixologik bilim, ko`nikma va malakalarni talab qiladi.

## Pedagogik psixologik metodlari

Pedagogik psixologiyada umumiy va yosh psixologiyada foydalanilgan metodlar qo`llaniladi. Ular: kuzatish yozma va og`zaki savolnomalar, eksperiment va boshqalar. Lekin ular bolalarning yoshi, psixologik va pedagogik muammolariga bog`liq ravishda qo`llaniladi.

Umumiy metodlardan tashqari, pedagogik psixologiyaning maxsus metodlari ham mavjud. Masalan, ularga psixologik-pedagogik eksperiment, maxsus psixologik-pedagogik testlar kiradi. Psixologik-pedagogik eksperiment bolaga u yoki bu pedagogik ta’sirning mahsuldorlik darajasini aniqlash uchun maxsus rivojlantiruvchi maqsadni ko`zlab o`tkaziladi.

Psixologik-pedagogik eksperiment uch bosqichdan iborat:

1. Aniqlovchi eksperiment.
2. Shakllantiruvchn eksperiment.
3. Nazorat eksperimentlari.

Rus psixologi **B.G. Ananev** bo`yicha tadqiqot metodlari 4 guruhga bo`linadi:

I. ***Tashqiliiy metodlar:*** taqqoslash, longityud va kompleks metodlari kiradi.

Takkoslash-umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, pato- psixologiya va defektologiyada keng qo`llaniladi. Rivojlanish va pedagogik psixologiyada o`rganilayotgan psixik jarayonlarning dinamikasini aniqlash uchun qo`llaniladi. Longityud -(o'zluksiz) o'zoq vaqt davomida ayni bir xil kishilar o`rganiladi. Kompleks - psixologik tadqiqotlar boshqa fanlar metodlari ishtirokida o`tkaziladi. (shaxsning jismoniy, fiziologik, psixik va ijtimoy taraqqiyoti aniqlanadi).

II. ***Empirik metodlar:*** kuzatish va o`z-o'zini kuzatish; eksperimental

psixodiagnostika metodlari (test, anketa, suhbat, sotsiometriya, intervyu); faoliyat natijalarini tahlil qilish; biografiya metodlari.

III. ***Ma'lumotlarni qayta ishlash metodlari:*** miqdoriy

(statistika) va psixologik yoki sifatiy tahlil turlariga bo`linadi.

IV. ***Sharhlash metodlari:*** Genetik va "donalash" metodlari.

Genetik metodda taraqqiyotdagi bosqich, pog`onalar, inqiroz holatlari ajratib ko`rsatiladi (vertikal aloqa). Donalash metodida esa shaxsning barcha xarakteristikalari o'rtasidagi "gorizontal" aloqalar aniqlanadi.

Bu metodlardan ayrimlarini ko`rib chiqamiz. **Kuzatish**-psixik xususiyatlarni uzoq vaqt davomida, rejali, biror maqsad asosida o`rganish. Kuzatish-universal metod bo`lib, turli vaziyatlarda ishlatiladi. Ilmiy kuzatish xayotiy (ilmiy bo`lmagan) kuzatishdan tubdan farq qiladi. Xayotiy kuzatish - kundalik hayotda, rejasiz amalga oshirilib, turli tasodiflarga bog`liq bo`ladi. Kuzatish ilmiy bo`lishi shu bilan bir qatorda psixologik-pedagogik kuzatish bo`lishi uchun bir qancha talablarga amal qilishi lozim:

1. Maqsadga yo`nalganlik. Umuman o`quvchini emas, balki uning shaxsiy sifatlari qonkret namoyon bo`lishini turli vaziyatlarda va faoliyatning har xil turlarida – o`yin, o`qish, mehnat, muloqat jarayonida kuzatish.

2. Reja. Kuzatishni boshlashdan oldin muayyan vazifalar belgilanishi (nimani kuzatish), reja tuzilishi (vaqti va vositalari), ko'rsatkichlari aniqlab olishi (nimani qayd etish), bo'lishi mumkin bo'lgan xatolar va ularni oldini olish yo'llari,

taxmin qilinayotgan natijalarni o'ylab olishi lozim. Bunda ko'zatilayotgan xususiyat aniq belgilanishi lozim (ular ko'p bo'lmasligi zarur). Kuzatishdan maqsad xulq-atvordagi topilgan kamchiliklarni to'g'rilash yo'llarini ishlab chiqish bo'lmog'i lozim.

3. Mustaqillik. Kuzatish yo'l-yo'lakay qilinishi lozim bo'lgan emas, balki mustaqil ravishda o'tkazilishi kerak bo'lgan vazifa bo'lmog'i lozim.

4. Tabiiylik. Psixologik-pedagogik kuzatish o`quvchilar uchun tabiiy sharoitlarda o`tkazilishi lozim. U o`qituvchining ishtirokisiz o`tkazilishi zarurki, o`quvchi ko'zatilayotganini sezmasin.

5. Tizimlilik. Kuzatish o`qituvchining xohishi bilan emas, balki doimiy reja asosida, tizimli ravishda yoki rejalashtirilgan ma'lum oraliqdan so`ng o`tkazilishi zarur.

6. Ob'ektavlik. Kuzatish jarayonida o`z taxminlarini emas, ob'ektiv fakt,harakat,o`quvchilar xulq-atvorining ob'ektiv xususiyatlarini qayd etish va shu asosda xulosa chiqarish lozim.

7. Qayd etish. Olingan barcha ma'lumotlar ma'lum tizimda qayd etilishi lozim. Olingan natijalar kuzatish jarayonida yoki uni o`tkazilgandan so`ng darhol qayd qilishi kerak.

Biroq kuzatish metodining kamchiliklari ham mavjud. Bular :

1. Tekshiruvchining passiv xolatni egallaganligi.
2. Qayd etishdagi xatolar.
3. Qaytarish imqoning yo`qligigp.
4. Natijalarni tahlil qilishdagi subektivizm.

Kuzatish metodining ijobiy tomoni shundaki, eksperimental ravishda o'rganish imqoni bo'lmagan faoliyatni analiz qilish, o`quvchi xulq-atvori tabiiy sharoitda o'rganish imqoniyati mavjud.

Kuzatish pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan asosiy metodlardan biridir. Kuzatish intervallari yoshga bog'liq bo'lishi kerak.

Tug'ilgandan 2-3 oygacha - har kuni

2-3 oydan - 1yoshgacha - har xafta

Ilk bolalik ya’ni 1 - 3 yoshda — har oyda

3 yoshdan 6-7 yoshgacha - yarim yilda 1 marta

7-11 yoshda - 1 yilda 1 marta kuzatish o’tkazilishi zarur.

**Eksperiment metodi**. Eksperiment metodi tabiiy va laboratoriya eksperimenti turlariga bo’linadi. Bu metod psixik xolatni ta’riflashgagina emas, balki ularni tushuntirib berishga ham imqon beradi.

Kuzatishdan farqli o’laroq, psixologik eksperiment tadqiqotchining sinalayotgan faoliyatga faol aralashuvi mumkinligini nazarda tutadi. Jumladan, psixologik fakt aniq namoyon bo;lishiga, uning tadqiqotchi xohlagan yo’nalish bo’yicha o’zgartirishiga, har jihatdan tadqiq qilish uchun bir necha martalab takrorlanishiga imqon beradigan shart-sharoitni yaratadi.

Labaratoriya eksperimentining xarakterli belgisi faqat uning labaratoriya sharoitlarida maxsus psixologik asbob-uskunalar yordamida o’tkazishlarida va sinaluvchining xatti-harakatlari yo’l-yo’riqqa binoan sodir bo’lishi bilangina emas, balki sinalayotganligini biladigan sinaluvchi kishining munosabati bilan ham belgilanadi.

Labaratoriya eksperimenti yordamida diqqatning xossalari, idrok, xotira va boshqalarning o’ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish mumkin. Hozirgi paytda labaratoriya eksperimentini ko’pincha shunday tarzda o’tkazishadiki, unda odam odatdagi sharoitlarda bajarishi mumkin bo’lgan faoliyatning ba’zi psixologik jihatlari modellashtirib qo’yiladi. Jumladan, eksperimentda anchagina xissiy zo’riqish vaziyati modellashtirilib, uning jarayonida sinaluvchi, masalan, kasbi-kori uchuvchi bo’lgan kishi anglanilgan yechimlar qabul qilishi mumkin. Yuksak darajadagi uyg’unlikni taqozo etadigan murakkab harakatlar qilishi, asboblardagi ko’rsatkichlarga munosabat bildirishi va hakozolar belgilab qo’yilgan bo’lishi mumkin.

Tabiiy eksperiment (birinchi marta 1910-yilda **A.F.Lazurskiy** taklif etgan) mo’ljallanganiga ko’ra, eksperiment o’tkazilayotganini biladigan sinaluvchida hosil bo’ladigan zo’riqishga yo’l qo’ymasligi va tadqiqotni odatdagi, tabiiy

sharoitlarga (dars, suhbat, o'yin, uy vazifalarini bajarish va boshqalar) ko'chirilishi lozim.

Masalan, materialni yodlashning samaradorligi uni o'zoq vaqt xotirada saqlab qolish to`g`risidagi ko`rsatmaga bog`liqligini tadqiq qilish tabiiy eksperimentga misol bo`la oladi. O`quvchilardan bir guruhi o`rganilishi lozim bo`lgan material bilan tanishtiriladi va ushbu material **yuzasidan** ertasiga so`ralishini aytadi. Boshqa bir guruhda esa o`quv materiali xuddi shunday tarzda o`tilib bo'lgach, o'quvchilarga o`tilgan dars bir haftadan so'ng so'ralishi aytiladi. Haqiqatda esa har ikkala guruhda ham o'quvchilardan ikki xaftadan keyin so`ralgan. Ana shu tabiiy eksperiment jarayonida materialni o'zoq vaqt xotirada saqlab qolishga mo`ljallangan yo`l-yo`riqning afzalliklari aniqlanadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqot vazifalarini bajaradigan tabiiy eksperiment *psixologik-pedagogik eksperiment* deb ataladi. Har xil yosh bosqichlarida o`quvchilarning bilish imqoniyatlarini o'rganishda, o'quvchi shaxsini shakllantirishning qonkret yo'llarini aniqlashda uning roli benixoya kattadir. Psixologik-pedagogik eksperiment uch qismdan iborat. Aniqlovchi, shakllantiruvchi, nazorat eksperimentlari. Aniqlovchi eksperimentda sinaluvchilardagi biror psixik jarayonning rivojlanish darajasi aniqlanadi. Masalan, boladagi xotiraning rivojlanish darajasi "Meyli" testi yordamida aniqlanishi mumkin. Shakllantiruvchi eksperimentda aniqlangan psixik jarayon me'yordan orqada bo'lsa, uni rivojlantirish bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi. Misolga qaytsak, xotirani rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi. Nazorat tajribalarida shakllantiruvchi ta'sirning samaradorligini aniqlash uchun diagnostik metod yana bir marta takroran o'tkaziladi. "Meyli" testi yana bir bora o'tkazilib, maxsus matematik-statistik metodlar yordamida shakllantiruvchi ta'sirning samaradorligi aniqlanadi.

**Anketa**. Savollar yordamida psixologik axborot to'plashning metodik usulidir. Bunda savollar mantiqan bir-biri bilan bog'langan bo'lib, tadqiqotning maqsadiga mos keladi. Anketa yordamida o'qituvchi o'quvchilar shaxsiy sifatlarini aniqlash uchun material to'playdi.

Taklif etiladigan savollarga qarab, anketalar mazmun, funktsiyasi, shakli bo’yicha turli xil bo’lishi mumkin.

Mazmun bo’yicha anketa:

1. Faktlar ("Sening bo’sh vaktishdagi mashg’uloting", "Uy joy sharoitingni ta’rifla");

2. Atrofdagi kishilar, xodisalar xarakteristikasini ("O’quv- ishlab chiqarish korxonasida ish formasi boshqacha bo’lishi kerak deb xisoblaysanmi?"', "Ko’pchilik bolalar o’z imqoniyatlarini to’liq ishga solmay o’qishlarining sababi nimada deb o’ylaysan?").

3. O’quvchining niyatlarini ifodalashi mumkin ("Oliy o’quv yurtiga kirasanmi?", "Yozgi oromgoxga borasanmi?"). Savollar bajaradigan funktsiyasiga ko’ra anketa o’z ichiga quyidagilarni oladi:

a)Filtrlovchi-savollar. M.: agar o’qituvchini oliygoxga kirishni xohlovchilar qiziqtirsa, anketada quyidagicha savollar taklif etiladi: "Sening yoqtiradigan predmeting?" Bunga faqat oliygoxga kirmoqchi bo’lgan o’quvchilargina javob beradilar.

b)Tekshiruvchi yoki nazorat qiluvchi savollar. Ularning asosiy funkisiyasi - ma’lumotning to’g’riligini tekshirish. Shakli bo’yicha anketalar:

a) Ochiq — bunda to’g’ri savollar o’z xohishiga qarab, erkin javob berish mumkin.

b) Yopiq — bunda savollarga tayyor javob berilgan bo’lib, o’quvchi ulardan birini tanlashi lozim.

Anketa savollariga quyidagi talablar qo’yiladi:

1. Savollar aniq, tushunarli, sodda va qonkret bo’lishi lozim.

2.Anketaning boshida oson savollar, keyin qiyin, undan keyin eng murakkablari, nixoyasida yana oson savollar berilishi lozim.

3. Bitta xususiyatni aniqlashga bir necha savollar, nazorat qiluvchi savollar berilishi lozim.

Anketa metodining ijobiy tomoni:

1)ommaviy o’rganish imqoniyati; 2) informatsiya to’plash tezligi;

3)ma’lumotlarni analiz qilishda matematik metodlardan keng foydalanish imqoniyati;

4)og’zaki formada javob olish qiyin bo’lgan savollarga javob olish imqoni;

5)bir necha tadqiqotlar natijasini taqqoslash imqoni;

6)natijalarni qayd etishning qulay usuli.

Shuni ham nazarda tutish lozimki, anketa metodi shaxs xususiyatlarining barcha soxalarini to’la o’rganish imqonini bermaydi, o’quvchilar turlicha javob berganlari tufayli ularni klasifikatsiya qilishda qiyinchiliklar uchraydi, javoblarning obyektivligi yuqori emas, chunki o’quvchilar bunga vijdonan yondoshmasliklari mumkin. **Suhbat metodi**. Suhbat - bevosita muloqot jarayonida o’quvchilar psixik xususiyatlarini aniqlash metodikasi bo’lib, o’qituvchi oldindan tayyorlab qo’ygan savol asosida o’zi uchun kerakli bo’lgan informatsiyani olish imqoniga ega.

Suhbat metodikasi yordamida inson xarakteri xususiyatlari, xatti-harakati motivlari, hayotining turli tomonlariga uning bahosi, biografiyasining asosiy faktlari va unga bo’lgan munosabatlarni aniqlash mumkin.

Suhbat metodi ma’lum qoidalarga asoslanishi lozim.

Suhbat tasodifiy emas, rejali bo’lishi kerak.

Suhbat boshida o’quvchi qiziqadigan mavzuda gaplashish kerak.

Suhbat boshlanishida biografik xarakterdagi savollar berilmasligi kerak.

Savollar tushunarli, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda berilishi kerak.

Suhbat metodining ijobiy tomoni – o’quvchi bilan bevosita muloqatda bo’lish, uning reaktsiyalarini xisobga olish imqoni, qo’shimcha, to’ldiruvchi savollar berilishi mumkinligidir. Shuni ham nazarda tutish kerakki, suhbatdan biz obyektiv fakt emas, balki kishining subyektiv fikrini olamiz.

**Faoliyat maxsulini tahlil qilish metodi**. O’quvchilar yozgan inshoga qarab, o’qituvchi uning adabiy qobiliyatini, so’z boyligi, rivojlanish darajasi, obrazli tafakkuri haqida xulosa chiqarishi mumkin. Xuddi shuningdek, matematikadan yozma ish, chizmachilikdan topshiriq natijalariga qarab o’quvchining individual

psixik xususiyatlari, qobiliyatlari, mehnat malakalari haqida ma’lumot to’plash mumkin.

**Diagnostik metodlar**: Bu metodlar shaxsning u yoki bu xususiyatlarini shunchaki ta’riflash emas, balki bu xususiyatlarni o’rganish asosida sifat va miqdor jihatdan xarakteristika berish imqoniyatiga ega.

Diagnostika metodlariga turli xil testlar kiradi.

**Test metodi** yordamida kishining aqliy qobiliyatlari darajasi aniqlanadi, inson holati va ulariing xususiyatlari belgilanadi, shaxsning strukturaviy sifatlari — o’z-o’zini baholash, emotsional barqarorlik, muammoga yengil kirisha olishi o’rganiladi.

Test inglizcha (test) so’z bo’lib, sinab ko’rish, tekshirish ma’nosini bildiradi. Test tekshiruvchiga taqdim etiladigan topshiriqlar tizimi bo’lib, uning natijasida standartlashtirilgan o’lchov o’tkaziladi. Test asosan individlar o’rtasidagi farqlarni yoki turli sharoitlarda ular ko’rsatadigan reaktsiyalar o’rtasidagi farqlarni o’rganish uchun mo’ljallangan.

Yosh va pedagogik psixologiyada test guruhlarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini, guruhiy xolatlarning namoyon bo’lish darajasini o’rganish uchun ham qo’llaniladi. Test guruhlarni ijtimoiy-psixologik xarakteristikalari asosida differentsiatsiya qilish maqsadlariga xizmat qiladi.

Testning standartlashtirilishi vazifalar bajarilishini baxolash va uni o’tkazishning bir xildagi jarayonlarni hosil qilishdan iborat. Bu esa test o’tkazilishi mo’ljallanayotgan, o’rganilishi talab qilinadigan katta sonli reprezentativ sinaluvchilarda (2-3 ming) testni o’tkazish orqali amalga oshiriladi.

Test standartlashtirilishi 2 bosqichda o’tkaziladi. 1 — bosqichda testni qo’llash yo’riqnomasi shakllanadi: topshiriqlar tanlanadi, uni o’tkazish uchun ko’rsatmalar ishlab chiqiladi, sinaluvchiga beriladigan yo’riqnoma to’ziladi va testi o’tqazishning boshqa masalalari ko’rib chiqiladi. 2 — bosqichda normalar aniqlanadi, ya’ni test natijalarini baholash uchun boshqa individlar yoki guruhlar natijalari bilan solishtirish uchun normalar tizimi belgilanadi.

Testning ishonchliligi - shu test qayta o'tkazilganda (aynan shu tekshiruvchilarda) olingan ma'lumotlarning bir-biri bilan mos kelishi. Ishonchlilikni baholashning asosiy ko'rsatkichi korrelyatsiya koeffitsenti.

Testning validligi - test qanday maqsadda yaratilgan bo'lsa, o'sha maqsad uchun qo'llanaladi.

Qo'llanilshi soxasiga karab:

1. Intellekt testlari.
2. Maxsus qobiliyatlarni aniqlash va yutuqqa erishish testlari.
3. Shaxs xususiyatlarini aniqlash testlari.
4. Qiziqishlar, ustanovka, qadriyatlarni aniqlash testlari.
5. Shaxslararo munosabatlar diagnostikasi uchun mo'ljallangan testlar farqlandi.

Masalan, shaxslararo munosabatlarni va shaxs sifatlarini diagnostika qilish uchun ko'pincha amerikalik psixolog T. Liri tomonidan yaratilgan metodika qo'llaniladi. Bu metodik so'rovnoma bo'lib, 128 ta punktdan iborat. Sinaluvchi o'zi va atrofidagilarda muayyan xislatlarning mavjudligini, shuningdek, o'zida va sheriklarida bo'lishini xohlaydigan sifatlarni ko'rsatadi. Natijalar qayta ishlangach, tadqiqotchi sinaluvchining shaxsi, yo'nalishini aniqlab va shu asosda shaxslararo o'zaro ta'sirni prognoz qilishi mumkin.

Shunday qilib, testlar - bu maxsus metodlar bo'lib, u yoki bu ijtimoiy psixologik hodisa qisqa muddat ichida tekshiriladi. Testlar asrimizning boshlarida kashf qilingan bo'lib. ular 20 -30 yillarda xayotga, amaliyotga shiddat bilan kirib keldi. Natijada maxsus soxa - psixometrika yo'zaga keldi. Testlarni qo'llashning qulayligi shundaki, bir test yordamida ma'lum shaxsning u yoki bu xususiyatlarini bir necha marta, takroran sinab ko'rish mumkin.

**Proektiv metodlar**. Proektiv metodlar test usullarining bir ko'rinishi bo'lib, ularda tekshiriluvchi uchun aniq ko'rinishga ega bo'lmagan noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharxlash topshirig'i beriladi. Masalan, tekshiriluvchiga turlicha talqin qiliish mumkin bo'lgan rasmlar, tugallanmagan hikoyalar, biror aniq ko'rinishi mavjud bo'lmagan buyumlar berilishi va ularni tekshiriluvchi o'zining

xissiy kechinmalari, qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtai nazaridan baholashi kutiladi.

Proektiv metodlar qatoriga Rorshaxning "Siyoh dog'lari" testini kiritish mumkin (1921). Bu - 2 tomonlama simmetrik shaklda berilgan 10 xil siyoh dog'laridan iborat bo'lib, har 1 dog' har xil bo'yoqli fonda ko'rsatiladi. Tekshiriluvchidan har 1 "dog'" nimaning shaklini eslatishi so'raladi. Bunda: 2 ta dog' qizil rangli shtrixlar, 5 ta dog' kul rang - qora, 3 ta dog' - yorqin bo'lmagan ranglarda beriladi.

Sinaluvchi tasvirlagan obrazlar va assotsiatsiyalarga qarab uning shaxsi xususiyatlari to'g'risida xulosa chiqariladi.

Rorshax testining yosh psixologiyasida qo'llaniladigan varianti E.T. Sokolova tomonidan modifikatsiya qilingan test. Bu test oilaviy muloqatni diagnostika qiliishda foydalaniladi. Bu maqsadda eksperimenta qo'shimcha metodik usul kiritilgan. Bir necha kartochkalar bo'yicha eksperiment qatnashchilari kelishishlari kerak. Birgalikdagi (kelishuv asosida) javoblarning sifati va miqdoriga qarab tadqiqotchi kichik guruh (yoki oila)ning jipsligi va mosligi haqida ma'lumotni qo'lga kiritadilar. Shuningdek, psixologik tadqiqotchilarda ko'pincha rasmli assotsiatsiyalar metodi qo'llaniladi. Ushbu metod birinchi bo'lib 1945 yilda S.Rozentsveyg tomonidan taklif qilingan. Bunda tekshiriluvchiga turmushda tez-tez uchrab turadigan ziddiyatli vaziyatlar aks ettirilgan rasmlar tavsiya qilinadi. Bu rasmlarda bir tomonda turgan personajlar nimalarnidir gapirayotgan holda gavdalantiriladi, unga qarama-qarshi tomondagi shaxslar esa hali javob qaytarib ulgurmagan. Tekshiriluvchidan tez, qisqa muddat ichida bo'sh kataklarga qaytarilishi kutilayotgan javobni yozish so'raladi. Berilgan javoblarga qarab shaxs yo'nalishi, uning ziddiyatlarga munosabati, agressiya xissining xususiyatlari, bu xisning kimlarga qaratilganligi va shunga o'xshash muxim faktlar to'planadi.

Rozentsveyg testi subyekt agressiyasi yo'nalishining 3 ta turini aniqlash imqonini beradi:

1. Agressiya insonning o'ziga qaratilgan.
2. Agressiya atrofga qaratilgan.

3. Subyekt vaziyatni hal qiliishdan qochadi yoki uni bezaydi. Pedagogik amaliyotda ko'pincha I. Shvantsara tomonidan ishlab chiqilgan, o'smirlik va o'spirinlik davri uchun mo'ljallangan test variantidan foydalaniladi.

Proektiv metodikalardan yana biri tugallanmagan jumlalar metodi. Ushbu metod yordamida guruhiy va shaxsiy ustanovkalar tekshiriluvchining atrofidagilarga (o'rtoqlari, o'quvchi, ota-onasi) munosabati xususiyatlari, shuningdek, o'ziga va kelajakka bo'lgan munosabatlari ham o'rganiladi. Shu maqsadda tekshiriluvchiga bir qancha tugallanmagan jumlalar taklif qilinadi, ko'p o'ylamasdan gapni mantiqan oxiriga yetkazish talab qilinadi. Masalan,

- mening har safar kayfiyatim bo'ziladi, agar...
- men uchun eng muhim muammo, bu - ...
- do'st - bu ...
- mening otam ba'zida ...
- men shunga intilamanki ...

Proektiv metodikalar turli-tuman. Ular bir-biridan tubdan farq qiladi. Biroq shuni nazarda tutish lozimki, proektiv metodikani tavsiflash muayyan psixologik bilimlarni maxsus nazariy tayyorgarlikni va metodikani qo'llash bo'yicha amaliy tajrabaga ega bo'lishni talab qiladi.

**Sotsiometriya metodi.** Sotsiometriya metodi birinchi bo'lib amerikalik psixolog **J.Moreno** tomonidan taklif etilgan. Bu metodning mohiyati shundan iboratki, inson u yoki bu ko'rsatkich bo'yicha guruh a'zolarini tanlaydi. Qilingan tanlashlar asosida kishining guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida tutgan o'rni haqida xulosa qilinadi.

Demak, sotsiometriya metodi yordamida guruh a'zolari o'rtasidagi simpatiya yoki aptinatiyani aniqlash mumkin. Sotsiometriya metodini operativ tarzda o'tkazish, uning natijalarini esa matematik qayta ishlash va grafik ravishda ifodalash mumkin.

Sotsiometriyani tadqiqot metodi sifatida tan olish bilan bir qatorda uning ba'zi kamchiliklari ham ko'rsatib o'tish zarur. Asosiy kamchilik shundan iboratki, sotsiometriya metodi mavjud munosabatlar strukturasining sabablarini aniqlash

imqonini bermaydi. Shuning uchun ham sotsiometriyadan olingan ma'lumotlar kuzatish, suhbat, psixologik- pedagogik eksperiment natijalari bilan to'ldirilishi lozim.

Sotsiometriya metodidan guruh, jamoa a'zolari o'zaro bir-birlarini yaxshi bilgan holatlardagina foydalanish mumkin. Bu metod yordamida shaxsning xizmat **yuzasidan** bo'ladigan va shaxsiy munosabatlardagi haqiqiy o'rnini aniqlash, birlamchi guruhlar mavjud yoki mavjud emasligini tonish, birlamchi guruhlarning paydo bo'lishi va tarqab ketishi sabablarini aniqlash mumkin.Sotsiometriya metodining mohiyati shundan iboratki, tekshiriluvchiga birga qilinadigan ishlari yoki guruh a'zolarining ishlarini birgalikda bajarishga xohishlari to'g'risida savollar beriladi. Beriladigan savollar tanlash ko'rsatkichlari deyiladi. Kuchli va kuchsiz ko'rsatkichlar farqlanadi. Kuchlilar chuqur va barqaror munosabatlarni, kuchsizlari yo'zaki va beqaror munosabatlarni aniqlash imqonini yaratadi. Masalan, "xizmatdoshlaringizdan qaysi biri bilan bitta brigadada ishlashni xohlardingiz?" degan savol bo'yicha aniqlangan ko'rsatkich kuchli ko'rsatkich hisoblanadi, chunki u o'zoq vaqt davom etadigan, muhim munosabatlarga tegishli. "Kimni birga ekskursiyaga borishga taklif qilardingiz?" — kuchsiz ko'rsatkich, chunki u chuqur bo'lmagan va vaqtinchalik munosabatlarni belgilaydi. Kuchli va kuchsiz ko'rsatkichlar mazmuni jihatidan turlicha bo'lishi mumkin, lekin ulardagi umumiy narsa — natijalar, ya'ni sherik tanlash.Tanlashlar soni cheksiz bo'lishi mumkin, biroq amaliyotning ko'rsatishicha, kishining guruhdagi holati va o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun 3 ta kishi tanlash yetarli. Bunda sinaluvchidan, birinchi navbatda kimni tanlashi, agar 1 shaxs bilan imqon bo'lmasa 2 - navbatda kimni tanlashi hamda ikkinchisini tanlash imqoni bo'lmasa, 3 - navbatda kimni tanlashi haqida so'raladi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot metodlaridan tashqari yana bolaga amaliy psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan bog' liq ikki guruh metodlar mavjud. Bu psixologik maslahat va korrektsiyadir.

**Psixologik maslahat** bolaning rivojlanishi davomida duch kelgan muammolarni o'rganish va tanishish asosida unga og'zaki tavsiyalar va nasihatlar turida yordam ko'rsatishdir.

**Korrektsiya** psixologni qiziqtirayotgan shaxsga bevosita pedagogik ta'sir ko'rsatishidir. Bu yerda psixolog bolaga o'qituvchi yoki tarbiyachi sifatida ta'sir qiladi, qo'llanilgan psixologik-pedagogik, turli psixoterapevtik ta'sir vositalari natijalariga shaxsan javob beradi. Bunday vositalardan ba'zilari, masalan autotrening, bunga ehtiyoj his qilgan shaxs tomonidan mutaxassis psixolog nazorati ostida qo'llaniliishi mumkin.

## 15-mavzu: TA'LIM IJTIMOIY MADANIY FENOMEN

Ma'ruza mashg`uloti rejasi

1. Jamiyatning dastlabki rivojlanishi bosqichlarida bola shaxsiga munosabat xususiyatlari

2.Ta'lim jarayonini tuzish uchun asos sifatida inson haqidagi falsafiy-psixologik tasavvurlar.

3. Pedagogik jarayon kontseptsiyalari va uning psixologik asoslari

4.Hozirgi zamon ta'limi: kognitiv-orinetirovkadan shaxsiy orientirovkali ta'lim paradigmalari.

**Darsning maqsadi:**

Bola taraqqiyoti haqidagi ilmiy ta'limotlarni talabalarga tushutirib beradi. Psixik rivojlanishi harakatga keltiruvchi kuchlarini farqlashga o'rgatadi. Har bir bolada taraqqiyotini ta'minlovchi omillarni tahlil qilishga o'rgatadi.

Psixologiya fani zamonaviy ta'limotga asoslangan xolda inson shaxsining tarkib topishini asosan uchta omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izoxlab beradi. Ulardan birinchisi inson tug'ilib voyaga etadigan tashqi ijtimoiy muxitning ta'siri, ikkinchisi odamga o'zoq muddat davomida muntazam tarzda beriladigan ta'lim-tarbiyaning ta'siri va uchinchisi odamga tug'ma ravishda, tayyor xolda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siridir.

Ma’lumki, xar bir odam o’ziga xos, boshqalarda aynan takrorlanmaydigan ijtimoiy muxitda. Qonkret ijtimoiy munosabatda, ya’ni ma’lum oila, jamoa va jamiyatda, odamlar orasida yashab o’sadi, shakllanadi.

Bu ijtimoiy munosabatlarga odam jamiyat a’zosi sifatida, ma’lum sinfning, u yoki bu ijtimoiy guruxning namoyondasi sifatida va nixoyat, tashqil qilinganlik va uyushqoqlik darajasi turlicha bo’lgan muayyan jamoalarning faol a’zosi sifatida qatnashadi.

Shaxsning mohiyati o’z tabiati jixatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdan barcha psixik xususiyatlarini, ijodiy faolligining rivojlanish manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muxitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog’liqlikda bo’lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Manna shu ma’noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yo’zaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, xarakteri, irodaviy sifatlari, qiziqishlari, e’tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi.

Muhit, ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim va tarbiya, azaldan berilgan, genetik jixatdan qat’iy belgilangan nimanidir namoyon qilish uchun sharoitgina bo’lib qolmay, balki inson psixik xususiyatlarini tarkib toptiradi.

Bu borada, birinchidan, shuni ta’kidlash kerakki, odam muxit ta’siri ostidagi passiv ob’ekt bo’lmay, balki faol mvjudotdir. Shuning uchun tashqi xayot sharoiti, tashqi ta’sir inson psixikasini belgilamaydi, balki odamning muxit bilan bo’lgan o’zaro ta’siri orqali, uning muxitdagi faoliyati orqali belgilaydi. Shu sababli muxitning ta’siri xaqida emas, balki odamning tevarak-atrofdagi muxit bilan faol o’zaro ta’siri xaqida gapirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, psixikaning rivojlanishi oqibat natijada tashqi sharoitlarga, tashqi ta’sirotlarga bog’liqdir. Lekin bu rivojlanishini bevosita tashqi sharoitdan va tashqi vaziyatdan keltirib chiqarib bo’lmaydi. Bu sharoitlar xamda vaziyatlar xamisha odamning xayotiy tajribasi, uning shaxsi, individual psixologik xususiyatlari va psixik qiyofasi orqali ta’sir qiladi. Manna shu ma’noda tashqi

individning o'ziga xos psixikasi va shaxsiy taribasini o'z ichiga olgan ichki sharoit orqali bilvosita ta'sir qiladi.

Uchinchidan, odam faol mavjudot sifatida o'zi xam ongli ravishda o'z shaxsini o'zgartirishi, ya'ni o'zi-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishi mumkin. Lekin bu jarayon atrof-muxitdan ajralgan xolda emas, balki muxit bilan moslashgan xolda va muxit bilan o'zaro munosabatda sodir bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa chiqarib shuni aytish mumkinki, odamning (bolaning, o'quvchining) ijtimoiy tashqil topgan va faol faoliyati uning psixik rivojlanishining asosi, vositasi xamda shartidir.

O'z-o'zidan ma'lumki, odamning psixik rivojlanishi uchun tabiiy, biologik imqoniyatlar nixoyatda zarurdir. Inson psixik xususiyatlari me'yorida tarkib topishi uchun muayyan darajadagi biologik to'zilish, inson miyasi va nerv sistemasi bo'lishi shart. Bu tabiiy xususiyatlar psixik rivojlanishni xarakatga keltiruvchi kuchlar, omillar emas, balki faqat dastlabki sharoitlardir, xolos.

Tabiiy xususiyatlar taraqqiyotni xarakatga keltiruvchi kuch emasligiga qaramay, inson psixik taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, tabiiy xususiyatlar psixik xususiyatlar taraqqiyotining turli yo'llarini va usullarini belgilab beradi. Inson nerv sistemasining xususiyatlari o'z-o'ziga shaxsning xech qanday psixik xususiyatlarini belgilamaydi. Xech bir me'yordagi bola dadil yoki qo'rqoq, irodali yoki irodasiz. Mexnatsevar yoki yalqov, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi. Agarda tarbiya to'ri tashqil qilinsa, nerv sistemasining istalgan tipii asosida xarakterning barcha ijtimoiy qimmatli xislatlarini shakllantirish mumkin. Masalan, sabot-matonat va o'z-o'zini tuta bilish xislatini nerv sistemasining tipi shiddatli bo'lgan bolalarda xam, yoki nerv sistemasining tipii vazmin bo'lgan bolalarda xam tarbiyalash lozim va tarbiyalasa bo'ladi. Biroq birinchi xoldagi bolalarni tarbiyalash ikkinchi xoldagilarni tarbiyalashga qaraganda qiyinroq bo'ladi. Xar ikkala xolda kerakli sifatlarni tarbiyalash yo'llari va usullari xam turlicha bo'ladi.

Ikkinchidan tabiiy xususiyatlar odamning biror soxada erishgan yutuqlari darajasiga xam ta'sir qilishi mumkin. Masalan, qobiliyat kurtaklarida tug'ma

individual farqlar mavjud. Shu sababli ba'zi odamlar boshqa odamlardan ma'lum bir faoliyatni egallash imqoniyati jixatidan ustun turishadi. Ba'zida esa aksincha biror-bir faoliyat turini egallash imqoniyati jixatidan esa ulardan ongsizlik qilishlari mumkin. Manna shu ma'noda olganda odamlar o'z qobiliyatlarini barobar rivojlantirish imqoniyatiga ega emaslar. Garchi tabiiy kurtaklar o'quvchilarning psixik rivojlanishi uchun ma'lum axamiyatga ega bo'lsa xam (shu sababli, masalan, ta'lim jarayonida ayrim o'quvchilardan boshqa o'quvchilarga nisbatan ko'proq zo'r berish talab qilinadi, ayrim o'quvchiga o'qituvchi ko'proq kuch sarflaydi, e'tibor beradi va ko'proq vaqt ajratadi), bu kurtaklarning o'zi psixik taraqqiyotda xal qiluvchi rol o'ynamaydi.

Turli yo'nalishga ega bo'lgan psixologlar, bir tomondan ta'lim va tarbiya, ikkinchi tomondan esa rivojlanish o'rtasidagi o'zaro munosabati muammosini keng doirada muxokama qilmoqdalar.

Rivojlanish deyilganda odatda xodisalarning xar ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir: 1) miyaning o'z biologik, organik etilishi, uning anatomik-biologik tuzilishi jixatidan etilishi; 2) psixik (aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatidagi, o'ziga xos aqliy etilish sifatidagi psixik rivojlanish. O'z-o'zidan ma'lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik echilishi bilan bog'liqdir va bu xususiyat ta'lim-tarbiya ishlarida albatta xisobga olinishi lozim, chunki ta'lim miyaning organik jixatdan etilishini inkor eta olmaydi. Biroq miya tuzilishining organik jixatdan etilishini muxitga, ta'lim-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan xolda o'zining qat'iy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb bo'lmaydi. Muxit, ta'lim-tarbiya va tegishli mashq miya tuzilishining organik jixatdan etilishiga yordam beradi.

Bu jarayonda ta'lim qanday mavqega ega? Ta'lim rivojlanishiga nisbatan etakchi vazifani bajaradimi yoki aksincha? Bu muammoning xal qilinishi ta'lim jarayonining mazmuni va metodikasini, o'quv dasturlari va darsliklarning mazmunini belgilab beradi.

Jumladan nemis psixologi V.Shtern: ta'lim psixik rivojlanishning orqasidan boradi va unga moslashadi degan fikrni olg'a surgan edi. Bu fikrga qarama-qarshi

rus psixologi L.S.Vigotskiy bolaning psixik rivojlanishida ta’lim va tarbiyaning etakchilik roli bor degan qoidani birinchi bo’lib ilgari surdi va uni: ta’lim rivojlanishdan oldindan boradi va uni o’z orqasidan ergashtirib olib boradi, deb aniq ifodalab beradi. yuqorida bayon qilingan birinchi fikrga muvofiq ta’lim faqat rivojlanish tomonidan erishilgan narsalardan foydalanadi. Shuning uchun aqliy jixatdan etilish jarayoniga aralashmaslik, unga xalaqit bermaslik, balki ta’lim uchun imqoniyat etilguncha chidam Bilan passiv kutib turish kerak. Shveytsariyalik psixolog J.Piajening nazariyasi xam Ayni shu g’oyalar Bilan yo’g’rilgandir.

J.Piajening fikricha, bolaning va maktab o’quvchisining aqliy o’sishi o’zining ichki qonunlari asosida rivojlana borib, sifat jixatdan o’ziga xo sbir qator genetik bosqichlarni bosib o’tadi. Ta’lim bu aqliy etilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qobildir, lekin u aqliy jixatdan etilish jarayoniga xech qanday jiddiy ta’sir kursata olmaydi. Demak, ta’lim rivojlanish qonunlariga bo’ysunishi kerak. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur echilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o’rgatish foydasizdir. Ta’limning turli bosqichlari bolaning tegishli psixologik imqoniyatlar pishib etiladigan muayyan yoshiga qat’iy nazar bog’liqligi anna shundan kelib chiqadi.

Bizning fikrimizcha, ta’lim etakchi rolni bajaradi, ta’lim va rivojlanish esa o’zaro bir-biriga bog’liqdir; ular aloxida sodir bo’ladigan ikki jarayon bo’lmay, balki bir butun jarayondir. Ta’limsiz to’la aqliy rivojlanish bo’lishi mumkin emas. Ta’lim rivojlanishga turtki bo’ladi, rivojlanishni o’z ortidan ergashtirib boradi. Zarur sharoit tug’ilganda ta’lim mantiqiy fikrlash malakasini tarkib toptiradi va tegishli aqliy rivojlanish uchun zamin bo’ladi. Lekin ta’lim rivojlanishga turtki bo’lish bilan bir vaqtda o’zi rivojlanishga tayanadi, erishilgan rivojlanish darajasining xususiyatlarini, rivojlanishning ichki qoidalarini, albatta, inobatga oladi. Ta’limning imqoniyatlari juda keng bo’lsa-da, biroq cheksiz emas. Yirik rus psixologi L.S.Vigotskiy ta’lim va taraqqiyot muammosiga ijtimoiy-tarixiy jarayon nuqtai-nazaridan yondashib, bilimlarni o’zlashtirish insoniyatning tarixiy taraqqiyotida yaratilgan madaniyatda ishtirok etish jarayonidir, deb ta’kidlanadi. U

olg’a surgan psixik funktsiyalar taraqqiyotining madaniy-tarixiy nazariyasiga ko’ra, psixik faoliyat taraqqiyoti uning «tabiiy» shaklini bevosita qayta qurgan xolda, turli alomatlar bilan avval tashqi, so’ng ichki ifodalanishni nazarda tutib, «madaniy» shaklini egallash tushuniladi.

Shu munosabat bilan L.S.Vigotskiyning psixologiyaga kiritgan «psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi» tushunchasi muxim axamiyat kasb etadi. buning asl moxiyati, bolaning mustaqil faoliyati kattalar Bilan xamkorlikda, uning raxbarligida amalga oshiriladi. L.S.Vigotskiy tomonidan kiritilgan «psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi» tushunchasi «ta’lim taraqqiyotdan oldinda boradi» degan umumiy qoidaning yaqqol mazmunini tushunish uchun imqoniyat yaratadi.

E.Torndayk va J.Piajening ta’lim bilan taraqqiyotni ayni bir narsa deb tushuntirishiga qaramay L.S.Vigotskiy: «Bola taraqqiyotini xech maxal maktab ta’limidan tashqaridagi soya deb xisoblash mumkin emas»-deb ta’kidlaydi. Bundan tashqari, ta’lim va taraqqiyot bir-biriga tobe bo’lmagan jarayonlardir, degan yo’nalishdagi psixologlarni xam u qattiq tanqid qiladi. P.G.Blonskiy ta’limning bola taraqqiyotidagi o’rniga aloxida axamiyat beradi. Shuning uchun o’quvchilarning aqliy rivojlanishi to’g’ridan-to’g’ri maktab dasturi mazmuniga bog’liq ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ta’lim jarayonida bolalar ma’lum qoida asosida faoliyat qilishga odatlanadilar. Ta’lim ta’siri natijasida o’quvchilarda o’z-o’zini va o’zining aqliy faoliyatini nazorat qilish yo’zaga keladi. Psixolog-olimlardan V.V.Davo’dov, P.Ya.Galperin, N.A.Menchinskaya, A.A.Lyublinskaya, D.B.Elqonin, E.G’.G’ozievlar o’zlarining tadqiqotlarida ta’limning taraqqiyotdagi etakchi rolini ta’kidlashadi.

Psixik taraqqiyotning omillari va sharoitlari aniqlab olingan taqdirda xam, psixikada yo’zaga keladigan o’zhgarishlarning manbalari, psixik rivojlanishni xarakatga keltiruvchi kuchlar nimalardan iborat, degan savolning tug’ilishi, tabiiydir.

Bolaning, maktab o’quvchisining psixik rivojlanishini xarakatga keltiruvchi kuchlar murakkab va turli-tumandir. Rivojlanishning moxiyatini qarama-

qarshiliklar kurashidan, ichki ziddiyatlar kurashidan iborat, bolaning, maktab o'qvchisining psixik rivojlanishini bevosita xarakatga keltiruvchi kuchlar ta'lim va tarbiya jarayonida yo'zaga keladigan xamda bartaraf qilinadigan eskilik va yangilik o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan iboratdir. Bunday ziddiyatlarga, masalan, faoliyat tomonidan yo'zaga keladigan yangi extiyojlar bilan ularni qondirish imqoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; bolaning o'sib borayotgan jismoniy va ruxiy imqoniyatlari bilan eski, tarkib topgan o'zaro munosabat shakllari va faoliyat turlari o'rtasidagi ziddiyatlar; jamiyat, jamoa, katta odamlar tomonidan kundan-kunga ortib borayotgan talablar bilan psixik taraqqiyotning mazkur darajasi o'rtasidagi ziddiyatlar kiradi.

Masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchida mustaqil irodaviy faoliyatga nisbatan bo'lgan tayyorlik bilan xatti-xarakatlarning mavjud vaziyatga yoki bevosita ichki kechinmalarga bog'liqligi o'rtasida ziddiyat mavjuddir. O'smirlarda esa eng kuchli ziddiyatlar bir tomondan, uning o'ziga o'zi baxo berishi va o'z talablari darajasi va ikkinchi tomondan, atrofdagilarning unga nisbtan bo'lgan munosabatlari xaqidagi ichki kechinmasi o'rtasida, shuningdek, o'zining jamoadagi real mavqei to'g'risidagi ichki kechinmasi o'rtasida; katta odamlar xayotida to'la xuquqli a'zo sifatida qatnashishi extiyoji bilan bunga o'z imqoniyatlarining mos kelmasligi o'rtasida paydo bo'ladi.

Ko'rsatilgan barcha ziddiyatlar birmuncha yuqori darajadagi psixik faoliyatlarni tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Natijada bola, maktab o'quvchmsi psixik rivojlanishining yanada yuksakroq bosqichiga ko'tariladi. Extiyoj qondiriladi- ziddiyat yo'loladi. Biroq qondirilgan extiyoj, yangi extiyojni tug'diradi. Bu ziddiyat boshqa bir ziddiyat bilan almashinadi-taraqqiyot davom etadi.

Rivojlanish faqat sof miqdor o'zgarishalri jarayonidan, ya'ni qandaydir psixik xodisalarning, xususiyat va sifatlarning ko'payishi yoki kamayishidan iborat bo'lib qolgan, balki sifat jixatdan yangi xususiyatlarning, ya'ni yangidan xosil qilingan sifatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiy qonuniyatlari borligini qayd etib ko'rsatmoqdalar. Biroq muxit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikqilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari xayot sharoitiga, faoliyatga va tarbiyaga bog'liqdir. Manna shunday umumiy qonuniyatlarga birinchi navbatdar psixik rivojlanishning notekisligi kiradi. Buning moxiyati shundan iboratki, xar qanday sharoitda, xatto ta'lim va tarbiyaning eng ko'lay sharoitlarida xam shaxsning turli psixik belgilari, funktsiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bita darajasida to'xtab turmaydi. Bolaning rivojlanishidagi ayrim davrlarda psixikaning u yoki bu yo'nalishlarda rivojlanishi uchun nixoyatda qulay sharoitlar paydo bo'ladi va bu sharoitlarning ba'zilari vaqtinchalik, o'tkinchi xarakterda bo'ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo'lgan anna shunday yosh davrlari senzitiv davrlar deb ataladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev). bundan senzitivlik davrining mavjudligiga miyaning organik jixatdan etilish qonuniyati xam, ayrim psixik jarayonlar va xususiyatlar xam, xayotiy tajriba xam sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishi-murakkab taraqqiyot jarayonidir.

## 16-mavzu: TA'LIM PSIXOLOGIYASI

**Ma'ruza mashg`uloti rejasi**

1. O'quv faoliyati.
2. O'quv motivlari.
3. Rivojlanuvchi ta'limning psixologik asoslari.
4. Dars jarayonida o'qituvchilarni boshqarish texnikasi va usullari.
5. Kompyuterlashtirilgan ta'limning psixologik jihatlari.

**Darsning maqsadi:**

Ta'lim psixologiyasi mohiyati yoritiladi. Uning shaxs kamolotidagi o'rnini ta'limning noan'anviy usullari va vositalari ta'lim jarayonining samaradorligi va unga ta'sir etuvchi omillar to'g'risidagi bilimlarini rivojlantirish. Ularga

jamiyatning kelgusi rivoji va ta’limning o’zaro bog’liqligini tushuntirish va anglatishdan iborat.

1997 yilda qabul qilingan "Ta’lim to‘g’risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida" shaxs kamoloti asosiy masala sifatida e’tirof etilgan. Prezidentimiz I.A.Karimov: "Iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarimizning pirovard maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini tashqil qilib berishdan iboratdir. Aynan shuning uchun ham ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg’onish g’oyasini ro’yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib koladi", degan edilar.

Maktab jamiyatning ijtimoiy institutlaridan biri. Maktab jamiyatning buguni emas, balki kelajakka yo‘naltirilgan rivojini belgilaydi. Maktabning maqsadi ta’lim va tarbiyadir.

## O‘quv faoliyatining psixologik mohiyati

O’quv faoliyati bu shunday faoliyatki, unda shaxsning psixik jarayonlari shakllanadi va rivojlanadi, uning asosida yangi faoliyatlar yo’zaga keladi.

O’quv faoliyati insonning butun hayoti davomida namoyon bo‘luvchi o’zluksiz jarayondir.

Rus psixologi A.N.Leontьev inson faoliyatining psixik va amaliy shakllari mavjudligini ta’kidlaydi, bola ongi aynan o‘quv faoliyatida o‘sishini ta’kidlaydi.

D.B.Elьkomin esa o‘quv faoliyatining xususiyatlarini ko‘rsatib, uni mohiyatiga, mazmuniga va o‘zini namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra ijtimoiyligini ta’kidlaydi.

O’quv faoliyati bu shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo uquvchida o‘zgarish yo’z beradi. Uning maxsuli turli motivlar asosida qurilgan bo‘lishi darkor. Bu motivlar bevosita o‘quvchi shaxsining o‘sishi va rivojlanishi bilan bog’liq bo‘lishi kerak. Uquv faoliyati ta’lim, o‘qish va o‘rganish degan tushunchalar bilan bevosita bog’liqdir.

Ta’lim o‘qituvchi va uquvchi hamkorligidagi o‘quv faoliyati, o‘qituvchini bilim, ko‘nikma va malakalarini o’quvchilarga o‘rgatish jarayonidir.

Ta’lim jarayoni bevosita muayyan axborotni, harakatlarni, hulq-atvorning shakllarini o‘zlashtirishga karatilgandir.

O‘qish va o‘rgatish tushunchalari o‘quv faoliyati bilan bog’liq bo‘lib, ular bilim, ko‘nikma va malakalarni o’zlashtirishga, o‘rgatishga xizmat qiladi.

O’quv faoliyatining besh elementi mavjud:

1. O’quv motivlari

2. O’quv topshiriqlari

3. O’quv xarakatlari

4. O’qituvchining nazorati

5. O’qituvchining baholashi

D.B.Elkominning yozishicha, o’quv faoliyatining shakllantirilishi bu faoliyat ayrim kishilarbajarilishini asta-sekinlik bilan o‘quvchining o‘ziga o‘qituvchining ishtirokisiz mustaqil bajarish uchun o‘tkazilishidir.

Ta’lim jarayoni alohida tashqil etiladigan hamda boshqariladigan faoliyat bo‘lib, u o‘quvchilarning o‘quv faoliyatlarini tashqil etadi va ularni boshqaradi. Ta’lim jarayoni besh elementdan iborat:

1. Ta’limning maksadi - nima uchun o‘qitish kerak?

2. Ta’limning mazmuni - nimaga o‘qitish kerak?

3. Ta’limning metodlari, usullari va pedagogik muloqot yo‘llari.

4. Ta’lim beruvchi

5. O’quvchi

Ta’lim jarayonini tashqil etish: ideal va amliy faoliyatning u yoki bu turini muvaffaqiyatli tashqil etish uchun zarur bo‘lgan tashqi olamning muhim ahamiyatli xossalari xususidagi axborotning o‘zlashtirilishi:

- faoliyatning ana shu barcha turlari tarkib topgan usullari va jarayonlarining o‘zlashtirilishiga;

- maqsadga muvofik keladigan usullar va jarayonlarni to‘g’ri tanlash va foydalanishga boqliq.

Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati:

1. Motivatsiya

2. Ma’lumot usullari

3. Ma’lumotning tushunarliligi;

4. Xotira

5. Ma’lumotni qo‘llash

Ta’lim va ta’lim jarayonida 'bolani rivojlanish muammosi psixologik markaziy masalalardan biridir. Ta’lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan biri:

1. Aqliy hatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish nazariyasi (P.YA.Galьperin).

Gal’perin nazariyasi bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

1. motivatsiya

2. tushuntirish

3. moddiy formadagi hatti-harakatlarni bajarish

4. baland ovozda hatti-harakatlar va vazifalarni bajarish

5. bajariladigan hatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish

6. faoliyatni fikran bajarish kiradi.

Ushbu nazariyada ta’limning uchta asosiy turlari ajratiladi: Birinchi tipda - hatti-harakatlarni o‘zlashtirish xatolar bilan

kechadi, berilayotgan material etarli darajada anglanilmaydi, ta’limoluvchi ta’limning asl mohiyatini tushunib etmaydi.

Ikkinchi turda - materialni nisbatan dadil va to‘la tushunilishi va material bilan bog’liq tushunchalarni ajratilishi bilan xarakterlanadi.

Uchinchi tir tez, samarador va bexato hatti-harakatlarni o‘zlashtirilishini ta’minlab beradi.

V.V.Davidov nazariyasi. Ushbu nazariya kichik maktab yoshidagi o’quvchilarni ilmiy tushunchalarni o’zlashtirilishini targ’ib qiladi. Bunda

uquvchilar tomonidan ta’lim jarayonida nazariy tushunchalar tizimini o‘zlashtirilishi lozim bo‘lib, bu o‘z o‘rnida xususiydan umumiy bilimlarga o‘tilishni ta’minlaydi.

Qator nazariyalar muammoli ta’lim bilan bog’liq bo‘lib, L.V.Zankov va A.M.Matyushkin tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ta’limda muammoli darslarni tashqil etishga qaratilgandir.

Ta’limning psixolik asoslari muammosi ko‘pgina masalalarni qamrab oladi. Ta’limning muvaffaqiyati bir qator psixologik omillarga bog’liq bo‘ladi. Avvalo o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatiga to‘xtalaylik. Bu munosabat dikkatda, his-tuyg’ularda, qiziqishlar va irodada, shuningdek, shaxsning tutgan yo‘lida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim jarayoni avvalo uquvchilar diqqatini yo‘lgan solishni talab etadi. Darslarda ko‘rgazmali qurollardan, texnik vositalar, EHM vositalaridan foydalanish ta’lim oluvchida ixtiyorsiz diqqatni yo’zaga keltiradi. Ta’lim jarayonida ta’lim beruvchining vazifasi darsda ishlash holatini yo’zaga keltirishgina emas, balki uquvchilarning darsda o‘tiladigan materialini idrok etishga tayyor turishlarini kuzatish hamdir. Dars jarayonida uquvchilarning diqkati o‘zgarib turadi. O‘qitish jarayonida bu qonuniyatlarni nazarda tutish va o‘quvchilar diqqatini materialning asosiy eralriga jalb etish hamda ularni takrorlash kerak.

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchi tomonidan beriladigan ko‘rsatmalarga ham boqlik. Uqituvchining roli shundan iboratki, u o‘quvchilarga tegishli ustanovkani hosil qilishi, nimani vaqtincha, nimani umrbod esda olib qolishi kerakligini, nimani butunlay esda olib qolmasdan, faqat tushunib olish kifoya qilishini, nimani so‘zma-so‘z esda olib qolishni, nimaning ma’nosini o‘z so‘zlari bilan aytib berish uchun esda olib qolish zarurligini ko‘rsatib o‘tishi lozim. Kuzatishlar ko‘rsatadiki, bunday ko‘rsatmalar berilmaganda, o‘quvchilarda ko‘pincha noto‘g’ri tasavvurlar vujudga keladi.

O’qitishning emotsionalligi ta’limning muvaffaqiyatliligini ta’minlovchi omillardan biridir. Ta’lim berish jarayoni emotsional jarayon. Ugar o‘quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech kanday xis tuyg’u uyg’otmasa, uni o‘quvchilar

yaxshilab esda olib qolmaydilar. Gap o‘quvchilarning psixik holatlari, ya’ni ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o‘quv faoliyatini juda samarali qiladi. O’quvchilar emotsional ruxdagi materialni durustroq o‘zlashtirib oladilar.

O’tkazilgan tajribalar o’quvchilar hech qanday his tuyg’u uyg’otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruxdagi materialni yaxshiroq eslab qolishlarini ko‘rsatadi. Uqutuvchi o’quv jarayonining emotsional tomoni haqida g’amxurlik qilishi kerak. Bu muammo juda muxim axamiyatga ega. CHunki, birinchidan, ta’limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa g’oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga erishish uchun o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini kuchaytirish lozim. Ijobiy tuyg’ular o‘quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta’sir etadi. Xafsala bilan bijarilgan beg’araz munozara paydo bo‘ladi, bahslashiladi, befarq qaragan yoki undan ham beshbattar, salbiy munosabatda bo‘lishgan ishga esa hech qanday xafsala bo‘lmaydi.

Jamiyatimizdagi mehnat - haqiqiy ijod, quvonch manbai. Maktab o‘quvchilarida o‘quv mehnatiga ijodiy munosabat uyg’otib, mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbaiga aylanishiga ko‘maklashish kerak.

Qadimda greklar juda ajoyib iborani ko‘llaydilar: "Talaba-to‘ldirilib turilishi kerak bo‘lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo‘lgan mash’aldir". Bu fikrning tagida chuqur ma’no bor. Zero, o‘qituvchi biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan ta’lim metodlari muammoli ta’lim, qisman izlanish metod iva tadqiqot metodlaridan keng qo‘llanishi kerak. Ta’lim jarayonini bugungi kundagi asosiy talabalaridan biri erkin fikrlovchi, mustaqil tafakkurga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish bo‘lib, yuqorida aytib o‘tgan metodlardan foydalanish uchqunlardan kata mash’allar paydo bo‘lishini ta’minlab beradi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilishga qiziqishlari g’oyat kata rol uynaydi. Ma’lumki, qiziqish uquvchilarning emotsional bezagi, biror buyumni, biror faoliyatni tanlash munosabati va yo‘nalishidir.

Ma’lumki, psixologiyada qiziqishning ikii turi o‘quvchilarning ta’lim jarayonida aniqlanadi. Birinchisi, bevosita qiziqish, ikkinchisi bilvosita qiziqish.

Har bir o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarida o‘z faniga nisbatan bilvosita qiziqishni tarkib toptirishga harakat qiladi. qiziqishlar orqali o‘quvchilarda ta’limga aktiv munosabat namoyon bo‘ladi. Psixoligiyada qiziqish bu - shaxsning o‘zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo‘lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. qiziqishlar uquvchilar hayotida kata rol uynaydi. Ular ukuv faoliyatini faollashtiruvchi asosiy turtqilar motivlaridir. qiziqishlar maktab uquvchisiga fan asoslarini durustroq o’zlashtirib olishlariga, aqliy qobiliyatlarning o‘sishiga, bilim doirasining kengayishiga imqon beradi. Uqituvchilarning vazifasi o‘quvchini dastlab qiziqtirib qolgan ishning o‘zi bilan shug’ullanishga majbur qilish emas, balki undagi qiziqishlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ta’sirchan qilish, qiziqishlarining markaziga aylanib qolgan faoliyat bilan shug’ullanish istagiga, mayliga aylantirishd ir.

Uquvchilarning muayyan maqsadni ko‘zlab ish tutishida, qiyinchiliklarni enga olishida, ishdan chalg’itadigan narsalar bilan shug’ullanishdan o‘zini tiya olishida, unda o‘qishga ishtiyoq tarkib toptirishda namoyon bo‘ladigan iroda ta’lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Umumiy psixologiya kursidan sizga ma’lumki, iroda bu shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadining aniqligi, uni amalag oshirish uchun intilishi, maqsad yo‘lida ma’lum bir qarorga kelish tezligi va uni o‘z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan sifatidir. Ta’lim jarayonida o‘quv materialiga bo‘lgan diqqatning barqaror bo‘lishida irodaviy zo‘r berishning ahamiyati nihoyatda kattadir. Ta’limda iroda o‘quvchida maktab va uyda o‘tkaziladigan mashg’ulotlarga tayyor turishda namoyon bo‘ladi. Uquv materialini o‘rganish -eslab qolish va o‘quvchining irodaviy zo‘r berishgaiga bog’liq. Iroda o‘quvchilarning firklash faoliyatlarida - masalani echishga, qo‘yilgan savolga javob topishga va hakozolarga intilishda namoyon bo‘ladi. Ular o’quvchilarda ko‘nikma va malakalarni hosil qilishda ham tarkib topadi.

Psixologlar olib borgan tadqiqotlarida uquvchilar tomonidan berilgan materialning o’zlashtirilishi ko‘p jihatidan irodaning tarbiyalanishiga ko‘p

jihatidan bog’liqdir. Irodaviy aktivlik ta’limning zarur shartidir. Ta’lim muassasidagi ta’lim jarayonining o‘zi uquvchilardan irodaviy ustirish omillaridan biridir. Bunda uquvchilarning kundalik rejimi, uqish va oqilona dam olishni bir-biri bilan to‘g’ri almashtirib turish katta rol uynaydi.

Ta’lim jarayonida bilish jarayondarini shakllantirishga aloxida e’tibor berish lozim. Zero bilish jarayonlari juda murakkab faoliyat bo‘lib, unda jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, abstrakt tafakkurdan amaliyotga o‘tiladi, anna shundan so‘ng ob’ektiv haqiqat bilib olinadi. Binobarin, biz birinchi navbatda ko‘rib chiqishimiz lozim bo‘lgan narsa uquv materalini idrok qilish jarayonidir. Umumiy psixoligiya kursidan ma’lumki, idrok bu narsa va hodisalarni sezgi organlariga ta’sir etishi natijasida ularning kishi psixikasida yaxlit obrazini paydo bo‘lishi bo‘lib, idrok etish jarayoni ta’limda turli formalarda o‘qituvchining og’zaki hikoya qilishida, suhbat o‘tkazishda, leksiya o‘qishida, kinodars, televizion parcha, sxemalar va ko‘rsatmali qurollar ko‘rsatish, ekskursilar o‘tkazish, o‘quvchining o‘ziga darsliklar hamda boshqa qo‘llanmalarni o‘qitish tarzida o‘tishi mumkin. SHuni alohida ta’kidlash lozimki, idrokni tarkib toptirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish nihoyatda muhimdir. CHunki, fazoni, vaqtni va xarakatlarni idrok etishda ham yosh xususiyatlarda turli farqlar mavjud bo‘ladi.

2. Uqish mativlari.

Mativ-inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchadir.

Mativatsiya esa xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo‘lib, unga tashabbus, yo‘nalganlik tashqilotchilik, qo‘llab-quvvatlash kiradi. Ta’lim jarayonida o‘qash mativlari "nima uchun? " "nimaga? " "kanday maqsad bilan?" kabi savollar asosida yo’zaga keladi. Matvlar birinchidan, o’quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo‘l va usullar tanlashga yordam beradi. O’quv faoliyatida o‘quv mativlar o‘quvchilar tomonidan tanlanib, ular o‘quvchining maqsadi, qiziqishi kelajak rejalari bilan bevosita bogliq

bo‘ladi. Yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda o‘quv mativlari turli yosh davrlarida turlicha bo‘ladi.

O‘quv faoliyati mativatsiyasining manbalari mavjud bo’lib, ularga quyidagilar kiradi :

1. Ichki manbalar . Ular insoniy tug’ma yoki ortirilgan extiyojlari bilan belgilanadi.Ulardan eng muximi tug’ma infarmatsiyaga bo‘lgan extiyojdir.Ortirilgan extiyojlar esa gnostik va ijtimoiy ijobiy extiyojlar xisoblanadi.

2. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy xayot shart-sharoitlari bilan belgilanadi.

Talabalar ularning birinchisi bo‘lib, jamiyatning shaxsdan talab qiladigan doimiy xulq-atvor bildiradi. Bog’cha ,maktab , oila boladan juda ko‘p ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Ijtimoiy kutish xar birimizdan ma’lum bilimlar, ko‘nikmalar darajasini bo‘lishi, zarurligini jamiyat kutishini bildiradi. Masalan, bir yoshli bola yurishi kerak. 7 yoshdan u o‘qishi kerak. 15 yoshdan u kasb tanlashi kerak deb hisoblaymiz. Imqoniyatlar-shaxs faoliyatini belgilovchi ob’ektiv shart-sharoitlardir. Masalan bolaning undan boy kutubxona uni kitob o‘qishga undaydi.

3. Shaxsiy manbalar bu shaxsning qadriyatlari sistemasi ustavkalari g’oyalaridir. Bu manbalar har bir shaxs faoliyatida u yoki bu darajada mavjud. Ularning barchasi faoliyatining ketishiga ta’sir etib ti’lim jarayonining mativatsiyasini tashqil etadi. V. A- kruteskiy o‘sprinlarda uchraydigan mativlarda quyidagilarni alohida ifodalaydi:

a) Biror o‘quv faniga kiziqish;

b) Vatanga foyda kelirish istagi;

v) SHaxsiy qobilyatini ro‘kach qilish;

g) Oilaviy an’analarga rioya qilish;

d) do‘st birodarlarga ergashish; e) moddiy ta’minlash va hokozalar.

3. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida uning psixologik komponentlari.

Ta’lim jarayonining natijasi o‘zlashtirish, ichki va tashqi faoliyatini maqsadga muvofiq ravishda o‘zgartirishdir. Ta’lim bir odamning boshqasiga bilim va

ko‘nikmalar berishdir. Bilim ko‘nikma va malakalar ta’lim jarayonining natijasidir. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni mommosi P.YA.Gal’perin va N.F. Talizine tomonidan o‘rganilgan. Ular aqliy xatti- xarakatlarni bosqichma bosqich shakillantirish nazariyasini ishlab chiqqanlar. Mualliflar aqliy xatti -xarakatlarni moddiy xolda tashqi nutq yordamida xamda aqliy shaklda fikrda namoyon bo‘lishini izohlab berdilar. Aqliy hatti-harakatlarning birinchi bosqichi rasm, sxema, diagramma va shartli belgilar tarzida o‘z ifodasini topadi.Aqliy hatti-harakatlarning ikkinchi bosqichi ko‘rgazmalaridan olgan tasavvurlari to‘g’risida o‘quvchilarning ovoz chiqarib fikr yuritishidan iboratdir. Uchinchi bosqich esa sub’ekt ongida tasavvur, tushuncha, qonuniyat, xossa, xususiyat, operatsiya, usul tariqasida namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, o‘quvchilarga taklif etiladigan axborotlar aql bovar kilmaydigan darajada tezlik bilan ko‘payib bormoqda. SHuningdek, ularning juda tez eskirib qolib, yangilashni taqozo etishi ham o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘lmoqda.

To‘rtinchi bosqichda bajarilgan hatti-harakatlar ichki rejada ovoz chiqarilmay bajariladi.

Beshinchi bosqichda esa faoliyatni fikran bajarishga o‘tiladi.

Bundan ravshan ko‘rinib turibdiki, materialni asosan yodlab olish va xotirada saqlab qolishga asoslanadigan ta’lim hozirgi talablarga kisman javob bermoqda. O’quvchilarga hamisha yangilanib turadigan axborotni mustaqil ravishda o‘zlashtirib borishga va o‘qishni bitirib ketganidan keyin kishiga jadal suratlar bilan o‘sib borayotgan fan texnika taraqqaiyotidan orqada qolib ketmaslik imqoniyatini beradigan qobiliyatlar taraqqiyotini beruvchi tafakkur sifatlarini tarkib toptirishi muammosi birinchi o‘ringa chiqib bormoqda. Ta’lim jarayonida o‘zlashtirilishining muvaffaqiyati quyidagilarga bog’liq:

1. ta’lim mazmuniga

2. O’quv rejalari, dasturlari, dasrliklar va o‘quv qo‘llanmalarining mavjudligiga

3. ta’lim metodikalarini takomillashganligi

4. o‘qituvchi mahoratiga

5. o‘quvchining individual psixologik xususiyatlariga bog’liq.

Tadqikotlar shuni ko‘rsatadiki, turli individual tipoligik xususiyatlariga ega o‘quvchilar uchun ta’limning yagona kulay optimal sharoitlarini yaratish mumkin emas. Ammo o‘zlashtirishni samaradorligini oshirishda muammoli ta’lim, noan’anaviy ta’lim usullarini qulay qo‘llash muhim ahamiyatga egadir.

4. Ta’limning yangi noan’anviy usullari. Mustaqil tafakkurni rivojlantirilishi.

Ta’lim oluvchilarning ta’lim faoliyatiga ko‘ra ta’limning quyidagicha metodlari ajratiladi:

1. Tushuntiruv ko‘rsatmalilik metodi-bu metod reproduktiv metod bo‘lib unda faoliyat o‘qituvchi tomonidan olib boriladi. Uquvchilar ta’lim jarayonida bilim oladilar, tanishadilar.

Bu metod juda keng tarqalgan metodlaridan biri bo‘lib, uni albatta takomillashtirilgan usullari mavjud bo‘lgan bu programmalashtirilgan ta’limdir.

2. Reproduktiv metod bu metodda o’quvchi faoliyat ko‘rsatib, unda o‘quvchi berilayotgan bilimni qayta xotirada tiklab, olingan bilimni nusxa sifatida qabul qiladi.

3. Muammoli ta’lim metodi - o‘qituvchi tomonidan tashqil etilib, u produktiv xarakterga egadir. Ushbu metod orqali o‘quvchi bilim va malakalarini shakllantiradi. Ushbu metodning takomillashtirish yo‘llaridan biri ishchan uyinlardan tashqil etishdan iboratdir.

4. qisman izlanish metodi. Uqituvchi nazorati ostida tashqil etiladigan metod bo‘lib, u ham produktiv xarakterga ega bo‘lib, bunda o‘quvchi ijod qiladi.

5. Tadqiqot metodi. Uqituvchi ilm yordamisiz tashqil etiladigan ta’lim metodi bo‘lib, u o‘quvchining mustaqil izlanish, fikrlash va bilimlar transformatsiyasini talab etadi.

Ta’lim jarayoni tashqil etishning o‘ziga xos metodalaridan biri ishchan o‘yinlardir. Ishchan o‘yinlar munosabatlar sistemasini modallashtirish, faoliyat xarakteristikasini tashqil etishga yordam beradi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish ta’kidlanadi. Pedogokik texnalogiya bu ta’lim jarayoniga sistemali yondashuv bo‘lib, unda ta’lim jarayonining tashqil etishda texnika va inson imqoniyatlari xisobga olinadi va ularning o‘zaro munosabati ti’limning optimal formalari yaratilishiga zamin bo‘ladi.

Pedogogik texnologiyalarni kuyidagi tarkibiy qisimlarga bo‘lish mumkin; Ti’lim - tirbiya ishtirokchilari shaxsiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar;

-Hamkorlik faoliyati azolarining kasbiy tayyorgarligi;

-Ta’lim jarayoning maqsadi, mazmuni, mohiyati, amalga oshirish vositalari;

-Ta’lim jarayonini diforenslashtirish;

-Ijodiylik

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek, Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi."

Uquvchini mustaqil ta’lim olishga o‘z-o‘zini rivojlantirishga tayyorlash bugungi kun maktabining asosiy vazifasidir.

Ta’lim jarayonida uquvchining mustaqil ta’lim olishini faollashtirish zarur. Mustaqil ta’lim masalani qo‘yilishi, echish, o‘z-o‘zini nazorat va baholashning yo‘llarini o‘quvchi tomonidan tanlanishi va bajarilishi bilan xarakterlanadi.

O’quvchilarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur. Fikrlash operatsiyalari asosida dars jarayoni faollashtiriladi. Bu o‘qituvchining: Nima uchun?, qanday maqsadda?, Sababalari qanday?, Natija nima uchun shunday bo‘ldi? singari savollarning muhokamasi orqali amalga oshirilishi mumkin. Uqituvchilarni evristik, muammoli vaziyatlarga tortish, tanqid, gumon holatlarini muhokama qilish, ulardagi muammolarni mustaqil holda topish va ularni echish uchun o‘z loyihalarini to’zi shva himoya qilish o‘quvchilar tafakkurining ma’nodor va unumdor bo‘lishiga xizmat qiladi.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" (1997 yil) ta’lim muammolari oldiga mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish muammosini qo‘ygandir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek: Uqituvchining bosh vazifasi o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalarini hosil qilishdan iboratligini

ko‘pincha yaxshi tushunamiz, lekin afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasi past bo‘lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak, ammo, bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik.

Hozirgi zamon uquv muasasalarining vazifasi yosh avlodni mustaqil fikrlashga o‘rgatishdir. Albatta fikrlashda ham individual farqlar mavjud. Fikrlashni bilish - bu insonning aqlidir.

Aqlning quyidagi sifatlarini ajratish mumkin:

1. Mazmundorlik (boyligi, chuqurligi, hukmga boyligi)

2. Fikrlash kengligi (keng va tor) fikrlashning kengligi va chuqurligi nazariya va amaliyotning o’zviyligiga bog’liqdir. Amaliyot, hukmning to‘g’riligi mezonidir.

3. Fikrlashning mustaqilligi - umumiy tajribani qo‘llay olish, shaxsiy fikrga ega bo‘lishi, tajribaga munosabat bildirish

4. Aqlning tashabbuskorligi

5. Aqlning egiluvchanligi, vazifani standart echishdan qochish

6. Aqlning tanqidiyligi, o‘z ishini aniq baholay olish, uni o‘lchash

7. Aqlning mahsuldorligi

8. Fikrning ketma-ketligi

9. Tafakkurning tezligi

Aql haqida ayrim olimlar va arboblarning fikrlari keltirilgan. "Ulug’ aql egalari o‘z oldilariga maqsad quyadilar, qolgan odamlar o‘z istaklari ortidan ergashadilar" (Vashington Irving).

"Aql - bu yaxshi tashqil etilgan bilimlar tizimidir» (K.D.Ushinskiy).

Yuqorida aytib o‘tilgan barcha sifatlar yosh o‘zgargan sari o‘zgarib boradi. Ijodiy ishda fikrlashning mustaqilligi va tanqidiyligi zarur bo‘lib, u aqliy faoliyatning produktivligini ta’minlaydi.

Ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilimlarni o‘zlashtiribgina qolmay xilma-xil ko‘nikma va malakalarni hosil qiladilar.

Ko‘nikma-mashq qilish natijasida yo’zaga kelgan xatti-harakatlarning avtomatlashgan usuli. Fiziologik jihatdan ko‘nikma bosh miyaning kata yarim sharlari pustlogida hosil bo‘lib, vaqtinchalik nerv bog’lanishlarining barqaror tizimining funksiyasini ta’minlaydi. Dinamik-stereotiplarni yaratish sharoitlari bir vaqtning o‘zida avtomatlashgan akt bilan murakkab analitik-sintetik faoliyatini yo’zaga keltiradi. Buning natijasida nafaqat ko‘nikmalar, balki malakalar ham yo’zaga keladi.

Malaka - oldinga kuyilgan maqsad va hatti-harakat sharoitidan kelib chiqadigan suvaffaqiyatli harakatlar usulidir. Malakalar hatti-harakatning maqsad va qonkret shart-sharoitlariga tegishli bo‘lgan holda doimo suyanadi. **Odam** ishni qanchalik yaxshi bilsa uni shunchalik malakali amalga oshiradi va undan foydalanadi.

Ko‘nikma va malakalar hatti-harakat uslubi bo‘la turib, ma’lum faoliyat turiga karab ishlab chiqarish, uquv, ijtimoiy, sport, tashqiliy, texnik faoliyat, ilmiy faoliyat, san’at sohasidagi ko‘nikmalar va boshqalar bo‘lishi mumkin. Lekin barcha faoliyat turlarida qo‘llaniladigan ko‘nikma va malakalar mavjud: bular - harakat, sensor va aqliy ko‘nikma va malakalardir. Harakat ko‘nikmalariga jismoniy mehnat, sport va uquv ko‘nikmalari (xat yozish, tez o‘qish va h.k.) kiradi.

Sesor ko‘nikma va malakalarga o‘lchov, yorug’lik, ovoz va simvolik ma’lumotlarni tez va to‘g’ri qabul qilish bilan bog’liq bo‘lgan va boshqarish markazlarida tarorlab borishla kiradi.

Aqliy ko‘nikma va malakalarga — kuzatish usullari, malakalarni rivojlantirish, og’zaki va yozma hisob-kitobni ishlab chiqish, harakatlarga yo‘naltirish, kitob bilan ishlash, arxiv materallarini yig’ish, ilmiy tajriba o‘tkazish va h.k. ko‘nikmalar mashq natijasida yo’zaga keladi, ya’ni bunda maqsad sari yo‘naltirilgan (doimiy) qaytarish mustahkamlashga olib keladi va samarali usullar asosida qayta-qayta qaytarilishi amalga oshiriladi.

Inson tomonidan egallangan ko‘nikma va malakalar yangi ko‘nikmalarni shakllantirishiga ta’sir ko‘rsatadi.

qonuniyatlar:

1. Ko‘nikmaning hosil bo‘lishining notekis jarayoni. Bu mashqlarning egri grafigida namoyon bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan rasmda buni ko‘rish mumkin.

2. Ko‘nikmalarning ko‘chishi. Ijobiy ko‘nikmalar yangilarini shakllanishiga ta’siri ko‘chish deyiladi. Ko‘nikmalardagi salbiy ta’sir esa interferensiya deb ataladi, bunda eski ko‘nikma yangisini shakllanishiga xalaqit beradi.

3. Ko‘nikmani progressi va regressi - ko‘nikma o’zoq vaqt miqdorida xizmat qilishi uchun undan foydalanish lozim. Aks holda deavtomatlashtirish yo’zaga kelib, zarur harakatlar o‘z tezlngi, yangiligi, aniqligi va avtomatlashtirilgan harakatlarni ta’minlovchi xususiyatlarini yo’lotadi.

Ozgina odatlar haqida.

Odatlar - bu shunday hatti-harakatlarki, ular o‘z-o‘zidan, avtomatik tarzda yo’z beradi. Odatlarni insonning madaniy va axloqiy xulqida ahamiyati kata.

Ta’lim boshqariladigan jarayoni bo‘lib, bunda har bir bolaning harakati qadamba-qadam nazorat qilinadi, o‘qituvchi har bir bosqichda o‘quvchining bilimlarini malakalarini o‘zlashtirish haqida axborot olib turadi, yangi material avvalgi materailni o‘zlashtirishga qarab taqdim etiladi.

6. Uquv faoliyatini boshqarish

Boshqaruv bu shunday yo‘naltiruvchi kuchki, u insonlardagi ijodiy potensial imqoniyatlarini oladigan sharoitlarni yo’zaga chiqarishni maqsad qilib quyadi. SHunday ekan, uqituvchining ham ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g’ri va oqilona boshqara olish ukuvchi shaxsi kamolotida nihoyatda kattadir.

Faoliyatidan kutiladigan natija psixologiyada maqsad deyiladi. O’quv jarayonining bashqarilishi ikkita asosiy maqsadni ko’zda tutadi. Ulardan birinchisi uquv jarayonini to‘g’ri tashqil eta olish, ikkinchisi esa uquvchilarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirishdir. Anna shu maqsadalar boshqarishning maqsadli vazifalarini belgilab beradi. Demak, uquv jarayonini boshqarishning birinchi vazifasi tashqiliy bo‘lib, uquvchilarning ta’lim va tarbiyasi bo‘yicha ijtimoiy buyurtmalarni qondirish.

Ikkinchi vazifa - bevosita uquvchining qiziqish va talablarini qondirishga yo‘naltirilgan holatdagi ijtimoiy vazifadir. SHuningdek, bu vazifa ukuvchilarning

kutarinkilik, yaxshi kayfiyat va uquv jarayonidagi ishchanlikni yo’zaga keltirishni ham o‘z ichiga oladi. Afsuski, ko‘p yillar davomida boshqarishning anna shu ijtimoiy vazifasiga juda kam e’tibor berilgan.

Boshqaruvning ikkinchi vazifasi bu ijtimoiy psixologikdir. Bu vazifa uquvchilarda samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy-psixologik holat va xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgandir.

Bu holat va xususiyatlar uquvchilarni o‘zaro jipslashtirish, o‘zaro nazorat, o‘z-o‘zini boshqarish, shuningdek, mustaqil ta’lim olishlarini rivojdantirishdan iboratdir.

O’quv jarayonini boshqarish uchun kuyidagi tarkibiy qismlarni egallashlari lozim:

1. Berilgan uquv topshirig’ini echish uchun vositalar tanlash;
2. Topshiriqlarni echish jarayonida o‘z-o‘zini nazorat qilish;
3. O’zlashtirilgan bilimlar, malakalar, kunikmalar sifatini baxolash;
4. O’quv topshiriqlarini bajarilganligini tekshirish;
5. O’z oldiga maqsad qo’ya olish;
6. Turli belgilar bilan predmetning ichki munosabatlari muvofiqdigini kura olish.

O’qitishning ikkita usuli mavjud. Biri an’anviy uqitish usuli -bunda uqituvchi muammoni belgialydi, vazifalarni aniqlydi va muammoni echib beradi. O’quvchi esa masalani echish yo‘llarini eslab qoladi va uni echishni mashq qiladi. Bunda uquvchilarda reproduktiv tafakkur shakllanadi.

Rivojlantiruvchi ta’lim uqitishning muammoli usulida uqituvchi uquvchilarning bilish jarayonlarini boshqaradi, uni tashqil etadi va nazorat qiladi. O’quvchi esa muammoni tushunadi. Uni echish yo‘llarini qidiradi va uni echadi. Bunday hollarda uquvchi tafakkurining maxsuldorligi oshadi va uning mustaqilligi rivojlanadi.

O’quvchining uqishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish uchun uqituvchi quyidagi qoidalarga tayanishi lozim:

1. O’quv jarayonini shunday tashqil etish lozimki, bunda uquvchi faol harakat qilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o‘zi kashf etishi va muammoli xarakterdagi masalalarni echish uchun sharoit izlashi kerak.

2. O’quvchilarga bir xil o’qitish usullari va bir turdagi ma’lumotlarni berishdan qochish kerak.

3. O’rgatilayotgan fanga nisbatan qiziqishning namoyon bo‘lishi uchun ayni shu fan yoki bilim uquvchining o’zi uchun qanchalik ahamiyatli va muhim ekanligini bilishi kerak.

4. Yangi material qanchalar uquvchi tomonidan avval o’zlashtirilgan bilimlar bilan bog’liq bo‘lsa, u uquvchi uchun shunchalik qiziqarli bo‘ladi.

5. Haddan ziyod asosli va haddan ziyod qiyin material uquvchida qiziqish uyg’otmaydi. Berilayotgan bilimlar qiyin, lekin uquvchining kuchi etadigan darajada bo‘lishi lozim.

O’qituvchi o‘rganilayotgan mavzu yoki bilimining ahamiyatini ko‘rsatish, uquvchining ukuv faolligini oshirish uchun qiziqarli misollar, aqliy uyinlardan keng foydalanish lozim. Lekin ta’limdagi har bir beriladigan bilim yorqin, qiziqarli bo‘lavermaydi. shuning uchun uquvchilarda iroda, qat’iylik, mehnatsevarlik kabi xislatlarning kamol toptirilishi nihoyatda zarurdir. Anna shu xislatlar uquvchining kelgusida o‘z-o‘zini nazorat qilishga, o‘z-o‘zini baholashga va mustaqil ta’lim olishga asos bo‘lish kerak.

## Takrorlash uchun savollar.

1. O’quv faoliyati va uning elementlari nimalardan iborat?
2. Ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish nimaga bog’liq?
3. O’qish motivlari va motivatsiyaga izoh bering.
4. O’quv faoliyati motivatsiyasining manbalariga nimalar kiradi?
5. Bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni va uning psixologik komponentlari nimalardan iborat?
6. Ta’lim faoliyatiga ko‘ra ta’limning qanday metodlarini bilasiz?

7. Ko‘nikma va malakalar ta’lim jarayonida qanday shakllantiriladi?

8. O’quv faoliyatini boshqarish deganda nimani tushunasiz?

## 17-mavzu: TARBIYA PSIXOLOGIYASI

**Ma’ruza mashg`uloti rejasi**

1. Tarbiyaviy texnologiyalarning psixologik aspektlari.
2. Turli yosh bosqichlarida tarbiya xususiyatlari.
3. Shaxsh shakllanishiga oilaning ta’siri.
4. Shaxs tarbiyasida madaniyat.

**Darsning maqsadi:**

Talabalarga tarbiya tushunchasining mohiyatini, uning shaxs kamolotidagi o’rnini, tarbiya usullari va vositalari haqidagi ma’lumotlarni jamiyat holati va kelgusidagi rivojlanishga tarbiya maqsadining bog’liqligini tushuntirish. Talabalarda tarbiya usullarini egallash va ulardan oqilona foydalana olish malakalarini shakllantirish.

Tarbiya jarayonining psixologik mohiyati, maqsad va vazifalari

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham davr talabiga munosib bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash muammosihamisha dolzarb ahamiyatga molik bo’lib kelgan.

Tarbiya - bu shaxsning IJTIMOIY, ma’naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga |tasvirlash maqsadida uning ma’naviy jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta’sir ko’rsatish jarayonidir.

Tarbiya tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror axloqiy hislat va hulqiy fazilatlarni tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga aniq maqsad yo’lida tarbiyaviy ta’sir etish jarayonidir.

Tarbiya - bolaning ijtimoiy muxitda o’z o’rnini topishni o’rganishihamda insonning hayotiy ko’nikma va malakalarga ega bo’lishidir.Ta’lim jarayonining markazida shaxsning bilish va anglash jarayoni, uning qobiliyati, ilm o’rganishi yotsa, undan farqli o’laroq tarbiya insonni shaxs sifatida shakllanishiga, uning

dunyoqarashi va jamiyatga munosabatiga qaratiladi. Tarbiya - bu aloxida jarayon emas, balki o'qitishning bir tomoni bo'lib, u bilan umumiy va farqli tomonlarga egadir. Bilim berish va tarbiyaga, asosan, insonning ijtimoiy ko'nikma olish mexanizmining o'ziga xos jihatlarini kiritish mumkin. Tarbiya jarayonida shaxsning sifat va xossasi, ijtimoiy xulq-atvori va shakllari nazarda tutilsa, o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalar inobatga olinadi.

Tarbiya jarayonining ilmiy asoslari bilan, psixologiyadan tashqari falsafa, sotsiologiya va pedagogika fanlari shug'ullanadi. Holbuki, psixologiya fanisiz tarbiyaning asosiy muammolari hal qilinib bo'lmagan holda to'g'ri qo'yilishiham mumkin emas, Chunki ularni anglash negizida shaxs psixologiyasi, insoniy munosabatlar,har xil ijtimoiy jamoalar psixologiyasini bilish yotadi. Barcha uchun umumiy bo'lgan yoki o'quvchilarga individual tavsiyalar berishda umumiy psixologiya va yosh davrlar psixologiyasiga tayaniladi.

Tarbiya uning maqsadlarini aniqlashdan boshlanadi.

Tarbiyaning bosh vazifasi - jamiyat hayotida zarur bo'lgan kerakli sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Tarbiya jarayonida doimiy va o'zgarmas maqsad qo'yilmaydi, Chunki o'zgarmas maqsadharqanday jamiyatga ham mos bo'lavermaydi. Jamiyat tuzilishi va ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi o'zgaradi.

Tarbiya turli xil davrlarda va turli xil jamiyatlarda o'zgarmas jarayon bo'lib qolmaydi. Tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, shakl va metodlari har bir tarixiy davrda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Inson shaxsini shakllantirish bo'yicha har bir ijtimoiy tizim yo'nalishiga mos ravishda talablar qo'yiladi. Tarbiyaning barcha tarixiy davrlar uchun xos bo'lgan ba'zi bir umumiy belgilari ham mavjud. Pedagogik g'oyalar va tarbiyaviy ishni rivojlantirishda muayyan darajadagi aloqa va ma'lum bir davomiylik mavjud. Jumladan, asrlar davomida dars maktabda O'quvmashgulotlarini tashqil etishning asosiy shakli bo'lib keldi va shunday bo'lib qolmoqda. Qator O'quvpredmetlari mazmuni ma'lum darajada saqlanib qolayapti. Ayni chog'da tarbiyada va ta'lim berishda g'oyaviy jihatdan betaraf qoladigan jihatlar borligini ham unutmaslik lozim. Tarbiya va ta'limning

tashqiliy shakllarini aniq; to'ldirish, maktab ishining u yoki bu masalalarini izoxlashda turli davrlarda turlicha yondashuvlar mavjud bo'lgan.

Agar jamiyat o'z taraqqiyot davrida ma'lum bir rivojlanishga, madaniyatga va ma'naviyatga erishgan bo'lsa va uni saqlab qolishnihamda yo'lsaltirishni istasa, uning tarixida turli xil o'zgarishlar ro'y berishidan qat'iy nazar, u o'tmishdan beri saqlanib kelayotgan eng yaxshi an'ana va qadriyatlarini qabul qilishi, davom ettirishi lozim bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlar va madaniy boyliklar tarixiy va hududiy chegara va hududiy chegara bilmaydigan boyliklar qatoriga kiradi. Birinchi navbatda xuddi ular ijtimoiy tarixning barcha bosqichlarida tarbiya maqsadlarini ifodalaydi. Bu maqsadlar yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va tartiblilik, insoniylik va tabiatga bo'lgan muxabbat tushunchalari bilan bog'liqdir. Bu yana ruxiyat, erkinlik, shaxsning o'zi va atrofida ro'y berayotgan voqealarga javobgarlikni xis qilishi, kamtarlik, insoniylik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Ruxiyat yuqori axloqiy tafakkurning bir daqiqalik mayl va ehtiyojlardan yuqori qo'yilishini bildiradi. O'sib kelayotgan va rivojlanayotgan shaxsda bu doimiy ravishda axloqiy barkamollikka intilishda namoyon bo'ladi. Erkinlik bu insonning ichki va tashqi ozodlikka intilishidir, bunda boshqa shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi, millati, diniy va siyosiy qarashlari, sinfiy munosabatlari va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar, uning huquqlari albatta to'la to'kis tan olinishi lozimdir.

Majburiyat Yokijavobgarlikni xis qilish - erkinlikning qarama-qarshi jihati bo'lib, bu shaxsning manfaatlariga xizmat qiladi. Majburiyatsiz erkinlik - bu o'zboshimchalik, palapartishlik hisoblanadi. Erkinliksiz majburiyat esa - bu qullikdir. Erkinlik va majburiyat o'zaro bir-birini to'ldirilganda Yokibog'langanda mustaqillik mavjud bo'lishi mumkin. Majburiyatni yana boshqacha talqin qilinsa, insonning o'z ixtiyori bilan jamiyat hayoti va boshqa insonlar taqdiri uchun javobgarlikni o'z ustiga olishi tushuniladi.Hozirgi zamon tarbiyasining umumiy maqsadi bolani yuksak axloqli, ruxiy jihatdan boy,qalban ozod, erkin, burch va majburiyatni xis qila oladigan shaxs sifatida shakllantira olishdir. Tarbiyaning umumiy maqsadi bilan bir qatorda maxsus ijtimoiy maqsadlari ham kelib

chiqishi mumkin. Ular tarixning ma'lum davrida o'zgaruvchan talablar bilan jamiyat taraqqiyotining dolzarb muammolarini bayon etishi va rivojlanishiga xissa kushishi lozim. Ma'lum vaktdan sung jamiyat taraqqiyoti o'zining ma'lum bir bosqichidan  keyin rivojlanish yana davom etadi va talablar ham o'zgaradi. Tarbiyaning maqsad va vazifalaridan biri bu jamiyat taraqqiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichlariga javob bera oladigan maxsus tashabbuskor o'quvchilarnietishtirish, shaxsni o'z-o'zini xo'rmat qiladigan va intiluvchan qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Yuksak tafakkur namoyondalarining, xususan faylasuflarning risolalaridahamda badiiy adabiyotning yirik vakillari asarlarida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy ta'limotlarga, ayniqsa, keng o'rin berilgan. SHuni aloxida ta'kidlash lozimki, o'tmishda axloqshunoslik soxasida ijod qilib, shu fan taraqqiyotiga salmoqli xissa qo'shgan mutafakkirlarimiz talaygina.

Abu Nasr Farobiy bolalarni axloqli, nazokatli qilib tarbiyalashda musiqa bilimining axamiyati xaqida bunday deydi: "Bu fan shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'lotgan bo'lsa, u tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga etkazadi va muvozanatli bo'lganlarni muvozanatini o'zoq muddatga saklaydi. Musiqa ruxni davolaydi, uning sozlarining ta'siri bilan ruxiy quvvatlar o'z substansiyasiga uygunlashadi va tartibga, muvozanatga keladi".

Farobiy o'zining "Iso-al-ulum" kitobining oxirgi bo'limida: "Inson aqli faqat bilim bilan cheklanmaydi, balki odat va qarashlarni o'zining maqsadlariga buysundira olishi va yunaltirishi, o'zgartirishiham mumkin," -deb yozadi. Uning fikricha,har bir kishi bilimlarni yaxshi egallamogi, yaxshi va barkamol tarbiya olmogi, eng yaxshi fazilatlarga ega bo'lmogi kerak. Farobiy fikricha, kishidagi tub goya - saodatdir. Tarbiya vositasi bilan bolalarda hosil qilinadigan barcha insoniy, axloqiy fazilatlar shunga qaratilmog'i  kerak.

Tarbiyaviy ta'sirning psixologik asoslari.

Insonning tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yokiboshqacha qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlarihamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va

o’zgarishidir. Bundan tashqari inson shaxsining tarkib topishiga ta’sir qiluvchi yana bir kuchli omil - inson orttirgan tajribalarining tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. SHunday qilib, inson shaxsi juda murakkabpsixologik kategoriya bo’lib, u kishining individual hayoti davomida ma’lum qonkret omillarning ta’siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta’sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi, odam tug’ilib o’sadigan tashqi ijtimoiy muxitning ta’siri bo’lsa, ikkinchisi, odamga o’zoq muddat davomida sistemali ravishda beriladigan ijtimoiy ta’lim- tarbiyaning ta’siridir va nixoyat, uchinchisi odamga nasliy yo’l bilan beriladigan irsiy omillarning ta’siridir.

Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muxit va tarbiyaning roli xal etuvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o’tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorgaham bog’liqdir. Bu faktor nasliy yo’l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta’siridir. Masalan: tanasining tuzilishi, sochi va ko’zlarining gapgi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim xarakatlari tug’ma ravishda berilishi mumkin. Lekin, shuni xech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga x,ech vakt uning psixik xususiyatlari, ya’ni uning aqliy tomonlari bilan boglik bo’lgan sifatlari nasliy yo’l bilan berilmaydi. Nixoyat, nodir xollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqiy matematik qobiliyatlar nasliy yo’l bilan berilishi mumkin. Bunday imqoniyatlarning amalga oshirilishi, ya’ni ro’yobga chiqishi uchun albatta, ma’lum sharoit bo’lishi kerak.

Xozirgi kunda xalqimiz orasidan etishib chiqqan iste’dodli olimlar, muhandis-ixtirochilar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblari, iste’dodli artistlar, rassomlar va boshqa kishilarimizga nasliy yo’l bilan berilgan barcha imqoniyatlarning ro’yobga chiqishi uchun har qanday sharoit maydonga kelganligini dalili bo’la oladi.



Birinchisi - boshqaruv tizimi

Ikkinchisi -stimullashtirish tizimi

Uchinchisi - stabilizatsiyalash tizimi

To’rtinchisi - indikatsiyalash tizimi

Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti- xarakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma’lum rolni bajaruvchi vaharbiri murakkab ko’rilmadan iborat bo’lgan hamda shartli ravishda to’rtta o’zaro mustaxkam boglangan funksional bosqichlarga birlashtiriladi:

Shaxsning ana shu ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan barcha sifatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi shaxsning xulq-atvori va xatti-xarakatlarini belgilaydi.

Birinchi tizimning hosil bo’lishida analizatorlar o’rtasidagi doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mexanizmlar katta ro’lo’ynaydi. Biroq, bu ilgari yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek ontogenez jarayonida filogenetik analizatorlar o’rtasidagi aloqa vaktli aloqalar bilan organiq jihatdan kushilib keladilar. Bunda mazko’r tizimning ichida perseptiv tizimga o’tib ketadigan yuksak darajada integratsiyalangan ma’lum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko’rishhamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarninghammasi odamning xayot-faoliyati jarayonida o’zaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensor-perseptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratadi. Insonning sensor-perseptiv jihatlari doimo takomillashib boradi.

Ikkinchi tizim barqaror psixik xolatlarni o’z ichiga oladi. Bu xolatlar bolaning aniq maqsadni ko’zlovchi va foydali faoliyatining ongli sub’ekta sifatida boshlagan xarakat- larining dastlabki yillaridayoq shakllana boshlaydi. Tempera-ment, intellekt, bilim va munosabat ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.

Uchinchi tizim - shaxsni arbob sifatida stabilizatsiya tizimidir. Yunaltirilganlik, qobiliyat, mustaqillik va xarakter uning tarkibiy qismini tashqil etadi.

Yo’naltirilganlik - shaxsning integral va generalizatsiya qilingan xususiyatidir.

Yo’naltirilganlik bilim, munosabatlarninghamda shaxsning xulq-atvori va xatti-xarakatlarida ijtimoiy axamiyat etakchilik qilgan motivlarning bir butun ekanligida o’z ifodasini topadi. Bu xususiyat odamning dunyoqarashi, qiziqishlari va ma’naviy extiyojlarida namoyon bo’ladi.

Yo’naltirilganlik strukbo’lasida g’oyaviy e’tiqod katta ro’lo’ynaydi. G’oyaviy e’tiqod - bu bilimning, o’sha shaxsga xos bo’lgan intellektual, emotsional va iroda sifatlarining sintezi, goyalar va xatti-xarakatlar bir butunligining negizidir.

To’rtinchi tizim o’z ichiga shunday xususiyatlar, munosabatlar va xatti-xarakatlarni oladiki, ularda real shaxslarning ijtimoiy «uy fikrlari va xis-tuygulari» aks ettiriladi. Ular bu shaxslarning siyosiy jihatdan ongli, ijtimoiy taraqqiyotning mas’ul arboblari sifatida xulq-atvorini belgilab beradi. Bunga gumanizm, optimizm va mexnatsevarlik fazilatlari kiradi.

Shaxs shakllanishida u yashayotgan muxit, kishilar, jamiyatning roli juda kattadir. Masalan, biron maxallada inson shaxsining tarkib topishiga faol ta’sir ko’rsatuvchi yo’zta o’ziga xos ijtimoiy muxit bor degan ma’noni bildiradi. Bu erda shunday bir savol tug’iladi: «Tashqi muxit inson shaxsining tarkib topishiga qanday ta’sir qiladi?»

Birinchidan, ijtimoiy muxitdagi turli xodisalar odamning ongiga bevosita ta’sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi

Ikkinchidan, tashqi ijtimoiy muxit ta'sirining chuqurrok va mustaxkamrok bo'lishiga odamning o'zi yordam beradi. Ma'lumki, bolalar o'z tabiatlariga ko'ra, ilk yoshlik choglaridan boshlab, nixoyat darajada taqlidchan bo'ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha xatti-xarakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu xatti-xarakatlarni, yaxshi-yomon fazilatlarni o'zlariga singdirib boradilar. Bolalar oilada, kucha - qo'yda, katta odamlarningharbir xarakatlarini, o'zaro munosabatlarini zimdan ko'zatib turadilar.

Inson shaxsining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muxitning roli xaqida gap borar ekan, shuniham ta'kidlab o'tish zarurki, ayrim gayri tabiiy xodisalar inson shaxsining tarkib topishida tashqi muxit ta'sirining xal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini to'la tasdiklaydi. Biz ayrim tasodifiy xollarda odam bolalarining yovvoyi xayvonlar muxitiga tushib qolish xodisasini nazarda tutayapmiz. Hayotda bunday xodisalar juda siyrak bo'lsahamharxolda uchrab bo'ladi. Masalan, Hindistonlik doktor Sing Kalьkutta yaqinidagi o'rmonzorda buri bolalari bilan birga ikkita odam bolasiningham to'rt oyoklab yugurib yurganini ko'rib qoladi. Keyin ularni poylab, karorgoxlarini topib, bolalarni olib ketadi. Ulardan biriga Amala, ikkinchisiga Kamala deb nom qo'yadi. SHu narsa xarakterliki, bolalar yoshlikdan buri- lar muxitiga tushib qolganliklari tufayli, fe'l-atvorlari, xatti-xarakatlari jihatidan burilardan farq kilmas edilar. Nutq yo'l, demak tafakkurham nixoyat darajada cheklangan edi. Juda katta kiyinchiliklar bilan qayta tarbiyalanilayotgan buri muxitidagi bolalar shamollash natijasida o'lib qoladilar. Bu xodisa odamning shaxs sifatida rivojlanishi uchun eng avval insoniy muxit, ya'ni ijtimoiy muxit bo'lishi kerakligini to'la tasdiklaydi. Shaxs va uning psixologiyasiga ta'sir etuvchi ikkinchi omil ta'lim- tarbiyaning ta'siridir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya inson ongini shakllantiradi, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, xayotga bo'lgan munosabatini tarkib toptiradi. Agar bolalarning ruxiy taraqqiyotlari va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi faqat tashqi ijtimoiy muxit bilan, ta'lim-tarbiyaning o'zigagina boglik bo'lganda edi, unday paytda biz bir xilda sun'iy va aynan bir xil ta'lim-tarbiya sistemasini tashqil qilib,har tomondan bab-baravar taraqqiyetgan va deyarli bir xil shaxsiy xususiyatlarga ega

shaxslarni etishtirib chiqarar edik. Vaxolanki, bunday bo'lishi mumkin emas. SHuni aytib o'tish kerakki, bola shaxsining tarkib topishiga ta'lim-tarbiyaning ta'siri deganda, albatta, birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, ya'ni bog`gha, maktab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan ta'lim-tarbiya tushuniladi. Biroq, bundan oilada bolaga beriladigan ta'lim-tarbiya mutlaqo mustasno emas. Oiladagi umumiy ijtimoiy muxitdan tashqari, oilada beriladigan ta'lim-tarbiyaningham roli kattadir. Bola tarbiyasi bilan sistemali shugullanadigan va umuman shugullanmaydigan oilalarga misollar keltirish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan ikkita omildan tashqari uchinchi omilham mavjudki - bu nasliy xususiyatlardir. Odamga nimalar nasliy beriladi? Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan, tana tuzilishi, sochi va ko'zlarining gapgi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim xarakatlari tug'ma berilishi mumkin. Pekin shuni xech kachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga xech vakt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan boglik bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan, ya'ni tug'ma ravishda berilmaydi. Nixoyatda nodir xollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematik qobiliyatlar nasliy yo'l bilan berilishi mumkin.

Odamning ruxiy taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi xaqida gapirar ekanmiz, yana bir muhimnarsa ustida tuxtab o'tish kerak. Hozirgi kunda tez-tez akseleratsiya terminini ishlatayapmiz. Xush akseleratsiya bu nima? Akseleratsiya - «tezlatish» degan ma'noni anglatadi. Hozirgi kunda bolalarniham jismoniy,ham ruxiy jihatdan juda jadallik bilan rivojlanayotganlik-larining guvoxi bo'lib to'ribmiz. Xush, buning sababi nima bo'lishi mumkin? Albatta, bunga turli fikrlar bor. Ayrim olimlar akseleratsiyaning sababini ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan boglab tushuntirishga intilmoqdalar. Ularning fikricha, ilmiy- texnikaning juda jadal temp bilan rivojlanishi insoniyatning oldiga mislsiz ko'p axborotlarni idrok qilish va fikrda qayta ishlash talablarini qo'yadi. Bu talab o'z navbatida insonnihartomonlama, ya'niham jismoniy,ham psixik jihatdan tez rivojlanishiga olib keldi. Yuqoridaaytib o'tilgan olimlarning fikricha, akseleratsiya - bu XX asrning ikkinchi yarmiga xos bo'lgan xodisadir.

Tarbiyali bo’lish - bu xulq-atvorini nazorat qilishdan iboratdir. Bunday nazorat insonga yomon xatti-xarakatlarni bajarmaslik imqoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi xaqida qayg’ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo’ladi.

Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o’rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi. Bola o’zini egotsentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday ragbatlantirilishi kerak? Tarbiya o’z moxiyatiga ko’ra ijtimoiy jihatdan ijobiy extiyojlarni hosil qilishidir. Agar ta’lim shaxsning ongini shakllantirish bo’lsa, tarbiya uning ongsizlik soxasiga ta’sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga xissiy yaqinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga gamxo’rlik qiladigan ota-onasiga boglanib qoladilar. Ota-onaning oldida, ular bilan mulokotda bo’lish bolalarga juda yokadi, ularning yo’lligi bolaga yoqmaydi. Ota-onaning gamxo’rligini bildiradigan so’zlar, xatti-xarakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo’ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvi xuddi shu o’rganish jarayoni sodir bo’lishi mumkin: xulq- atvorning istalgan shakllari gamxo’rlik va e’tibor bilan taqdirlanadikutilmaganshakllari esa qullab-quvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorni ragbatlantirish va yomon xulq-atvor uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichikbir qismidir. Biz ko’rib chiqqan xulq-atvorhamma bolalargaham taalluqli emas

Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an’ana va urf-odatlarning roli katta. Xalq urf-odatlari, an’analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, dustlik-birodarlik xis-tuygularini rivojlantiradi. Bo’lar o’z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini utaydi.

Tarbiya jarayonida gamxo’rlikning funksiya si kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan gamxo’r ota-onaga ko’proq taqlid qiladilar. Gamxo’r ota-onalar bolaning salbiy xulq- atvorini qullab-quvvatlamaganda, bola o’z xatti-xarakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi.

Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda gamxo’rlik bilan bir qatorda yaxshi ko’rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy

mulokotni, tushuntirishni, •muxokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab kilsa, ogzaki tanbex berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Bola shaxsi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini uning ilk davrlardagi rivojlanishini aniqlamasdan to'rib tushunish kiyin. Axloqiy rivojlanish ilk bor shaxsning umumiy xususiyatlari va xislatlari shakli da shakllanishi xaqidagi goyalar ilk bor X.Xartshorn va M.Meylar tomonidan ilgari so'rilgan bo'lib, ularning fikricha, axloqiy xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi va faoliyatga undovchi fenomenlar aniqlanmaguncha axloqiy rivojlanishni o'rganib bo'lmaydi. X.Xartshorn va M.Meylar olib borgan tadqiqotlarinng asosiy maqsadi axloq normalariga rioya qilishda bola shaxsining umumlashgan xislatlarini shakllantirish muhimro'lo'ynaydimi Yokixususiy axloqiy odatlar axamiyatlirokmi, degan savolga javob topish bo'lib, tadqiqotlardan shu narsa aniqlanadiki, axloqiy normalarni bola ongiga singdirilishida xususiy odatlarni yo'zaga keltirish va o'ziga xos ta'lim nazariyasiga asoslanish ustunligi yaqqol namoyon bo'ladi.

O'quvchilar tomonidan ba'zi bir axloqiy tushunchalar va tasavvurlarning o'zlashtirilishi va ularning bola shaxsiga bo'lgan ta'sirini psixologik nuktai nazardan o'rgangan V.A.Krutetskiy o'z tadqiqotida 10 ta asosiy tushunchani tanlab oladi. Bo'lar: qat'iylik, sezgirlik, faxrlanish, xakguylik, mardlik, bir so'zlilik, kamsukumlik, ko'rkmaslik, faxrlanish, burch kabilardir. Olim utkazgan tadqiqotidan shunday xulosaga keladiki, o'quvchilar ushbu tushunchalarni mukammal tushunishlari va xayotga tadbiq etishlari uchun:

- o'quvchilar faolligini oshirish;
- ularda emotsional ko'zg'a lishni vujudga keltirish;
- hayotiy faoliyatdan keng foydalanish;
- bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarni chukur taxlil qilish zarur ekan.

o'quvchilarda o'z-o'zini anglashda shaxs axloqiy xislarining ba'zi bir jihatlari masalari P.I.Razmislov, jamoa oldida burchni rivojlantirish xususiyatlari A.L.Shnirman, burch xissini tushunish muammolari A.S.Alyakrinskaya, axloqiy jihatdan o'zini aniqlash muammolari V.I.SHardakovlar tomonidan o'rganilgan.

Bolalik va maktab yoshida shaxs tarbiyaning xal qiluvchi ta’siri ostida tarkib topadi. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida muayyan dasturning, anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan ta’sir ko’rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asoslab berilgan vositalari, shakllarihamda metodlarining tasodifiy Yokistixiyali ta’sirlaridan ajralib bo’ladi. Ma’lumki, tarbiyaning eng muhimvazifasi yosh avlodda mustaxkam e’tiqod va xis- tuygularhamda ularga asoslangan ma’naviy xulq- atvorni hosil qilishdir. Bu vazifani shaxsni faol va muayyan maqsadni ko’zlagan xolda,Shuningdek bolaning individual xususiyatlarini xisobga olgan taqdirdagina xal etish mumkin.

Mashhur olim Gerbart tarbiya maqsadini belgilab olishga katta axamiyat bergan. U tarbiyaning maqsad va vazifalarini yaxshi fazilatli kishini tarkib toptirishdan iborat, deb xisoblaydi. Gerbart tarbiya ishida aqliy ta’limga tarbiyaning eng katta va asosiy vositasi deb bilib, ta’limsiz tarbiya bo’lmaydi deb xisoblagan.

Tarbiya o’zluksiz ravishda ta’lim bilan birgalikda avvalo oilada, keyinchalik ta’lim- tarbiya muassasalarida berib boriladi. SHaxsning karor topishini eng muhimvazifasi o’quvchida axloq talablariga javob beradigan e’tiqod va ideallarni tarkib toptirishdir. o’quvchi shaxsining shaklla- nishidagi jarayonda yo’zaga kelgan axloqiy e’tiqod va ideallar sistemasi, ya’ni uning ma’naviy ongi xukmronlik qiluvchi, uning ijtimoiy faolligini belgilab beruvchi omilga aylanadi.

SHaxsning ijobiy yo’nalishini tarkib toptirish uchun maktab o’quvchilarini barcha vaziyat va xolatlarda to’g’ri yo’l tutishini istashihamda to’g’ri yo’ldan borishi uchun uning nima qilishini bilishi, o’ziham to’g’ri xulq-atvorli bo’lishni mashqqilishi zarur.

O’quvchilarning ongiga singdirilgan qoidalarni yaxshilab asoslab berilishi, isbotlangan bo’lishi muhimahamiyatga ega. Bu hamma narsani tushinib olishga va buning asoslanganligiga ishonch hosil qilishga, oqilona isbotlarga rozi bo’lishga qodir bo’lgan o’smirlar va katta yoshdagi o’quvchilar uchun judamuhimdir.

O’quvchilarda maksimal faollikni yo’zaga keltirish Yokijonli ravishda fikr almashish istagini uygotish, ularning fikrini avj oldirish va o’zlarini axloq

masalalari ustida uylab ko’rishga majbur qilish zarur. o’quvchilarga tayyor haqiqatni zo’rlab qabul qildirish yaramaydi, axloq normalari xaqidagi xulosalarni chiqartirish ularning faol ishtirokida amalga oshirilishi lozim. Buning uchun suxbat jarayonida muxokamaga qo’yilishi kerak bo’lgan masalalarni oldindan tayyorlab qo’yish tavsiya etiladi.

O’quvchilarda chuqur va ta’sirchan emotsiyalarni uygotishga intilish lozim. Bunda o’qituvchi suxbatni befarq, shavk va zavksiz emas, balki emotsional tarzda jonli qilib o’tkazilgandagina erishish mumkin.O’qituvchi o’zining extirosli e’tiqodi o’quvchilarga o’tishini unutmaslik darkor.

Yuqoridaaytilgan fikrlardan o’qituvchilar va ota onalar o’zlarigahamda o’z xulq-atvorlariga nisbatan juda qattiq talablar qo’yishi, unlab bolalarning sinovchan ko’zlari, ularning ko’zatib to’rganliklarini x,ech qachon unutmasliklari kerak.

Konfutsiy: “Eskini o’zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo’la oladi” - degan edi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta’lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-xunarga o’rgatish soxalarini islox; qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladi. Bugungi kunda tarbiya jarayonidaham qator o’zgarishlar amalga oshirilmokda. SHuni ta’kidlash lozimki, ma’rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An’anaviy sharqona qarashga ko’ra, ma’rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqur ma’naviyat va go’zal axloq deganihamdir.

Bir ijtimoiy jamiyatning ikkinchisiga almashishi, Shuningdek, milliy mustaqillik va uning ne’matlari, respublikamiz fukarolarida tub o’zgarishlarni vujudga keltirmovda. Milliy tuygu, kiyofa,harakter, ta’b, qo’y, rake, ma’naviyat, qadriyathamda ruxiyat ta’siri ostida o’zining tub moxiyatini aks ettira boshladi. O’tmishning boy merosi, uning an’analari milliy istiqlol tufayli o’z egalariga qaytarib berildi. Fukarolarning ijtimoiy ongi asta-sekin o’zgarib borishi natijasida etnopsixologik xususiyatlar tiklana boshladi, milliy, umumbashariylik xislatlari o’rtasida adolatlilik, teng huquqlilik aloqalari o’rnatilmoqda.

XXI asrda shaxs shakllanishida, uning tarbiyalanganlik darajasini ortishida dinning, xususan «Xadis» ilmining axamiyati kattadir. Shaxslararo munosabatda

tenglik, gamxo'rlik, samimiylik, o'zaro yordam, simpatiya, antipatiya,hamdardlik, sevgi-muxabbat singari milliy xususiyatlarni tarkib toptirishda xadislarning roli yanada ortadi.

O'zbek oilasida tarbiya moxiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik rejasi, bolalarga ta'sir utkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega, Chunki uning asosida xalq an'analari yotadi.

Yosh avlod tarbiyasida milliy ruxiyat, umuminsoniy, xalqchil milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar etakchi o'rin tutmogi lozim (tarbiyada etnopsixologik va etnopedagogik munosabat). Bo'lar orqali yoshlarda qo'yidagi fazilatlarni tarbiyalash lozim:

a) yoshlarda vatanparvarlik xis-tuygularini shakllantirish;
b) xayrixoxlik, odamlarga xo'rmat, mexr-shafkat;
c) kattalarni xo'rmat qilish, e'zozlash;
d) muloyimlik;
e) ishbilarmonlik, mokirlik. ishchanlik, iktisodiy
f) kichikyoshdan mehnatsevarlik;
g) jismoniy baquvvatlik;
a) j) axloq-odoblilik;
b) z) oilaparvarlik;
c) ayollarga xo'rmat;
d) y) o'zaro g'amkorlikka intiluvchanlik.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, maxdlla, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquqni muxofaza qiluvchi tashqilotlar, ilmiy-pedagogik kadrlar shugullanadilar. Tarbiya jarayonida barcha ishtirokchilarning baxamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina, o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin.

Z.Utsuv jamoasining o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish

imqoniyati

Shaxsning shakllanishida ijtimoiy muxitham muhimo'rin egallaydi.Bolalar va kattalar mulokotihamdahamkorligini tadkik qilgan D.B.Elьqonin, M.I.Lisina,

Shuningdek, V.A.Suxomlinskiy kabi mashhur psixologlar va pedagoglar faoliyati shuni ko'rsatadiki, o'quvchining shaxs sifatida kamol topishi, axloqiy rivojlanishi, O'quvfaoliyatini ijodiy egallashda o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi mahsuldorhamkorlik muhim o'rin tutishi isbot qilingan.

V.YA.Lyaudis va uning shogirdlarihamkorlikdagi maxsuldor faoliyat tarkibini sharxlashga alohida e'tibor beradilar. Uning maqsadi-o'qishda o'zlashtiriladigan predmetli faoliyatninghamda birgalikdagi xarakat aktlarining, munosabatlari va mulokotning o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini ko'rish hisoblanadi. Hamkorlikdagi faoliyat predmeti o'qish faoliyatining anglangan va umumlashgan usullari va birgalikdagi faoliyatning o'zaro ta'siri va mulokot normalaridir.

Yirik psixolog B.FLomov umumiy psixologiyada qabul qilingan faoliyatni taxlil qilish sxemasini ko'rib chiqib, ushbu faoliyatni bajaruvchi individning boshqaindividlar bilanhamkorligi o'zaro ta'sirini alox,ida ta'kidlab utadi. Muallif psixologiyada o'zaro ta'sir faqat ijobiy xollardagina nazarda tutilishi, lekin uning sxemasi ochib berilmaganligini uqtiradi Uning fikricha, individual faoliyatni taxlil qilgan tadqiqotchilar faoliyat sub'ektining boshqa odamlar bilan aloqasini mavxumlashtirganlar. Biroq bu mavxumlashtirish qanchalik muhim bo'lishidan qat'iy nazar o'rganilayotgan xodisalarni bir tomonlama ochish imqoniyati to'g'risidagi fikrlar B.F.Lomov tomonidan asoslab ko'rsatilgan.

Yuksak g'oyaviy yo'nalishga ega bo'lgan, umumiy maqsad, harakatlarning bir-biriga mosligi va uyushqoqligi bilan bir butun, nikoyatda hamjihat, Sog'lomhamda muayyan maqsadni ko'zlovchi jamoani uyushtirish orqali tarbiyalash - yoshlarga tarbiya berishning asosiy tamoyillaridan biridir. Bunday yoshlar jamoasi tarbiyachining tayanch yordamchisi, tarbiyaviy ta'sirning kudratli ro'lidir.

Jamoa va yoshlarning bir-biriga boglikligi goyat darajada cheksizdir. Chunki odam shaxs sifatida tug'ilmaydi, u individ sifatida dunyoga keladi. Odamlar ya'ni ota-onalar, atrofdagi kishilar bilan bo'lgan mulokotda, o'zaro munosabatlarda shaxsga aylanadi. Bu narsa yasli yoshidagi bolalar orasida o'tkazilgan ilmiy

tadqiqotlar asosida isbotlangan. Agar katta yoshdagi odamlar bola bilan munosabatda bo'lmasalar, bola bilan "gaplashmasalar" va o'ynamasalar, u aqliy va xissiy taraqqiyot jihatdan keskin suratda orqada qolib ketadi.

Shaxs ong egasi bo'lgan odamdir, ong esa faqat tabiiy hodisalar olaminigina aks ettirib qolmay, balki u insoniyat tajribasi asosida tuplangan narsalar bilan munosabatda bo'ladigan ijtimoiy ong maxsulotlariniham aks ettiradi. Bola uyinda adabiy qahramonlarga taqlid qilishga intilishi, munozaralarda katnashishi - bo'larninghammasi maktab o'quvchisi shaxsini faolligining namoyon bo'lishidir.

Bola shaxsini tarkib topishi jamoada amalga oshadi. Bundan bola avvalo o'zi xaqida uchinchi shaxs tilidan gapiradi. Masalan: "Aqidani o'ynagisi kelyapti". Undan, ya'ni yoshlar o'z tengqurlari jamoasini o'zini ko'zguda ko'rgandek bo'ladi. O'zining yaxshi va yomon xislatlarini va jamoadoshlarning yaxshi va yomon sifatlarini bilib olish bilan birga ularga va har qanday xislatlarga ijobiy yoki salbiy munosabatni aks ettiradilar.

Yoshlarning o'ziga xos xususiyatlari turlicha bo'lishi sababli jamoaningham tashqil topishi va uning faoliyati unga boglikdir. Chunki jamoaning yo'nalishi faqat jamoada tarkib topadi. Shuning uchun jamoa o'zaro munosabatlar va jamoa faoliyat tajribasi shunchaki qat'iylikni emas, balki jamoa qat'iyligini, shunchaki kamtarlikni emas, balki jamoa kamtarligini tarkib toptiradi. Jamoa tarbiyaviy ta'sirining asosiy tomoni shundaki, u tarbiya sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

Yoshlar jamoasining asosiy vazifasi - jamoa ijtimoiy foydali faoliyatini ijtimoiy hayot va ijtimoiy axloq tajribasini yo'lga qo'yishdan iboratdir. Chunki, buning asosida shaxsda yuksak ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarga intilish xissi tarbiyalanadi, komil insonning xislatlari hosil bo'ladi.

O'smirlar, ayniqsa, katta maktab yoshidagi o'quvchilarning jamoasiga nisbatan bachkanalik va xiralik bilan vasiylik qilish yaramaydi. Ularga ancha yetuk va tajribali kishilar tomonidan ko'rsatilgan yordam, beriladigan maslaxat zarurdir, xatto katta maktab yoshidagi o'quvchilargaham katta yoshdagi dust va maslaxatchi, mexribon, g'oyaviy jihatdan chiniqqan murabbiy lozim.

Murabbiy rahbar jamoaning ahil, juda inoq jipslashgan bo'lishiga, Shuningdek uning g'oyaviy yo'nalishiga, jamoada Sog'lom fikr, tanqid va o'z-o'zini tanqid, jamoaning har bir a'zosiga nisbatan yuksak talabchanlikka ega bo'lgan jamoa bo'lishiga erishishi lozim. Agar jamoa oldiga ijtimoiy foydali va ayni vaqtda qiziqarli maqsad qo'yiladigan bo'lsa, ularda ijobiy sifatlar tarkib topishi mumkin. Qiziqarli maqsad qo'yish juda muhimdir, Chunki o'smirlar va ayniqsa kichik maktab yoshidagi bolalar bu maqsad ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lganligi uchungina unga hamisha ham qiziqavermaydilar. Tarbiyachining vazifasi va undan kelib chiqadigan mahorati biror vazifani o'quvchilarga ularni qiziqtiradigan qilib qo'ya olishida, uning ijtimoiy fikri faqat tushunarli bo'libgina qolmasdan, balki yaqin, qadrli, nimasi bilandir shaxsiy qilib tushuntira olishda ham ko'rinadi.

O'quvchi yoshlarning asosiy faoliyati - ularning o'qishi va o'quvishlaridir keyin bolani o'z-o'zini anglashining sodda shakli sifatida o'z xarakter xislatlarini anglash yo'zaga keladi. Lekin faqat yoshlar jamoasining boshqa a'zolari bilan bo'ladigan munosabatdagina bolaning o'z-o'zini anglashi jamoada o'z rolini anglash darajasigacha ko'tariladi. Boshqalar uni "yaxshi" yoki "yomon" deb baxo berishlarini tushungandan keyingina bola o'z-o'ziga baxo berishni o'rganadi. Mana shunday yo'l bilan taqlid qilish yo'zaga keladi. Avval qisqa muddatli, ba'zan tasodifiy jarayon sifatida, undan so'ng esa jamoaning yetarli darajada faol ta'sir ko'rsatishi tufayli shaxsning xislati sifatida o'z-o'zini tanqid qilish xislati yo'zaga keladi. Shuninguchun tarbiyaning muvaffaqiyatli shartlaridan biri - shaxsni "jamoada va jamoa orqali tarkib toptirishdir".

O'smir o'z tengqurlari, jamoa va faoliyatida faol ishtirok etib, jamoa manfaatlarini ko'zlab yashashiga hamda o'z xatti-xarakatlarini ana shu jamoaga bo'ysindirishga o'rganadi. o'quvchi faqat jamoada va jamoa ta'siri ostida jamoa o'zaro birdamlik munosabatlar tajribasini, ijtimoiy yo'nalishni taraqqiy ettirish, shaxs va jamiyat o'rtasidagi to'g'ri munosabatlar tajribasini egallaydi. Jamoadan tashqarida bunday sifatlarni umuman tarbiyalab bo'lmaydi. Shuningdek, tengqurlar jamoasi shaxsning barcha ijobiy sifatlarini (kamtarlik, vijdoniylik, qat'iylik, o'z-

o’zini tuta bilish va x.k.) tarkib toptirish va taraqqiyettirishga ta’sir ko’rsatadi. Jamoa yalkovlik, xudbinlik, ichi koralik, ko’rkoklik, o’z-o’zini tuta bilmaslik, ikki yo’zlamachilikni fosh qilib tashlaydi. Muvaffakiyatsizlikdan gangib kolmaslikka kumaklashadi, o’zini yo’lotib qo’yish, tushkunlik va o’ziga bo’lgan ishonchni yo’lotishga yo’l qo’ymaydi, ya’ni yoshlar o’z tengqurlari jamoasini o’zini ko’zguda ko’rgandek bo’ladi. O’zining yaxshi va yomon xislatlarini va jamoadoshlarning yaxshi va yomon sifatlarini bilib olish bilan birga ularga va har qanday xislatlarga ijobiy yoki salbiy munosabatni aks ettiradilar.

Yoshlarning o’ziga xos xususiyatlari turlicha bo’lishi sababli jamoaningham tashqil topishi va uning faoliyati unga boglikdir. Chunki jamoaning yo’nalishi faqat jamoada tarkib topadi. Shuning uchun jamoa o’zaro munosabatlar va jamoa faoliyat tajribasi shunchaki qat’iylikni emas, balki jamoa qat’iyligini, shunchaki kamtarlikni emas, balki jamoa kamtarligini tarkib toptiradi. Jamoa tarbiyaviy ta’sirining asosiy tomoni shundaki, u tarbiya sub’ekti sifatida namoyon bo’ladi.

Yoshlar jamoasining asosiy vazifasi - jamoa ijtimoiy foydali faoliyatini ijtimoiy hayot va ijtimoiy axloq tajribasini yo’lga qo’yishdan iboratdir. Chunki, buning asosida shaxsda yuksak ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan maqsadlarga intilish xissi tarbiyalanadi, komil insonning xislatlari hosil bo’ladi.

## 18-mavzu: O’QITUVCHI PSIXOLOGIYASI

Mashg`ulot shakli Obzorli-ma’ruza tushunib olish, esda qolishi kerek bo`lgan bilimlar zahirasini talabalarga ilmiy ma’lumotlarni bayon etish va tushuntirishga qaratilgan.

**Ma’ruza mashg`uloti rejasi**

1. Pedagog faoliyatida psixologiyaning o’rni.
2. Pedagogik muloqot.
3. Pedagogik o’zaro harakatlar psixologiyasi.
4. Pedagogik qobiliyatlar.
5. Pedagogik faoliyatning individual uslubi.

6.Pedagog bilan psixolog faoliyatining modeli.

**Darsning maqsadi:**

Talabalarni ta'lim jarayonida o'qituvchining shaxsiga, kasbiy bilimdonligiga qo'yiladigan mezon va talablar bilan tanishtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'qituvchi va o'quvchi hamkorligining o'rnini anglatish. Talabalarning pedagogic faloliya sub'yekti bo`lgan o`qituvchi shaxsiga xos psihologik hususiyatlar,ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir etuvch I omillar to`g`risidagi bilimlarni rivojlantirish.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiq etish jarayonida o`qituvchining yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishida jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi.

O`qituvchining o`rni va uning vazifalari o`sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash ishiga jamiyat va jamoatchilik tomonidan e'tibor qaralishining naqadar muhim ahamiyatga egaligi bilan aniqlanadi.

"…O`qituvchi,- deydi **AL FOROBIY, -** aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo`lishi va o`quvchilarga aytmoqchi bo`lgan fikrlarini to`la va aniq ifodalat olishni bilmog`i zarur". U o`z fikrini davom ettirib: "o`qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o`xshaydi, shu sababli o`qituvchi eshitgan va ko`rganlarining barchasini eslab qolishi, o`quvchilarga aytmoqchi bo`lgan fikrlarini chiroyli ifodalab berishni bilmog`i, shu bilan birga o`z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo`lmog`i lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo`ladi va baxt cho`qqisiga erishadi",- deb ta'kidlaydi.

Ulug` shoirimiz Alisher Navoiy ham o'qituvchi mehnatini baholab: "Agar shogird podsholikka erishsa ham, unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi",

"Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,

Aylamak emas oson oning haqqin yo'z ganj ila", - kabi satrlar bitgan.

Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi.

O`qituvchi – sinfdagi o`qu jarayoni tashqilotchisidir. Ko`pchilik o`qituvchilar sinf rahbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashqilotchilari bo`lib hisoblanadi.

Zamonaviy o`qituvchi ijtimoiy psiholog bo`lmasligi mumkin emas. Chunki u o`qituvchilar o`rtasidagi o`zaro ijobiy munosabatlarni yo`lga sola olishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir.

Ma’lumki pedagogik faoliyat – kishi mehnatining eng murakkab sohalaridan biridir.

O`qituvchi jamiyat tomonidan qo`yilgan talablar bilan birga qatorda o`z faoliyatida, tevarak – atrofidagi kishilar, maktab ma’muriyati, hamkasblari, o`quvchilar va ularning ota – onalari undan nimalarni kutishini ham sedan chiqarmasligi lozim.

O`qituvchining o`z ishidan nimanidir kutayotganligini bilishining o`ziyoq muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o`qituvchiga qo`yiladigan talablarga mos kelsa-da, o`ziga hos xususiyatlarga ega bo`ladi. Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir – biriga mos kelmasligi  mumkin. Psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ko`rsatishicha, xalq ta’limi bo`limlari va maktab direktorlari o`qituvchining ayrim hislatlari naqadar muhimligini har hil baholaydilar. Jumladan, xalq ta’limi bo`limlarining mudirlari o`qituvchidan birinchi navbatda o`z fanini yaxshi bilishini va dars berish metodikasini mukammal o`zlashtirishini talab qilsalar, maktab direktorlari o`qituvchiga qo`yiladigan bunday talablarni  uchinchi o`ringa qo`yadilar. Shu bilan birga xalq ta’limi bo`limlarining mudirlari o`qituvchilarning o`quvchilar va ota – onalar, maktab jamoasi bilan qanday muloqotda bo`lishni bilishini naqadar ahamiyatga ega ekanligiga unchalik e’tibor bermaydilar. Maktab direktorlari esa, bunday hislatlarni o`qituvchi shaxsiga qo`yiladigan talablar ichida birinchi o`ringa qo`yadilar.

Pedagogga qo`yiladigan asosiy, bosh va o`zgarmas talablar bolalarga bo`lgan mehr, pedagogic faoliyat, o`zi ishlaydigan soha bo`yicha maxsus bilim, keng fikrlay olish, pedagogik intuitsiya, yuqori saviyada rivojlangan tafakkurga, chuqur bilimga, madaniyat va yaxshi hulqga ega bo`lish, bolalarni o`qitish va tarbiyalashning turkli uslublaridan mohirona foydalan olishni bilishdan iborat.

Yuqorida keltirilgan hislatlarning birortasisiz muvaffaqiyat bilan pedagogik ish olib boorish mumkin emas.

Pedagog uchun qo`shimcha, lekin nisbatan turg`un talablar qatoriga kirishuvchanlik, artistlik, shodon hulq, yaxshi did – farosat va boshqalarni kiritish mumkin. Bu hususiyatlar eng asosiy o`rinda turmasa-da, ammo o`qituvchi faoliyati uchun katta yordam beradi.

Jamiyatning o`qituvchilik kasbiga qo`yadigan asosiy talablarni quyidagichadir:

- shaxsni ma’naviy va ma’rifiy tomondan tarbiyalashning, milly uyg`onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini, bolalarni mustaqillik g`oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashni bilishi, o`z Vatani, nabiatga va oilasiga bo`lgan muhabbati;
- keng bilim saviyasiga ega bo`lishi, turli bilimlardan habardor bo`lishi;
- yosh, pedagogik – psixologiya, ijtimoiy psixologiya va pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda maktab gigiyenasidan chuqur bilimlarga ega bo`lishi;
- o`zi dars beradigan fan bo`yicha mustahkam bilimga ega bo`lib, o`z kasbi, sohasida jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklardan habardor bo`lishi;
- ta’lim va tarbiya metodikasini egallashi;
- o`z ishigaijodiy yondoshishi;
- bola psixik taraqqiyotini, uning ichki dunyosini tushuna olishi;
- pedagogik texnikani (mantiq, yutuq, ta’limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo`lishi;
- o`qituvchining o`z bilim va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi;

**O`qituvchining eng muhim shaxshiy**

**O`z yurti, ona tili, o`z xalqining tarixi va uning madaniyatini sevishi, davlatning**

**O`qituvchining o`z Vataniga sodiqligi, bolalarni sevishi, ularni insonparvarlik ruxida**

**Olijanobligi, aql-farosatli, ma'naviy pok, ma'naviyat va ma'rifat bo`yicha yuksak**

**Ijtimoiy javobgarlikni yuksak darajada his etishi**

**Bunday hislatlarni jamiyat hohishi bo`yicha bolalarga**

**O`zini qo`lga ola bilishi, sabr-toqatli, bardam,**

Har bir o`qituvchi ana shu talablarga eng yuqori darajada mos keladigan bo`lishga intilishi kerak.

O`z navbatida o`qituvchi va tarbiyachi shaxsiga quyidagi talablarni belgilab beradi. Bu talablarni o`z vaqtida va aniqlash uchun quyidagilarni bajarish lozim:

- **Jamiyat rivojlanishining siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy yo`nalishlarini to`g`ri baholash**
- **Jamiyat muntazam rivojlanib borishi uchun bu jamiyatda inson qanday sifatlarga ega bo`lishi kerak ekanligini aniqlab olish.**
- **O`rta ta'limni tamomlagan hozirgi zamon kishisi qanday hislatlarga ega bo`1ishi, qanday hislatlarga ega bo`lishi, qanday kamchiliklardan qutulishi kerakligini**
- **Hozirgi zamon pedagogi qanday bo`lishi lozimligi, qanday qilib jamiyatga kerakli shaxsni shakllantira olishini aniqlash.**

O`quvchini hozirgi zamon talabiga javob beradigan, erkin fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirish uchun pedagogning o`zi mustaqil fikrlovchi, yuqori saviyadagi bilimli, dunyoqarashi keng bo`lmog`i va o`zida bu xususiyatlarni muntazam rivojlantirib bormog`i lozim.

Ota – onalar o`qituvchituvchining ish staji va yoshi qanday bo`lishidan qat’iy nazar undan farzandlarini tarbiyalash va o`qitish mahoratini kutadilar. O`quvchilar esa o`qituvchilarni uch xil hislatlari bo`yicha xarakterlab beradilar. Jumladan, birinchidan, o`qituvchining odamgarchiligi, adolatliligi, sof vijdonliligi, bolalarni yaxshi ko`rish hislatlari; ikkinchidan, o`qituvchining sezgirligi talabchanligi bilan bog`liq tashqi hislatlari va hulq – atvoriga qarab; uchinchidan, o`qituvchining, o`z fanini bilishi, uni tushuntira olishi kabi ta’lim jarayoni bilan bog`liq hislatlariga qarab xarakterlab beradi.

**Asosiy adabiyotlar**


1. Амонашвили Ш.А. Обучение. Осценка. Отметка.-М., 1980
2. Ананъев Б.Г. Избранные психологические труды. В 2 т. – М., 1980. Т 2.
3. Бернс Р.В. Развитие Я-концепции и воспитание.-М.,1986. (Я концепция учителя). С. 169-224. С.302.332.
4. Братусь Б.С. Психологические аспекты нравственного развития личности. – М., 1977. С.21-64.
5. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М., 1991. (Психология и учитель: С.358-372)
6. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va pedagogic psixologiya». – T.: (ilmiy ommabop seriya). – T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1
7. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o’qituvchisining psixologiyasi. «Pedagogika va psixologiya» (ilmiy ommabop seriya). – T., Nizomiy nomidagi TDPU, 1999/1.
8. Зимная И.А. Педагогическая психология:Учебник для вузов. Изд. второе, доп., испр. и перераб. – М.: Логос, 2002. – 384 с.
9. Кан-Калик В.А. учителю о педагогическом общении. – М., 1987. С.155-176
10. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojibayeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.: sharq. 2000.
11. Кон И.С. Психология ранней юности. – М., 1989.
12. Krutetskiy V.A, Pedagogik-psixologiya, Toshkent 1976 yil

13. Vohidov M.V, Psixologiya, Toshkent 1982 yil
14. Nemov R.S. «Psixologiya».-Kn.1.-M., 1998 yil
15. Petrovskiy A.V. Psixologiya, Toshkent 1992 yl
16. Karimova V.M. «Ijtimoiy psixologiya asoslari».-T., 1994 yil
17. Goziev E. Psixologiya. T., O`qituvchi, 1994 yil
18. Baratov Sh. O`quvchi shaxsini o`rganish usullari. T., 1995 yil
19. Goziev E. Intellekt psixologiyasi. T., O`qituvchi, 1996 yil
20. Goziev E. va b. Psixologiya muammolari. T., O`qituvchi, 1996 yil
21. Goziev M. Oliy maktab psixologiyasi, T.: 1997 yil
22. Davletshin M.G., Psixologiyadan izoxli lugat. T., 1998 yil
23. Nemov R.S. Psixologiya: Uchebnik: V 3kn. Kniga 1.
24. Obhie osnovo' psixologii, M.: 1998 g.
25. Davletshin M.G., Jalilova S.X., Oliy maktabda ta'lim jarayoni samaradorligining psixologik tomonlari. T.: 2001 yil
26. Psixologiya V.Karimova. Toshkent, 2002 yil
27. Nishonova Z.T, Oliy maktab psixologiyasi, Toshkent.: 2003 yil
28. Goziev M. Umumiy psixologiya, Toshkent, 2004 yil
29. Berdiev G., Ibragimov A., Raxbar psixologiyasi, T. 2005 yil
30. Kto est kto v mire, Moskva-2005 yil
31. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Psixologiya fanlarini o`qitish metodikasi. T,2006
32. Nishonova Z., Do`stmuhammedova SH., Tulyaganova SH.,
33. Pedagogik psixologiya, Toshkent 2011 yil
34. Xolnazarova M.X. Yosh va pedagogik psixologiya, T.:2014 yil
35. Nishonova Z.T., Kamilova. N.G., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya T.:2018 yil
36. Elkonin D.B., Davidov V.V., Возрастные возможности усвоения знаний.-М: Просвещение, 1966.-442с
37. Фрейд З. Введение в психоанализ. Лекции. – М., 1991.
38. Фрейд З. Психология и защитные механизмы. – М., 1993.
39. Фромм Э. Человеческая ситуация. – М., 1995.
40. Фридман Л.М., Кулагина И.Ю. Психологический справочник учителя. – М.: Просвещение, 1991.
41. Халперн Д. Психология критического мышления. Питер. 2000, - 512 с.
42. Эриксон Э. Молодой Лютер. – М., 1996.
43. Эриксон Э. Идентичность: юность, кризис. – М., 1996.
44. Якобсон П.М. Эмоциональная жизнь школьника. – М., 1966. С.142-169.

**Qo`shimcha adabiyotlar**

1) Ibroximov A. va b.q. Vatan tuygusi.-T., 1996
2) Karimova V. va b.q. Mustaqil fikrlash.-T.,Shark, 2000
3) Abu Nosir Forobiy. Toshkent, 1994
4) Nishonova Z.T., Bolalar psixologiyasini o`qitish metodikasi, T.: 2005 yil
5) Nishonova Z.T., Eksperimental psixologiya, T.: 2006 yil

**Internet saytlari**

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. Tdpu-INTERNET.Ped
6. www.nutq.intal.uz
7. www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
8. http://ndpu.uz
9. http://pedlib.ru
10. http//uni-vologda.ac.ru
11. http://teoriya.ru
12.

**Ko'rgazmali qurollar uchun**

1. M.Raxmonova «Psixologiya darsida ko'rgazmalilik» Toshkent-1991 yil
2. M.V.Gomezo., I.A.Domashenko., Atlas po psixologii, M.: 1986 yil


## G L O S S A R I Y

***GENIALLIK*** - shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyot bilan o'zini namoyon qilish hodisasi.

***DIFFERENTSIAL PSIXOLOGIYA*** - psixologiya fanining bir qismi bo'lib, kishilar o'rtasidagi yakka psixologik farqlarni o'rganadi.

***ZEXN, LAYOQAT*** - nerv sistemasining ba'zi genetik determinlashgan anatom — fiziologik xususiyati bo'lib, bu kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki yakka tug'ma tabiiy zamini.

***KOMMUNIKATIV QOBILIYATLAR*** - shaxs qobiliyatlaridan bo’lib, bu kishining boshqa odamlar bilan bo’ladigan muloqotini yaxshilaydigan va birgalikdagi faoliyati psixologik qovushuvchanlikni ta’minlaydigan qobiliyati.

***UMUMIY ISTE’DOD*** - kishining qobiliyatlari birligi bo’lib, bu shaxsning aqliy-intellektual imqoniyatlari doirasi bilan faoliyatning o’ziga xosligi darajasini belgilab berishda shartlanadi.

***OLIGOFRENIYA*** — aqli zaiflik, psixik **funksiyalarning** taraqqiyotni ortda qoldirishi.

***Q.OBILIYATLAR*** - shaxsning ma’lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarni va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta’minlaydigan yakka psixologik xususiyatlari.

***TALANT*** — shaxsning ma’lum faoliyati ifodalanadigan qobiliyatlarning yuqori darajasi.

***FRENOLOGIYA*** - odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarning o’sganligini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin degan nazariya bo’lib, bu nazariya avstriyalik vrach F. Gall tomonidan tavsiya etilgan.

***AVTONOM NUTQ*** (bolaning antonom nutqi) - ko’p ma’no va noaniq so’zlari bilan xarakterlanadi, ichki nutq bo’lib, bunda turli predmetlarning bir-biri bilan beqaror va o’zviy bog’liqligi tufayli so’zlarning ma’nosi ham vaziyatga qarab o’zgaradi. Bolalarning avtonom nutqi kattalar nutqiga o’tish davri hisoblanadi. Avtonom nutqi teng yoshli bolalarda yaqqol namoyon bo’ladi.

***AVTORITARIZM*** (lot. to’la hokimiyat, buyurish) - buyruq. asosidagi talablarga ko’r-ko’rona, o’ylamasdan bo’ysunish. Uni avtoritet (lot. kuch, obro’) so’zi bilan almashtirmaslik kerak, negaki ushbu so’z shaxsdagi kugshilik tomonidan tan olingan fazilat, qadr-qiymat ma’nosini anglatadi.

***ADEKVATLIK*** (lot. tenglashtirilgan) -teng, o’xshash, muvofiq, munosib kelmoq.

***AKALKULIYA*** - bosh miya yarim sharlari qobig’ining shikastlanishi natijasida arifmetik masalalarni echish qobiliyatining bo’zilishi yoki umuman yo’lolishi.

***AKSELERATSIYA*** (lot. Tezlashtirmoq) – organizm rivojlanishining jadallashishi, erta jinsiy etilish.

***ALTRUIZM*** (lot. boshqa) - o'z manfaatlaridan boshqalarga holisona g'amxo'rlik qilish, yordam ko'rsatish, yaxshilik qilishni ustun qo'yish (qarama-qarshi so'z - egoizm).

***AMBINALENTLIK*** (lot. ikkala kuchga ega) - bir kishining o'zida bir ob'ektga nisbatan paydo bo'ladigan irodaviy emotsional holati (masalan, rashkda sevgi va nafrat bir vaqtda kechirilishi).

***AMORF*** (grekcha - shaklning rad etilishi) - shaklsiz, bo'zilib ketishga monand.

***ANALIZATOR*** (grekcha - qismlarga bo'lish, qismlash) -ta'sirlarni analiz va sintez qiluvchi nerv mexanizmlarining tuzilishi.

***APROBATSIYA QILISH*** (lot. ma'qullash, qabul qilish) -ma'qullash, tasdiqlash.

***ASSOTSIATSIYA*** (lot. birlashtiraman, bog'layman, qo'shaman) psixologiyada - psixika hodisalarining bog'lanishi tufayli ongimizda paydo bo'ladigan muayyan tasavvurlar: o'xshashlik yoki qarama-qarshi belgilarga ko'ra boshqa tasavvurlarni hosil qilish.

***ASSOTSIATIV EKSPERIMENT (PSIXOLOGIYA)*** - axamiyatli va neytral turtkichni o'rtaga tashlangan holda kishining psixik holati tajribalarning hosil qilingan assotsiatsiyalarni aniqlashga qaratilgan tajriba metodi.

***AQLIY HARAKATLARNI BOSQICHMA-BOSQICH SHAKLLANTIRISH (P.YA. GALPERIN)*** - insonda yangi harakat, obraz va tushunchalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali murakkab o'zgarishlar haqidagi ta'limot. U bir necha bosqichlardan iborat motivatsiyaning shakllanishi, harakatning asoslarini taxminan to'zish orqali ifoda qilish, harakatning moddiy shaklda tarkib topishi, ijtimoiylashgan kuchli tashqi nutq harakatning tashqi va ichki nutqda shakllanishi, nihoyat, oxirgi natija — interiorizatsiya — aqliy faoliyat.

***AQLIY RIVOJLANISH KOEFFITSIENTI*** (ingl. ntellekcualquotion — IQ) — aqliy yosh (AYo) va xronologik asl yosh (XAYo) orasidagi (***AYo)XAYo)*** *100 q IQ

Intellektning biror-bir esh shkalasiga suyangan holda test natijalari orqali aqdiy rivojlanishni aniqlash mumkin.

***AQLIY HATTI-HARAKAT*** - tashqi muhit va tashqi nuqta suyanmagan holdagi idrokning ichki rejalarda bajariladigan hatti-harakatlar.

***AFFEKT*** (lot. ruhiy his-hayajon) — irodaviy nazoratni yo'lotgan holda tez va kuchli paydo bo'lib, shiddat bilan o'tadigan qisqa muddatli emopional holat.

***AXAMIYATLILIK*** - biror-bir ob'ektda qoldirish bilan bog'liq bo'lgan shaxsning ehtiyoji. U barkaror va vaziyatli bo'ladi.

***BEVOSITA*** (vositali ravishda) - hodisalarning biror narsa vositasida bir-birovi bilan alokada bo'lishi.

***BELGI*** - faoliyat bilan bog'lik, bo'lgan hamda barcha tuyg'ular orqali qabul qilinadigan hodisa. Belgilar so'zli va so'zsiz bo'ladi. XX asrning 30-yillarida belgilar haqidagi fan - semiotika paydo bo'ldi.

***BIOGENETIK KSENUN*** (hayot - kelib chiqmok) - bolaning psixik taraqqiyotini, akliy qobiliyatlarni faqat nasliy xususiyatlar bilan belgilab, ong taraqqiyotini belgilab boruvchi boshqa omillarni, ijtimoiy muhit hamda ta'lim-tarbiyaning rolini inkor qilinuvchi nazariya. Uni F. Myo'ller va Gekkellar kashf etishdi.

***BIXEVIORIZM*** (ing. hulq) -Amerika psixologiyasida yo'nalish bo'lib, unda barcha psixik holatlar ongni inkor qilgan holda tashqi turtkich ta'siriga bog'liq bo'ladi deb ta'kidlaganlar.

***VEBRAL*** (lot. so'z) - so'zli, so'zdan iborat bo'ladi.

***GALLYUTSINATSIYA*** (lot. alahlash, valdirash, bosinqirash) -mavjud bo'lmagan narsalarning hayolan idrok etilishi. Miya faoliyatining bo'zilishi oqibatida sezgi organlarining (eshitish,qo'rish, hid bilish) gallyutsinatsiyalari mavjud.

***GENEZIS*** (grekcha - tug'ilmoq, vujudga kelmoq rivojlanish) - biror-bir hodisa, predmet rivojlanish jarayonining qonuniyatlarini aks ettiruvchi tushuncha.

***GENERALIZATSIYA*** (lot. umumiy, bosh) - shartli va shartsiz reflekslarning umumlashishi. Generalizatsiya hodisasida bir-biriga nimasidir bilan o'xshash qo'zg'ovchilar bir hil javob hosil qiladilar.

***GERONTO PSIXOLOGIYA*** (grekcha - qariya, ilm, fan) -organizmning qarishi bilan bog'liq bo'lgan jarayon va hodisalarni hamda qarilikning psixologik tomoilarini o'rganadigan fan.

***GEPERTIREOZ*** -qalqonsimon bezlarning kuchaytirilgan funktsiyasi.

***GIPOFIZ*** (grekcha -o'simta) - pastki miya o'simtasi. U ichki sekretsiya bezi bo'lib, hayvon va odamning bosh miya umurtqasida joylashgan. Gipofiz gormonlari organizmning ish faoliyatda muhim rol o'inaydi. Gipofiz funktsiyasining bo'zilishi organizmning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etadi, bunda gormonlarning ortib ketishi yoki kamayib ketishi ko'zatiladi. Gipofiz bo'zilishida bolalarning bo'yi o'smaydi, moddalar almashinuvi bo'ziladi, jinsiy bezlarning rivojlanishi bo'zilishi natijasida semirib ketish hollari ko'zatiladi, bola psixikasida intellektning bo'zilishi, hotiraning yomonlashishi yo'z beradi.

***"GESHTALT PSIXOLOGIYA***" (nem. shakl, struktura, yaxlitlik) — XX asrning boshlarida Germaniya, so'ngra AQSh da vujudga kelgan psixologiyaning bir yo'nalishi. Unga asosan, psixikaning boshlang'ich va asosiy hodisalari butun, yaxlit mavjudlik «geshtalt»lar hisoblanadi.

***GLOBAL*** (lot. er shari) — umumiy, borliqni qamrab oluvchi, barchaga ta'luqli.

***NOSTIK*** (grekcha - bilmoq} FAOLIYaT - butun borliqni bilishga yo'naltirilgan faoliyat.

***GORMONLAR*** (grekcha - uyg'otmoq undamoq) - ichki sekretsiya bezlari faoliyatini ta'minlab turuvchi faol biologik ashyolar.

***GRADIENT*** (lot. qadam tashlab boruvchi) — yagona o'zunlikka o'tish natijasida biror-bir fizik kattalikning moziydagi ko'payishi yoki kamayishi.

***GUMORAL*** (lot. namlik) — organizmning o'zidagi suyuqliklar bilan bog'liqligi, masalan; qon, limfalar.

***DIPERSONALIZATSIYALASH*** (lot. bo'lmoq, shaxs, yo'l qilmoq) - shaxsning bo'linishi, unda shaxsiy "men" hissining yo'l bo'lishi.

***DIQQAT*** — inson psixik faoliyatining ahamiyatga ega bo'lgan biror-bir buyum va hodisaga yo'naltirilishi va unda to'xtashi.

***DETERMINIZM*** (lot. aniqlamoq) ‒ barcha hodisalarning vujudga kelishi va mavjud bo'lishidagi umumiy qonuniyatlar bog'liqligi haqidagi ta'limot.

***DETSEREBRATSIYA*** (lot. olib tashlamoq, miya) — bu shunday metodki, unda bosh miyaning o'zakka oid qismining kesilishi natijasida oraliq miya va markaziy

nerv sistemasining yuqori qismlari pastki qismlaridan ajralib turadi. Detserebratsiya qilingan hayvonlar muvozanatni ta'minlab turuvchi reflekslarni yo'lotadilar. Detserebratsiyadan so'ng egiluvchi burinlar qisqaradi va natijada detserebratsion regidlik vujudga keladi.

***DIDAKTIKA*** (grek, o'rganuvchi) — pedagogika fanidagi ta'limning qonun va metodlarini o'rganuvchi bo'lim.

***DINAMIK*** (lot. h.arakatchan) STEREOTIP (lot. qat'iy) -shartli reflekslarning deyarli qat'iy sistemasi. Dinamik stereotip kishida muayyan malaka va odatlarni tarkib topishini ta'minlaydi.

***DETSENTRATSIYA*** (lot. qo'shimcha, rad qilish, bir erga yig'ish) — genetik epistomologiyaning asosiy tushunchalaridan biri. U egotsentrizimni rad qilib, yangi obraz, tushuncha va fikrlarni boshqa kishilar fikriga qo'shilgan holda yangitdan kashf qilishni anglatadi.

***YoSh*** — individning ma'lum, aniq vaqtda belgilangan psixik taraqqiyotining bosqichi. Ushbu bosqichlarda uning shaxe sifa-tidagi fiziologik va psixologik o'zgarishlari ko'zatiladi.

***YoSh DAVRI INQIROZLARI*** ( grekcha - burilish payti) -bir yosh davridan ikkinchi yosh davriga o'tishdagi to'qnashuvli vaziyat.

***ZEHN*** — shaxes maxsus qobiliyatlarini tarkib toptirish va rivojlantirish uchun asos bo'ladigan anatomik-fiziologik imqoniyat.

***IDENTIK*** (aynan o'xshashlik), (qadimiy lot. o'xshash, birhil) — ikkita buyum yoki hodisaning bir-biriga o'xshashligi

***IERARXIYA*** (grekcha - hokimiyat, bo'ysundirish) — elementlarni ketma-ket holda bir-biriga teng ravishda bo'ysundirish sistemasi (masalan, motivlar ierarxiyasi).

***IMPLIKATSIYA*** (lot. maxkam bog'lamoq) - "agar", "unda", "bunda" kabi bog'lovchilar yordamida ikkita murakkab gap, fikrni bir-biriga mantiqan bog'lash operatsiyasi.

***IMPULSIVLIK*** (lot. turtki, moyil) — psixologiyada tashqi, tasodifiy turtki ta'sirida harakat qilmoq

***INDUKTSIYA*** (lot. keltirib chiqaruvchi, undovchi) — asosiy nerv jarayonlari bo'lgan tormozlanish va qo'zgalish o'rtasidagi qonuniyat. U shundan iboratki, birining paydo bo'lishi ikkinchisi qarama-qarshi bo'lganining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

***INITSIATSIYA*** (lot. sirli yo'z berish) - yosh yigitni katta kishilar qatoriga qo'shish bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar.

***INTEGRAL*** (lot. butun, taxlangan) — o'zviy bog'liqliq, butunlik, birlik.

***INTERIORIZATSIYA*** (ichkiga aylanish) — ichki psixik faoliyatning tashqi amaliyot faoliyatidan kelib chiqishi.

***INTROVERSIYA*** — shaxsning o'z fikrlari, sezgisi, kechinmalari, ya'ni o'z-o'ziga tayanishi.

***INTUITSIYA*** (lot. diq.qat bilan qaramoq) - shaxsning muayyan sohadagi hayotiy yoki ilmiy

# RIVOJLANISH PSIXOLOGIYA FANIDAN TEST

**1. Hissiyotning tez va kuchli ko'zg'aluvchanligi, barkaror bo'lishi bilan fark qiladi.**

**a)** Xolerik temperament
b) sangvinik temperament
c) melanxolik temperament
d) flegmatik temperament

**2. O'quvchilarning psixologik xususiyatlarini tabiiy sharoitda maxsus usullar yordamida o'rganadi.**

a) Psixologik-pedagogik eksperiment
b) Tabiiy eksperiment
c) laboratoriya eksperimenti
d) shakllantiruvchi metodlar

**3. ...................sun'iy hosil qilingan psixologik sharoitda namoyon bo'luvchi psixik faoliyatni tahlil qiladi**

a) Eksperiment metodi.
b) Kuzatish metodi
**c)** Suhbat metodi
d) Test metodi

**4. "Individuallik"**

a) Insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi
b) Shaxsni o'rganish
c) Barchaga tegishli
d) Verbal tushuncha

**5. «Bola taraqqiyotini hech mahal o'quv maskani ta'limidan tashqaridagi soya deb hisoblash mumkin emas», - deb ta'kidlaydi............**

a) -L.S.Vigotskiy
b) Farobiy
c) Abdulla Qodiriy
d) Navoiy

**6. «Imon»**

a) arabcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'nosi ishonchdir
b) Franso'zcha so'z bo'lib tafakkur degan ma'noni bildiradi
c) Lotincha so'z bo'lib qadr degan ma'noni bildiradi
d) O'zbekcha so'z bo'lib ma'nosi to'g'ri so'z demakdir

**7. «Motivatsiya» qanday ma'noga ega ?**

a) Harakatlantiraman
b) tushuntiraman
c) O'rganaman
**d)** Bilish, anglash

**8. «psixik taraqqiyotning eng yaqin zonasi» tushunchasini fanga kim kiritgan ?**
a) L.S.Vigotskiy
b) Farobiy
c) Pavlov
d) Ibn Sino
**9. 3 yoshdagi krizis**–
a) bola shaxsining ma’lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan hatti-harakatlarni qila olmayotganligini anglash natijasi hisoblanadi.
b) Bola o’zini mustaqil harakat qila olishini anglagan vaqt
c) bolalar psixologiyasida juda tez sifat o’zgarishlarining yo’zaga kelishi
d) bola shaxsining ma’lum bir darajada rivojlanganligi
**10. 3 yoshli bola nechta shaklni idrok etishi mumkin ?**
a) 3 yoshli bola 5-6 ta shaklni idrok etishi mumkin.
b) 3 yoshli bola 2- 3 ta shaklni idrok etishi mumkin.
c) 3 yoshli bola shaklni idrok eta olmaydi.
d) 3 yoshli bola 1 ta shaklni idrok etishi mumkin.
**11. Adaptatsiya nima ?**
a) Sezgi a’zolarining qo’zg’ovchilargi moslashishidir.
b) Qo’zg’ovchi ta’siri ostida sezgilarning o’zgarishi.
c) Kuchli qo’zg’ovchilar ta’siri ostida sezgilarning zaiflashishi.
d) A’zolarning muxitga moslashishi.
**12. Afaziya - bu**
a) Nutqning bo’zilishi
b) Abstraktsiyalash
c) Klassifikatsiyalash
d) Qonkretlashtirish
**13. Affekt bu** –
a) Katta kuchga ega bo’lgan qisqa vaqtli his-tuyg’ular
b) Uncha katta kuchga ega bo’lmagan qisqa vaqtli yoki nisbatan o’zoq vaqt davom etuvchi emotsional holat
c) Kuchli, chuqur, o’zoq davom etadigan emotsional holat
d) Insonning qo’yilgan maqsadga erishishda duch kelgan qiyinchiliklarni engishi.
**14. Akmeologiya nima ?**
**a)** Yunoncha oliy nuqta, o’tkir, gullagan, etuk, eng yaxshi degan ma’noni anglatadi
b) Grekcha o’tkir, gullagan, etuk ma’nolarini bildiradi
c) Insonni o’zini yangilik yaratishga baxshida qilishligi tushuniladi
d) Grekcha yangiliklar, g’oyalar ma’nosini bildiradi
**15. Amerikalik psixolog E. Erikson shaxs rivojini nechta davrga ajratadi ?**
a) 8 ta.
b) 4 ta
c) 5 ta

d) 2 ta

**16. Anketa usulidagi anketa tuzilishi jihatdan necha qismdan iborat bo'ladi ?**

**a)** 3 qismga

b) 2 qismga

**c)** 1 qismga

**d)** 5 qismga

**17. Appertseptsiya nima?**

a) Kishi idrokining oldin ijrok qilishdan hosil bo'lgan bilim va tajribalariga bog'liqligi.

b) Oldin idrok qilishdan hosil bo'lgan bilim va tajribalarning idrok qilishga salbiy ta'sir etishdir.

c) Oldin idrok qilishdan xosil bo'lgan bilim va tajribalarning idrok qilishga ijobiy etishdir.

d) Barcha javoblar to'g'ri.

**18. Ayollarning ertaroq qarishiga nima sabab bo'ladi ?**

a) Ayollarning tabiiy azobdan (tug'ish, bola tarbiyasi) tashqari xizmat, oila tashvishi, yumushi, mehr-muhabbatga otashligi, nozik qalbi tashqi qo'zgatuvchilarga tez javob beruvchanligi jihatdan ertaroq qarishga olib keladi

b) Ayollarning ertaroq qarishiga ko'proq sport bilan shug'ullanmasliklari sabab bo'ladi.

c) Ayollarning ertaroq qarishiga zaifa ekanligi sabab bo'ladi

d) Ayollarning ertaroq qarishiga ichimliklar ichishi sabab bo'ladi

**19. B.G.Ananev psixikani o'rganish metodlarini necha guruhga ajratgan ?**

a) 4 guruhga

b) 5 guruhga

c) 3 guruhga

d) 6 guruhga

**20. Berilgan ta'riflardan qaysi biri sezgining psixik jarayon tariqasida ilmiy xarakteristikaga kiritilmasligi mumkin ?**

a) Sezgi – bu tevarak atrofdagi narsa va xodisalarning simvoli.

b) Sezgi – bu bilish jarayonidir.

c) Sezgi – bu ob'ektiv olamning sub'ektiv obrazidir.

d) Sezgi – bu tashqi olamdagi narsalarning nusxasidir.

**21. Bilish jarayonlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang ?**

a) Sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur

b) Sezgi, idrok, iroda, hissiyot

c) Xotira, tafakkur, diqqat, xayol, qobiliyat

d) Kiziqish, idrok, iroda, hissiyot

**22. Birinchi turkum sezgilariga nimalar kiradi ?**

a) Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri tuyush.

b) Nerv sistemasi, ko'rish,

c) Ta'm bilish, harakat sezgilari.

d) Teri orqali sezish.

**23. Bola necha oylik bo'lganida kattalarning gapini tushuna boshlaydi ?**

a) Bola 8 oylik bo'lganida kattalarning gapini tushuna boshlaydi.

b) Bola 10 oylik bo'lganida kattalarning gapini tushuna boshlaydi.

c) Bola 4 oylik bo'lganida kattalarning gapini tushuna boshlaydi.

d) Bola 7 oylik bo'lganida kattalarning gapini tushuna boshlaydi.

**24. bola necha oylik bo'lganida yura boshlaydi ?**

a) Jismoniy jihatdan yaxshi o'sgan bola 9-10 oylik bo'lganida yura boshlaydi.

b) Jismoniy jihatdan yaxshi o'sgan bola 1 yosh bo'lganida yura boshlaydi.

c) Jismoniy jihatdan yaxshi o'sgan bola 1 yoshu 2 oylik bo'lganida yura boshlaydi.

d) Jismoniy jihatdan yaxshi o'sgan bola 6- 7 oylik bo'lganida yura boshlaydi.

**25. Bola necha oyligida asosiy ranglarni va eng oddiy shakldagi narsalarni farqlay boshlaydi ?**

a) 6 oylik bo'lganida bola asosiy ranglarni va eng oddiy shakldagi narsalarni farqlay boshlaydi

b) Bir yoshga to'lganida asosiy ranglarni va eng oddiy shakldagi narsalarni farqlay boshlaydi

c) 10 oylik bo'lganida bola asosiy ranglarni va eng oddiy shakldagi narsalarni farqlay boshlaydi

d) 1 yoshu 2 oylik bo'lganida bola asosiy ranglarni va eng oddiy shakldagi narsalarni farqlay boshlaydi

# Mundarija


**KIRISH**...........................................................................................................3

**I-MODUL:**

**RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASINING ASOSIY MUAMMOLARI**

Rivojlanish psixologiyasiga kirish…...........................................................................4

Rivojlanish psixologiyasini shakllanishi...................................................................15

Endogen va ekzogen yo’nalishlarida rivojlanish nazariyasi...................................33

Psixologik maktablarda rivojlanish nazariyalari....................................................38

**II-MODUL.**

**RIVOJLANISHNING YOSH BOSQICHLARINI PSIXOLOGIK TAHLILI**

Go’daklik davri...........................................................................................................44

Ilk bolalik davri.........................................................................................................52

Maktabgacha yosh davri...........................................................................................64

Kichik maktab yosh davri..........................................................................................74

O’smirlik davri...........................................................................................................84

O’spirinlik davri........................................................................................................94

Yoshlik davri.............................................................................................................110

Yetuklik davri...........................................................................................................129

Keksayish va keksalik……………………...........................................................134

**III-MODUL**

**PEDAGOGIK PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI**

Pedagogik psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.........................141

Ta’lim ijtimoiy madaniy fenomen...…..................................................................156

Ta’lim psixologiyasi………………………..........................................................163

Tarbiya psixologiyasi…………………………………………………………..180

O’qituvchi psixologiyasi………………………………………………………197

Asosiy adabiyotlar……………………………………………………………..202

Qo’shimcha adabiyotlar……………….……......................................................204

Glossariy…………………………...……………………………………………..204

## СОДЕРЖАНИЕ

## I-МОДУЛ

## ОСНОВНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИИ

Введение в психологию развития……………………………………………4

Формирование психологии развития ………………………………………15

Теория развития эндогенических и экзогенических направлений…………..33

Теории развития психологических школ……………………………………38

## II- МОДУЛ

**Психологический анализ развития возрастных этапов**

Период младенчества………………………………………………………..44

Период раннего и позднегодетства……………………………………...52

Период дошкольного возраста……………………………………………...64

Младший школьный возраст…………………………………………………74

Подростковый период………………………………………………………..84

Период раннего юношества…………………………………………………94

Молодость……………………………………………………………………110

Период зрелости……………………………………………………………129

Старение и старость…………………………………………………...…134

## III- МОДУЛ

**Актуальные проблемы педагогический психологии**

Предмет, цели и задачи педагогической психологии………………………..141

Образование - это социальный и культурный феномен……………………156

Психология образования……………………………………………………163

Психология воспитания……………………………………………………..180

Психология учителя…………………………………………………………197

Основная литература………………………………………………………202

Дополнительная  литература……………………………………………204

Глоссарий…………………………………………………………………….204